MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK ANJUMAN MATERIALLARI TO‘PLAMI

17-18-MAY
2024-YIL

doi

Google Scholar

1-QISM

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo miqyosida hududlar va hatto mintaqalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan bir-biriga integratsiyalashib borayotganligini kuzatib turibmiz. Bu jarayonda jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash ustuvor omilga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimiga yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tadbiq qilinishi va rivojlantirilishi davr talabidir. Hozirgi davr, ya’ni “Axborot asri” jamiatning har bir qatlamida axborot texnologiyalarini keng qo‘llash talabini qo‘yar ekan, mazkur yo‘nalishda chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan yosh kadrlarni tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida mediata’lim dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlar tomonidan o‘rganilmoqda. Mediata’limdan ko‘zlangan maqsad esa yosh avlod mediasavodxonligini shakllantirishdir. Shu boisdan ham nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda mediata’limning imkoniyatlari va raqamli OAV tushunchalarini ilmiy jihatdan yoritish va tadqiq qilish ko‘lamini aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan. Demak, aytish mumkinki, boshqa sohalar qatori aniq va ijtimoiy fanlar tizimida rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqot maqsadlari, usullari va natijalarini O‘zbekiston mediata’lim tizimiga tadbiq qilish kelajakda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda o‘z samarasini beradi. Bu borada zamonaviy innovatsion tadqiqotlar, ularning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari muhim ahamiyatga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu yo‘nalishdagi islohotlar samarasini yaxshilash, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha o‘z yechimini kutayotgan muammolar yuqori salohiyatli ilmiy maktablar o‘rtasidagi muhokamalar, munozaralar va ilmiy ma’ruzalar jarayonida o‘z yechimini topadi.

Anjumanda ilg‘or fundamental va amaliy tadqiqotlarning natijalari, mamlakatimizning intellektual nufuzini oshirish hamda izlanishlar natijasini tijoratlashtirish masalalari muhokama qilinadi.

Shu bilan birgalikda anjumanning asosiy maqsadlaridan biri, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy ta’minotlarini yaratishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va ularni murakkab tizimlarni boshqarishda hamda ta’lim va ilmiy tadqiqot jarayonlarida joriy qilishning ilmiy, uslubiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish, respublikamizda pedagogik kadrlar tayyorlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash istiqbollari hamda iqtisodiy sohalarida amalga oshirilgan islohotlarni yoritishdan iborat.

Anjumanning asosiy vazifasi, muhokama qilingan dolzarb muammolar va ularning yechimlari asosida O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ishlab chiqarish korxonalari muammolarini yechishga doir ilmiy asoslangan takliflar berish, ta’lim muassasalari va ilmiy tekshirish institutlarida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lib, sohada faoliyat ko‘rsatayotgan yosh olim, katta ilmiy-xodim-izlanuvchilar, magistrant va iqtidorli hamda iste’dodli talabalarga o‘zlarining tadqiqotlari natijalarini ilmiy

jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun ham yangi bir imkoniyat yaratadi deb hisoblaymiz.

Anjuman natijasida professor-o‘qituvchilar, talabalar, ilmiy xodim-izlanuvchi, mustaqil tadqiqotchi, tegishli sohalar olim va mutaxassislari o‘rtasida o‘zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik muhitini hamda o‘zaro fikr-mulohaza va tajriba almashishlari uchun sharoit yaratib beriladi, ularni fan-texnika taraqqiyoti yo‘lida birlashtiriladi. Shuningdek anjumanda mamlakatimizning intellektual nufuzini faol reklama qilish hamda izlanishlar natijasini tijoratlashtirish masalalari nazarda tutilgan.

Muxtasar qilib aytganda, yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlashda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, tajriba orttirish, zamonaviy ta’lim jarayonini rivojlantirish va yangi o‘qitish jarayonlarini soha muaammolariga bog‘lash bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish kabi jarayonlarni jadal amalga oshirish katta marralarga erishishimizga turtki bo‘ladi deb ishonamiz.

Shularni hisobga olib, turli iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion rivojlanish jarayonini va ilg‘or texnologiyalarni joriy etishning hozirgi holatini chuqur o‘rganish asosida uni yanada rivojlantirish yo‘nalishlari va imkoniyatlarini muhokama qilish, respublika iqtisodiy salohiyatini oshirish va innovatsion tadqiqotlar uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, sohalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqish hamda ushbu jarayonlarni rivojlantirishni davlatimiz tomonidan qo‘llab quvvatlashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur respublika ilmiy-amaliy anjumanning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mazkur anjumanda ishtirok etayotgan turli soha olimlari, hukumat idoralari vakillari, qishloq xo‘jaligi mutaxassislari asosiy e’tiborlarni iqtisodiyot tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalar samaradorligini oshirishning yuqorida aytib o‘tilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlariga qaratsalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi, deb o‘ylayman. Anjuman yakunida soha tarmoqlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish va ularni rivojlantirishning har bir yo‘nalishidagi muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilib, tegishli hukumat idoralari va tashkilotlariga taqdim etiladi, degan umiddaman.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universitetining Jizzax filiali direktori **O.Turakulov**

OLIY TA’LIMDA YUQORI SIFATNI TA’MINLASH XALQARO NUFUZGA ERISHISHNING YAGONA YECHIMI

p.f.d., prof. Turakulov Olim Xolbutayevich
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
olimxolbotaevich@gmail.com

Bugungi kunda hayotning barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Avvalo ta’kidlash joiz, ilm-fan taraqqiyotining har qanday yutug‘i insoniyat mushkulini oson qilishga, uning muammolarini qisman bo‘lsada hal etishga xizmat qilishi kerak. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta’minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilganidadir. O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi vaqt ichida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li asrlarga arzigulik samara va mazmun kasb etmoqda.

Bugungi kunda chinakam bilimli, ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun kurasha olishi lozim. Kelajak yosh avlodning yangicha, erkin, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, haqiqatni aytishdan cho‘chimaydigan, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etadigan, Vatanimizning ravnaqi va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, iqtidorli va xorijiy tillarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalashni taqozo qiladi.

Prezidentimiz boshchiligida “Yangi O‘zbekistonni” qurish uchun iqtisodiy, ta’lim, ilmiy-texnikaviy, axborot texnologiyalari va ijtimoiy-gumanitar sohalarda yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Oxirgi besh yil davomida mamlakatimiz rivojlanishi va taraqqiyoti butkul yangi bosqichga qadam qo‘ydi, hayot jarayonlari tezlashdi. Jumladan, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni

sohada yangi islohotlarni amalga oshirish uchun debocha vazifasini bajardi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Globallashgan va axborotlashgan jamiyatga o‘tish davrida dunyo har kuni yangi va chigal muammolar bilan boyib bormoqda va biz ularga munosib javob bera olishimiz uchun istiqbolimizni belgilab beruvchi, aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan strategiyaga ega bo‘lmog‘imiz zarur bo‘ladi. Ushbu strategiya istiqbolli ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarining zamonaviy tendensiyalariga mos kelishi, filialning o‘quv-ilmiy faoliyatini kuchaytirish orqali global va hududiy muammolarni yechish uchun inson kapitalini rivojlantirishda salmoqli natijalarga erishish va istiqbolda xalqaro e’tirofga hamda integratsiyalashuvimizga imkon berishi zarur bo‘ladi. Biz o‘z oldimizga, ilmiy-tadqiqotlarimizni va professor-o‘qituvchilarimizning kompetensiyalarini yangi bosqichga olib chiqa oladigan yetakchi xorijiy olimlarni jalb qilish bo‘yicha yuksak maqsadlarni qo‘ydik. Istiqbolda ko‘p tilli masofaviy kurslarni, yalpi ochiq onlayn kurslarini (Massive open online course) ochishni rejalashtirmoqdamiz. Xorijiy tillarda yangi, noyob fanlararo dasturlarni yaratish, raqamli texnologiyalar sohasida xalqaro darajadagi ilg‘or ilmiy-tadqiqot labloratoriyalarini ochish, yosh olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan jalqaro darajadagi doktorlik maktabini (Doctoral School) yaratishni maqsad qilganimz. Bular oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga erishishimizni, Yangi O‘zbekistonning zamonaviy jamiyati rivojiga munosib hissa qo‘shishimizni ta’milovchi yo‘l xaritamizning faqatgina bir qismi xolos. Yuqoridagi missiyadan kelib chiqqan holda strategik maqsad istiqboldagi rivojlanishning 2030 yilgacha bo‘lgan davrida filialni ijtimoiy, iqtisodiy va AKT sohasidagi zamonaviy ko‘p tarmoqli o‘quv, ilmiy, ekspert, maslahat kompleksiga aylantirish orqali O‘zbekistonning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri sifatida mamlakat va jamiyat farovonligiga xizmat qilishdir.

Xalqimizda “Bugungi ishni ertaga qo‘yma” degan purma’no naql bor va u bugungi kunda oliy ta’lim tizimida mavjud muammolarni tezkor sur’atlar bilan kechiktirmasdan barataraf etish zarurligining naqadar dolzarb ekanligini anglatadi. Ushbu sohada mehnat qilayotgan va o‘zini shu xalqning ziyoli bir farzandiman degan har bir professor-o‘qituvchi bu ishdan chetda turishga haqli emas. Negaki biz Yangi O‘zbekistonning kelajagini yaratish uchun eng mas’ul bo‘lgan kishilarmiz. Masalaga shu nuqtai nazardan yondoshgan holda yuqorida ta’kidlab o‘tilgan vazifalarni bajarish uchun harakatlarimizni bugundan boshladik va bir muncha natijalarga erishdik desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz o‘zimizning rivojlanish dasturimizda fan va ta’lim xizmatlari bozori talablariga doimiy ravishda moslashish, filialning intellektual mahsulotlarini tijoratlashtirish, asosiy faoliyatimizni raqamlashtirish, ko‘rsatayotgan xizmatlarimizning sifatini uzluksiz yaxshilash orqali filialda boshqaruv tizimini yaratishni ko‘zda tutuvchi raqamli ishbilarmon universitet modelidan andoza olgan holda harakat qilamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlar inson resurslarini rivojlantirishga bog‘liq bo‘lib, ilm-fan, innovatsiyalar va ularni hayotga tadbiq qilish yurtimiz kelajagini belgilab beradi. Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lidagi ushbu harakatlar 2030 yilga borib jamiyat, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar

sohasida milliy darajadagi kompetensiyalar markaziga aylanishga, O‘zbekistonning global raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun davlat hokimiyati organlarini, davlat kompaniyalarini va korporatsiyalarini, budjet tarmog‘i tashkilotlari va jamoat institutlarini yuqori malakali kadrlar, tadqiqotlar, loyihaviy va analitik ishlanmalar bilan ta’minlovchi flagmen universitetlar darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan. Kelgusida yurtimiz taraqqiyoti yo‘lida ta’limning innovatsion yo‘lini tanlab, yurtimiz va xorijning ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish orqali yetuk, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash yo‘lidan boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Blinder, A. S. (2006). What Do Economists Know? [And What Do They Not Know?] The Journal of Economic Perspectives, 20(4), 3-26.

2. Colander, D. C. (2005). The Making of an Economist Redux. Journal of Economic Perspectives, 19(1), 175-198.

3. Krugman, P. (1991). Geography and Trade. MIT Press Books.

4. Mankiw, N. G., Romer, D., & Weil, D. N. (1992). A contribution to the empirics of economic growth. The Quarterly Journal of Economics, 107(2), 407-437.

Stiglitz, J. E., Sen, A., & Fitoussi, J. P. (2009). Report by the commission on the measurement of economic performance and social progress.

TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

p.f.d., prof. Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirish orqali o‘quv-tarbiya jarayonida ijodkor, yuqori malakali kasb egasi bo‘lishiga, ular tayyor bilimlarni qabul qilib oluvchi emas, balki bilim olishi, faollashishiga, mas’uliyat hissining oshishiga, o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishiga alohida e’tibor berish, bo‘lajak ijodkor pedagogning rivojlanishiga zamin yaratish masalasi talqin qilingan.

Tayanch so‘zlar: talaba, ta’lim, ijodkorlik, qobiliyat, rivojlantirish, zaruriyat, ehtiyoj, motivatsiya, e’tibor.

Butun dunyoda bo‘lgani singari yurtimizda ham ta’lim maqsadlari sohasida kechayotgan o‘zgarishlar, insonning ijtimoiy olamga kirishini ta’minlashga qaratilgan global masalalarga mos keladi. Xususan, ta’lim tizimini takomillashtirish hujjatlarida ijodkorlik sifatlari ta’lim mazmunini yangilashning muhim bir konseptual holati deya e’tirof etilmoqda. Ta’lim tizimida ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish uchun real hayotda va kasbiy amaliyotda asosiy kompetentligini qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘ladigan kasb ta’limi yo‘nalishlari kadrlarini tayyorlash zarur vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda samarali ta’lim tizimini joriy etishga qaratilgan tub islohotlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilar ijodkorligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida o‘qituvchilar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish juda muhim jarayon hisoblanadi. Bu borada Davlat ta’lim standartlarida qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning metodlari hamda texnologiyalarini ishlab chiqishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda insonning ijodkorlik faoliyati, ijodiy fikrlashining asosiy unsurlari shakllanishi darajasi katta ta’sir ko‘rsatadi va o‘qituvchilik faoliyatining sermahsulligini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodkorligini rivojlantirishning amaldagi metodikasi va o‘quv-uslubiy ta’minotini ilg‘or yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda o‘zlashtirish natijalari mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning ijodiy iste’dodlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratish lozim. O‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning tashabbuslari, innovatsion g‘oya va fikrlarini, iste’dod va iqtidorini o‘z vaqtida ko‘ra olish va uni ro‘yobga chiqarish uchun ko‘maklashishdan iboratdir. Yoshlardan ijodkorlik qobiliyati va boshqaruv mahoratini rivojlantirish orqali yuksak ma’naviyatli etakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakat taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo‘naltirish talab etiladi. Bugungi kunda bo‘lajak pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilayotgan ekan, uning bilimdonligi qay darajada ekanligini tahlil qilish o‘ta muhim sanaladi. Bunda albatga bo‘lajak pedagogning kasbiy bilimdonligi va kompetentligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik ko‘rishni, eruditsiyani, qobiliyatlarni talab qiluvchi ijodiy jarayon hisoblanadi. Ijodiy faoliyat – insonning uzoq faoliyati asosi, barcha moddiy va ma’naviy boyliklari manbaidir.

Avvalo, ijodkorlik deganda qo‘lga kiritilgan yutuqlar tushuniladi. Ijodkorlik insonning shunday faoliyatiki, unda o‘ziga xos yangi qadriyatlar yaratiladi, qilingan ijodiy jarayonning natijasi, mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni bunda biror yangilik yaratiladi, yaratilgan yangilik orqali esa o‘quvchi qobiliyati o‘sadi, o‘z shaxsiy fikrini bayon etib, u faollashadi. O‘quvchi faollashdimi, demak u mustaqil fikr yuritadi, mantiqiy fikrlash orqali mustaqil tasavvurga ega bo‘ladi.

Olimlar M.Ochilov, N.Muslimov, B.Ziyomuhammedovlarning ijodkorlik masalasida turli qarashlari mavjud. Masalan, M. Ochilov “Muallim qalb me’mori” kitobida:

– pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;

– umuminsoniy va milliy madaniyatni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, ma’naviy barkamol;

– O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini anglagan, e’tiqodli fuqaro;

– ixtisosga doir bilimlarni, shuningdek psixologik-pedagogik bilim- va mahoratni mukammal egallagan;

– o‘qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko‘radigan, insonparvar, talabchan, adolatli, pedagogik odobli;

– erkin va ijodiy fikrlay oladigan, o‘quvchilarni ulg‘ayib yaxshi odam bo‘lishiga ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ko‘maklashadigan kishi bo‘lmog‘i kerak – deb ta’kidlaydi.

Taniqli olim N.A.Muslimovning e’tirof etishicha pedagogik ijodkorlikni quyidagicha darajalarga bo‘lish mumkin:

● ijodkorlikning birinchi darajasi auditoriyadagi talabalar bilan o‘zaro elementar aloqalar va muloqotni o‘rnata olish. Bunda pedagog talabalar bilan qayta aloqa o‘rnatadi, o‘zining ta’sirini o‘tkazish asosida pirovard natijani ta’minlaydi, “o‘rgangan metodikasi, o‘rgangan va orttirgan” tajribasi asosida ish yuritadi.

● Ijodkorlikning ikkinchi darajasi mashg‘ulotlarda o‘z faoliyatini optimallash, rivojlantirishdan boshlanadi. bunda u o‘ziga ma’lum bo‘lgan mazmun, metod, shakllarni ustalik bilan tanlaydi va yangi maqsad sari intiladi.

● Ijodkorlikning uchinchi darajasi – evristik yondashuv o‘qituvchi ijodiy, jonli muloqot asosida talabalar bilan samimiy muloqot qilish uchun muhit yaratadi.

● Ijodkorlikning to‘rtinchi darajasi – bu pedagogning yuqori darajada to‘liq mustaqil ijodiy muhitda ish yuritishi bilan xarakterlanadi.

Ijodkorlikning bir qator sifatlari mavjud:

– fikrning teranligi;
– yangilikni his etish;
– ijodiy tasavvurga egalik;
– intuitsiya;
– har bir voqea va hodisaning analogini bilish;
– mantiqiy qat’iyatlilik;
– o‘z-o‘ziga tanqidiy qarash;
– muhokama yuritishda mustaqillik;
– go‘zallikni estetik his etish;
– hozirjavoblik;
– har xil shakllarda o‘z fikr-mulohazasini isbotlay olish;
– tasodiflarga qiziqish bilan qarash;
– shubha bilan qarashga moyilligi.

Bular ijodiy faoliyat yuritish va uning qo‘llanishiga asos bo‘la oladi. Shu sababli ham

barcha uchun ma’lum bo‘lgan ko‘rinishli quyidagi ijodkorlik yo‘nalishlari mavjud:

– ilmiy ijodkorlik;
– texnik ijodkorlik;
– adabiy ijodkorlik;
– musiqiy ijodkorlik;
– badiiy ijodkorlik;
– o‘quv ijodkorligi;
– harbiy ijodkorlik;
– o‘yin ijodkorligi;
– kommunikativ ijodkorlik;

– boshqaruv ijodkorligiva boshqalar.

Haqiqiy ijodkorlik talabalar bilan hamkorlik, ham ijodkorlikda vujudga keladi.

Bu holat to‘rt ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

Birinchi holat. O‘qituvchi o‘z ijodiy faoliyatini talaba bilan bevosita bog‘lamaydi. U o‘zi ijodiy fikr yuritadi, ijodkorlikda bir o‘zi ishtirok etadi. Bu holatda pedagog – ibrat ko‘rsatuvchi.

Ikkinchi holat. Pedagog o‘z ijodkorlik faoliyatini auditoriyadagi jarayon bilan bog‘laydi. U ijodiy jarayonni boshqaradi va yo‘llaydi. Bu holatda pedagog “dirijyor” ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi holat. Pedagog ayrim talabalarni o‘ziga xos faoliyatlariga e’tiborini qaratadi. Bu holatda pedagog “ko‘zgu” ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchi holat. Bunda o‘qituvchi mashg‘ulotning umumkonsepsiyasini yaratadi, ya’ni ayrim talabalarning o‘ziga xos tomonlari, ularni o‘z fikrlarini erkin bayon qilishga va indvidual, hamkor ham ijodkorlikda ish yuritadilar. Bu holatda pedagog “rejissyor” ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogikada innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash hisoblanadi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi shartlar bajariladi:

1. Kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishning mohiyati, mazmuni, pedagogik faoliyatning individual uslublarini bilish, xususan, ularning harakatlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga erishish.2. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishda kasbiy-pedagogik faoliyatga ekologik nuqtai nazar.

3. Reproduktiv, izlanuvchi yoki ijodiy darajada oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan imkoniyatlardan foydalanish.

4. Jamoaviy faoliyat jarayonida ijtimoiy malakani rivojlantirish (kasbiy faoliyatni modellashtirish modellari).

5. Ta’lim jarayoni loyihasini mantiqiy jihatdan chiroyli tarzda yaratishga bo‘lgan ehtiyoj va qobiliyat.

6. Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetenetligini rivojlantirish faoliyatini egallashga qaratilgan maqsadi.

7. Pedagogik ta’lim mazmuniga oid (umumiy kasbiy bo‘linma) ta’lim jarayoni kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligining tabiati, tamoyillari va tartibi haqida ma’lumot.

8. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan talabalarni o‘qitish texnologiyasi.

9. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetenetligini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning noan’anaviy shakli.

10. Natijalarning nazorati – bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari tomonidan o‘quv jarayonida kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentligini rivojlantirish qobiliyatini aniqlash va baholash.

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisi tomonidan kasbiy-pedagogik ijodkorlik kompetentliklarini rivojlantirish faoliyati muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun

psixologik va pedagogik shartlar asosida didaktik jarayon tashkil etilishi bo‘lajak mutaxassislarning etuk, jahon talablariga javob beradigan tarzda tayyorlanishiga zamin tayyorlaydi.

Ta’lim jarayonida talabaning faollashiga, mas’uliyat hissining oshishiga, o‘quv jarayonining ishtirokchisiga, mustaqil ta’lim ola bilish ko‘nikmasini shakllantirishga alohida e’tibor berish, bo‘lg‘usi ijodkor pedagogning shakllanishiga zamin yaratiladi. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari o‘z bilim ko‘nikma malakalarini oshirishni muntazam ravishda ijodkorlik izlanishlari shaklida tashkil etishi va ma’lum maqsadga yo‘naltirishi zarur. Bunda:

– ijodkorlik sifatlarini o‘zlarida shakllantirishlari;

– ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo‘lishi;

– ijodkorlik bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lishini esda tutishi lozim.

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari bir vaqtning o‘zida ham individ, ham ijodkor, ham shaxs shu bilan birga sub’ektdir. Bu to‘rt ko‘rsatgich birdek uzluksiz taraqqiy etishi, shakllanishi va uzluksizlikda takomillashib borishini ta’minlash lozim. Bunday holat tizimli yondashuv asosida bo‘lg‘usi o‘qituvchini pedagog sifatida maxsus g‘oyaviy hamda ijtimoiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan individual yetuk shaxs bo‘lib shakllanishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, yuqori salohiyatli, raqobatbardosh o‘qituvchilarning yangi avlodini tayyorlashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi / Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013. 41-bet.

2. Ochilov M. Muallim - qalb me’mori. – Toshkent «O‘qituvchi» 2001 y. 281-b.

3. Qo‘ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni

tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. T.:“Fan”, 2009. - 92b.

4. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss. ... ped. fan. nom. – T.: 2000. – 186 b.

5. Kuysinov O.A. Developing Professional-Pedagogical Creativity of Future Professional Education

Teachers based on Competencial Approach // Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. №4. – R.257-263. (13.00.00; №1).

TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA STRATEGIYALARINING O‘ZIGA XOSLIGI

f.f.f.d (PhD), dots. Alibekov Davron Abdurakibovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
alibekovdavron252@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonining ahamiyati, ta’limni rivojlantirish tendensiyalar, funksiyalari va strategiyalari hamda ta’limni tashkiliy normalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, ijtimoiy, rivojlanish, texnologiya, modernizatsiya, sivilizatsiya, tendensiya, strategiya, tamoyil, kategoriya, taraqqiyot, norma, funksiya.

Ta’lim-tarbiya jarayoni turli davrlarda va turli jamiyatlarda o‘z xususiyatini o‘zgartirib, makon va zamon nuqtai nazari bilan takomillashib boradi. Ijtimoiy hayotning talablari, unda yashaydigan insonlarning ehtiyoji bilan ta’lim nazariyasi va amaliyotida o‘ziga xos rivojlanish tendensiyalari kuzatiladiki, bu tabiat va jamiyatning evolyusion tadrijiy o‘zgarishlari bilan hamohang ravishda olib boriladi. Har bir tarixiy davrda ta’lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, xususiyatlari va uslublarida o‘sha davr uchun xos bo‘lgan yangilanishlar va modernizatsiya kuzatiladi. Shu mazmunda ta’limning ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib, uni ijtimoiy kategoriya sifatida o‘rganamiz.

Ta’lim tizimida mavjud muammolar, uning zamonaviy ko‘rinishi va istiqboli, ijtimoiy hayotdagi maqomi hozirgi jamiyat uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, mazkur muammo axborotlashgan jamiyat, texnogen sivilizatsiya, raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borayotgan davrida o‘ta dolzarbdir. Ijtimoiy hayot va taraqiyot qonuniyatlari ta’lim mazmuni va mohiyatida birmuncha o‘zgarishlar yuz berishi lozimligini taqoza etmoqda. Ta’limning zamonaviy bosqichdagi tizimining ijtimoiy-falsafiy mazmuni uning innovatsion rivojlanish orqali yangicha mohiyat kasb etishi muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim o‘ziga xos me’yorlar, qoidalar va xususiyatlarni o‘zida jamlagan tizim hisoblanadi. Mazkur tizim o‘zining mukammalligi, maqsadga yo‘naltirilganligi, natijaviyligi va samaradorligi bilan jamiyatda o‘ziga xos muhim qadriyat hisoblanadi. Olimlarning fikricha, ta’lim tizimi “O‘ziga xos me’yorlar va maqomlarni o‘z ichiga olgan tizim; urf-odatlar, an’ana va odob-axloq qoidalari to‘plami; rasmiy va norasmiy tashkilotlar; ijtimoiy munosabatlarining muayyan sohasini tartibga soluvchi me’yorlar va tuzilmalar to‘plami; alohida ijtimoiy hatti-harakatlar yig‘indisi”.

Falsafiy lug‘atda ta’lim-tarbiyaning ijtimoiy tabiati haqida quyidagicha ta’kidlangan: “Ta’lim-tarbiya turli ijtimoiy institutlar (oila, maktab, kasbiy-texnik, o‘rta maxsus, oliy o‘quv yurtlari) orqali shaxs qobiliyatini shakllantirishning asosiy vositasidir. Ta’lim jarayonida insonlar bilim oladilar va bu o‘z navbatida ularning dunyoqarashini kengaytiradi, ularga atrof-muhitga moslashtiradi, turli ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishini ta’minlaydi. Umumiy ta’lim insonni har qanday ish faoliyatda, maxsus ta’lim esa, ma’lum faoliyat turi yo‘nalishida qobiliyatini shakllantiradi”.

Ta’lim jarayoni, uning tendensiyalari, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi ijtimoiy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ta’lim jarayoni – bu bir butun pedagogik jarayonlar, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘langan va mohiyatan bir-birini to‘ldirib boradigan xususiyatlarni o‘z ichiga olib, ta’lim mazmunini bugungi kuni va istiqbolini belgilab beradigan tashkiliy normalarni o‘zida mujassam etadi.

2. Ta’lim jarayoni ijtimoiy hayot, atrof-muhit, tabiat va jamiyat bilan doimiy o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, shuningdek, ular o‘rtasidagi umumiy munosabatlarni mohiyati va birligini ta’minlash uchun o‘z imkoniyatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy makon va ochiq tizimdir.

3. Ta’lim tizimi inson taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan kompleks xususiyatlarni o‘z ichiga olib, inson takomilining tabiat va jamiyat bilan bog‘liq jihatlarini umumiy falsafiy qonuniyatlarini asosida faol va doimiy harakatdagi ijtimoiy voqelikdir.

4. Ta’lim jarayoni ijtimoiy yo‘naltirilgan maqsadlarga mo‘ljallangan vazifalarni bajarib, pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro shartnomaga asoslangan ta’limiy munosabatlardir.

5. Ta’lim tizimi jamiyatda muhim ijtimoiy vazifa, ya’ni inson manfaatlari, uning kelajagi va istiqbolini ta’minlash, yosh avlodni barkamol, zamonaviy taraqqiyotga innovatsion bilimlari bilan kirib keladigan, natijada farovon hayot qurishga qaratilgan qadriyatlarni ro‘yobga chiqaruvchi ijtimoiy makondir.

6. Ta’lim tizimi yoshlarni umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, milliy va jahon madaniyatining durdonalaridan bahramand qiladi, insonlar o‘rtasida o‘zaro barqaror ma’naviy aloqalarni ta’minlaydi, insonni ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar ta’lim berish tamoyilini o‘zida mujassam etadi.

Ta’limning boshqaruv va tashkiliy usullari, maktab yoki boshqa formadagi o‘quv muassasalari amaliyoti, ta’lim-tarbiya mazmunini izohlashga turlicha yondoshuvlar har bir davrda boshqacha bo‘lib, birmuncha asosda davr xususiyatlaridan kelib chiqqan. Olimlarning ta’kidlashicha, “Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o‘ta qat’iy hamda murakkab talablar qo‘yilmoqda”.

Ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra umuminsoniy xususiyat kasb etadi. Ta’lim tizimi birinchidan, har qanday jamiyatda yangi avlodni zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishi, ikkinchidan, jamiyatda inson takomilini ta’minlash, uning har qanday qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, imkoniyatlarini to‘la ishga solish bilan bog‘liq masalalarni hal etishi lozim. Lekin bugungi kunda ko‘pgina davlatlarda ta’limning zamonaviy tarzda jadallashuvi, vertual, texnokratik va texnologik ko‘rinishlarga ega bo‘lib borishi oqibatida uning bir tomonlamalik xususiyati kuchayib, ijtimoiy dunyoqarash va ma’naviy borliq bilan bog‘liq tendensiyalari pasayib bormoqda.

Demak, ta’lim tizimini ma’naviy-ma’rifiy tarbiya borasidagi funksiyasi va xususiyatlari har qanday jamiyatda ijtimoiy hayot barqarorligini va jamiyat istiqbolini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etish joiz. Mazkur vazifa ta’lim tizimiga o‘zgacha joziba bag‘ishlaydi, chunki bu jarayon inson ma’naviy takomilining

asosiy o‘zagi, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Olimlarning ta’kidlashicha, “Kishilarning bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiyaga ham ma’rifat deb qaraladi. Bu so‘z ilmu urfon ma’nolarida ham ishlatiladi. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak, ma’rifat – bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish quroli, vositasidir”.

Ta’lim jamiyatda asosan ijtimoiy vazifani bajarib, u jamiyatning ustivor, hayot-mamot va strategik yunalishlaridan kelib chiqqan holda o‘zining maqsadlarini belgilaydi. Bunda:

1. Ijtimoiy rivojlanishda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan talab va ehtiyojlar hisobga olinadi.

2. Jamiyat strategik taraqqiyoti uchun konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar yuzasidan bir necha o‘n yil oldingi maqsadlar ta’lim tizimi oldiga qo‘yiladi.

3. Davlat qonunchilik asoslaridlan kelib chiqib, ta’lim tizimi va uning infratuzilmalari rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, moliyaviy imkoniyatlar yaratib beriladi.

4. Ta’lim tizimi rivojlanish istiqbollari globallashuv jarayoni, zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan, madaniyat sohasidagi yutuklar va yangilanishlar bilan birgalikda belgilanadi.

5. Bugungi zamonaviy yoshlarning dunyoqarashi, intilishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta’lim-tarbiyada tegishli vazifalar belgilanadi.

Demak ta’lim tendensiyalari va strategiyalari – insonlarning ijtimoiy hayot bilan bevosita bog‘liq ong va tafakkur tizimini rivojlantirib, tarixiy va falsafiy dunyoqarash, siyosiy va huquqiy madaniyat, diniy, axloqiy, estetik, kasbiy va boshqa tamoyillarni muayyan chora-tadbirlar asosida maqsadli va istiqbolli shakllantirish jarayoni hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Добреньков В., Кравченко А. Социология. – Москва, 2000. – Т. 3. – Б. 137-138.

2. Блауберг И. Пантин И. Краткий словарь по философии. –Москва, Политиздат, 1979. -С. 45-46

3. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технолгияларнинг тадбиқий асослари. -Тошкент, Фан, 2006. –Б.6.

4. Иброҳимов А. ва бошқ. Ватан туйғуси. –Тошкент, Ўзбекистон, 1996. – Б.113.

5. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6

6. Alibekov, D. (2021). SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYa SISTEMY OBRAZOVANIYa. *Jurnal muzыki i iskusstva*, *2*(2).

7. Farsakhanova, Dilafruz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnых Publikatsiy JSPI* (2020).

IQTISODCHI KADRLARNING KOMPETENTLIGINI OSHIRISHNING USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

p.f.d., prof. Turakulov Olim Xolbutayevich,
Najmiddinov Dilshod Rafiddin o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
najmiddinov@jbnuu.uz

Annotatsiya. Iqtisodchi kadrlarning kompetentligini oshirish har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Bu bosqichda o‘quv dasturlarini yangilash, amaliyotga yo‘naltirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning katta ahamiyati mavjud. Iqtisodchi kadrlarining ilmiy va amaliy bilimlari rivojlanishi va yangilashining yo‘li, o‘quv dasturlarini yangilash orqali amalga oshirilishi mumkin. O‘quv dasturlarining yangilanishi esa, zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalardan foydalangan holda kadrlarni yanada ko‘proq kompetentlik bilan tayyorlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Kompetentlik, mentor, innovatsion qobiliyat, innovatsion g‘oya, kommunikatsiya qobiliyati.

Kirish

Iqtisodchi kadrlarning kompetentligini oshirish borasida so‘z borar ekan bu borada shu kungacha o‘tkazilgan tadqiqotlardan xulosa chiqargan holsa quyidagi keltiriladigan takliflarni berish mumkin. Birinchidan, o‘quv dasturlarini yangilash, iqtisodchi kadrlarning kompetentligini oshirishning eng muhim bosqichidir. Hozirgi zamon iqtisodiyoti uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalangan holda o‘quv dasturlari yanada zamonaviy va muvofiq hollarda tuzilishi va yangilanishi lozim. Yangi iqtisodiyotning o‘zgaruvchanligini qondirishga hamda kadrlarni yangi vazifalarga yetaklashga moslashtirishga xizmat qiladigan dasturlar tayyorlanishi hamda mustahkamlanishi kerak. Bundan tashqari bir necha faktorlar borki iqtisodchi kadrlarning kompetentligini oshirishga xizmat qiladi.

Metodlar.

Amaliyotga yo‘naltirish, iqtisodchi kadrlarning kompetentligini oshirish uchun o‘quvchilarga o‘z bilimlarini amaliyotda kengaytirish imkoniyatini beradi. Iqtisodchi kadrlar uchun amaliyot tajriba olganish va o‘rganish muhimdir, chunki teorik bilimlar amalga oshirilmasa, ish joyida amaliyotda qiyinlanish yuz berishi mumkin. Amaliyotga yo‘naltirish jarayonida iqtisodchi kadrlar, real kasblarni o‘rganish, tajribalar olish va tushunchalarini amaliyotga ishlatish imkoniyatiga egallashadi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, iqtisodchi kadrlarning kompetentligini oshirish uchun o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib keladi. Xalqaro hamkorlik, iqtisodiyotni o‘zaro boyitish, bilim va tajribani almashadigan holda oshirish uchun zarurdir. Iqtisodchi kadrlarni xalqaro hamkorlik oylik tadbirlarida ishtirok etishga yo‘naltirish va ularga xalqaro komandanlik va tajriba olish imkoniyatini berish yordam beradi[1]. Shuningdek, xalqaro o‘quvchilar almashishuvi yoshlarni yangi mamlakatlarda o‘qishga yo‘naltirish uchun muhim imkoniyat yaratadi va kadrlarning xalqaro tajribaga ega bo‘lishini ta'minlaydi.

Iqtisodchi kadrlarning tajribasini oshirish asosiy maqsadlidir. Bu maqsadga erishish uchun turli usullar mavjud bo‘lib, ularni qo‘llashdan foydalanish uchun eng muhim bo‘lgan bir nechta tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, Iqtisodchi kadrlarni tajribali mentorlarni qo‘llash, tajribali tashkilotlarda ishlashga yo‘naltirish, xalqaro tajribani oshirish uchun tadbirlarni tashkil etish va Iqtisodchi kadrlarga tajribali mentorlar bilan hamkorlik qilish muhim usullar hisoblanadi.

Iqtisodiyot sohasida tajribali mentorlarni qo‘llash, Iqtisodchi kadrlarning tajribasini oshirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayonlardan biridir. Tajribali mentorlar, o‘z sohasida egalarining bilim va tajribalarini qo‘llab-quvvatlaydigan kishi bo‘lib, kadrlarga yordam berish va ularning professional rivojlanishiga yordam berishda muhim rol o‘ynaydi.

Iqtisodchi kadrlarni tajribali tashkilotlarda ishlashga yo‘naltirish ham kadrlarning tajribasini oshirishning muhim qismlaridan biridir. Tashkilotlar, kadrlarni turli sohalarda ishlash va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etish bilan ularga amaliyotga yo‘naltirish, yangi bilim va ko‘nikmalar olishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga va ularning professional o‘sishi va rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlarni taqdim etishga erishadi.

Iqtisodchi kadrlarning tajribasini oshirishning muhim yo‘nalishlari orasida xalqaro tajribani oshirish uchun tadbirlarni tashkil etish ham katta ahamiyatga ega[2]. Bu tadbirlar orqali, iqtisodiylar tajribali tajribani dunyoning boshqa mamlakatlari bilan almashish va ularga yondashish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Xalqaro tajribani oshirish, iqtisodchi kadrlarning global tajriba va bilimlarga ega bo‘lishiga yordam beradi va ularni dunyoda qatnashish va rivojlanishga tayyorlaydi.

Iqtisodchi kadrlarga tajribali mentorlar bilan hamkorlik qilish ham kadrlarning tajribasini oshirishning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi[3]. Tajribali mentorlar, kadrlarga o‘zlarining tajribalarini ulashish, maslahat berish va boshqalar bilan hamkorlik qilish va ularni ularning kengaytirilishi, xususiy rivojlanish va rivojlanishining boshqalarga bilan taqqoslashlari uchun yo‘l qo‘yishda yordam berishadi.

Natijalar.

Tadqiqot natijasida ma’lum bo’ladiki iqtisodchi kadrlarning kompetentligini oshirishda bir necha faktorlarga tayanish talab etiladi. Jumladan, iqtisodchi kadrlarning innovatsion qobiliyatini rivojlantirish sohasida amaliyotga yo‘naltirishning muhim ahamiyati mavjud. Bu jarayon innovatsiongina g‘oyalarni rag‘batlantirish, yangi texnologiyalarni o‘rgatish va ulardan foydalanishni oshirish, hamda innovatsion proyektlarni o‘zlashtirish va boshqarishni o‘z ichiga oladi. Innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish uchun iqtisodchi kadrlarga yangi ideyalar va yaratuvchanlik ruhiyatini oshirish kerak. Yangi texnologiyalarni o‘rgatish va ulardan foydalanishni oshirish esa kadrlarni so‘nggi xalqaro innovatsiyalardan ma'lumot olish va ularni amaliyotga tatbiq qilishda o‘rgatadi[4]. Innovatsion proyektlarni o‘zlashtirish va boshqarish esa iqtisodchi kadrlarga dastlabki tushunchalar bilan tanishish, loyihalarni tayyorlash, va rivojlanayotgan jarayonlarni boshqarish ko‘nikmalarini oshirishni talab qiladi.

Iqtisodchi kadrlarning innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirishu innovatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim qismi hisoblanadi. Innovatsion g‘oyalarni rag‘batlantirish uchun iqtisodchi kadrlar bilan yangi, yaratuvchan ideyalarni amalga

oshirish va ularni ijroga keltirishning yo‘li ko‘rsatiladi. Bu, kadrlarga yaratuvchanlik va ishga tushish ruhiyatini oshirish, iqtisodiyot bo‘yicha o‘zlarini rivojlantirish va yangi fikrlar bilan tomosha qilish imkonini beradi.

Iqtisodchi kadrlarning innovatsion qobiliyatini rivojlantirishning bir qismi yangi texnologiyalarni o‘rgatish va ulardan foydalanishni oshirishdir. Bu, kadrlarga so‘nggi xalqaro innovatsiyalardan ma'lumot olish va ularni amaliyotga tatbiq qilishda yordam beradi. Texnologik rivojlanishning temir ofari qismi ekanligi sababli, iqtisodchi kadrlarning texnologik bilimlarga ega bo‘lishi va ularni tashkil etilgan texnologik imkoniyatlardan foizga olishi muhimdir.

Iqtisodchi kadrlarning innovatsion qobiliyatini rivojlantirish jarayonida innovatsion proyektlarni o‘zlashtirish va boshqarish katta ahamiyatga ega[5]. Bu qadamda kadrlar tashabbuskorlik, o‘sish, butunlaylilik, tahlil va tasniflash, rivojlanish va boshqarish ko‘nikmalarini oshirishlari talab etiladi. Innovatsion proyektlarni o‘zlashtirish uchun iqtisodchi kadrlar dastlabki tushunchalar bilan tanishib chiqish, yangi loyihalarni tayyorlash, loyihalarni nizomga solish, resurslarni berish va jarayonlarni boshqarishni o‘rganishlari kerak.

Iqtisodchi kadrlar uchun kommunikatsiya ko‘nikmalari o‘rganish va rivojlantirish uluslararasida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun kritik muhimdir. Ijtimoiy tarmoqlarda tajriba olish va o‘z fikrlarini ifodalash bu kompetensiyalariga ko‘rsatish imkonini beradi. Bu usul orqali, iqtisodchi kadrlar savollarini va maslahatlarini tahlil qilish, o‘z tajribalarini boshqa so‘rovnoma egalariga ulashish va fikrlarini o‘zgartirishlarga ruxsat beradigan professional aloqalar qurishlari mumkin bo‘ladi.

Iqtisodchi kadrlarning ijtimoiy tarmoqlarda tajriba olishi va o‘z fikrlarini ifoda qilish, ularning profesionalligini oshirishning asosiy usullaridan biridir. Ijtimoiy tarmoqlar orqali iqtisodiy masalalar, yangiliklar va mavzular haqida xabar olish, ularga javob berish va muomala qilish imkonini beradi. Bu yordamida, iqtisodchi kadrlar o‘z fikrlarini ifodalay oladilar, diskussiyalardan foydalanish va bog‘liq so‘zlashish mutaxassisligini rivojlantirishlari mumkin bo‘ladi.

Iqtisodchi kadrlar qo‘shimcha tillar bilan ishlashni o‘rganish bilan ham, global muhitda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun kritik muhimiyatga ega bo‘ladi. Qo‘shimcha tillarni o‘rganish iqtisodchi kadrlarga sifatli kommunikatsiya qobiliyatini oshirish, xalqaro hamkorliklarda qatnashish va turli sohalar bo‘ylab ish qilish imkonini beradi. Bu jarayonda muhim bo‘lgan tillar ingliz tili, rus tili, arap tili va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Iqtisodchi kadrlar muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun bir nechta taktikalar bilan tanishishi lozim. Mavjud va potensial mijozlar bilan boshqalar bilan qatnashuv va hamkorlik qilish, samarali va ishonchli nutqni o‘rganish kerak. Biznes muloqotlarida muvaffaqiyatli bo‘lish uchun qulay, samarali, va diqqat bilan ko‘rsatuvchi ishonchli nutq qilish zarur bo‘ladi. Shuningdek, iqtisodchi kadrlar biznes qoidalari va dasturlarini ko‘rib chiqish, so‘rov yaratish, tushunchalarini yetkazib berish, xalqaro biznes saboqlari va standartlari bilan tanishish uchun tayyor bo‘lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Blinder, A. S. (2006). What Do Economists Know? [And What Do They Not Know?] The Journal of Economic Perspectives, 20(4), 3-26.

2. Colander, D. C. (2005). The Making of an Economist Redux. Journal of Economic Perspectives, 19(1), 175-198.
3. Krugman, P. (1991). Geography and Trade. MIT Press Books.
4. Mankiw, N. G., Romer, D., & Weil, D. N. (1992). A contribution to the empirics of economic growth. The Quarterly Journal of Economics, 107(2), 407-437.
5. Stiglitz, J. E., Sen, A., & Fitoussi, J. P. (2009). Report by the commission on the measurement of economic performance and social progress.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI PEDAGOG XODIMLARINING KASBIY EHTIYOJLARINI INNOVATSION METODLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI

p.f.n, dots. Alimov Narmurat Nasirovich,
Boqiyev Ramazon Abdurasulxon o'g'li
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda rivojlangan ta'lim sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarining dolzarbligi hamda professional ta'lim muassasasi pedagog xodimlarining kasbiy ehtiyojlari haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda jamiyatni raqamlashtirish ta'limga sezilarli ta'sir ko'rsatib, professional ta'lim muassasalari pedagog xodimlaridan kasbiy kompetensiyalarni oshirib borish talab etilmoqda. Ushbu ilmiy maqolada professional ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini hal qilishga doir omillar ko'rib chiqilgan hamda professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy ehtiyojlariga doir ko'rsatmalar, malakasini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifati, professional ta'lim, pedagog kadrlar, malakasini oshirish, metodlar, mehnat bozori, innovatsion axborot, kasbiy ehtiyoj, innovatsion strategiya.

Jahon miqyosida qabul qilingan zamonaviy ta'lim konsepsiyasida ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalari hamda texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri etib belgilandi. Professional ta'lim tizimida ta'limning internatsionallashuvi, o'quvchilarning xalqaro mobilligi, ta'lim dasturlarining tez o'zgaruvchanligi bilan bog'liq global tendensiyalari hamda ta'lim sifatini zamonaviy boshqarish texnologiyalarini joriy etish orqali ta'minlash masalasi alohida ahamiyat sifatida kasb etib bormoqda. Professional ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning intellektual va kasbiy salohiyatiga nisbatan qo'yilayotgan yuqori talablar doirasida kadrlar tayyorlash sifatini boshqarish tizimi takomillashtirilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatdagi demokratik huquqiy davlat qurilishi, zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib modernizatsiyalash, pedagogik faoliyatning nufuzini oshirish, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish tizimini rivojlantirish, ta'lim darajasi va sifatini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratishga yo'naltirilgan

islohotlar professional ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlari sifatini boshqarish mexanizmlari va pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan takomillashtirishda ilg‘or tajribalarni qo‘llash imkoniyatlarini berib kelmoqda.[1]

Mamlakatimizda professional ta’lim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini isloh qilish borasida keng qamrovli ishlar olib borilayotgani fikrimizning yorqin isboti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da belgilangan “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifalarga muvofiq ta’lim portallarida on-layn va off-layn texnologiyalariga asoslangan masofaviy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining joriy etish orqali pedagoglarning asosiy ishdan ajralmagan holda o‘quv kurslari ta’lim dasturlarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish imkoniyatlarini yaratish, pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonlarida tinglovchilarning malakaviy tayyorgarligini rivojlantirish va ularda yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni ilg‘or axborot-ta’lim muhitida shakllantirish dolzarb hisoblanadi.[2]

O‘quv - tarbiya jarayonini yuqori ilmiy-uslubiy darajada ta’minlash, malakaviy talablar, o‘quv rejalari va dasturlari asosida kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni yangilab borish Kasib-hunar ta’limi pedagog xodimlarining kasbiy ehtiyojlarining asosiy ko‘rinishi hamda maqsadi hisoblanadi. Professional ta’lim tizimida kasbiy ehtoyoj muammosini hal qilish sohasidagi nazariy va amaliy tajribaga ijobiy baho berib, hozirda shakllangan tuzilmaviy-mazmunli va protsessual tarkibiy qismlar pedagog kasbiy faoliyatining tabiatiga mos kelmasligini ta’kidlash lozim. Professional ta’lim tizimi rahbar va pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimi zamonaviy talablarga to‘liq javob bermaydi. Mamlakatimizda professional ta’lim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini isloh qilish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Jumladan axborot-ta’lim muhiti - bu ta’limiy axborotlarni uzatish va tez almashishni ta’minlovchi vosita hisoblanadi. [3]

Shunday ekan kasb-hunar ta’limida pedagog xodimning kasbiy ehtiyoji ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi shaxsining kasbiy strategiyasi ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi, o‘zgaradi, zaiflashadi yoki mustahkamlanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida o‘zi egallagan kasbiy metodik funksiyalarni ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarning faol ravishda o‘zgartiruvchi sub’ekt sifatida ishtirok etadi. Kasbiy etika paydo bo‘lishidan oldin ilmiy axloqiy ta’limotlarni yaratishga, bu haqda nazariyalar yaratilishidan oldin, har kuni tajriba, bir yoki boshqa kasbning o‘zaro bog‘liqligini tartibga solish zarurati, muayyan etika talablarining xabardorligi va dizayniga olib keldi. Kasbiy etika har kuni axloqiy ongning namoyon bo‘lishi sifatida sodir bo‘ladi, keyin har bir professional guruh vakillarining xulq-atvorining umumiy amaliyoti asosida ishlab chiqiladi. [4]

Yuqorida berilgan fikrlardan shuni bilishimiz mumkinki kasb-hunar ta’limi pedagog hodimlari bugungi kunda o‘z sohasining yetuk mutahassisi bo‘lish jamiyat ta’lab qilgan ning eng asosiy ta’lablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu vaziyatga yana

bitta misol bugungi kun pedagog hodimni har kungi ongdan professional axloqiy kasbiy mutaxassisilikni ta’lab qiluvchi hamda nazariy ongga o‘tishni taqozo qilmoqda. Kasbiy axloq normalari darhol tan olinmaydi, bu fikrlarning kurashi tufayli sodir bo‘ladigan jarayondir. Kasbiy ma’naviyat va jamoat ongi o‘rtasidagi munosabatlar muhitni to‘g‘ri anglay olishga bog‘liq. Turli xil professional etika o‘z an’analariga ega, bu asrlar davomida ma’lum bir kasb vakillari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy axloqiy normalarning davomiyligi mavjudligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ma’naviyat insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi ijtimoiy hodisa, odam ruhiy va aqliy olamining majmui, inson qalbidagi ilohiy nur bo‘lsa, kasbiy ma’naviyat kasb-hunar ta’limi tizimining kasbga yo‘naltirilgan nazariya va amaliyot bosqichidagi faoliyatidir. Har qanday muammo yechimi integrasiyalashgan bilimni talab etadi. Axborot-ta’lim muhiti chuqurlashgan bilimlar integrasiyasini, shuningdek, tadqiq qilinayotgan muammo yuzasidan fan bilimlari sohasini, balki hamkorning xususiyatlarini, uning dunyoni bilishi va tushunishini, qarashlarini bilishni ham taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “Texnologiya ta’limi nazariyasi va metodikasi” bo‘limi boshlig‘I Komiljon Karimov “Professional ta’lim tizimi pedagog kadrlarini kasbiy rivojlantirishning innovatsion axborot-didaktik shakllari” (maqola)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. –B.39.

3. Barkamol avlodni tarbiyalashda past saviyali «ommaviy madaniyat» salbiy ta’sirining oldini olish. Ma’ruza matni. / Mualliflar jamoasi. –T., 2013.

4. Gularam Kamilovna Masharipova, Tamara Jo‘rayevna Xo‘janova “Kasbiy ma’naviyat” fanidan (barcha ta’lim yo‘nalishlari 1 kurs magistratura talabalari uchun darslik) “Fan ziyosi” nashriyoti Toshkent – 2022

TA’LIM JARAYONIDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISHNING METODIKASI


p.f.f.d.(PhD), dots. Karshiyev Abror Amrullayevich,
Qurbonov Mehroj Akbar o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
abrorkarshiyev@jbnuu.uz

Annotatsiya. Maqolada mobil ilovalardan ta’lim jarayonida foydalanishning metodik jihatlari tadqiq qilingan. Kasbiy va pedagogik faoliyat asoslarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonining klassik tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatilgan. Shu bilan birga mobil ilovalardan foydalanib tashkil etilgan ta’lim jarayonining pedagogik xarakteri va uning bosqichlari hamda aspektlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mobil texnologiyalar, Flutter, Dart, Java, JavaScript, Android, iOS.

Kompyuter texnologiyalarini hayotimizning har bir sohasiga kirib kelishi ish unumdorligini oshirish bilan bir qatorda sifat va samaradorlikni oshishiga olib keldi, ayniqsa ta’im sohasida. IT texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini takomillashtirish bugungi kunda butun dunyoda ommalashib bormoqda. Shuningdek, Mobil texnologiyalarning jadal rivojlanishi ularning ta’im jarayoniga yanada kengroq jalb etilishini ta’minlamoqda.[1] Kompyuterlar va mobil texnologiyalar yordamida o‘qitish masalalari ko‘plab olimlarni: pedagoglarni va IT mutaxassislarini qiziqtiradi. Iqtisodiyot bozorida mutaxassislarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan ularning bilim sifatiga bog‘liq.

Ta’lim sohasida mobil qurilmalardan foydalanishning o‘sishini va ularning ta’im jarayonida o‘ynagan rolini ko‘rsatadi. Bu tahlil quyidagi ko‘rsatkichlarga e’tibor beradi: Mobil qurilmalar iste’molining o‘sish darajasi. Ommaviy axborot ma’umotlariga ko‘rara, mobil qurilmalar iste’moli dunyodagi ta’im sohasida tez-tez o‘smoqda. Bu, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va mas’uliyat tashkilotlar o‘rtasida o‘rganish va ma’umot almashish uchun mobil qurilmalardan foydalanishni ko‘paytirishda ko‘rinadi[2]. Riga Texnika Universitetining Kompyuter fanlari va axborot texnologiyalari fakultetining 1-kurs talabalari o‘rtasida “Kompyuter tizimlari, avtomatlashtirish va kompyuter injiniringi”, “Axborot texnologiyalari” va “Intellektual robot tizimlari” bo‘yicha to‘rtta o‘quv dasturini o‘z ichiga olgan so‘rovnoma o‘tkazildi. o'quv jarayonida mobil texnologiyalardan foydalanish. So‘rov 2018-yilda o‘tkazildi va unda 161 nafar talaba ishtirok etdi[5](1-rasm).



1-rasm. Ko‘p ishlatiladigan mobil qurilma xususiyatlari

Keling, siz bilan mobil ilovalar yaratuvchi texnologiyalar bilan tanishib chiqaylik. Flutter texnologiyasi. Flutter - bu mobil ilovalarni yaratish uchun Google-ning bepul va ochiq manbali UI tizimi. 2017-yilda chiqarilgan Flutter dasturchilarga bitta kod bazasi va dasturlash tili bilan mobil ilovalar yaratish imkonini beradi. Bu


imkoniyat iOS va Android ilovalarini sodda va tezroq yaratish imkonini beradi. Flutter tizimi yordamida mobil ilovalarni yaratuvchi dasturchilar buni Dart deb nomlangan dasturlash tilidan foydalanadilar. JavaScript kabi sintaksisga ega bo‘lgan Dart - bu asosiy dasturlash tili bo‘ib, u front-end ishlab chiqishga qaratilgan. Flutter yangi platformalararo texnologiya bo‘sada, tobora ko‘proq kompaniyalar Flutterni Xamarin, Sordova va Reast Native kabi texnologiya o‘rniga tanladilar[6](2- rasm).



2-rasm. Flutter texnologiyasi Rivojlanish guruhlari Flutterni tanlashining asosiy sabablaridan ba’zilari:

O‘rganish oson. Flutter ishlab chiquvchilarga OEM vidjetlariga kirish yoki ko‘p kodlardan foydalanmasdan mahalliy mobil ilovalarni yaratish imkonini beradi. Bu, Flutterning ayniqsa jozibali foydalanuvchi interfeysiga qo‘shimcha ravishda, mobil ilova yaratish jarayonini ancha soddalashtiradi[7].

Materiallar va metodlar. Mobil ta'lim pedagogik jarayonining asosiy maqsadi sifatida biz o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishni ko'rib chiqamiz. Ta'lim jarayonining yo'nalishi o'quvchilarni tayyorlash va rivojlantirishning yanada aniq maqsad va vazifalarini, shuningdek uning mazmunini belgilaydi. Maqsad va mazmun mobil ta'lim pedagogik jarayonining eng muhim mazmun-maqsadli komponentidir. Mobil ta'lim pedagogik jarayonining maqsadlari biz tomonimizdan iyerarxiya (2-rasm) shaklida taqdim etiladi, jumladan: mobil ta'lim doirasidagi darsning maqsadlari; mobil ta'lim orqali amalga oshiriladigan alohida fan (kurs) bo'yicha o'qitish va ta'lim maqsadlari; mobil ta'lim tizimining maqsadi; ta'lim standartiga mos keladigan jamoat buyurtmasi shaklidagi davlat maqsadi.



2-rasm. Mobil ta’lim jarayoni komponentlarining iyerarxiyasi

Biz tadqiqotimizda mobil ilovalardan foydalanib tashkil etilgan ta‘limning pedagogik jarayoni siklik xarakterga ega ekanligi, uni uch: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy bosqichga bo'lish mumkinligini keltiramiz Java kod yozilgan fayllar (*.java bilan nihoyalanuvchi) kompilatsiyadan keyin bayt kod (bytecode) ga o‘tadi va bu bayt kod Java Virtual Mashinasi JVM tomonidan o‘qib yurgizdiriladi. Java SE (Java Standart Edition) — serverda, shaxsiy kompyuterda desktoplarda ishlovchi dasturlar, appletlar yaratish uchun ishlatiladi[6]. Bu texnologiya yordamida yaratilgan dasturlar deyarli barcha operatsion tizimlarda ishlay oladi(Windows NT, Macintosh,Linux va Solaris). Shu bilan birga JavaSE boshqa Java turlarining asosi hisoblanadi. JVM (Java Virtual mashinasi) JVM ning vazifasi tarjimonlik ya’ni, dastlab biz yozgan *.java fayl kompilyator yordamida bayt kod ga o‘giriladi va JVM yordamida esa mashina tiliga aylantiriladi Dart - Google kompaniyasi tomonidan, umumiy qo‘lanish uchun yaratilingan dasturlash tilidir. U asosan veb dasturlar yaratish uchun mo‘jallangan bo‘ib (ham mijoz, ham server tomon uchun), shu bilan birga mobil ilovalar ham yaratish mumkin. Xulosa. Hozirda maktablar, kitoblar va kompyuterlar yetishmaydigan joylarda ham mobil texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Mobil telefonlar narxi doimiy ravishda pasayib bormoqda, shuning uchun ko‘p odamlar, hatto eng qashshoq hududlarda ham bunday qurilmalarni sotib olish va ulardan qanday foydalanishni bilish imkoniyatiga ega. Ko‘payib borayotgan loyihalar mobil texnologiyalar sifatli ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan talabalar uchun ajoyib o‘quv vositasi ekanligini ko‘rsatmoqda. Shunday qilib, Mobil texnologiya o‘quv natijalarini baholash jarayonini tezlashtiradi va o‘quvchilar va o‘qituvchilarga taraqqiyotni tez kuzatish imkoniyatini beradi. O‘tkazilgan statistikalar va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, mobil ilovalarni ta’lim jarayonoda qo‘llash ta’limda sifat va samaradorlikni oshishiga olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Spalviņš, A., Šlangens, J., Lāce, I., Aleksāns, O., Krauklis, K., Šķibelis, V., Levina, N., Mačāns, A.: Hydrogeological Model of Latvia, First Results. Boundary Field Problems and Computer Simulation. 51, 4-12 (2012). ISSN 2255-9124. e-ISSN 2255-9132.
2. Amrullayevich K. A., Mamatkulovich B. B. TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTSIYASINI SHAKILLANTIRISHDA DIDAKTIK VOSITALARINING METODIK XUSUSIYATLARIDAN FOYDALANISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 645-650.
3. Amrullayevich K. A., Obid o'g'li S. J. ELEKTRON TALIM MUHITIDA TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 641-645.
4. Karshiyev A. A., Sobirovich E. G. INFORMATION FOR STUDENTS COMPETENCE DEVELOPMENT METHODOLOGICAL FEATURES //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 3.
5. Karshiyev A. A., Mamatkulova U. E., Shobutayev Q. S. IMPLEMENTATION OF A QUALIMETRIC APPROACH IN MANAGING THE

QUALITY OF EDUCATION OF STUDENTS OF A MODERN UNIVERSITY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.

6. Javlon, K., & Erali, M. (2023). STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 136-141.

7. Мустафоев, Е., & Холматов, Ж. (2023). Brayl matn tasviri sifatini oshirish usullari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 23-27.

8. Mamatkulovich, B. B. (2023). Alijon o'g'li HA Facial Image-Based Gender and Age Estimation. Eurasian Scientific Herald, 18, 47-50.

9. Babakulov B. UNİVERSİTET TALABALARİ UCHUN CHUQUR O'RGANİSHGA ASOSLANGAN YUZNİ ANİQLASHDAN FOYDALANGAN HOLDA AVTOMATİK DAVOMAT TİZİMİ //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 74-76.

10. Choryorqulov G'.H., & Qosimov N.S. (2023). ELEKTRON JADVAL MODELINING TAVSIFLANISHI. PEDAGOGS Jurnali, 30(3), 67–73.

11. 2.TA'LIMDA DASTURLASH JARAYONINI BAHOLASHGA ASOSLANGAN AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMNI TADBIQ ETISH N Nizomiddin International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 24-28

12. Ramazon, Mixliyev, and Babayarov Abdusattor. "MIKROSKOP YORDAMIDA HUJAYRALARDAGI QON VA OQ QON HUJAYRALARI SONI BO'YICHA BEMORLARNING SOG'LIG'INI ANIQLASH." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023): 133-137.

13. Ramazon, Mixliyev, and Babayarov Abdusattor. "MIKROSKOP YORDAMIDA HUJAYRALARDAGI QON VA OQ QON HUJAYRALARI SONI BO'YICHA BEMORLARNING SOG'LIG'INI ANIQLASH." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023): 133-137.

O'QUVCHILARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Karshiyev Abror Amrullayevich
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Ahmedova Dilnavoz Yo'ldosh qizi
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax Filiali talabasi
abrorkarshiyev@jbnuu.uz

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik jihatlari o'rganilib, ishchi ta'rif qabul qilingan. Axborot kompetenligini rivojlantirish jarayonini mustaqil hayotiy faoliyat davomida axborotlar bilan ishlash kabi yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentsiya, kompetentlik, axborot kompitentlik, axborot – komunikattsiya texnalogiyalari, maktab.

Ma’lumki, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish asosan dars paytida amalga oshiriladi. Kompetensiyalarni shakllantirish ham o‘quv fanlarini o‘rganish darslari orqali amalga oshiriladi. O‘qitishning an’anaviy sinf-dars texnologiyasining imkoniyatlari, an’anaviy dars texnologiyasi bir xil yoshdagi o‘quvchilarning guruh bo‘lib, butun maktab davrida o‘zgarmasligi va ularning bir vaqtda bir xil narsani o‘rganishlari, dars odatda bitta o‘quv faniga va unga tegishli mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, hamma bir vaqtning o‘zida aynan bir xil material ustida ishlashi, o‘qituvchi o‘z fani bo‘yicha o‘quvchilarni erishgan natijalari bo‘yicha baholashi, darslik va o‘quv dasturi o‘quvchi o‘rganishi lozim bo‘lgan axborot hajmini belgilashi kabi tashkiliy alomatlardan iborat bo‘ladi.

An’anaviy sinf - dars texnologiyasida didaktik maqsadlariga ko‘ra, darslarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: o‘quvchini mavzuga olib kirish darsi; yangi mavzuni o‘rganish darsi; o‘rganilgan yangi materialni mustahkamlash darsi; bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash darsi; bilim va ko‘nikmalarni tekshirish va korreksiyalash darsi; aralash yoki kombinatsiyalangan darslar. An’anaviy sinf - dars texnologiyasini amalga oshirishning metodik o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchining hohishi va istagi hisobga olinmaydi. Unda avtoritar o‘quv ustun turadi. O‘qituvchi tomonidan markaziy boshqaruv amalga oshiriladi va o‘rtacha o‘qiydigan o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Bilimlarni o‘zlashtirish metodi quyidagilarga asoslanadi: tayyor bilimlar berish; namunaga ko‘ra o‘qitish; induktiv logikaga, ya’ni, xususiydan umumiyga yo‘naltirish; axborotni hikoya qilish, suhbat o‘tkazish, verbal bayon qilish; natijalar tashqaridan baholanadi, ya’ni, bolaning o‘zi-o‘ziga baho bermasdan, o‘qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda, o‘quvchi darsga ajratilgan vaqtning ko‘p qismini jim o‘tirib faoliyatsiz o‘tkazadi.

“Elektron ta’lim muhiti” atamasi bilan birgalikda “Kompyuterli ta’lim muhiti” atamasi ham ishlatiladi [1;2].

Kompyuter ta’lim muhitining yaralishi ta’lim tizimini texnologiyalashtirishni, uni kompyuterlashtirishni taqozo etdi. Ishlab chiqish bosqichi – o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari. Yigirma birinchi asr boshida ta’lim tizimining ochiqligi, uning ommaviyligi, Internet tarmog‘i kengayishining ochiqligi bilan bog‘liq holda elektron va aralash o‘qitish (e-learning, blended-learning) paradigmasi ustunlik qila boshladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda qayd etilishicha, aynan elektron inqilob – ta’lim yo‘nalishiga ega elektron muhitlar yuzaga kelishi va rivoj topishi sabablaridan biridir. Bu dalil kompyuter va elektron ta’lim muhitlar funksional xarakteristikalarini farqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Ta’kidlash joizki, avvalgi o‘qitish jarayonida kompyuter faqat illyustrativ funksiyani bajarish uchun ishlatilgan, shuningdek, turli avtomatik avtomatlashtirilgan holda bajarishga ko‘maklashgan. Texnika va texnologiya taraqqiy etgani kabi uning imkoniyatlari ham kengaya bordi. Ta’limni kompyuterlashtirish muammolariga bag‘ishlangan zamonaviy ishlarda

kompyuterdan faqat qo‘shimcha illyustrativ o‘qitish vositasi sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi bayon etilgan.

Elektron didaktik ta’lim muhitda uch turdagi dialogni uyg‘unlashtirish imkoni mavjud: o‘quvchi va o‘qituvchi; o‘quvchilar o‘ptasidagi; o‘quvchilar-o‘qituvchi va resurslar o‘ptasidagi. Bu Internet tarmog‘idagi ko‘p sonli saytlarga ulanish asnosida ikki tomonlama interfaol audio/video aloqa tufayli amalga oshadi; auditoriyada o‘tiladigan sinxron (real vaqtda bajariladi) va asinxron (o‘quvchilarga taqdim etilgan qaydlarda) leksiyalar; elektron pochta, diskussion guruhlar, yangiliklar guruhlari, chat, onlayn xabarlar va boshqalar. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish shakllarini kengaytiradi. Interfaollik, ochiqlilikning yuqori darajasi va kommunikasiyaning apirativ usullari tufayli elektron ta’lim muhitida video leksiyalar, multimediali leksiyalar, vebinarlar (veb-praktikumlar), veb-anjumanlar, chat-mashg‘ulotlar, vaziyatli-tahliliy forumlar, virtual ustaxonalar, virtual ekskursiyalar va boshqalarni o‘tkazishga keng imkoniyat tug‘iladi.

Elektron ta’lim muhitini samarali ishlash asosiy sharti interaktivlik tamoyilidir. “Interfaollik” tushunchasi pedagog – olimlar tomonidan turlicha talqin etilsada, ammo uning asosida sub’ektlarning o‘zaro ta’sirlashuv jarayoni yotadi: interfaol o‘qitish – bu ta’lim sub’ektlari va ob’ektlari o‘rtasida tashkil etilgan qaytar aloqa, ikki tomonlama axborot almashinuv asosida tashkil etilgan o‘qitish.

Internetdan biror zaruriy ma’lumotni topish uchun maxsus bilim, ko‘nikma va malakalar talab etiladi. Internetda ma’lumot qidirishning uch usuli mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat;

• Sahifaning manzilini ko‘rsatish. Bu ma’lumot qidirishning eng tezkor uslubi, ammo bu uslubdan faqatgina Siz izlayotgan ma’lumotning manzili aniq bo‘lgandagina foydalanish mumkin.

• Giperbog‘lanishlar bo‘ylab siljish. Bu ancha qulay uslub, chunki uning yordamida izlanayotgan ma’lumotga yaqin bo‘lgan xujjatlarni izlash mumkin.

• Qidiruv tizimiga murojaat. Bu juda ham qulay uslub bo‘lib, hozirda ko‘plab ommabop serverlar mavjud. Masalan, Google; Yahoo; Aport; Rambler; Yandeks; AltaVista va hokazo.

Internetdan axborot olish jarayonini bir necha bochqichlarga ajratish mumkin:

1.Foydalanuvchi tomonidan axborotga bo‘lgan o‘z ehtiyojini formallashtirilishi (Masalan, predmet sohasiga oid tayanch tushunchalar ro‘yxatini tuzish, ular orasidagi semantik bog‘lanishlarni aniqlash orqali);

2. Qidiruv amalga oshiriladigan internetning axborot resursini, axborot qidiruv tizimini tanlash;

3. Axborot qidiruv tizimining so‘rovlari tilida so‘rov-ifodani shakllantirish;

4. Qidiruvni amalga oshirish;

5. Olingan materiallar tahlili.

1-bosqich. Internetning qidiruv xizmatlariga unga nimani topish zarurligini “tushuntirish” uchun foydalanuvchi o‘zining axborotga bo‘lgan ehtiyojini ma’lum bir

tarzda formallashtirishi kerak. Masalan, “o‘t” deb biologik atamani qidirmoqchi bo‘lsak, o‘tning “olov” ma’nosi ham tushunilib, o‘t o‘chirish sohasiga oid ma’lumotlar topilishi tabiiy.

2-bosqich. Foydalanuvchi qidiruv amalga oshiriladigan internetning axborot resursini, axborot qidiruv tizimini tanlashi zarur. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- WWW − elektron sahifa xizmati
- Elektron pochta xizmati
- Telekonferensiya (Usenet)
- Fayllarni uzatish (FTP)
- Domenlarni nomlash (DNS)
- Telnet xizmati (Internet –telefon)
- IRC - xizmati yoki Chat konferesiya.
- ICQ – xizmati.
- Ma’lumotlarni izlash xizmati.
- Internetda ovoz va video xizmati.

Biz qidirilayotgan mavzuga mos xizmat turini tanlab olishimiz talab etiladi. Internetda qidiruv qulay va tez bo‘lishi uchun maxsus ma’lumot qidirish tizimlari yaratilgan. Bunday tizimlarning ko‘plab turlari mavjud. Bulardan Google, Rambler, Yandex, Yahoo tizimlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida qidiruvni olib boradigan eng mashhurlari hisoblanadi. Bular: http://www.google.co.uz; http://www.rambler.ru; http://www.yandex.ru

3-bosqich axborot qidiruv tizimining so‘rovlari tilida so‘rov-ifodani shakllantirilishidir. So‘rov tili yordamida muayyan qoidalar bo‘yicha shakllantirilgan kalit so‘zlar guruhi qidiruv serveriga berilgan so‘rov deyiladi. Turli xil qidiruv serverlarining so‘rov tillari o‘xshash bo‘ladi. Har bir tizimning so‘rovlar tili bilan “Yordam (Помощ)” bo‘limida batafsil tanishib chiqish mumkin.

4-bosqich qidiruvni amalga oshirish va natijani olish.

Ma’lumotlarni qidirish uchun quyidagi amallarni bajarish zarur: biror internet brauzer dasturini ishga tushiring (Brauzer yorlig‘ida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish orqali); Internet brauzer dasturining manzillar satriga qidiruv tizimi manzilini kiriting, masalan google.co.uz; manzil kiritilgandan so‘ng klaviaturadan Enter tugmasini bosing; natijada brauzer ekraniga qidiruv tizimi Web-sahifasi yuklanadi.

5-bosqich olingan materiallar tahlili. Qidirilayotgan predmet sohasiga oid axborotni topish malakasidan tashqari foydalanuvchidan axborot manbaini ham tahlil etish talab etiladi. Tanlab olingan material e’lon qilingan saytning maqsad va vaziflari, muallifi haqidagi mualliflarni bilish ham zarur. Shu maqsadda foydalanish uchun ajratib olingan har bir hujjat to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni aniqlash muhim: saytning qisqacha xarakteristikasi (tavsifi), umumiy mavzulari doirasi, ishlab chiquvchilari haqida ma’lumotlar; saytda qidirilayotgin mavzuga oid boshqa materiallarning ham mavjudligi; material muallifi haqida ma’lumotlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan informatika va axborot texnologiyalari umum ta’lim fani bo‘yicha elektron o‘qitish vositasi ishlab chiqdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рузикулова Н.Ш. Бошланғич синф ўқувчиларида ахборот тушунчасини шакллантириш жараёни. // «Бошланғич таълим ва жисмоний маданият йўналишида сифат ва самарадорликни ошириш муаммо ва ечимлари» Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент. 2018. – Б. 223-224. (25)

2. Тюков А.А. Проблемные задания в профессионалной подготовке студентов. // Проблемное обучение в ВУЗе. –Москва: «Знание», 2001. (38)

3. Юлдошев И.А. Тармоқ технологияси асосида «Информатика ва ахборот технолоигялари» фанини ўқитиш самарадорлигини ошириш методикасини такомиллаштириш. Пед. фан. фал. док. (ПҳД) ... дисс. авто. – Тошкент, 2019. – 47 б. (131)

4. Абдуқодиров А. «Сасе-студй» услуби: назария, амалиёт ва тажриба. – Тошкент: «Инноватсия-зиё». 2019. – 130 б. (44)

5. Amrullayevich K. A., Mamatkulovich B. B. TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTSIYASINI SHAKILLANTIRISHDA DIDAKTIK VOSITALARINING METODIK XUSUSIYATLARIDAN FOYDALANISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 645-650.

6. Amrullayevich K. A., Obid o'g'li S. J. ELEKTRON TALIM MUHITIDA TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 641-645.

7. Karshiyev A. A., Sobirovich E. G. INFORMATION FOR STUDENTS COMPETENCE DEVELOPMENT METHODOLOGICAL FEATURES //Thematics Journal of Education. – 2022. – Т. 7. – №. 3.

8. Karshiyev A. A., Mamatkulova U. E., Shobutayev Q. S. IMPLEMENTATION OF A QUALIMETRIC APPROACH IN MANAGING THE QUALITY OF EDUCATION OF STUDENTS OF A MODERN UNIVERSITY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.

9. Қаршиев А. МАКТАБ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИСИНИГ АХБОРОТ КОМПЕТЕНТЛИГИ ТУЗИЛМАСИ //Журнал математики и информатики. – 2020. – Т. 1. – №. 1.

10. Каршиев А. А. ЎҚУВЧИЛАРДА АХБОРОТ БИЛАН ИШЛАШ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ДАРАЖАВИЙ ТУЗИЛМАСИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

11. Қаршиев АА П. Ш. М. Глобаллашув жараёнида таълим сифатини таъминлаш ва унинг ўзига хос хусусиятлари //Интернаука»: научный журнал. – №. 44. – С. 126.

12. Юсупович Ҳ. Ж., Эргашев С. Б. Ў. МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА АХБОРОТ БИЛАН ИШЛАШ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШИ МОДЕЛИ //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 189-194.

13. Obid o'g A. S. J., Kamalidin o'g A. A. M., Kamoliddin o'g A. N. N. Numpy Library Capabilities. Vectorized Calculation In Numpy Va Type Of Information //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 15. – С. 132-137.

14. Қаршиев А. МАКТАБ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИСИНИГ АХБОРОТ КОМПЕТЕНТЛИГИ ТУЗИЛМАСИ //Журнал математики и информатики. – 2020. – Т. 1. – №. 1.

BO‘LAJAK MUHANDISLAR FAZOVIY TASAVVURLARINI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO‘RSATGICHLARI

Mamanov Siroj Kaxramon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali mustaqil izlanuvchisi
sirojmamanov92@mail.com

Annotatsiya: maqolada texnika oliy ta’lim muassasasida tayyorlanayotgan bo‘lajak muhandislarda fazoviy tasavvur rivojlanish ko‘rsatgichlari, fazoviy tasavvurning real ob’ekt yoki model asosida u haqda sezgi organlari orqali kelib tushuvchi ma’lumotlarni tahlil qilish, idrok etish natijasida olingan bilimlar birliklari va ularning obrazlarini ifodalab berilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Fazoviy tasavvur, chizma, geometrik obekt, detal, grafika, muhandis.

Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “ta’lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish va o‘qitish usullarini takomillashtirish” ustuvor vazifa etib belgilangan.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishida chizmaga g‘oyat katta talablar qo‘yilmoqdaki, bu talabalarni barchasini bilish va chizmani bajarishda qabul qilingan turli belgilashlarni tushuna bilish ishchidan boshlab, to muhandis - konstruktorgacha bo‘lgan mutaxassislarning keng doirasi uchun mutlaqo zaruriy shart bo‘lib hisoblanadi. Chizma hozirgi zamon ishlab chiqarish sharoitida mehnat jarayonidan kutilgan natijalar haqida tasavvurni hosil qilishning asosi hisoblanadi. Chizmada inson ijodiy tafakkuri natijasi ya’ni, yaratiladigan buyum loyihasi yoki konstruksiyasi yorqin aks etadi. Chizma bo‘yicha buyumlar yasalib, inshootlar qad ko‘taradi, chizma asosida inson ijodiy tafakkurining turmushga muayyan yo‘naltirilgan mehnat harakatlari tizimi rejalashtiriladi[1].

Chizma texnikaning tilidir deb bejizga aytishmagan. Shundan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanini o'qitishdagi asosiy muammo hisoblangan talabalarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish hisoblanadi. "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fundamental fan bo'lib, bu fan bo'yicha egallangan bilim va malakalar asosida muhandisda fazoviy tasavvuri, texnik tafakkuri va ijodiy qobiliyati kabi xislatlari rivojlanadi.

Talabalarning fazoviy tasavvurlarni kengaytirib, loyihalashning asosini tashkil etuvchi chizmalarni o'qish va bajarish, ob'ektlarning eskizi va ish chizmalarini tuzish, perspektiv tasvirlarini qurish kabi grafik savodxonlik malakalari bilan qurollantiradi shuningdek, umummuhandislik fanlarini va maxsus predmetlarni o'rganish jarayonida grafik savodxonlik darajalari rivojlanib, mutaxassislik fanlardan kurs ishi, kurs loyihalarini bajarish jarayonida egallangan bilim va malakalardan foydalanib, bitiruv malakaviy ishini bajarish jarayonida ularning grafikaviy va ijodiy qobiliyatlari to'liq namoyon qiladi[2].

Muhandislikning g'oyalarini ko'rinmas, qiyin, xom xayol holda tuzish gohida ta'siri yanada samaraliroq bo'ladiki, muallif tekislikdagi uch o'lchovli fazo tushunchasini qanchalik egallagan bo'lsa, muhandislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida o'qish paytida texnik fanlar bilan bog'liqlik qanchalik kuchli bo'lsa, kasbga qiziqish shunchalik faol bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fani bo'lajak yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanini o'rganayotganda bo'lajak muhandis quyidagilarni bajarishi kerak; tasvirlarni tuzish nazariyasiga (nuqta, to'g'ri chiziq va tekisliklar) ega bo'lish; tekisliklarning o'zaro kesishish muammolarini hal qilish algoritmini bilish, shuningdek, ayrim geometrik shakllarning haqiqiy kattaliklarini aniqlay bilish; buyumlarning tasvirlarini tuzish usullarini bilish; chizmalarning qismlaridan geometrik shakllarni o'qiy olishlari va ushbu tasvirlarni (hayotdan va umuman rasm chizish) bajara olishlari; ixtisoslikda eng keng tarqalgan detallarning birikmalaridan turli ko'rinishdagi chizmalarini bajarish; yig'ma birliklardan chizmalarini bajarish va o'qishni bilish[3].

Texnik fikrni ifoda etish vositasi sifatida va ishlab chiqarish hujjati sifatida chizmalarni o'zlashtirish oliy o'quv yurtida butun o'qish jarayoni davomida amalga oshirilishi kerak. Ushbu jarayon "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanini o'rganishdan boshlanib, so'ngra bir qator umummuhandislik fanlar bilan rivojlanib mustahkamlanib boradi. Chizmalarni bajarish va o'qish qobiliyatlari muhandisning kasbiy faoliyatining asosiy qismlaridan biridir. Chizmalarni o'qish qobiliyati talabaga muhandisning kasbiy faoliyatini chuqurroq o'rganish imkonini beradi, uni ushbu faoliyatdan qoniqish hissini uyg'otadi va shuning uchun shaxsning kasbiy manfaatlarini faollashtirishga hissa qo'shadi. "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanini o'rganishda olingan bilim va ko'nikmalar umummuhandislik fanlarni o'zlashtirishda, shuningdek keyingi kasbiy faoliyatni o'rganish uchun zarurdir[4].

Bizning izlanishlarimizda talabalar fazoviy tafakkurini shakllanishning asosiy ko'rsatkichlarini baholash muhim rol o'ynaydi. Fazoviy tasavvur rivojlanish ko'rsatkichlarini belgilab olish uchun pedagogik-psixologik adabiyotlarni o'rganib chiqtldi. Masalan, I.S.Yakimanskaya fazoviy tasavvur rivojlanganligining barqarorligi, kengligi, egiluvchanligi, chuqurligi, to'liqligi, geometrik ob'ekt obrazining

dinamikligi, maqsadga yo‘nalganligi kabi ko‘rsatkichlarni keltirib o‘tadi. Bu ko‘rsatkichlarning yig‘indisi talabalarning fazoviy tafakkurining to‘liq va har tomonlama shakllanganligini ifodalab beradi.

Fazoviy tasavvurning chuqurligi idrokning yaxlitligi, ya’ni ob’ektni yaxlitligicha ko‘rish, hamda uning tuzilmasini, elementlari orasidagi aloqadorlikni, boshqa ob’ekt bilan o‘zaro munosabatlarni aniqlash, u yoki bu figuraning hosil bo‘lish usullarini tushunish, uning keyingi harakatini oldindan ko‘ra bilish qobiliyatlarini belgilaydi.

Fazoviy tasavvur kengligi xususiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan harakatlarning umumlashgan usullarni shakllantirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ya’ni, bu sifat tanish vaziyatlarda yangi ma’lumotni e’tiborga olishga tayyor turishda namoyon bo‘ladi. Bu sifat “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanini o‘qitishda grafik axborotni tahlil qilish bosqichida, staandartlarni o‘zgarmas obrazlarni aniqlash, ayniqsa, yangi qo‘shimcha ma’lumotlar olish jarayonida, fazoviy tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirishda qatnashadi[5].

Fazoviy tasavvurning egiluvchanligi harakatlar usullarining variativlik xossasi bilan xarakterlanadi. Harakat sharoitlari o‘zgarganda qayta qurishning osonligi, bir harakat turidan boshqasiga oson o‘tish, bir predmet sifatini boshqasiga oson ko‘chirish, qabul qilingan an’anaviy grafik amallar chegarasidan tashqarisiga chiqish, ob’ektning o‘zgartirilganda uning asosiy xususiyatlarini saqlab qolish mumkin bo‘lgan bir necha vaziyatlarni ko‘rish qobiliyatlari bilan xarakterlanadi. Tasavvurning bu sifati muhandislik grafikasini o‘qitishda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi[6].

Fazoviy tasavvurning barqarorligi dastlab yaratilgan obrazning ko‘rgazmali asosini inobatga olgan holda obraz ustida amallar bajarishda erkinlik darajasi bilan belgilanadi.

Quyidagi malakalarni egallash fazoviy tasavvurlarning barqarorligini rivojlantirishga yordam beradi: geometrik figuraning turli xil tasvirlarini solishtirish (turli ko‘rgazmali tasvirlar ustida amallar bajarish); geometrik figura obrazini tahlil qila olish; geometrik figura obrazini sintezlash. Chizma geometriya va muhandislik grafikasini o‘rganishda fazoviy tasavvurning barqarorligi geometrik ob’ektning asosiy belgilarini saqlab qolib, zaruriy bo‘lmaganlarini o‘zgartirib, bir qancha geometrik obrazlarni ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu ko‘rsatkichning rivojlanishiga fazoviy tasavvurning kengligi va egiluvchanligi ko‘maklashadi.

Fazoviy tasavvurlarning to‘liqligi fazoviy obrazning tarkibiy tuzilmasi, ya’ni elementlar to‘plami, ular orasidagi aloqadorlik, ularning dinamik nisbatini ongimizda erkin idrok etish bilan xarakterlanadi. Hosil qilingan obrazda nafaqat ob’ektning tarkibiy tuzilmasiga kirgan elementlar, balki uning fazoviy joylashuvi ham aks ettiriladi. Bundan kelib chiqadiki, ongimizda hosil qilingan geometrik ob’ektlar obrazida ularning shakli, kattaligi, uning boshqa ob’ektlarga nisbatan yoki uning qismlarining bir-biriga nisbatan o‘zaro joylashuvi haqidagi tasavvurlar va ma’lumotlar o‘z ifodasini topadi[7].

Shunday qilib, shakllantirilayotgan fazoviy tasavvur to‘liq bo‘lishi uchun quyidagi malakalarga ega bo‘lish kerak: geometrik ob’ekt obrazini qismlarga ajrata olish; geometrik ob’ekt obrazining o‘lcham qiymatlarini aniqlay olish; geometrik

ob’ekt obrazini boshqa obrazlarga nisbatan o‘zaro joylashuv nisbatini aniqlay olish; geometrik obraz elementlarining bir-biriga nisbatan o‘zaro joylashishini aniqlay olish; chiziqli va burchakli kattaliklarni ko‘rib baholay olish; shakllangan obrazda uning xususiyatlarini va elementlarining o‘zaro joylashuvi haqida tasavvurni yetarli bo‘lishi.

Fazoviy tasavvurlarning dinamikligi qarash nuqtasini, fazoviy ob’ektning va uning elementlarining joylashgan o‘rnini ixtiyoriy o‘zgartirish natijasida kuzatuvchi fazoviy figurani kuzatish jarayonida ularning muayyan tekislik proeksiyalangan tekis figuralari bilan tanishadi va ularni bir-biri bilan qiyoslaydi hamda eng maqbul kuzatish nuqtasini tanlaydi.

Demak, chizma geometriya va muxandislik grafikasi fanini o‘qitish jarayonida shakllantiriluvchi fazoviy tasavvur deganda biz sezgi organlari orqali olingan ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida hosil bo‘luvchi geometrik ob’ektlarning umumlashtirilgan obrazini tushunamiz. Fazoviy tasavvur real ob’ekt yoki model asosida u haqda sezgi organlari orqali kelib tushuvchi ma’lumotlarni tahlil qilish, idrok etish natijasida olingan bilimlar birliklari va ularning obrazlarini ifodalab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mamanov S. Kasbga yo‘naltirib o‘qitish orqali kasb-hunar maktablarida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish / / Xalqaro zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar jurnali. 2023. C. 123.
2. Туракулов О., Маманов С. Fanlarni kasbga yo‘naltirib o‘qitishda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish yo_ llari 2022.–Т. 1.–№. 1.– С. 110-113.
3. Mamanov S. Development of professional competences in vocational schools through career directed training –2023. – №. Special issue. – С. 120-127
4. Уринбоев Ф.Ш., Маманов.С., Горабеков.О. Некоторые геометрические проблемы информатики и коммуникационным технологий // – 2016. – №. 5-4. – С. 125-127
5. Mamanov S. Matematika fanini kasbga yo‘naltirib o‘qitish negizida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga tayyorlashning hozirgi ahvoli va uni rivojlantirish yo ‘llari //Журнал математики и информатики. –2022. –Т. 2.–№. 3
6. Turakulov O., Mamanov S. Main functions of professional teaching of mathematics in vocational schools // 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 94-102.
7. Маманов С. Практическое значение тригонометрических функций в нашем обществе, в котором мы живем //лучшие научные исследования 2023. – С. 13-17.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MEDIASAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mustafoyev Akmal Isaqulovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari, o‘rganilish tarixiga doir ayrim masalalar ko‘rsatilgan. Mediakompetentlik asoslari, bo‘lajak pedagoglarni axborotlashgan jamiyatda mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga undovchi mediata’lim imkoniyatlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchining mediakompetentligi, kompetensiyaviy yondashuv, axborotlashgan jamiyat, mustaqil fikr, ijodkorlik faoliyati, axborot, mediata’lim.

Hozirgi zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri – inson turmush tarzining barcha sohalariga ilmiy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turmushning barcha jabhalari baynalminallashuviga kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini kuchaytirayotan bo‘lsada, o‘z navbatida, odam uchun dahshatli xavf-xatarni ham vujudga keltirmoqda[1].

Axborotlashuv konsepsiyasi o‘ziga eng, avvalo strukturalashgan axborot texnologiyalarini umumlashtiruvchi katta ko‘lamni yaratishni talab qilib o‘zida izlash, yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va faoliyatni axborot bilan ta’minlash uchun zarur bo‘lgan jami axborot bilan ta’minlash jarayonini qamrab oladi. “Axborotlashgan jamiyat” atamasi esa keng tarqalgan bo‘lsa – da, olim va tadqiqotchilar uning mazmun va mohiyatini tushunishda bir fikrga kela olmayaptilar. Dunyoda axborotlashgan jamiyat rivojlanishining nazariy asoslarini XX asrning 70-yillari oxiri va 80-yillarning boshida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi yangi konsepsiyalarda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili ishlab chiqarish va axborotlardan unumli foydalanish zarurligi ta’kidlanadi. “Axborotli jamiyat” konsepsiyasining asoschilari Z.Bjezinskiy, D.Bell, E.Tofflerlardir[2, 4]. Jamiyat taraqqiyotini “bosqichlar almashinuvi” sifatida o‘rganar ekanlar, axborotlashgan postindustrial jamiyat nazariyasi tarafdorlari uning taraqqiyotini, qishloq xo‘jaligi, sanoat va boshqa iqtisodiy xizmat sohalaridan keyin keluvchi “to‘rtinchi” iqtisod axborotlashgan sektorining ustuvorligi bilan bog‘laydilar. Ular industrial jamiyatning asosi – kapital va mehnat o‘z o‘rnini axborotlashgan jamiyatda axborot va bilimga bog‘liq deb hisoblaydilar. Boshqa ba’zi nazariyotchilardan farqli o‘laroq bu omillar inqilobni ijtimoiy – siyosiy harakat natijasi sifatida emas, balki jamiyatning sinfiy tuzilishini ijtimoiy nodifferensial “axborotlashgan jamoa” bilan almashtiruvchi “axborotli portlash”da ko‘radilar[3]. Jamiyat o‘z rivojining barcha bosqichlarida axloqiy qoidalar ishlab chiqqan va ulardan foydalanib kelgan. Ma’lumki, insonning rivojlanishi uchun axborot juda zarur. Shuning uchun ham axborot – to‘rtinchi hayotiy zarur elementdir. Axborot tobora ko‘p jihatdan davlatning strategik resursi, ishlab chiqaruvchi kuchi va qimmatbaho mahsuloti bo‘lib bormoqda. Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo‘lmoqda.

Dunyo rivojlanishining asosiy tendensiyalari orasida axborotlashgan jamiyatga o‘tish muhim vazifa, ya’ni jamiyatning barcha jabhalarida mediavositalarining ta’siri dolzarb muammo sanaladi. Shu asosda o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlantirishda mediakompetentlik ustuvor soha bo‘lib qolmoqda. O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda kompetentligi muammosi R.X.Jo‘raev, Sh.E.Qurbonov, E.A.Seytxalilov, F.R.Yuzlikayev, A.R.Xodjaboev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, N.A.Muslimov, X.F.Rashidov, Sh.S.Sharipov, J.A.Xamidov, O.X.To‘raqulov, D.O.Ximmataliyev, O.A.Quysinov kabilar tomonidan tadqiq qilingan [5]. O‘zbekiston Respublikasida mediata’lim muammolari S.Beknazarova, Ya.Mamatova, S.Sulaymanova, S.Babajanov va boshqa bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilib, ilmiymetodik asoslari ishlab chiqilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.Fedorov, A.Milyutina, A.Veryaev, V.Protopopova, Ye.Nikitina, I.Fateeva, G.Onkovich, L.Zaznobina, N.Zmanovskaya kabilar mediata’limni tashkil etish bo‘yicha salmoqli izlanishlar olib borgan[5]. S.S.Babadjonov “Mediakompetentlik pedagogikada umumiy tarzda shaxsning turli ko‘rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatining murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorlikda namoyon bo‘ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi” degan fikrni ilmiy izlanishlari davomida keltirib o‘tgan[6]. M.M.Vaxobovning fikriga ko‘ra, o‘quvchi-yoshlarda mediasavodxonlik, mediamadaniyat va mediakompetentlikni rivojlantirish orqali turli axborot xurujlari, buzg‘unchi yot g‘oyalardan asrash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [6]. “Media muhit” tushunchasi – bu media vositalar yordamida amal qiluvchi, axborot fazosining har bir konkret individuum va umuman jamiyat uchun mos variantini yaratuvchi, hamda zamonaviy axborot jamiyatining asosiy madaniyati hisoblanadigan madaniy muhit[3].

O‘qituvchilarda mediakompetentlikni rivojlantirishga oid nisbatan muhim bo‘lgan quyidagi didaktik shart-sharoitlar:

- mediakompetentlikni rivojlantirish jarayonini pedagogik kuzatish;
- faol kasbiy ijodiy faoliyatga yo‘naltirish;
- o‘qituvchilari pedagogik va tarmoq hamkorligini tashkil qilish[4].

O‘qituvchilarda mediakompetenlikni axborot texnologiyalari vositasida rivojlantirish jarayoni vaziyatini yaratishda mazkur pedagogik jarayon ishtirokchilari, ya’ni, o‘qituvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, uning tarkibiy qismlari mazmuni, kompyuterni o‘quvchining faoliyat ob’ekti sifatida jalb etish holatlari kuzatildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o‘qitishda o‘rganilayotgan pedagogik hodisa yoki jarayonning axborot modeli ham o‘quvchi faoliyatining ob’ekti hisoblanadi. O‘qituvchilarda mediakompetenlikni axborot-komunikatsiya texnologiyalari vositasida rivojlantirish didaktik ta’minotining zaruriy sharti pedagogning mazkur jarayonga tayyorligi hisoblanadi. Zamonaviy pedagog mediakompetentligi axborot ko‘rsatkichlarining rivojlanishi uning mediata’lim faoliyatini amalga oshirishga nazariy tayyorgarligining muhim bosqichi sanaladi[5]. Odatda, pedagoglar media to‘g‘risidagi bilimlarni yaxshi egallagan bo‘ladi va internetning faol foydalanuvchilari hisoblanadi. Shu bilan birga, aksariyat pedagoglar mediakompetentlikdan yuqori darajadagi axborotlarga egaliklarini namoyish etishga

qiynaladilar: ularning media pedagogikaning tayanch atamalari to‘g‘risidagi bilimlari yetarli emas, media va mediata’lim nazariy sohasiga oid bilimlari yetishmaydi, media tili, janrlari nisbiyligi, mediamadaniyat rivojlanish tarixi asosiy faktlari, mediamadaniyat arboblari ijodining o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida faqat taxminiy tasavvurlarga ega bo‘ladilar. Ko‘plab axborot tahdidlar yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishga urinayotgan bir davrda ana shu jarayonlarni psixologik tahlil qilish va yoshlarimizni bunday mediatahdidlardan muhofaza etishning yo‘llarini izlab topib, hayotga joriy etish juda muhim vazifa hisoblanadi. Bunday sharoitda mediakompetentlikni zamonaviy talablarini hisobga olgan holda rivojlantirish, bu jarayonning pedagogik sharoitlarini aniqlash talab etiladi. Hozirda ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga mos holda oliy talim muassasalari talabalarining axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash lozim.

Bo‘lajak pedagoglarda mediakompetentlikni rivojlantirishda talabalarni axborotlashgan jamiyatda mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, ularni ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirish, rost va yolg‘on axborotlarni farqlash, axborotni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarish mediakompetentlikning komponentlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.Чориев. Инсон фалсафаси. Ўқув қўлланма. тошкент, 2007, 395 бет
2. Бзежинский З. Великая шахматная доска. -М., Международные отношения, 1998. С 254.
3. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. -М., Akademia, 1999, С -.95.
4. Тоффлер Э. Шок будущего -М., АСТ, 2001, -560с.
5. Babadjonov S.S. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi («Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitish misolida) 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2018.
6. Po‘latova D.T. Ta’lim jarayoniga elektron axborot ta’lim resurslarini joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari.// Zamonaviy ta’lim.-T.: 2015.- №7.-11-16 b
7. Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish: muammo va yechimlar. Buxoro viloyat XTXQTMOI. Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi tezislar to‘plami. II qism (8-9 yanvar) Buxoro 2016.
8. Огольцова Н.Н. Мультимедийные проекты как средство повышения квалификации педагогов: дис. ... канд. пед. наук / Н.Н. Огольцова. - Новокузнецк, 2007. - 229 с

INDUVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASINI AHAMIYATI

Mustafoyeva Munojat Oltinbekovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamon talabi asosida oliy ta’lim tizimiga kirib kelgan “individual ta’lim trayektoriyasi” tushunchasi dolzarbligini dunyo olimlarining mulohazalari asosida bo’lajak mutaxassisning individual ta’lim trayektoriyasi afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Induvidual ta’lim trayektoriyasi, kasbiy rivojlanish, diagnostik, motivatsiya, yosh xususiyati.

Insoniyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, uning rivojlanishi bevosita ta’lim, ilm-fan bilan bog’liq ekani yaqqol ko’rinadi. Ilm-fan taraqqiyotisiz hech bir soha rivojlanmagan, kashfiyot qilinmagan va zamon yangilanmagan bo’lar edi. Bu haqiqat asrlar davomida o’zgarmadi va hozir ham dunyoning umimiy qiyofasi ilm-fan sohasida takomillashib, o’z shaklini belgilamoqda. Xatto davlatning rivojlanganlik darajasi ulardagi ta’lim taraqqiyoti bilan baholanayotgan bugungi kunda shunga mos tarzda jahonda ta’lim, ilm-fan sohalari shiddat bilan rivojlanishda davom etmoqda. Global rivojlanish esa sohada yangicha yondashuvlar, zamonaviy tendensiyalar, ilg’or o’qitishning tizimlarini joriy etishga keng yo’l ochmoqda. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatida ilm-fan va ta’lim jarayonlari tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda. Bunday rivojlanishlar hech qachon to’xtab qolmaydi va bizdan ham shu global rivojlanish jarayonida sog’lom raqobat muhitini talab etmoqda. O’zbekistonning Baloniya jarayoni ta’lim tizimiga qo’shilishi unga dunyoning ko’plab mamlakatlari bilan oliy ta’lim sohasidagi a’loqalarni yanada kengaytirishni ta’minlaydi. Boloniya deklaratsiyasini amalga oshirilishi bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashni tubdan o‘zgartiradi. Asosiy e‘tibor shaxsning sub’ektiv yo’naltirilganligiga qaratilgan bo’lib, u aniq “harakat traektoriyasini” orqali shaxsiy va kasbiy jihatlarda rivojlanishga ega bo’lishi kerak. Hozirda O’zbekiston oliy ta’lim amaliyotida talabalarning o‘ziga xos kasb-hunarni emas, balki oliy ma’lumotni keyingi rivojlanish, kasbiy martaba va hayot yo‘lini shakllantirish, o‘z -o‘zini anglashi, shaxsiy va professional nuqtai nazardan o‘z-o‘zini namoyon qila olishiga asos sifatida individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega. Oliy ta’lim sohasida “individual ta’lim trayektoriyasi” tushunchasini aniqlashga ma’lum yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramay, ularda har bir talabaning individual ta’lim salohiyati va sub’ektiv sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o’qitish tizimining imkoniyatlari va xususiyatlari to‘liq hisobga olinmaydi. Shuning uchun “talabaning individual ta’lim trayektoriyasi” tushunchasini mohiyatini aniqlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy ta'lim traektoriyasi, o'quvchi (o'qituvchi) harakatining ma'lum bir vektori bo'lib, u juda aniq nazorat nuqtalariga ega bo'lgan ta'lim yo'nalishi orqali amalga oshiriladi.

V.V. Lorens talabaning individual ta’lim yo’nalishini, o’qituvchilarning kasbiy o’zini-o’zi belgilash va o’zini-o’zi anglash uchun pedagogik yordam ko’rsatishda ta’lim standartini tanlash, ishlab chiqish va amalga oshirish sub’ekti pozitsiyasini ta’minlaydigan maqsadli ishlab chiqilgan tabaqalashtirilgan ta’lim dasturi sifatida

belgilaydi[1]. N.G. Zvereva o’z tadqiqotida individual ta’lim trayektoriyasini har tomonlama psixologik-pedagogik diagnostika asosida o’qituvchi bilan birgalikda alohida o’quv intizomi doirasida ishlab chiqilgan va boshqariladigan talabaning shaxsiy xususiyatlarini aks ettiruvchi o’quv faoliyatining o’zgaruvchan tuzilmasi sifatida taqdim etadi [2]. N.N. Surtaeva individual ta’lim trayektoriyasini har bir o’quvchining o’quv maqsadlarini amalga oshirish uchun ularning qobiliyatlari, imkoniyatlari, motivatsiyasi, qiziqishlariga mos keladigan, o’qituvchining ota-onalar bilan o’zaro hamkorlikda muvofiqlashtiruvchi, tashkiliy, maslahatchi faoliyati bilan amalga oshiriladigan o'quv faoliyati elementlarining ma’lum ketma-ketligi sifatida izohlaydi. [3].

Individual ta’lim trayektoriyasini aynan talabalik davrida ya’ni bo’lajak mutaxassislakka tayyorlanish davrida muhim hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan talabalik, aholining boshqa guruhlari bilan solishtirganda, eng yuqori ta'lim darajasi, madaniyatni tez o‘zlashtirishi (atrofga tez moslashuvchanlik) va kognitiv motivatsiyaning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Bu davr axloqiy va estetik his-tuyg’ularning eng faol rivojlanishi, xarakterning shakllanishi va barqarorlashuvi hamda kattalar ijtimoiy rollarining barcha turlarini (fuqarolik, kasbiy va boshqalar) o’zlashtirish davri hisoblanadi. Bu davr iqtisodiy faoliyatning boshlanishi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning mustaqil fikrlash jarayoniga qo’shilishi, ish biografiyasining boshlanishi va o’z oilasini yaratishni tushunish mumkin. Motivatsiyaning o'zgarishi, qadriyat yo’nalishlarining butun tizimi, bir tomondan, kasbiylashuv bilan bog’liq ravishda maxsus qobiliyatlarning intensiv shakllanishi, ikkinchi tomondan, bu yoshni xarakter va aqlning shakllanishining markaziy davri sifatida ajratib turadi. Shu bilan birga, aqlning tuzilishi juda individual va o’zgaruvchandir. Mantiqiy komponent, og’zaki, kontseptual fikrlash komponenti aql tuzilmasida yetakchilardan biri bo’lib qolmoqda. O’qish va o’z-o’zini tarbiyalash insonning aqliy faolligi va intellektual qobiliyatining yuqori darajasini ta'minlaydigan juda kuchli, doimiy ishlaydigan omil bo’lib chiqadi. Bu yoshda mehnat qobiliyati, faol faoliyat dinamikasi va mahsuldorlikning uzluksiz o’sishi kuzatiladi. Og’zaki intellektning rivojlanishi, dinamik hayajon, kuzatish darajasi va umumiy kuzatish madaniyati o’sishi kuzatiladi.

Talabalik davrida inson harakteri qiyin hayotiy vaziyatlarda sodir etilgan xatti-harakatlarning oqibatlarini yetarlicha chuqur tahlil etmasdan o’zini tezda ko‘rsata olish istagi bilan orqali yaqqol ko‘zga tashlanadi. Individual ta’lim trayektoriyasini aynan shu davrda shakllantirish nafaqat ta’limni balki soha rivojlantirishda ham muhim rol o’ynaydi.

Xulosa o’rnida, zamon talablari asosida oliy ta’lim tizimiga kirib kelgan individual ta’lim trayektoriyasining joriy etilishi nafaqat bo’lajak mutaxassislar kasbiy rivojlanishiga, balki oliy ta’lim muassasasining istiqbolini belgilab beradi. Binobarin, zamon talabi doirasida bo’lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni oliy ta’limni shaxsiy va individual rivojlanish qonuniyatlari talabaning individual kasbiy yo’nalishi, shuningdek, har bir talabaning individual ta’lim trayektoriyasini uning tarkibiy qismlarining birligida loyihalash imkonini beradigan tegishli texnologiyalarni yo'naltirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lorens, V.V. Bo’lajak o’qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash sharti sifatida individual ta’lim trayektoriyasini loyihalash / V.V. Lorens // dis. p. f. n. - Omks, 2001. - 250 b.
2. Zvereva, N.G. Murakkab psixologik-pedagogik diagnostika asosida pedagogika universiteti talabalari uchun individual ta'lim yo'nalishlarini loyihalash dis. p. f. n / N.G. Zvereva. - 2007. - 232 b.
3. Surtayeva, N.N. Noan’anaviy pedagogik texnologiyalar: Parasentrik texnologiya / N.N. Surtayeva // O’quv-ilmiy qo’llanma. M. - Omsk, 1974. - 22 p.
4. Munojat M. INDUVIDUAL TA’LIM TRAYEKTORIYASI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 36-41
5. Мустафоева М. Induvidual ta ‘lim trayektoriyasi-talabaning ta ‘lim sohasidagi shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishning individual yonalishi //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 87-88.
6. Мустафоева М. Talabalarni induvidual ta ‘lim trayektoriyasi orqali oqitishning samaradorligi //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 88-90.

DASTURLASH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA WEB ILOVALAR YARATISH VA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Normatov Nizomiddin Kamoliddin o‘g‘li,
Abdug‘offorov Xurshidbek Akmal o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
normatov@jbnuu.uz

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini samarali tashkil etish ta’lim samaradorligi omilidir. Mamlakatimiz ta’lim tizimida bugungi zamon talabiga va pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dasturiy vositalar ishlab chiqish va o‘quv jarayonini tashkil etishga doir samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa ham web dasturlashga yo‘naltirilgan fanlarini o‘qitishning ilmiy asoslangan andoza va mobil ta’limga asoslangan dasturiy vositalari yetarli darajada emasligini ko‘rishimiz mumkin. Maqolada web ilovalarini yaratishda ishlatiladigan dasturiy tillar, qo‘llaniladigan texnologiyalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun tavsiyalar, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni, va boshqa muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Dasturlash, algoritm, operator, funksiya, ilova, pedagogik qobiliyat, texnologiya, frontend, backend.

Talabalar darslik mashg‘ulotlari va loyihalar ustida ishlash orqali o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Bu loyihalar, real hayotda dastur yaratish jarayonini

o‘rganish va amaliy tajribani oshirish uchun yaxshi imkoniyatlarni ta’minlaydi. Dasturlashni o‘rganishda o‘zlashtirilgan darslar juda samarali bo‘lishi mumkin.[1]

Bu darslar, har bir talabaning ma’lumot darajasiga va tajribasiga qarab moslashtirilgan. Bu metodika orqali, har bir talaba o‘zining shaxsiy kelajak yo‘lini (kasbini) tanlashi va uni rivojlantirishga harakat qilishi mumkin. Darslar amaliy mashg‘ulotlarga ega bo‘lishi juda muhimdir. Bu ularning o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llab, foydalanib, hayotga tadbiq etishi juda muhimdir. Bu ularning dasturlashda ko‘p tomondan qanday qilib fikrini boshqarishga imkon beradi va ularni real hayotda rivojlantirishga va jamoaviy ishlashga tayyorlaydi.[2]

Bu, talabalarga o‘zlarining rivojlanishini kuzatishni aniqlashga yordam beradi. Bu metodikalar, talabalarni dasturlash sohasida mustaqil va samarali ravishda tayyorlashga yordam beradi. Ular web ilovalarini yaratish va kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun kerak bo‘lgan malakalarni o‘rganish va rivojlantirishlari uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi.[3]

Web ilovalarini yaratishda mashhur dasturlash tillari masalan, HTML, CSS, va JavaScript va PHP kabi tillarni o‘rganish juda muhimdir. Bu tillar orqali web sahifalarni yaratish, dizayn qilish va interaktivlik qo‘shish mumkin. O‘rgangan bilim va ko‘nikmalarni amaliy ravishda sinab ko‘rish juda muhimdir. Eng yaxshi o‘rganish vositasi proyekt (loyiha) larni boshlashdir.[4]

Dasturlashda kuchli mutaxassis bo‘lishni xoxlasangiz, jamoa bilan ishlashni rivojlantirish juda muhim. Ishga joylashishingizda o‘z proyektlaringizni portfolio sifatida taqdim eting. Bu potentsial ishga solishtiruvchilarga sizning qobiliyatlaringiz va mahoratingizni ko‘rsatadi. [5]

Texnologiyalar va dasturlash tillari har kuni o‘zgaradi. Hozirgi texnologiyalar bilan tanishing va yangi texnologiyalarni o‘rganishga intiling. Bu, kasbiy faoliyatda oldinga qadam qo‘ymoqchi bo‘lgan talablar uchun muhim. Talabalar Git va GitHub kabi versiyalash tizimlarini o‘rganishlari va ularga dastur kodlarini saqlash, nazorat qilish va o‘zgarishlarni boshqarishni o‘rganishlari ham mumkin bo‘ladi.[6]

Shuningdek talabalar dasturlash sohasidagi xavfsizlik omillarini o'rganish, muammolarni aniqlash va hal qilishga yordam beruvchi texnologiyalar va protokollarga ega bo'ladi. Ushbu tezisda web ilovalarini yaratishda ishlatiladigan dasturiy tillar, qo'llaniladigan texnologiyalar, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun tavsiyalar, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni va boshqa muhim ma'lumotlar keltirilgan.[7]

Talabalarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash uchun amaliy mashg'ulotlar, loyihalar ustida ishlash, dasturlash proyektlari va dasturlashda jamoaviy ishlash va uni keng ommaga taqdim etish imkoniyatlari haqida tushunchalar berilgan. Ular o‘zlarini dasturlash olamida rivojlantirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish va qo‘llash orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashadi.[8]

O‘quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishda masofali o‘qitish alohida o‘rin egallaydi. Masofadan turib o‘qitish bu inson o‘zining bilim darajasini oshirishni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda xoxlovchilar, maktabga borish imkoniyati bo‘lmagan, nogironlar, keksa yoshdagilar kabilar uchun katta yo‘l ochib beradi.[9]

Masofali o‘qitishda biz hech kimni majbur qila olmaymiz. Bunda xoxlovchi o‘z imkoniyatiga qarab muloqot qilish, qo‘shimcha axborot to‘plash va fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masofali o‘qitish hozirgi kunning barcha talablariga javob beradi, ayniqsa, yo‘l xarajatlarini hisobga olmaganda, kunduzgi ta’limni barcha sistemalarini tashkil qilish mablag‘lariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.[10]

Ma’lumki, ko‘p yillar davomida sirtqi ta’lim asosan televedeniya, radio yoki matbuot orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Lekin bularni amalga oshirish ko‘pgina faktorlar hisobida qiyinchilik bilan amalga oshirilib kelindi. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot fan, madaniyat, texnika va texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir.[11]

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz berishini taqozo etdi. Dars davomida o‘quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish dolzarb mavzuga aylandi. Ta’lim jarayoni markazida o‘quvchining turishi va sub’yekt sifatida faoliyat ko‘rsatishi lozim bo‘lib qoldi. Agar dars jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mukammal rejalashtirilmasa, aniq qo‘yilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Natijada zaif, yetarli darajada tashkil etilmagan dars samarasiz yakunlanadi.[12]

Tezisni oxirgi qismining o‘zi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun muhimdir, chunki bu qismda talabalar uchun muhim maslahatlar va yo‘riqnoma taqdim etilgan. Ular dasturlashda jamoaviy ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va loyihalarni boshqarish jarayonida tajribani oshirishga katta yordam beradi.[13]

Bu qismlar dasturlash sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy ma’lumotlarni taqdim etadi. Talabalar o‘zlarini dasturlashda rivojlantirish, ma’lumotlarni o‘rganish va amaliyotga o'tkazish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashadi.[14]

Aholi malakaviy darajasi tabiiy holda mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida, shuning bilan birga demokratik jamiyatning shakllanishida, millatning ijtimoiy ma’naviy kamol topishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Talabaning bilim saviyasi, loyihani nechog‘li o‘zlashtirganligi esa, uning bajargan mustaqil topshiriqlarida o‘z ifodasini topadi.[15]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Obid o’g A. S. J. et al. Numpy Library Capabilities. Vectorized Calculation In Numpy Va Type Of Information //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 15. – C. 132-137.

2. Nizomiddin N. et al. TA’LIMDA DASTURLASH JARAYONINI BAHOLASHGA ASOSLANGAN AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMNI TADBIQ ETISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 24-28.

3. Чорркулов Г., Норматов Н., Мамараимов А. Роль анализа текстовых связей в электронных документах в информационной безопасности //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 67-71.

4. Kamoliddin o‘g‘li N. N., Mukhtorov S. THE ROLE AND IMPORTANCE OF USING FILES IN STORING LARGE VOLUMES OF DATA //INNOVATION

IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 35. – С. 179-184.

5. Норматов Н., Мамараимов А. Ta’lim tizimida baholash tizimini avtomatlashtirishni joriy etish jarayonlari va foydalanish metodlari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 356-359.

6. Мамараимов А., Чорёркулов Г., Норматов Н. Tanib olish modullarini dasturiy amalga oshirish //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 38-44.

7. Ziyoda M., Nizommiddin N. RAQAMLI IQTISODIYOTDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TURLI SOHALARDA AVTOMATLASHTIRISH VOSITALARI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 246-250.

8. Kamoliddin o’g’li N. N., Maqtagγl A. AN INTELLECTUAL SYSTEM FOR LEARNING, MONITORING AND EVALUATING KNOWLEDGE //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 6. – С. 94-102.

9. Kamoliddin o‘g‘li N. N., Qodir o‘g‘li B. J. PYTHON TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O ‘QUVCHILARNING BILIMINI NAZORAT QILISH METODIKASI //ISSN 2181-4147 VOLUME 1, ISSUE 34 DECEMBER 2023. – 2023. – Т. 1. – №. 34. – С. 409.

10. Jamshid A. S., Mamaraimov A. A., Kamoliddin o‘g’li N. Numpy Library Capabilities. Vectorized Calculation In Numpy Va Type Of Information.

11. Мустафоев, Ерали, and Жавлон Холматов. "Brayl matn tasviri sifatini oshirish usullari." Информатика и инженерные технологии 1.2 (2023): 23-27.

12. Холматов, Джавон, and Эрали Мустафоев. "Zamonaviy diskret matematikaning vazifalari." Информатика и инженерные технологии 1.2 (2023): 352-356.

13. Mustafoyev, E. M., and Z. N. Maydonova. "MOBIL ILOVA YARTISHDA FOYDALANILGAN ONLAYN APP INVERTOR PLATFORMASIDAN FOYDALANISH." Лучшие интеллектуальные исследования 10.6 (2023): 23-28.

14. Turapova S. K., Babakulov B. M. IMPROVING TECHNOLOGIES FOR TRAINING 12-14-YEAR-OLD VOLLEYBALL PLAYERS IN SPORTS SCHOOLS FOR CHILDREN AND TEENAGERS //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2023. – Т. 4. – №. 03. – С. 198-206.

15. Mamatkulovich, B. B. (2022, May). Automatic Student Attendance System Using Face Recogniton. In Next Scientists Conferences (pp. 6-22).

Obid o‘g‘li S. J., Ilhom o‘g‘li A. S. RANDOM FOREST MODELI VA MODELNING GIPERPARAMETRLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 6. – С. 103-110.

TA’LIM TIZIMIDA INTELLEKTUAL TIZIMLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

PhD, prof. O.S.Abdullayeva
Namangan muhandislik-qurilish instituti,
magistrant D.U.Soliyeva
Namangan davlat univeristeti

Annotatsiya: Maqolada Oliy ta’limni innovatsion rivojlantirish sharoitida ta’lim jarayonlarini boshqaruvchi intellektual ta’lim tizimlaring imkoniyatlari va xususiyatlari haqida so’z boradi. Oliy ta’lim muassalarida intellektual tizimlardan foydalanish ta’lim sifatining oshishi , ta’lim jarayonlaridagi shaffoflikni ta’minlashi , talabalar uchun yaratiladigan qulayliklarning tahlili ko’rildi. Sun’iy intellektlar, bilimlar bazasi va ma’lumotlar bazalarining intellektual tizimdagi ahamiyati va ularni qo’llash tavsiya etildi. Bu tizimlarning tadbig’i , o’qish sifatining oshishi bilan baholandi.

Kalit so‘zlar: intellektual tizim, sun’iy intellekt, bilimlar bazasi, intellektuaintel ma’lumotlar bazasi , ekspert tizimlar, bilimlarga asoslangan tizimlar.

Zamon shiddat bilan rivojlangan sari ta’lim jarayonlarini boshqarish uchun intellektual tizimlar yaratish dolzarb mavzuga aylanib kelmoqda. Bu tizim ko’plab qulayliklarni o’z ichiga olibgina qolmay, har bir talabaning o’ziga xos ta’lim dasturini tuzishga imkoniyat yaratadi.. Bu talabalarga ularni shaxsiy ravishda o’rganishga yordam beradi va ularni tahlil qilish , mulohazalar yuritish da o’zlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, talabalar uchun onlayn ta’lim imkoniyatlarini yaratishda o’z vazifasini bajaradi. Bu talabalarga mashg’ulotlarni amalga oshirishda hamda vaqtlarini tejashda yordam beradi. Qo’shimcha tarzda aytish joizki, intellektual tizimlar o’quv jarayonini yanada qulay va o’qitishning sifatini oshirishga yordam beradi. Virtual labaratoriyalar, animatsiyalar, interktiv darsliklar va boshqa interektiv vositalar orqali talabalarni qiziqtirish , ilmiy materiallarni o’rganishni qulayroq qilish va ta’limni yanada moddiy va ma’naviy ravishda kashfiyotchi qilish imkoniyatini yaratadi. Bu tizimlar o’quv jarayonida ma’lumotlar almashishni, tarqatishni va doimo o’zgaruvchilar bilan ta’minlashni osonlashtiradi. Bu o’qituvchilar va talabalar uchun yangi ma’lumotlarni o’rganish va ularni qo’llashda yordam beradi.Talabalarning tajribasiga va bilim darajalariga qarab , ta’limni moslashtirish va talabalarni yanada kuchliroq qilishga yordam beradigan adaptiv ta’lim texnologiyalarini o’z ichiga oladi. Bu tizimning foydalari o’qituvchilar, talabalar va ta’lim muassalari uchun yangi imkoniyatlarni ochishda ko’rsatilgan.

Oliy ta'lim sharoitida intellektual ta'lim tizimi, ma'naviy va ma'rifatli o'sishning asosiy vositasidir. Bu tizim, talabalarga o'zlarining o'zaro munosabatlari, ijtimoiy ma'naviyat, va dunyoqarashlar haqida bilimlarini rivojlantiradi. Intellektual ta'limda turli shakllar va usullar mavjud bo'lib, ular orasida darsliklar, maqolalar, fan-ta'lim loyiha va interaktiv elektron ta'lim vositalari kabi narsalar kiritiladi.

Oliy ta'lim tizimlarida intellektual ta'lim uchun imkoniyatlar kengdir. Bu imkoniyatlar dastlabki qatorda kutubxonalarning yorliqlari, va muassasalar tomonidan

taklif etiladi. Bu esa talabalarni ko'plab to'plamlar, seminarlar, va davra suhbatlari orqali bilim olish kabi imkoniyatlardan foydalanishlariga yordam beradi.Internet orqali ma'lumotlar dunyosiga kirish, onlayn ta'lim platformalari, virtual tizimlar va interaktiv darslar orqali talabalar birgalikda o'rganishlari va ma'naviy munosabatlari rivojlantirishlari mumkin. Bu usullar talabalarga o'zlarining o'rganish va tajriba almashish jarayonlarini o'zlashtirishda yordam beradi. boshqarish tizimlari haqida to'liqligicha yozishdan avval intelektual bilimlar bazasi hamda juda tez ommalashyotgan sun'iy intelektlar haqida so'z yuritsak.

Hozirgi zamon mutaxassisi kerakli axborotni topish, ajratib olish , tahlil qilish, tashkillashtirish, saqlash hamda kerakli ko'rinishda tasvirlashni bilishi kerak. Bu esa undan tahlil va sintez qilish, umumlashtirish, abstraksiyalash, modellashtirish, o'xshashliklarni topish va shunga o'xshash boshqa aqliy faoliyat ko'nikmalarini egallashini talab qiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, biror hodisa, voqea yoki soha haqida absolyut bilim beradigan axborot tizimini yaratish juda mushkul ish hisoblanadi. Bilimlar bazasini boshqarish usullari bilimlar bazasini yaratish bilan bevosita bog'langan bo'ladi.

Bilimlar bazasini boshqarish uchun maxsus dasturlar tuziladi. Bunday dasturlarning vazifasiga quyidagilar kiradi:

• bilimlar bazasidagi ma'lumotlarga kirish;

• bilimlar bazasidagi axborotlarni modifikatsiyalash (yangilash);

• kompyuter o'chirilganda yoki dasturlar ishi to'xtab qolganda boshqarishning tezda qayta tiklanishi;

• bilimlar bazasidan bir vaqtda bir necha kompyuterning foydalanishi va foydalanuvchilarning bir - biriga xalaqit bermasligi;

• bilimlar bazasidagi ma'lumotlardan foydalanishning cheklanganligi va ularni tashqi ta'sirlardan himoyalanishi.[2]

Bilimlar bazasi maxsus tashkil etilgan firmalar, guruhlar yoki yakka dasturchilar tomonidan yaratiladi. Foydalanuvchilar esa bu dasturlarni magnit yoki lazer disklariga yozib oladilar va ulardan foydalanadilar.

Intellektual ma'lumotlar bazasi bu — foydalanuvchilarga barcha tegishli ma'lumotlarni taqdim etishini ta'minlash uchun foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqada bolgan sun'iy intellekt (SI) komponentlariga ega to'liq matnli ma'lumotlar bazasi. SI qismi ko'pincha neyron tarmog'ining ulanish modellariga asoslangan intellektual operatsiyalar va bilim namoyishlarini ta'minlaydigan qidiruvlar paytida ko'rinadi. Demak, intellektual ma'lumotlar bazasi oddiy ma'lumotlarni emas, balki ma'lumotlarni boshqaradigan va uni foydalanuvchilar uchun tabiiy va informatsion tarzda taqdim etadigan tizimdir. Natijada, uning sig'imi oddiy hisob yuritishdan ancha yuqori.[7]

Intellektual ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish, undan samarali foydalanishni bilgandagina foydali bo'ladi. Bilimlar bazasidan maksimal darajada foydalanish bo'yicha quyidagi tavsiyalarga amal qilinishi, samaradorlikni yanada oshiradi.

1. Doimiy ravishda bilimlar bazasini yangilash. Yangi ma'lumotlar paydo bo'lganda, ularni yangilab turish uchun bilim bazasiga qo'shish.

2. Ma'lumotni oson topish uchun teglar va kalit so'zlardan foydalanish. Ma'lumotlarni teg va kalit so'z bilan belgilash kerakli ma'lumotlarni qidirish va topishni osonlashtiradi.

3. Bilimlarni boshqalar bilan baham ko'rish.

Intellektual axborot bilimlar bazasini yaratish uchun dasturiy vositani tanlashda foydalanish qulayligi, moslashtirish imkoniyatlari, xavfsizlik, kengayish va boshqa tizimlar bilan integratsiya kabi omillarni hisobga olish kerak. Shuningdek, vosita mijozning o'ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga mos kelishini ta'minlash muhimdir.[1]

Bilimlar bazasi tizimining afzalliklari:

- foydalanuvchilarga ekspert qarorlarini qabul qilishda yordam berish;
- mavjud ma'lumotlar va saqlangan bilimlarni ko'rib chiqish orqali yangi bilimlarni yaratish;
- turli sohalarda ma'lumotlarni guruhlash;
- katta hajmdagi tuzilgan va tuzilmagan ma'lumotlarni oqilona va samarali boshqarishdir.

Sun'iy intellekt sitemasida bilimlar bazasi muhim o'rin egallaydi. Shu sohaning ilg'or mutaxassisi Stenford universiteti professori Edvard Feyganbaum bilimlar asosida, Komp’yuter ga tuzilgan intellektual dastur juda qiyin bo'lib, bunda ekspertga murojaat etishni ta'kidlaydi. O'zi sun'iy intellekt atamasi aniq bir tushuncha bo'lmay, biz uni sinonimi sifatida «Ekspert tizimlar» va «Bilimlarga asoslangan tizimlar» tushunchalarini ishlatamiz.[5]

Sun'iy intellect (SI) — bu inson o‘y-fikrini kompyuterda aks ettiruvchi dasturlar tizimidir. Bu kabi tizimlar yaratish uchun, aniq bir masalani yechuvchi kishining fikr jarayonini o‘rganish va shu asosda kompyuter tushunadigan tilda dastur tuziladi. Bu sohada asosan, «nima bo'ldi, agar» turdagi evristik (noformallashgan) vazifalar jarayoni kompyuter da hal etiladi. Bunda asosiy g'oya «qanday hal etish kerak» degan vazifani beruvchi eski formallashgan algoritmlardan predmetli soha mutaxassislari tomonidan jamlangan bilimlar bazasida «nimani hal etish kerak» degan mantiqiy dasturlashtirishga o‘tishdir. Sun’iy intellekt kompyuterlarga o‘zlarining tajribalarini o‘rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo‘lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. SI ni amalga oshirishning ko‘p holatlarida - kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha - chuqur o‘rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma’lumotlarni qayta ishlash va ulardagi belgilarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o‘rgatish" mumkin.[4]

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasalarida intellektual ta'lim tizimlaridan foydalanish istiqbolli kelajakning poydevoridir. U talabalarga oson va tezkor ta'lim olishning imkoniyatini yaratibgina qolmay, oliy ta’lim muassasalari bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rtasida axborot ko‘prigi vazifasini o‘taydi hamda oliy ta’lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma’lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog‘oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi. Bu platformani xar bir muassasa uchun yagona admini tayinlanadi. Admin muassasa uchun professor xodimlarni, talabalarni, magistrlarni kiritadi. Shundan so’ng o’quv rejadagi soatlarini, bayram kunlarini va akademik ta’til kunlarini kiritib chiqadi va dars

jadvalini yaratadi har bir professor o'qituvchilarni bog'lab chiqadi. Ular uchun alohida parol va loginni beradi. O'z shaxsiy kabineti orqali professor o'qituvchilar dars reja va topshiriqlarni berib, har kunlik baholab boriladi. O'sha ular uchun jurnal xisoblanadi, talabalar bunda baholarini kuzatib boradi, qancha dars soat qoldirgani, qaysi fandan bahoni o'zlashtirishmaganlarini kuzatib borishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva, O. S., & Muhammadjonov, A. O. (2023, September). Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography%. In 2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET) (pp. 588-591). IEEE.
2. Abdullayeva, O. S., Xusayinova, G. A., & Muhammadjonov, A. O. (2024, February). Technology of projecting of management system for department activities. In Third International Conference on Optics, Computer Applications, and Materials Science (CMSD-III 2023) (Vol. 13065, pp. 303-307). SPIE.
3. Бекназарова, С. С., & Абдуллаева, О. С. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ РАЗРАБОТКИ И ВНЕДРЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАФЕДРЫ. Science and innovation, 2(Special Issue 10), 465-468.
4. Safibullaevna, A. O., & Azamxonov, B. S. (2024). TECHNOLOGY OF CREATION AND APPLICATION OF AN INTELLIGENT INFORMATION SYSTEM. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 5(01), 31-38.
5. Ozoda, A., & Azamxonov, B. S. (2023). MEANS OF ORGANIZING AN INTELLIGENT INFORMATION SYSTEM. Innovations in Technology and Science Education, 2(17), 438-449.
6. Озода А. и Ойдин З. (2023). РАЗВИТИЕ ИНФОРМАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩЕГО МЕНЕДЖЕРА ОБРАЗОВАНИЯ. Инновации в области технологий и научного образования , 2 (9), 416–425.
7. Абдуллаева, О. (2023). НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАФЕДРЫ В КОНТЕКСТЕ ВНЕДРЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ. Наманганский давлат университета Ильмий ахборотномаси , (6), 461-468.

MAKTABLARDA O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL O'QUV NATIJALARINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Pardayev Sherzod Mamasharipovich
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
sherzodpardayev84@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning individual o'quv yutuqlarini baholashning zamonaviy texnologiyalari sifatida formativ va summativ baholashlar

mohiyati to‘g‘risida so‘z yuritiladi shuningdek, formativ va summativ baholashning asosiy farqlari bayon etilgan. O‘quvchilarning o‘quv natijalarini baholashning an’anaviy baholash tizimining afzalliklari hamda yutuqlari, shuningdek baholashga mezonli yondoshuvning amaliy ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: baho, baholash, o‘quvchilarning o‘quv natijalari, formativ baholash, summativ baholash, mezonli baholash.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika sohalarining juda tez sur’atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya masalalariga yangicha yondoshishni talab qilmoqdaki, bu o‘z navbatida, o‘qituvchilar zimmasiga yanada yuksak vazifalar va mas’uliyatni yuklaydi. Bu borada ta’kidlashimiz mumkinki, bizning mamlakatimizda yangi ta’lim tizimi modernizasiya qilinib, jahon miqyosidagi ta’lim makoniga kirish arafasida. Bu ta’lim-tarbiya jarayonidagi sezilarli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Buning sababi shundaki, ta’lim paradigmasi o‘zgargan, ta’lim mazmuni ham yangilangan, yangi yondashuvlar va yangi g‘oyalar paydo bo‘lgan[1,3].

Kelajak avlodni jamiyat talablariga mos ravishda tarbiyalash va o‘qitishda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatining ilmiy-amaliy asoslarini o‘zlashtirishi muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Raqamli manbalar oqimi kuchaygan davrda inson qobiliyati, iste’dodi, atrofmuhitdagi yaxshi munosabatlarni rivojlantirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali o‘qitish ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’limning zamonaviy talabi – ijodkor, zamonaviy bilimga ega raqobatbardosh va malakali insonni tarbiyalashdan iborat[2].

Mezonli baholash – bu ta’limning maqsadi va mazmuniga mos keladigan, o‘quvchilarning o‘quv-bilish malakalarini, o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shadigan, aniq belgilangan, jamoa bilan ishlab chiqilgan, ta’lim jarayoni ishtirokchilariga oldindan ma’lum bo‘lgan muayyan mezonlar bilan bilim oluvchilarning o‘quv yutuqlarini taqqoslashga asoslangan jarayon. Ilgari maktabni boshqarish muhimligi ta’kidlangan bo‘lsa, bugungi kunda asosiy e’tibor maktab direktorlari ko‘magida o‘qitish jarayonida yetakchilik jarayoniga, baholash va yuqori malakali o‘qituvchilar va innovatorlarning ishlarini rivojlantirishga qaratilmoqda. Avvaldan biz sifatni nazorat qilganmiz, kelajakda ham biz uni ta’minlaymiz. Albatta, mavjud baholash tizimining afzalliklari ham bo‘lganki, aynan shuning uchun ham uzoq vaqt saqlanib kelingan. Bu afzalliklar: birinchidan, oddiyligi, ikkinchidan, an’anaviylik, uchinchidan, hamma uchun tushunarli, to‘rtinchidan, hammabop, universal, beshinchidan, ta’siri kuchli. Mavjud baholash tizimining kamchiliklari: o‘quvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilar uchun tushunarli bo‘lgan rejalashtirilgan ta’lim natijalariga erishish uchun baholashning aniq mezonlari mavjud emas; o‘qituvchi har bir o‘quvchining yagona mezonlarga erishishiga emas, balki butun sinfning o‘rtacha bilim darajasiga e’tibor qaratib, belgi qo‘yadi; mavjud baholash tizimi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini emas, balki bilimlarni o‘zlashtirish natijasini aks ettiradi; bilim oluvchilarga berilgan baholar o‘quv dasturining alohida bo‘limlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarning aniq elementlarini o‘zlashtirish haqida tasavvur bermaydi, bu esa har bir o‘quvchi uchun individual ta’lim trayektoriyasini aniqlashga imkon bermaydi; ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida operativ aloqa mavjud emas, bu esa o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan yuqori motivasiyasiga yordam bera

olmaydi. An’anaviy baholash tizimi o‘quvchining darsga tayyorgarligini muntazam tekshirish va baho qo‘yish bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, barcha o‘quvchilar bilimini baholash bitta o‘qituvchining shaxsiy munosabati va bilimidan kelib chiqib amalga oshiriladi, baholash jarayoni to‘liq inson omiliga bog‘liq, zamonaviy talablarga mos keladigan individual yondashuv va aniq baholash mezonlari mavjud emas. An’anaviy eski baholash tizimida ob’ektivlik eng katta muammolardan biri bo‘lib kelgan. Bunga sabab, tizimning deyarli 90 foizi inson omiliga asoslangan edi. Ya’ni o‘quvchi bilimiga beriladigan baho birgina o‘qituvchining munosabatidan kelib chiqib belgilangan. Mezonli baholash tizimida esa inson omilini imkon darajada minimallashtirish ko‘zda tutilgan[4].

Mezonli baholash vazifalari quyidagilardan iborat: darsning har bir qismida har bir o‘quvchining tayyorgarlik darajasini aniqlash; o‘quvchining rivojlanish yutug‘ini nazorat qilish; o‘quvchining o‘quv jarayonidagi xato va kamchiliklarini aniqlash va tuzatishga imkon berish; turli ishlar davomida olingan bahoning adolatliligini ta’minlash; ta’lim dasturining samaradorligini tahlil qilish; o‘quv jarayoni va bilimlarni o‘zlashtirish to‘g‘risida o‘quvchi, o‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasida qayta bog‘lanishni ta’minlash. Amaliy ahamiyati quyidagilar: faqat o‘quvchilarning bajargan ishi baholanadi; bajarilgan ish oldindan belgilangan namuna (standart) bilan taqqoslanadi; o‘quvchi o‘z ishini baholashga imkon beradigan va ota-onalarga ma’lumot bera oladigan aniq baholash algoritmini biladi; mezonli baholash muayyan ta’limiy maqsad bo‘yicha baholanadi[5]. Shuningdek, mezonli baholash texnologiyasi o‘quvchilarda ortiqcha xavotirlanishni yo‘qotadi va o‘qituvchini «hakam» rolidan halos qiladi, bu esa o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash, o‘z faoliyatiga baho berish va javobgarlikni rivojlantirishga yordam beradi, o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, o‘quvchi muvaffaqiyotini baholashning obyektivligi oshadi. Mezonli baholash tizimi avvalgi baholashdan formativ va summativ baholash tizimining joriy etilishi bilan farq qiladi. Formativ baholash o‘qitishni, usullarni va ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish yo‘llarini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, jamlovchi baholash maqsadli baho qo‘yish va sertifikatlash yoki o‘qitishning oldinga siljishini qayd etishda o‘quv natijalarini chiqarish uchun zarur[6].

Mezonli baholash asosida 4K usuli — ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, muloqot va kooperasiya (hamkorlik) yotadi. Tizim quyidagi tamoyillarga asoslangan:

a) reproduktiv daraja. Reproduktiv darajadagi topshiriqlar mazmuni o‘quvchilarning, o‘quv materialini qayta ishlamagan holda esda saqlab qolish qobiliyatini aniqlab beruvchi qonunlar, xossalar, formulalar, tushunchalar va atamalarning mohiyatini o‘rganish, eslab qolish va idrok etishga mo‘ljallangan;

b) produktiv daraja. Topshiriqlar mazmuni mavzuni o‘zlashtirishda fanning qonun va qonuniyatlari, xossalari va formulalarini qo‘llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish, bir qancha qonun va 1qonuniyatlardan foydalanishdan iborat. Shu bilan birga, umumlashtirish va xulosa qilish talab etiladi;

v) mulohaza yuritish. Intellektual darajadagi topshiriqlarning mazmuni o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo‘llashni, qonun va qonuniyatlardan foydalangan holda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirishni talab qiladi.

An’anaviy baholashda o‘quvchilar bilimi 5 balli tizimda baholanib, kunlik bahosi ko‘proq choraklik bahosini chiqarishda asosiy rol o‘ynaydi va uni unchalik ham xolis baholash deb hisoblab bo‘lmaydi. Chunki, o‘qituvchi o‘quvchilarni 5 balli tizimda nisbiy baholab keladi. Yangi baholash tizimi esa mezonlarga asoslangan bo‘lib, bunda o‘quvchining aniq qaysi bilimi, qaysi ko‘nikmasi asosida baholanishi oldindan ishlab chiqilgan. Shu asosida ularning bilimi, olgan bilimini amaliyotga qo‘llashi, mulohaza, mushohada qilish ko‘nikmalari ham baholanadi[8].

Mazkur tizim amaldagi baholashdan mazmun va yondashuv jihatdan tubdan farq qiladi. Hozirda qo‘llanilayotgan baholash tizimining afzalliklari bilan birgalikda kamchiliklari ham mavjud. Amaldagi baholash tizimi asosan o‘quvchini yangi mavzuni qanchalar yaxshi o‘zlashtirgani va ma’lumotlarni yodda saqlab qolinganligini baholovchi mezonlarga asoslangan. Taklif etilayotgan baholashdagi mezonlar o‘quvchilarning egallagan bilimi natijasida hosil bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarini baholaydi. Bunda o‘quvchilarni uchta yo‘nalishga: savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarga e’tibor qaratiladi. Amalda baholash o‘qitish jarayoning so‘nggi nuqtasi sanalgan bo‘lsa, taklif etilayotgan tizimda baholash o‘quv jarayonining kulminatsiyasi hisoblanib, baholash natijalariga ko‘ra o‘qituvchi keyingi o‘quv maqsadlarini belgilaydi va faoliyatini korreksiyalaydi[7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги «Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ 4623-сон Қарори

2.Pardayev Sherzod Mamasharipovich. (2023). O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL O‘QUV NATIJALARINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, *9*(9), 193–196. https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.870

3.Pardayev, S. M. (2023). POSSIBILITIES OF USING DIGITAL PLATFORMS FOR ASSESSING INDIVIDUAL EDUCATIONAL ACHIEVEMENTS OF STUDENTS. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, *3*(10).

4.Mamasharipovich, P. S. (2023). O ‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL BILIMLARINI BAHOLASHNING HOZIRGI ZAMONDAGI O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *10*(6), 14-18.

5.Pardayev, S. M. (2023). FORMATIVE ASSESSMENT AS A TOOL FOR MONITORING STUDENTS'INDIVIDUAL LEARNING ACHIEVEMENTS AT SCHOOL. *Thematics Journal of Education*, *8*(Q1).

6.Пардаев, Ш. (2023). Роль информационных технологий в формировании методических навыков студентов. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(1), 215-217.

7.Pardayev, S. (2023). USE OF PEDAGOGICAL, INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, *6*(2).

VIRTUAL LABORATORIYA KOMPLEKSLARI VA FIZIK LABORATORIYA QURILMALARI METODIK TA'MINOTINING QIYOSIY TAHLILI

Abduraxmanov Zoxidjon Baxtiyor o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali tayanch doktoranti
abduraxmanov_94@jbnuu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizik laboratoriya qurilmalari va virtual laboratoriya komplekslarining imkoniyatlari, afzalliklari va vazifalari hamda ularning metodik ta'minotining qiyosiy tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fizik laboratoriya qurilmalari, virtual laboratoriya komplekslari.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda[1,2].

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar ta'lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda.

Hozigi kunda o'rganish uchun darsda va darsdan tashqari vaqtlarda ma'lumotlarni axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan olishlikni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ta'lim tizimini tashkillash imkoniyatlarini kengaytiruvchi, ulkan ta'limiy resursli yangi texnik vositalar: kompyuterlar, multimediali taqdimotlar, ta'limning virtual va masofaviy usullari paydo bo'ldi[3].

Fizika fanidan fizik laboratoriya qurilmalarini yordamida o'qitish uslublarini, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish, mashg'ulotlarni zamonaviy usul va metodlardan foydalanishga e'tiborni qaratish dolzarb muammolardan biridir.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida fizika sohasida ta'lim olayotgan talabalarga fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilishda turli xil muammolarga duch kelinmoqda. O'tkazilgan pedagogik tadqiqotlar, o'rganishlar hamda kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, laboratoriya darslarida talabalarning fizika va matematika fanlaridan tayyorgarligi va boshlang'ich eksperimental ko'nikmalarning shakllanganlik darajalari turlicha hisoblanadi[5,6]. Fizika darslarida laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarning laboratoriya ishini bajarishga bo'lgan ishtiyoqi juda yuqori va aksincha layoqati juda past bo'lgan talabalarning mavjudligi ularni laboratoriya ishlarini bajarish va bajargan ishlari bo'yicha malaka va ko'nikmalarni egallash juda zarur sanaladi. Yuqoridagi muammolarni hisobga oladigan bo'lsak, laboratoriya mashg'ulotlarini olib borishni takomillashtirish va zamonaviy innovatsion metodlar ishlab chiqish zarur[7].

Fizik laboratoriya qurilmalari yordamida talabalar laboratoriya ishlarni bajarar ekan, avvalambor, talaba ishlarni ko'proq jamoa bo'lib bajarishga harakat qiladi, bu esa talabalarning barchasi birdek ishni bajarishi va natijalarni har bir talabaning

shaxsan o‘zi olishi natijalarni hisoblashda ham jamoadan foydalanish ayrim talabalarning bu ishga qiziqishini kamaytiradi. Talaba bu ishlarni o‘z qo‘li bilan bajarishga qiziqadi. Talabalar laboratoriya ishlarini bajarar ekan, guruhdagi barcha talab birdek ishlarni bajarib natijalarni oladi deb bo‘lmaydi, bunda ko‘chirish holatlari uchrab turadi. Shularni hisobga olgan holda laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishning zamonaviy metodlarini tavsiya qilish zarur.

Bundan tashqari ta’lim muassasalarida fizikaga oid laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borishda fizik laboratoriya qurilmalariga ehtiyoj seziladi. Fizik laboratoriya qurilmalariga talabning yuqoriligi va xarid qilish ham biroz qimmatga tushadi. Shuningdek fizik laboratoriya qurilmalari yordamida inson omili ishtirokida fizik jarayonlarni amalga oshirishda insonga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin holatlar yuzaga keladi.

Shunday ekan fizik laboratoriya qurilmalari va virtual laboratoriya komplekslarining quyidagi qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqamiz[4]:

Virtual laboratoriya komplekslari va fizik laboratoriya qurilmalarining qiyosiy tahlili

№	Fizik laboratoriya qurilmalari	Virtual laboratoriya komplekslari
1	Fizik laboratoriya qurilmalari yordamida o‘rganiladigan qonunlarning to‘g‘riligi isbotlanadi.	virtual laboratoriyalar xavfsizroq, ya’ni, hayot uchun xavfli bo‘lgan kimyoviy moddalar bilan ishlashda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish qulay hisoblanadi.
2	Fizik laboratoriya qurilmalari yordamida fizik kattaliklarni o‘lchash o‘rganiladi.	Virtual laboratoriya ishlar ko‘p qirrali, shuningdek, moslashuvchanlik va turli ob’ektlarga moslashish qulayligini ta’minlaydi.
3	Fizik laboratoriya qurilmalari yordamida fizik kattaliklar va fizik hodisa o‘rtasidagi bog‘lanishni anglaydilar.	Oddiy sharoitda imkonsiz bo‘lgan yoki uni o‘tkazish katta vaqt va moddiy xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lgan tajribani o‘tkazish mumkin bo‘ladi.
4	Fizik laboratoriya qurilmalari yordamida o‘lchov asboblari bilan ishlashni o‘rganadilar.	Shaxsiy kompyuterdan foydalanish nafaqat bajarilishini nazorat qilishni, balki talabani aniq laboratoriya ishini bajarishga tayyorlashni ham soddalashtiradi.
5	Fizik laboratoriya qurilmalari yordamida sxemalar va chizmalarni o‘qishni o‘rganadilar.	Kompyuterdan foydalanish o‘quv materialini tezroq o‘zlashtirishga va ortda qolganlarni kutmaslikka imkon beradi.
6	Fizik laboratoriya qurilmalari yordamida talabalarda konstruktorlik, ijodkorlik va texnik qobiliyatlari rivojlanadi.	virtual laboratoriya ishining grafik imkoniyatlari real qurilmalar bilan yoki ikki o‘lchovli shaklda tasvirlab bo‘lmaydigan ko‘p o‘lchovli jarayonlarni ko‘rish imkonini beradi.

7	Fizik laboratoriya qurilmalari yordamida fizik asboblarning tuzilishi va ishlash jarayonlari o‘rganiladi.	Laboratoriya ishlarini yaratish xarajatlarini kamaytirish qisqa vaqt ichida ularning bazasini sezilarli darajada kengaytirishga imkon beradi va shu bilan o‘qitishda ko‘proq moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Demak, Fizik laboratoriya qurilmalari va virtual laboratoriya komplekslarining qiyosiy tahliliga ko‘ra fizik laboratoriya qurilmalari yordamida talaba fizik qonunlarning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilinadi, fizik jismlar, fizik kattaliklar, fizik hodisalar va fizik qurilmalar hamda asbob-uskunalar to‘g‘risida tushunchaga va tasavvurga ega bo‘ladi. Virtual laboratoriya komplekslari yordamida fizik jismlar haqida ham fazoviy tasavvurga ega bo‘ladi. Shuningdek inson hayoti uchun xavfli bo‘lgan laboratoriyalar yordamida bajarish tadqiqotchiga qulayliklar tug‘diradi hamda laboratoriyalarni bajarishda kerak bo‘ladigan qimmatbaho asbob-uskuna va jihozlarga ehtiyoj sezilmaydi. Qolaversa real sharoitda aniqlash qiyin bo‘lgan laboratoriya ishlarini virtual laboratoriyalar yordamida bir necha marta takrorlab aniq yechimlarni va aniq kattaliklarni aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zokhidjon A. INFORMATION AND PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE ENGINEERS: Abdurakhmanov Zokhidjon Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 2.

2. Усманов С., Абдурахманов З. Рақамли таълим муҳитини яратиш концепцияси //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 225-228.

3. Усманов С., Абдурахманов З. Понятие виртуальной реальности и ее роль в образовании //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 144-147.

4. Turakulov, B. (2021). FIZIKA FANIDA VIRTUAL LABORATORIYA ISHLANMALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. Физико-технологического образование, 6(6). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/phys-tech/article/view/4139

5. Усанов С., Абдурахманов З., Аманова Д. Применение второго закона Ньютона к связанным объектам //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 147-150.

6. Sharofova , G. . (2024). VIRTUAL LABORATORIYANING FIZIKANI O’RGANISH JARAYONIDAGI AFZALLIKLARI. Молодые ученые, 2(2), 90–93. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/26313

7. Abdunazarov J. et al. Shahar sharoitida avtomobilllarni parkovkalashda innovatsion loyihalash tizimi //Scientific-technical journal. – 2020. – Т. 3. – №. 6. – С. 62-70.

ИДЕНТИФИКАЦИЯ ИММУНОТРОПНЫХ СОЕДИНЕНИЙ ПРИРОДНОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ ОЧИЩЕННОГО СУБСТАНЦИ ЭРИКСИНА

Акбаралиев М.А, Иногамов У.К., Нормуродова К.Т.
Тошкент Вакцина ва зардоблар илмий текшириш институти
tashrivs@umil.uz

Аннотация: Исследование направлено на изучение иммуномодулирующей активности препарата очищенный эриксин, на модели мышиной иммунной системы "in vivo". В экспериментах на белых беспородных мышах проводилось внутрибрюшинное введение препаратов в различных дозах. После антигенной стимуляции и введения препарата мыши были погублены, а их иммунные органы (селезенка, тимус, лимфоузлы) извлечены, взвешены и проанализированы на содержание ядросодержащих клеток. Результаты указывают на потенциальное воздействие препаратов на массу и клеточный состав иммунных органов мышей, что представляет интерес для дальнейших исследований в области иммунологии и разработки иммуномодулирующих препаратов.

Ключевые слова: Эриксин, гидролизат, иммунотроп**,** селезенка, лимфоузлы, тимус.

Цель исследования: Определение иммуномодулирующей активности препаратов очищенного эриксина проводили биологическим методом по его способности “*in vivo*” увеличивать вес иммунных органов и количество ядросодержащих клеток – ЯСК тимуса, селезенки, лимфоузлов у мышей.

Методы исследования: Влияние препарата на иммунную систему изучали согласно “Методическим указаниям по оценке иммунотоксического действия фармакологических средств” [1]. Наиболее подробно и тщательно вопросы методологии иммунотоксикологии были рассмотрены в 1994 году на рабочем совещании, состоявшемся в Арлингтоне (США) [2].

Для оценки иммунотропных свойств исследовали показатели клеточного иммунитета мышей, оценивали его влияние на массу лимфоидных органов и их клеточность.

Эксперементальный част:

Эксперименты были проведены на белых беспородных мышах весом 22-26 грамм. Мышам опытных групп в день иммунизации внутрибрюшинно вводили соответствующие дозы препаратов – 1,85 и 3,7 мг/кг. Контрольная группа мышей получала воду в том же объеме. Забой проводили на 2-й день после антигенной стимуляции и введения препарата в дозах 1,85 и

3,7 мг/кг. У мышей извлекали лимфоидные органы (селезенку, тимус, лимфоузлы), взвешивали их на торсионных весах, гомогенизировали в стеклянном гомогенизаторе, фильтровали через капроновый фильтр. Затем готовили разведения клеток в 3%-растворе уксусной кислоты и подсчитывали в камере Горяева, определяли их концентрацию и общее содержание во взвеси [3]. В опытах использовали мышей-самцов и самок, забой проводили на 2-й день после антигенной стимуляции и введения препарата в дозах 0,1 и 0,2 мг/кг [4]. Результаты экспериментов показали, что в контрольной группе мышей вес селезенки составлял 114±48,8 мг, вес тимуса – 34,6±10,7 мг, вес лимфоузлов – 20,6±0,9 мг, общее содержание ЯСК селезенки было 237,5±79,2 млн на всю селезенку, клеток тимуса – 153,5±51,2 млн на весь тимус, клеток лимфоузлов – 62,5±20,8 млн на один лимфоузел

Результаты: В результате исследования отмечается, что под воздействием исследованных доз препарата наблюдается следующая тенденция:

В дозе 1,85 мг/кг наблюдается увеличение массы иммунных органов, в частности, массы селезенки (181±24,4) и уменьшение содержания ядросодержащих клеток (ЯСК) в ней (168,5±56,2; 169,5±56,5). Это свидетельствует о потенциальном воздействии препарата на клеточный состав селезенки.

При использовании дозы 3,7 мг/кг отмечается увеличение массы тимуса (51±2,1) и повышение общего содержания ЯСК в нем (167,5±56), а также уменьшение массы и содержания ЯСК в лимфоузлах (масса 20±2,9; ЯСК 46±15,3). Это указывает на разнонаправленное воздействие препарата на различные иммунные органы.

Препарат в обеих исследованных дозах подавляет пролиферацию клеток селезенки, что свидетельствует о его способности модулировать клеточный иммунитет.

Особенно интересным является тот факт, что при использовании дозы 3,7 мг/кг препарат стимулирует пролиферацию Т-лимфоцитов тимуса, что может иметь важное значение для иммуномодулирующей терапии.

Таким образом, исследование позволяет сделать вывод о потенциальной иммуномодулирующей активности исследуемого препарата и его способности воздействовать на различные аспекты клеточного иммунитета.

Литературный обзор:

1. Иванова А.С., Мастернак Т.Б., Мартинова А.И. Токсикологический весник – 2010 г. №5. с 26-31.

2. Neuman D. A. Тестирование иммунотоксичности и оценка риска: итоги семинара Технического комитета по иммунотоксикологии 1994 г. - Токсикология, 1995. - ТОМ. 33, №. 10. - С. 887-894

3. Определение концентрации клеток микроорганизмов. ОФС.1.7.2.0008.15

4. Караулов А.В., Калюжин О.В. Иммунотропные препараты: принципы применения и клиническая эффективность. М.: МЦФЭР; 2007

OROL BO‘YI HUDUDLARIDA SHO‘RGA CHIDAMLI O‘SIMLIKLARNI ADAPTATSIYALANISHINI TA’MINLASHDA MIKROBIOLOGIK O‘G‘ITLARNING RO‘LI

b.f.d.v.b., prof. Normurodova Qunduz Togayevna,
magistr Axmedova Mujassam Oribjon qizi
Mirzo Ulug‘bek Nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
mujassamahmedova866@gmail.com

Annotatsiya: Ziziphus jujube o‘simligi va Oroltubi qumliklarida chilonjiyda o`simligi ko`chatini yangi sharoitga adaptatsiyalanishi uchun turli xil biopreparatlarning (Yer malhami, bioazot, Darmon-M) ahamiyati va qo`llanilishi bo`yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. .

Kalit so‘zlar: adaptatsiya, Ziziphus jujube, sho`rlanish, genefond, agroekotizim, mikrobiologik biopreparat, innovatsiya, antropogen ta’sir.

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta’siri natijasida atrof muhitda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, iqlim o‘zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o’rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarib, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda.

Tabiiy muhit holatining inson ta’sirida o‘zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta’sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta’sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "Orol muammosi” vujudga keldi[1].

Dunyo miqyosida Orol bo`yining tabiiy resurslarini tiklash va asrash muhim global masalaga aylandi. Orol dengizi muammosi uzoq vaqtdan beri mavjud va davom etmoqda. Orol va Orolbo‘yi muammosini yechishdagi uchta asosiy yo‘nalishlar ya’ni, birinchidan, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitar-epidemologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e’tibor qaratildi. Sog‘liqni saqlash va sanitariya xizmati darajasini keskin yuqoriga ko‘tarish zarurligi uqtirildi; ikkinchidan, dengizning qurigan janubiy qirgoqlarida sun’iy damba qurib, delta eksosistemasini doimiy suvlashtirish yo‘li bilan "Yashil kamar” hosil qilish; uchinchidan, dengizni o‘zini saqlash. Uni saqlash uchun unga sistematik ravishda ko‘p miqdorda suv yuborib turish kerakligi va bundan tashqari Orolni qurigan tubida sho’rga chidamli o’simliklar qoplami ,xususan, saksovulzorlar barpo etish natijasida qum ko‘chishi, chang ko‘tarilishini oldini olinishi mutaxassislar tomonidan ta’kidlanib kelinmoqda[2].

Orol bo‘yi o`simliklar genefondini saqlab qolish muammosi yuzasidan nafaqat O`zbekistonda balki Yaponiya, AQSH, Isroil davlatlarda ham bir talay olimlar tadqiqot ishlarini o’tkazmoqda. Bugungi kunda Orol mintaqalarida tabiiy o`sadigan o`simliklarning biologik xususiyatlaridan foydalangan holda, sho`rlanishi yuqori bo`lgan hududlarda o`sadigan o`simliklarni olib kelib ko`paytirish ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqoridagi ekologik muammolarning yechimi sifatida cho`l sharoitida yetishtirish qulay bo`lgan, Orolbo`yi mintaqasida o`sishga moslashgan

sho`rga chidamli o`simliklar ustida tadqiqotlarni olib borish, uning natijalarini amaliyotga tadbiq qilish lozim.O'tkazib kelinayotgan tadqiqotlarning samarasi sifatida galofitlar bilan o'tkazilgan tajribalarni misol keltirishimiz mumkin[3].

Galofit o`simliklarning ajoyib xususiyati shundan iboratki, ular aynan sho`rlangan yerlarda o`sib, ortiqcha suv talab qilmaydi. Ayrim galofit o`simliklar, aksincha, o`ziga tuzni tortib olib, tuproqni tuzdan xalos etish xususiyatiga ega. O`simlilarning shu kabi xususiyatlaridan foydalangan holda Orol dengizining qurigan tubidagi yer maydonlarida tuproq unumdorligini oshirish, agroekotizimning ekologik muvozanatini yaxshilash va samarali agroekologik usullardan foydalanib, Orol dengizining qurigan tubi tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirilgan o`simliklar maydonlarini kengaytirish, belgilangan hududlarda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, tuproq tarkibidagi tuzni kamaytirish muammolarini hal qilish uchun Orol bo`yi genefondini sho`rlanishga, sovuqqa, jaziramaga, suvsizlikka chiqamli o`simliklar bilan boyitish lozim. Buning uchun esa chilonjiyda va jiyda o`simliklarini ko`paytirish maqsadga muvofiq bo`ladi.Chunki chilonjiyda (Ziziphus jujuba) o`simligi issiqqa(+44 daraja) va qurg`oqchilikka chidamli, sovuqlarga bardoshli(-30 daraja), tuzli tuproqlarda ham bemalol o`sadi, deyarli yer tanlamaydi. Ziziphus jujuba Respublikamizning barcha tuproq-iqlim sharoitlarida bemalol o`sib, adaptatsiyalanishi mumkin[4].

Chilojiyda ko`chati ekilganidan so`ng, uni dastlabki ikki yil davomida oyiga ikki marta sug`orish kerak. Biroq, sug`orish faqat issiq havoda, uzoq vaqt yomg`ir bo`lmaganda amalga oshirilishi kerak. Agar yomg`ir muntazam ravishda yog`sa, unda siz o`simlikni sug`orishingiz shart emas, chunki tuproqning botqoqlanishi ildiz tizimining chirishiga olib kelishi mumkin. Voyaga etgan daraxt umuman sug`orishga muhtoj emas, chunki chuqur joylashgan ildiz tizimi yer osti suvlari bilan oziqlanishi mumkin.

Shuningdek, Ziziphus jujuba o`simligi bargi tarkibidagi biologik faol moddalar U.A. Axmedov tomonidan batafsil o`rganilgan. Quritilgan barglarni suv, atseton, xloroform va etilatsetat kabi erituvchilarini qo`llab biologik faol birikmalaridan: shilliq moddalar (8,95%), saponinlar (0,44%), flavonoidlar (3,7%) va proantotsianidinlar ajratib olingan [5].

Mevalarda 30% gacha uglevodlar, 2,5% gacha organik kislotalar, 3,7% gacha yog`lar, 3% gacha oqsillar, 10% gacha taninlar mavjud. Shuningdek, aminokislotalar; mikroelementlar, sterollar, kumarinlar, flavonoidlar (kempferol, miritsetin va boshqalar), triterpenoidlar - oleanolik, ursolik, maslinik kislotalar, betulin, betulin kislotasi, triterpen glikozidlari - A va B yuyubozidlar, izoxinolin alkaloidlari (stefarin, azimiloban); monosaxaridlar (glyukoza, arabinoza, ramnoza, ksiloza va boshqalar) borligi aniqlangan [6].

Ziziphus jujuba o`simligini o`ziga xosligi shundaki, juda ko`p ozuqa moddalarini talab qilmaydi, shuning uchun biz barcha turdagi mineral o`g`itlarni kamroq miqdorda qo`llashimiz lozim. Tuproqning kislotaliligi neytral yoki past kislotali bo`lishi kerak. Ziziphus kislotali tuproqda yaxshi o`smaydi, ammo bugungi kunda kislotali sharoitda ham o`simliklarni noqulay sharoitga moslashishi uchun yordam beradigan turli xil mikrobiopreparatlar mavjud. Hozirda matbuotda tuproq unumdorligini tiklash uchun biologik preparatlarning ta'siri bo`yicha tobora ijobiy fikrlar paydo bo`ldi. Keyingi 3-4 yil davomida mikrobiologik preparatlardan omma

orasida keng foydalanish kuzatilmoqda.Chunki mikrobiologik preparatlar tuproqning injiqligini yo`qotadi, uning tuzilishi yaxshilanadi,mineral o`g`itlar va nitratlar sarfi kamayadi,urug`larni sifatli unib chiqishiga va ko`chirib o`tkazilgan ko`chatlarni yangi muhit sharoitiga tezroq adaptatsiyalanishiga yordam beradi . U loyni yopishqoqlikni yo`qotadi. Ishlab chiqarilgan 30ga yaqin biologik preparatlar tirik mikroorganizmlar shtammlariga asoslanadi, ular qoldiq pestitsidlardan tuproqni o`z-o`zini tozalash jarayonini faollashtirish imkoniyatiga ega. Biopreparatlar o`simliklarning rivojlanishini rag`batlantirishdan ko`ra tuproq patogenlarini siqib chiqaradi, kasallik darajasini kamaytiradi.Mazkur biopreparatlarning imkoniyatlaridan foydalanib, Qoraqolpog`iston Respublikasi, Mo`ynoq tumani, Aral ovulidagi “My garden in the Aral Sea” (“Oroldagi bog`im”) deb nomlangan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo`yi xalqaro innovatsiya markazining tajriba sinov maydonida sho`rlanish va qurg`oqchilikka chidamli mevali o`simliklar genofondi shakllantirishga o`z xissamizni qo`shish maqsadida umumiy 0.61ga maydonga: shundan 0.20 ga maydonga 2*4 nisbatda 250 tup payvandlangan chilonjiyda va 0.41 ga maydonga 4*4 nisbatda 256 tup jiyda o`simliklari ko`chatlarini “Darmon-M”,”Yer malhami”,”Bioazot”kabi biopreparatlarni 1:5 nisbatda qo`llab ko`chatlar o`tkazildi.

Chilonjiyda mevalarida qimmatli va biologik faol moddalarga boy bo`lib, farmasevtika va oziq-ovqat sanoatida keng qo`llaniladi.

Biopreparat tuproq unumdorligini oshirish va o`simliklardan yuqori va sifatli hosil olish uchun sug`orish bilan birga qo`llaniladi. Biopreparat qishloq xo`jaligida foydali o`simliklarni patogenlariga chidamli qilib, immunitetini oshiradi.

Mikrobiopreparatdan foydalanish asosida iqtisodiy samaradorlik va sifatli mahsulotlayetishtirish imkoniyatiga erishiladi.

Biopreparat yordamida o`simlik urug`ining unuvchanligi bir necha barobar oshadi. Biopreparat qishloq xo`jaligida foydali o`simliklarni patogen kasalliklarga chidamli qilib, immunitetitini oshiradi, buning natijasida esa o`simliklarni hosildorligi hamda hosil sifatini oshirishga erishiladi.

Orol muammosi nafaqat Qoraqalpog‘iston yoki O‘zbekistonning, balki butun mintaqa uchun muhimdir. Shuning uchun ham qurigan dengiz tubini yashillashtirish, suv havzalarini ochish va oqibatlarni yumshatish bugunning dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1."Экономика и социум" №11(90) 2021 www.iupr.ru

2. Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine J Chem Good Trad Med, Volume 2, Issue 1, 2023 Traditional Medicine.

3. Лавренов В.К., Лавренова Г.В. «Энциклопедия лекарственных растений народной медицины, Санкт-Петербург, Издательский дом «Нева», 2003 г.– 83 с.

4. Стоянова Л.Г. Молочнокислые бактерии // Практикум по микробиологии. М.: Академия, 2005. С. 467–486. 26. Нетрусов А.И. Большой практикум по микробиологии. М., 2005. 603 с.

5. Припутневич Т.В., Мелкумян А.Р. Масс-спектрометрия — новое слово в клинической микробиологии клиническая лабораторная диагностика. 2016; 61(12)

6. To‘lqin qizi O‘razaliyeva K. SHO ‘RLANGAN TUPROQLARDA G ‘O ‘ZANING O ‘SISH FIZIOLOGIYASI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 760-763.

VITAMINLARNI XUSUSIYATI VA INSONGA TA’SIRI

Begimqulova Sevinch Asqar qizi,
Norqulova Yulduzxon Shavkat qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabalari
sevinchbegimqulova2002@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada vitaminlarni xususiyati va bugungi kunda foydalanilishi. Insonlarga ta’sir xususiyati to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: vitamin A, B guruhi, C, D, E, K, PP, vitamin N, folat kislota.

Vitaminlar haqidagi ta’limot – vitaminologiya – hozirgi vaqtda mustaqil fan tarmog‘idir.[1] Vitaminlar eruvchanligiga qarab yog‘da eriydigan vitaminlar, suvda erituvchi vitaminlar hamda vitaminga o‘xshash birikmalarga bo‘linadi.[2]

Yog‘da eruvchan vitaminlar:

Vitamin A, antiseroftalmik, retinol

Vitamin D, antiraxitik kalsiferol.

Vitamin E, antisteril, ko`payish vitamini, tokoferollar.

Vitamin K, antigemorragik, naftaxinon.

Suvda eruvchan vitaminlar:

Vitamin B1, antinevrit, tiamin.

Vitamin B2, o`sish vitamini, riboflavin.

Vitamin B6, antidermatit, adermin, piridoksin.

Vitamin B12, antiamenik, kobalamin.

Vitamin PP, antipellagrik, niatsin, nikotinamid.

Vitamin Bs, antianemik, folat kislota.

Vitamin B3, antidermatit, pantotenat kislota.

Vitamin N, antiseborrey, bakteriyalar, achitqi o`sish omili, biotin.[6]

Vitamin C, kapillyarlarni mustahkamlovchi, askarbin kislota.

Vitaminga o‘xshash birikmalarga quyidagilar kiradi: xolin, pangam, para-aminobenzoy kislotalar, vitamin B15 (pangamat kislota), orotat kislota, ubixinon (KoQ), inozit, limol, linolen va ataxidon, vitamin U (yazvaga qarshi omil) va qator qush, kalamush, jo‘ja, to‘qima bo‘laklari uchun o‘sish omillaridir.[7]

Fiziologik ta`siri bo`yicha vitaminlarni guruhlanishi.

Organizmning umumiy rezistentligini oshiruvchi vitaminlar: B1, B2, PP, A, C.

Antigemorragik vitaminlar: C, R, K.

Antianemik vitaminlar: B12, folat kislota, C.

Antiinfeksion vitaminlar: A, C.

Ko`rishni boshqaruvchi vitaminlar: A, B2, C.

Retinol (A vitamin) tabiatda keng tarqalgan. O‘simlik to‘qimalarida A provitamin (organizmda retinolga aylanadigan karotinoid pigmentlar) holida uchraydi.[3] Ko‘rish pigmentlari hosil bo‘lishida qatnashib, organizmning normal o‘sishini, ko‘zning turli darajadagi yorug‘likka moslashishini ta’minlaydi. Organizmda retinol yetishmasa, teri qurishib oqaradi, qipiqlanadi, muguzlanadi, unda mayda toshmalar paydo bo‘ladi, terining yiringli kasalliklari avj oladi, soch quruq, xira bo‘lib, to‘kila boshlaydi, tirnoq mo‘rtlashib qoladi.[4] Yorug’ga qaray olmaslik, shabko‘rlik, kon’yunktivit, blefaritta asosan A vitamin yetishmasligi sabab bo‘ladi. A provitamin (karotin) o‘simliklarda, ayniqsa ularning yashil barglarida, A vitamin hayvon va baliq jigarida, baliq moyida ko‘p uchraydi.[5]

Tiamin (B1, vitamin) — ko‘pgina oziq ovqat mahsulotlari tarkibiga kiradi. U dukkaklilar, go’sht, baliq va asosan donning murtagi va qobig‘i (kepagi)da bo‘ladi.[8] Tiamin organizmda uglevodlar almashinuvida muhim ahamiyatga ega; ovqat uglevodlarga serob bo‘lsa, ularni o‘zlashtirish uchun tiamin ko‘proq talab qilinadi. Tiamin bo‘lmasa, polinevrit kasalligi ro‘y beradi.[9] Organizmda bu vitamin bo‘lmasa yoki yetishmasa, nerv sistemasining og‘ir kasalligi — beri-beri paydo bo‘ladi, shuningdek ichak B vitamini qadoqlash peristaltikasi susayadi, qabziyat, muskullar bo‘shashishi, jismoniy va ruhiy ish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi.[11]

Riboflavin (B2 vitamin)- o‘sish jarayonida qatnashadi va o‘stiruvchi omillarga kiradi. Oqsil, yog‘ va uglevodlar almashinuvida ishtirok etadi. Markaziy nerv sistemasi holatini rostlaydi, ko‘z gavharidagi moddalar almashinuviga ta’sir etadi, yorug‘likni sezish va rang ajratishga yordam beradi.[12] Riboflavin organizmga oziq-ovqat bilan kiradi, ovqatda riboflavin yetishmasa og‘iz burchagi, lab yoriladi (qarang Lab bichilishi), soch to‘kiladi, kon’yunktivit kuzatiladi.[10] B2 vitamin asosan hayvon mahsulotlari — tuxum, pishloq, sut, go‘sht hamda galla va dukkakli o‘simliklarda ko’p uchraydi.[7]

Piridoksin (B6 vitamin)— ko‘pgina o‘simlik va hayvon mahsulotlari: achitqi, bug‘doy murtagi, jigar, baliq, mol go‘shti va dukkakli donda bo‘ladi. U oqsil va yog‘ning normal hazm bo‘lishini ta’minlab, azot almashinuvida muhim rol o‘ynaydi. Organizmda piridoksin yetishmasa bolalar o‘smay qoladi, me’da-ichak ishi buziladi, kamqonlik ro‘y beradi.[12] Homiladorlarda stomatit, terining yallig‘lanishi, qo‘zg‘aluvchanlik, uyqusizlik kuzatiladi. Kishi organizmi uchun zarur miqdordagi piridoksin ichak bakteriyalari ta’sirida hosil bo‘ladi.[10]

Askorbin kislota (C vitamin) — moddalar almashinuvida, biriktiruvchi to‘qimalarning o‘zlashtirilishida, bu to‘qimalarning normal holatda tutib turilishi va tiklanishida muhim ahamiyatga ega. Organizmda S vitamin yetishmasa, tog‘ay va suyak to‘qimalari tuzilishi buziladi, lavsha (singa) kasalligi ro‘y beradi. Organizmda askorbin kislota hosil bo‘lmaydi va to‘planmaydi.[11] S vitamin sabzavot va mevalarda bo‘ladi. Askorbin kislota turli polivitamin preparatlari tarkibiga kiradi.[13]

Kalsiferol (D vitamin) moddalarning mineral almashinuviga, suyak hosil bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi. U yosh bolalar skeletining jadal o‘sishi va suyaklanishi davrida ayniqsa zarur. Tishlarni ham asraydi.[12] Organizmda D vitamin yetishmasa raxit kasalligi paydo bo‘ladi. D vitamini quyosh nuri tasirida sintezlanadi baliqlar moyi kalsiferol manbai hisoblanadi.Bundan tashqari, sut, tvorog, sariyog‘, jigar va tuxum sarig‘ida ko‘p bo‘ladi.[14]

Tokoferol (E vitamin, ko‘payish vitamini) muskul va jinsiy bezlar faoliyatini kuchaytiradi, ichki a’zolarda, yog‘da eriydigan barcha vitaminlar ayniqsa retinol to‘planishiga yordam beradi.[10] O‘simliklarning yashil qismi hamda ulardan olinadigan moyda (mas., kungaboqar moyida) mo‘l bo‘ladi.[9]

Nikotinat (vitamin PP) uning yetishmasligi terining kasallanishi, ich buzilishi, asab buzilishi bilan boshlanadigan pellagra kasalligiga olib keladi.[14] Quyosh radiatsiyasi ta`sirida bo`ladigan ochiq qismda (yuz, bo`yin, qo`llarda) yuzaga keladi. PP vitamin kepak, pivo, achitqilar, jigar va go`shtda ko`p miqdorda bo`ladi.[12]

Antisteril vitamin (vitamin E) naslsizlikni oldini olish va ko`payish vitamini deb ataladi. Avitaminoz odamlarda amalda uchramaydi, chunki bu vitamin ozuqa mahsulotlarida juda ko`p tarqalgan. Boshoqli o`simliklar urug`i, na`matak mevasi, olmada ko`p bo`ladi. Go`shtda, saryog`da, tuxum sarigi`da kam bo`ladi.[5]

Antigemorragik vitamin (vitamin K) organizm uchun ahamiyati qonni ivish jarayonida ishtirok etadi. Avitaminoz qon ivishining pasayishi teri osti, kalla suyagi ichida kapillyarlardan qon quyilishi hamda qon oqishi bilan nomayon bo`ladi. Vitamin K yashil barglar, jigarda ko`p bo`ladi.[6]

Xulosa: Vitaminlar inson hayoti uchun keraklidir. Shuning uchun odam turli xil noz-ne`matlardan iste`mol qilib turishi kerak. Agar organizmda biron bir vitamin yetishmasa turli xil kasalliklarga chalinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 6128-6143.
2. Saatov T. et al. Study on hypoglycemic effect of polyphenolic compounds isolated from the Euphorbia L. plants growing in uzbekistan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2020. – Т. 70.
3. Saatov T. et al. Antioxidant and hypoglycemic effects of gossitan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – Т. 63.
4. Saatov T. et al. Study on antioxidant and hypoglycemic effects of natural polyphenols in the experimental diabetes model //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2018. – Т. 56.
5. Tuychiboyev J. I. et al. Gipotireoz modelida kalamush antioksidant tizimiga e vitamin va kurkuminning korreksiyalovchi tasiri //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 234-236.
6. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 890-900.
7. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 890-900.
8. Mustafakulov M. et al. Determination of antioxidant properties of l-cysteine in the liver of alloxan diabetes model rats //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – №. Special Issue. – С. 47-54.

9. Saatov T. et al. Neurodegeneration type and severity have linkage with plasma insulin in DM patients //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2022. – T. 81.
10. Mustafakulov M. A. et al. Aptamers and their use in biology and medicine aptamers and their applications in nanotechnologies, virology and biology //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 509-515.
11. Abduvalievich M. M. et al. Determination of HEPATOTROPIC effects of certain substances in experimental toxic hepatitis //Global Scientific Review. – 2022. – T. 10. – C. 160-162.
12. Mukhammadjon M. et al. The effect of ngf on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 9 (87). – C. 82-86.
13. Мустафакулов М. А. и др. Изучение антиоксидантной и антирадикальной активности листьев isatis tinctoria L //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 7-1 (97). – C. 40-44
14. Мустафакулов М. А. и др. Исследование влияния липосомальной формы кверцетина на отдельные биохимические параметры ткани мозга животных с экспериментальной моделью нейродегенеративного состояния //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 1-1 (103). – C. 33-39.
15. Saatov T. et al. Correction of oxidative stress in experimental diabetes mellitus by means of natural antioxidants //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2021. – T. 73.

BIOLOGIK NAMUNALARNI TEZLASHTIRILGAN ELEKTRONLAR BILAN NURLANTIRISH UCHUN MO‘LJALLANGAN QURILMA

PhD., k.i.x. Xasanov Shaxboz Xasanovich
mag. G‘offorov Obid Shuhrat o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti
gofforovobid8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishlariga asoslangan ilmiy maqola yuqori energiyali elektronlarni (13 MeV) hosil qilish mexanizmlarini izchil ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, turli potogenlarga qarshi vaksinalarni ishlab chiqish va amalyotga tadbiq etishga maqsad qiladi. Yuqori energiyali elaktronlarni hosil qilish uchun elektron tezlatgich sifatida mikrotron (siklik tezlatgich) tanlab olingan. Mikratronni kerakli nurlantirshga sozlash uchun kerakli uslub va imkoniyatlarini yaratishni talab qiladi. Bundan tashqari ushbu tadqiqotlar mikrotronni yuqori energiyali elektronlarni hosil qilishga tayyorlash hamda ushbu elektronlar yordamida turli viruslrni nurlantirish orqali ularning inaktivatsiya dozasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: elektron tezlatgichlar, Pasteurella, Salmonella va E. coli, virulentlik, radiovaktsina, mikrotron (siklik elektron tezlatgich), biologik namuna, elektrolit, yutilgan doza.

Ionlashtiruvchi nurlanish ilmiy tadqiqotlarda izchil rol o'ynab, moddiy rivojlanishdagi innovatsiyalarga [1] oziq-ovqat mahsulotlaridagi zararli biologik mikroorganizmlarni yo'q qilishga yordam berdi [2]. Elektron nurlarining intensivligi va radiatsiya maydonining taqsimlanishini nazorat qilishdagi yutuqlar bilan uning qo'llanilishi metallni qayta ishlash va tibbiy asbob-uskunalarni sterilizatsiya qilish kabi turli sanoat maqsadlarida qo'llaniladi. Shunga qaramay, radiatsiya dozalarining o'ziga xos ta'siri va ularning biologik namunalarga nisbatan turli xil maqsadlarda elektron tezlatgichlarni qo'llashni takomillashtirish uchun qo'shimcha tadqiqotlarni olib borish talab qilinmoqda [3-4].


Ushbu maqola elektron nurlar (e-nurlar) yordamida biologik namunalarni nurlantirish uchun qurilmani ishlab chiqishga qaratilgan. Xususan, biz uchta asosiy patogen shtammlarning nurlanishini o'rganamiz: parrandalar va chorva mollariga ta'sir qiluvchi bir qator kasalliklar - kolibaksillyoz, salmonellyoz va pasterellyoz uchun asos bo'lgan Pasteurella, Salmonella va E. coli. Ushbu kasalliklarning iqtisodiy ta'siri katta bo'lib, nafaqat hayvonlarning kasallanishi va o'limining yuqori ko'rsatkichlarini keltirib chiqarmoqda, balki iqtisodga ushbu viruslarning oldini olish va davolash bilan bog'liq xarajatlarni ham yuklaydi [5-6]. An'anaga ko'ra, antibiotiklar ushbu kasalliklarni davolashning asosiy usuli hisoblanadi. Biroq, antibiotiklarni tez-tez va tartibsiz qo'llash mikroblarga qarshi chidamlilikning kuchayishi shaklida global sog'liqni saqlash inqiroziga olib keldi [6-7]. Shu sababli, bugungi kunda antibiotiklarga samarali muqobil davolashni usullarini va vaksinalarni topishga ehtiyoj bor. Bunday muqobil variantlardan biri gamma-nurlanish yoki elektron nurlar yordamida ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan radiovaktsinadir.

Virulentlikni (kasalliklarni keltirib chiqarish qobiliyatini) va antigenlikni to'liq o'zgartirish orqali bakterial hujayralarni yo'q qilishga qodir bo'lgan fizik va kimyoviy jarayonlardan tashqari, radiovaktsinaning asosiy afzalligi bakterial hujayralarni ularning antigenik tuzilishini o’zgartirmasdan yo'q qilishdir, ya'ni bakteriyalar o'zlarining virulentligini yo'qotadi, ammo bakteriya o’zidagi virusilarni ko’payish va o’sish qobilyatini yo'qotadi, antigenlikni saqlaydi [8-9]. Binobarin, to'g'ri nurlangan bakterial hujayralar turli yuqumli kasalliklarni davolash uchun vaktsina bo'lib xizmat qilishi mumkin. Yana bir afzallik - bu vaktsinalarning xona haroratida barqarorligi. Bu xususiyat vaktsinani barqaror saqlash uchun sovuq sharoitlarda saqlash muammosining zaruratini bartaraf qilishi mumkin [10-11].

Radiovaktsinalarning istiqbolli tabiatiga qaramay, ularning foydaliligi bo'yicha mavjud tadqiqotlar cheklangan. Tadqiq qilinayotgan vaktsina turlarining aksariyati gamma-nurlanishga tayanganligi bois, elektron nurlar texnologiyalari orqali inaktivatsiya qilingan vaktsinalarga qaratilgan tadqiqotlar sezilarli darajada kam. Ushbu sabablarnni inobatga olgan holda, ushbu ish elektron nurning keng tarqalgan kasalliklarni keltirib chiqaradigan patogen bakteriyalarga ta'sirini o'rganish, shuningdek, kasalliklarni profilaktik davolashni rivojlantirish uchun mos bo'lgan foydali o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan.

Qurilma: Elektron nurlanish manbai sifatida mikrotron (siklik elektron tezlatgich) ishlatilgan. 13 va 22 MeV energiya oralig'idagi tezlanish rejimlarida ishlaganda u quyidagi xususiyatlarga ega: (1) nurlanish chastotasi – 2,4 μs davomiylik bilan 400 impuls/s; (2) o'rtacha tok kuchi - 20 μA gacha.

Keyinchalik energiya E=13 MeV va tok kuchi I=(1÷10)μA bo‘lgan relyativistik elektron nur sochuvchi alyuminiy folga yuzasida to‘planadi. Alyuminiy folga qalinligi shunday tanlanganki, biologik namuna (BN) lokalizatsiyasi maydonida dozalash maydonining bir xil emasligi z_0=50 sm masofada 10% dan oshmaydi. Eksperimental qurilmaning sxemasi 1-rasmda tasvirlangan. Ta'sir qilish dozasi maydonining bir xil emasligini baholash uchun biz ikkita eksperimental usuldan foydalandik: biri elektronlar ta'sirida shisha rangining o'zgarishiga asoslangan, ikkinchisi esa strategik ravishda joylashtirilgan bir nechta oqim kollektorlari yordamida tarqoq nur oqimini to'g'ridan-to'g'ri o'lchashni o'z ichiga oladi.



1-rasm. Biologik namunalarni nurlantirish qurilmasi

Namuna tekisligida doza maydonini o'lchash jarayoni ikki bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elektron nurni fokuslash uchun magnit-optik tizimni sozlash.
2. Ko'p kanalli nanoampermetr yordamida doza maydonini bevosita o'lchash.

Alyuminiy folga sochilgandan so'ng elektron nurning shaklini aniqlash uchun shisha plastinka ishlatilgan. Jarayon elektron nurning magnit-optik fokuslash tizimini sozlashdan iborat bo'lib, shunda tarqalishdan keyin dumaloq doza maydoni olinadi. Shuning uchun shisha plastinka nur shaklining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qildi.

Nurning intensivligi to'g'ridan-to'g'ri ko'p kanalli nanoampermetr bilan o'lchandi. Elektron oqimining zichligi laboratoriyada ishlab chiqilgan sakkiz kanalli Nanoampermetr (NA-8) yordamida nazorat qilindi.

NA-8 bizga tashqi qurilma sifatida xizmat qiladi va RS-232 (COM) interfeysi orqali kompyuterga ulanadi. U ikkita asosiy platani o'z ichiga oladi: oqim o'lchovi uchun zarur bo'lgan NA-8 platasi va asosiy kompyuter bilan ulanish uchun aloqa platasi. Qurilma asosiy kompyuterdan 30 metrgacha masofada joylashgan bo'lishi mumkin va 9600 bayt/sek ma'lumotlarni uzatish tezligini qo'llab-quvvatlaydi.

NA-8 ni ishlab chiqishda ikki turdagi kompyuter dasturlari tuzilgan:

►MC uchun o'rnatilgan dasturiy ta'minot;

►asosiy kompyuter uchun uskunalar paneli dasturi (Windows asosida).

NA-8 ning asosiy texnik xususiyatlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan:

Kirish kanallari soni	8
Kirish turi	Manfiy oqim
O'lchangan kirish oqimlarining diapazoni	1-2400 nA
O'lchov aniqligi	< ±0,1 nA
Harorat diapazoni	-45…+85^0 C
Quvvat manbai	+5 V (70 mA)

1-jadval:mikrotronning ba’zi asosiy texnik xususiyatlari

Uskunalar paneli o'lchash jarayonini boshqarishni osonlashtiradi va 0,8 s chastotada yangilanib turadigan real vaqtda oqim va vaqt grafiklarini ko'rsatadi.

Foydalanilgn adabiyotlar ro‘yxati:

1. Wu G, Zhai M, Wang M. Radiation technology for advanced materials : from basic to modern applications[B]China: Shanhai Jiatong University Press. 2019.
2. Miller RB. Electronic irradiation of foods: an introduction to the technology[B]. 1st ed. New Mexico: Springer Science & Business Media. 2006.
3. Cleland MR. Industrial applications of electron accelerators—Ion beam applications[J], 2005, 24.
4. Chmielewski AG, Haji-Saeid M. Radiation technologies: past, present and future[J]. Radiation Physics and Chemistry, 2004, 71(1):17–21.
5. Kim Y Bin, Yoon MY, Ha JS, et al. Molecular characterization of avian pathogenic Escherichia coli from broiler chickens with colibacillosis[J]. Poultry Science, 2020, 99 (2):1088–95.
6. Adhikari S, Khadka S, Sapkota S, et al. Multi-drug resistant and extended spectrum β-lactamase producing Salmonella species isolated from fresh chicken liver samples[J]. Kathmandu University Medical Journal, 2020, 18(69):23–27.
7. Huang T-M, Lin TL, Wu CC. Antimicrobial Susceptibility and Resistance of Chicken Escherichia Coli, Salmonella spp., and Pasteurella Multocida Isolates[J]. Avian Disease, 2009, 53(1):89–93.
8. Bulkhanov, R U, Ryasnynsky, I V, Yuldashev, R Yu, Mirsaev BS. Intercpecific radiostability of microorganisms[C]. Tashkent: Institute of Nuclear Physics of Uzbekistan Academy of Sciences. 2003: 265.
9. Bulkanov RU. Problems of research, synthesis and production of preparations for veterinary medicine[C]. Tashkent: Institute of Nuclear Physics of Uzbekistan Academy of Sciences.1999.
10. Praveen C. Electron beam as a next generation vaccine platform: microbiological and immunological characterization of an electron beam based vaccine against Salmonella Typhimurium[D].Texas A&M University, 2014.
11. Scherließ R, Ajmera A, Dennis M, et al. Induction of protective immunity against H1N1 influenza A(H1N1)pdm09 with spray-dried and electron-beam sterilised vaccines in non-human primates[J]. Vaccine, 2014, 32(19):2231–40

IONLASHTIRUVCHI NURLANISH TEXNOLOGIYALAR VAKTSINANI ISHLAB CHIQISH UCHUN QISQACHA SHARH

mag. G‘offorov Obid Shuhrat o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti
gofforovobid8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu sharh 20-asr o'rtalariga borib taqaladigan tarixiy ildizlarga ega bo'lgan vaktsinani ishlab chiqishda ionlashtiruvchi nurlanish texnologiyalaridan, xususan, gamma nurlanish, elektron nurlar va rentgen nurlaridan foydalanishni sohalarini ochib berishga qaratilgan. Ushbu maqola COVID-19, OIV, gripp, bezgak va sil kabi global sog'liq muammolari oldida tugan vaktsina texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirish muhimligini nazarda tutadi. Sharhda ionlashtiruvchi nurlanishning turli patogenlar, jumladan, bakteriyalar, viruslar va protozoalarga ta'sirini umumlashtiradi va inson va veterinariya tibbiyotida, shuningdek qishloq xo'jaligida 65 yil davomida qo'llanilgan tijorat va sog'liq uchun foydali tomonlarni umumlashtirib muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: ionlashtiruvchi nurlanish; vaktsinani ishlab chiqish; ionlashtiruvchi nurlanishlar(gamma nurlar, elektron nurlanish, Rentgen nurlari); mikroblarning inaktivatsiyasi; patogenning inaktivatsiyasi; yangi yuqumli kasalliklar.

Butun dunyo hamjamiyati kurashgan o’tgan pandemiyani hisobga olgan holda, vaktsina texnologiyalarini doimiy ravishda ishlab chiqish va takomillashtirish zarurati mavjud. Ionlashtiruvchi nurlanishlardan foydalanib vaksinalar ishlab chiqarish uzoq tarixga ega bo’lib, 20-asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ionlashtiruvchi nurlanish texnologiyasi juda ko'p qirrali texnologiya bo'lib, butun dunyo bo'ylab turli xil yo’nalish va sohalariga ega. [1] Emlash sog'liqni saqlash choralarining asosidir. U odamlar va hayvonlar salomatligini mustahkamlaydi, shuningdek, odamlar va hayvonlar orasida yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini oladi. Oziq-ovqat va chorvachilik sanoatida ko'p dori-darmonlarga chidamli bakteriyalar xafi tufayli antibiotiklar o'sishini rag'batlantiruvchi vositalardan foydalanish sezilarli darajada kamaydi [2]. Biroq, mikroblarga qarshi foydalanish taqiqlanganligi sababli, Daniyada mikroblarga qarshi vositalardan terapevtik foydalanish 33,6% ga oshdi va sutdan ajratilgan cho'chqalarning o'limi 1,5% ga ko’tarildi [2]. Urbanizatsiya, iqlim o'zgarishi va hayvonlar va odamlarning yaqin o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda, epidemiyalar, pandemiyalar va tez rivojlanayotgan yuqumli virus shtamblari bilan kurashish uchun vaktsina texnologiyalarini doimiy ravishda ishlab chiqish zarurati mavjud.

Ionlashtiruvchi nurlanish texnologiyasi jamiyatga 65 yildan ortiq foyda keltirdi. Kobalt-60 va seziy-137 kabi radioaktiv izotoplarga asoslangan eski yadro texnologiyalari inson va hayvonlar salomatligi va qishloq xo'jaligiga katta foyda keltirdi.[3] Radioaktiv izotoplarga asoslangan ionlashtiruvchi nurlanish texnologiyasidan tashqari, elektron nurlar (eBeam) va rentgen nurlari texnologiyalari so'nggi o'n yillikda tez o'sib bordi va hozirda turli xil tijorat maqsadlarida keng foydalanilmoqda. Ushbu qisqacha sharhning umumiy maqsadi yuqumli kasalliklarga

qarshi vaktsinalarni ishlab chiqish uchun ionlashtiruvchi nurlanish texnologiyasidan foydalanish tarixi va yutuqlarini umumlashtirishdir.

Uchta asosiy ionlashtiruvchi nurlanish texnologiyasi: gamma-nurlanish texnologiyasi (fotonlarga asoslangan), elektron nurlar texnologiyasi (tezlashtirilgan yuqori energiyali elektronlarga asoslangan) va rentgen nurlari (fotonlarga asoslangan). Gamma nurlari radioaktiv izotop yadrosidan chiqadigan fotonlardan tashkil topgan elektromagnit nurlanishdir. Ko'pgina tadqiqot va laboratoriya sharoitlarida izotop manbai kobalt-60 hisoblanadi. Ba'zi hollarda gamma nurlari seziy-137 dan ham ishlab chiqariladi. Elektron nurlar (eBeam) texnologiyasi "Elektron tezlatgichlari" deb nomlangan uskunalari yordamida oddiy elektr energiyasidan ishlab chiqariladigan yuqori energiyali elektronlarga asoslangan. Rentgen nurlari ham fotonlardan tashkil topgan elektromagnit nurlanishdir.[4]

Ionlashtiruvchi nurlanish mikroorganizm va potogenlarni to’g’ridan-to’gri yoki bilvosita usullar bilan faolsizlantiradi. To'g'ridan-to'g'ri zarar energetik elektronlar yoki fotonlar va organizm ichidagi molekulalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladi, bilvosita zarar esa suvning radioliz mahsulotlari bilan o'zaro ta'sir qilish natijasida yuzaga keladi. Ko’plab laboratoriyalarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, elektron nurlanish ta'siri hatto o'limga olib keladigan dozalarda ham mikroskop yordamida kuzatilganidek bakterial hujayra membranasini buzmaydi [5]. Xuddi shunday, gamma nurlanishi ham o'ldiradigan dozalarda bakterial hujayra membranalariga hech qanday zarar etkazmasligi ko'rsatilgan [6]. Bundan tashqari, ionlashtiruvchi nurlanishning halokatli dozalari bilan davolangan hujayralarda davolanishdan keyin qoldiq metabolik faollik mavjudligi haqida muhim dalillar mavjud [7]. Ionlashtiruvchi nurlanish vaktsinalari yoki radio-vaktsinalarning afzalligi shundaki, ular inaktivatsiyalanganligi sababli ular hatto muzlatgichsiz sharoitlarda ham immunogenlikni saqlab qolishi mumkin, bu esa vaktsina kuchini saqlab qolish uchun sovuq zanjirga ehtiyojni yo'q qiladi [8-9].

Radiovaksinalarga immunitetning javoblari: Gamma-inaktivlangan grippga qarshi vaktsinani yaratish bo'yicha katta miqdordagi tadqiqotlar o'tkazildi, bu vaktsina kuchli antigenga xos antikor reaktsiyasini yaratishda, shuningdek, sichqonlarni grippning heterolog virusi bilan kurashishdan himoya qilishda samarali ekanligini ko'rsatdi [10]. Bundan tashqari, gamma-nurlangan hujayralar hatto yordamchi vosita sifatida harakat qilish qobiliyatini ko'rsatdi, bu esa birgalikda qo'llaniladigan antigenlarga qarshi immunitetni oshiradi [11].

1-jadval: turli davlatlarda potogenlarga qarshi ishlab chiqarilgan radiovaksinalar va ularning potentlari

Patent	Davlat	Yil	Holat	Sarlavha
US20060147460A1	AQSH	2002	Berilgan	Saratonga qarshi emlash va diagnostika usullari va reagentlari
KR101173871B1	Janubiy Korea	2004	Berilgan	O'zgartirilgan erkin yashovchi mikroblar vaktsinalarining tarkibi va ulardan foydalanish usullari

US8173139B1	AQSH	2009	Berilgan	Parrandalarda immunomodulyatorlarni ishlab chiqarish uchun yuqori energiyali elektron nurlanish
CA2733356C	Kanada	2009	Berilgan	Gripga qarshi vaksinalar
US20150209424A1	AQSH	2011	Muddati tugagan	Varikella zoster virusiga qarshi faollashtirilgan vaktsinalar, ishlab chiqarish usullari va ulardan foydalanish
JP2014520117A	Yaponiya	2012	Berilgan	Vaktsina tarkibi inaktivatsiyalangan chikungunya virusi shtammini o'z ichiga oladi

Garchi ionlashtiruvchi nurlanish vaktsina texnologiyasi sifatida qariyb bir asr davomida o'rganilgan bo'lsa-da, yaqinda ionlashtiruvchi nurlanishdan foydalanadigan vaktsinalar tijorat rivojlanishiga erishdi. Ushbu sharh ionlashtiruvchi nurlanishning turli xil xost turlarida kasalliklarni keltirib chiqaradigan bir nechta patogenlarga qarshi emlash texnologiyasi sifatida potentsialini ta'kidlaydi. Tibbiy asbob-uskunalar, oziq-ovqat va boshqa sanoat ilovalari uchun elektron nurlanish va Rentgen texnologiyalarini tijoratlashtirish umumiy texnologiya xarajatlarining pasayishiga va texnologiya mavjudligining oshishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sohini S. Bhatia1 and Suresh D. Pillai. Ionizing Radiation Technologies for Vaccine Development - A Mini Review. : 11 February 2022 doi: 10.3389/fimmu.2022.845514
2. Wierup M. The Swedish Experience of the 1986 Year Ban of Antimicrobial Growth Promoters, With Special Reference to Animal Health, Disease Prevention, Productivity, and Usage of Antimicrobials. Microb Drug Resist (2001) 7:183–90. doi:
3. Spreng S, Dietrich G, Weidinger G. Rational Design of Salmonella-Based Vaccination Strategies. Methods (2006) 38:133–43. doi: 10.1016/ j.ymeth.2005.09.012
4. Pillai SD, Shayanfar S. Electron Beam Technology and Other Irradiation Technology Applications in the Food Industry, in: Applications of Radiation Chemistry in the Fields of Industry, Biotechnology and Environment Topics in Current Chemistry Collections (2017). Springer International Publishing (Accessed July 7, 2018)
5. Urbain WM. CHAPTER 4 - Biological Effects of Ionizing Radiation. In: WM Urbain, editor. Food Irradiation. Academic Press (1986). p. 83–117. doi: 10.1016/B978-0-12-709370-3.50010-5
6. Hieke A-SC, Pillai SD. Escherichia Coli Cells Exposed to Lethal Doses of Electron Beam Irradiation Retain Their Ability to Propagate Bacteriophages and Are Metabolically Active. Front Microbiol (2018) 9:2138. doi: 10.3389/ fmicb.2018.02138

7. Sanakkayala N, Sokolovska A, Gulani J, HogenEsch H, Sriranganathan N, Boyle SM, et al. Induction of Antigen-Specific Th1-Type Immune Responses by Gamma-Irradiated Recombinant Brucella Abortus RB51. Clin Diagn Lab Immunol (2005) 12:1429–36. doi: 10.1128/CDLI.12. 12.1429-1436.2005

8. Magnani DM, Harms JS, Durward MA, Splitter GA. Nondividing But Metabolically Active Gamma-Irradiated Brucella Melitensis Is Protective Against Virulent B. Melitensis Challenge in Mice. Infect Immun (2009) 77:5181–9. doi: 10.1128/IAI.00231-09

9. Ahn TH, Nishihara H, Carpenter CM, Taplin GV. Respiration of Gamma Irradiated Brucella Abortus and Mycobacterium Tuberculosis. Proc Soc Exp Biol Med (1962) 111:771–3. doi: 10.3181/00379727-111-27917

10. Scherließ R, Ajmera A, Dennis M, Carroll MW, Altrichter J, Silman NJ, et al. Induction of Protective Immunity Against H1N1 Influenza A(H1N1)pdm09 With Spray-Dried and Electron-Beam Sterilised Vaccines in Non-Human Primates. Vaccine (2014) 32:2231–40. doi: 10.1016/j.vaccine.2014.01.077

11. Sir Karakus G, Tastan C, Kancagi DD, Yurtsever B, Tumentemur G, Demir S, et al. Preliminary Report of Preclinical Efficacy and Safety Analysis of Gamma-Irradiated Inactivated SARS-CoV-2 Vaccine Candidates. (2020). doi: 10.1101/2020.09.04.277426

12. Furuya Y, Chan J, Regner M, Lobigs M, Koskinen A, Kok T, et al. Cytotoxic T Cells Are the Predominant Players Providing Cross-Protective Immunity Induced by -Irradiated Influenza A Viruses. J Virol (2010) 84:4212–21. doi: 10.1128/JVI.02508-09

13. Babb R, Chen A, Hirst TR, Kara EE, McColl SR, Ogunniyi AD, et al. Intranasal Vaccination With g-Irradiated Streptococcus Pneumoniae Whole-Cell Vaccine Provides Serotype-Independent Protection Mediated by B-Cells and Innate IL-17 Responses. Clin Sci (2016) 130:697–710. doi: 10.1042/CS20150699

GEN INJENERIYASINING MUVAFFAQIYATLARI VA YUTUQLARI

PhD. O‘rolov Abdumannon Iskandarovich,
Gapparova Rayhona Shuxrat qizi,
Ilhomova Dildora O‘tkir qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
ilkhomova0805@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda gen muhandisligi yutuqlari, biotexnologiyaning mohiyati, gen injeneriyasining eng muhim vazifalari, genetik injeneriyaning istiqbolli yo‘nalishlari va genetika injeneriyasi duch keladigan muammolar haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: rekombinant DNK, gormon, klon, biotexnologiya, farmatsevtika, interferonlar, transgen hayvon va o‘simliklar, in vitro, molekulyar biologiya.

Kirish: Genetika muhandisligi, organizmni yoki organizmlar populyatsiyasini o‘zgartirish uchun DNK yoki boshqa nuklein kislota molekulalarini sun’iy manipulyatsiya qilish, o‘zgartirish va rekombinatsiya qilish. Gen muhandisligi atamasi odatda mikrobial genetikadagi asosiy tadqiqotlar natijasida paydo bo‘lgan rekombinant DNK texnologiyasi usullariga nisbatan qo‘llaniladi. Gen injeneriyasida qo‘llaniladigan texnikalar tibbiy ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlar, jumladan, inson insulini, inson o‘sish gormoni va gepatit B vaktsinasini ishlab chiqarishga, shuningdek, kasalliklarga chidamli o‘simliklar kabi genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlarning rivojlanishiga olib keldi. Genetik muhandislik atamasi dastlab irsiyat va ko'payish jarayonlari orqali organizmlarni o‘zgartirish yoki manipulyatsiya qilish uchun ishlatiladigan turli usullarni nazarda tutgan. Shunday qilib, atama sun’iy tanlashni ham, biotibbiyot usullarining barcha aralashuvlarini, jumladan, sun’iy urug'lantirishni, in vitro urug‘lantirishni (masalan, "probirkali" chaqaloqlar), klonlashni va genlarni manipulyatsiya qilishni o‘z ichiga oladi [1-4].

Bugunga kelib, zamonaviy biotexnologik usullar va gen muhandisligi yordamida farmatsevtika uchun interferonlar, insulin, somatotropin, gepatitga qarshi vaksina, fermentlar, klinik tadqiqotlar uchun diagnostik ashyolar (giyohvandlik, gepatit va boshqa bir qator yuqumli kasalliklarni aniqlash uchun test tizimlar, biokimyoviy tekshirishlar uchun turli xildagi reaktivlar, egiluvchan biologik plastmassalar, antibiotiklar, va boshqa ko‘plab bioaralashmali mahsulotlar) ishlab chiqariladi. Pivo, spirt, kir yuvish vositalari ishlab chiqarish, to‘qimachilik va teri oshlash kabi jarayonlarda ishlatiladigan ferment preparatlari ishlab chiqarish va qo‘llash ham keng yo‘lga qo‘yilgan [5-6].

Biotexnologiyaning mohiyatini tushunish uchun misollarga murojaat qilaylik. Bakteriya hujayrasi har 20-60 minutda, achitqi zamburug‘lari 1,5-2,0 soatda ikkiga bo‘linib ko‘paysalar, sut emizuvchilar hujayralarining ikkiga bo‘linishi uchun 24 soat kerak bo‘ladi. Bir kecha kunduzda og‘irligi 500 kilogrammli bo‘lgan qoramol 500 gramm oqsil moddasi to‘plasa, 500 kilogramm achitqi zamburug‘i 500000 kilogramm yoki undan 1000 marotaba ko‘proq oqsil to‘playdi. Qolaversa, mikrob yetishtirish na ob-havoga va na faslga bog‘liq. Ularni eng arzon oziqa muhitida har xil chiqindilar: kletchatka, metanol, metan gazi va vodorodda o‘stirish mumkin. Mikroorganizmlar nafaqat oqsil, balki turli fermentlar, yog‘lar, vitaminlar, polisaxaridlar va boshqa bir qator foydali mahsulotlar sintez qiladi [7].

Gen injeneriyasining eng muhim vazifalaridan biri mahsuldorligi, mahsulot sifati va kasalliklarga chidamliligi yuqori bo‘lgan transgen (genetik modifikatsiyalangan) hayvonlarni ko‘paytirishdir. Qimmatbaho biologik faol moddalarni ishlab chiqaruvchi bioreaktor hayvonlarini yaratish ham muhim ahamiyatga ega. O'sish gormonini kodlovchi gen alohida qiziqish uyg'otadi.

Integratsiyalashgan kalamush o‘sish gormoni geniga ega bo'lgan birinchi transgenik sichqonlar 1982-yilda olingan bo‘lib, ular o'sish tezligining oshishi va tana vaznining tez o‘sishini ko‘rsatdi [8-9].

Yevropa lososlari bilan ta’sirchan natijalarga erishildi. Integratsiyalashgan o‘sish gormoni geniga ega bo'lgan losos balig‘i odatdagidan ancha katta va sotiladigan vaznga 2 baravar tezroq erishadi.

Genetik injeneriyaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri tibbiyot, farmakologiya va boshqalarda zarur bo‘lgan oqsillarni ishlab chiqarishga qodir bioreaktor zavodlarini yaratishdir. Ularning afzalliklari yaratish va ko‘paytirishning nisbatan qulayligi, yuqori mahsuldorligidir [2].

Biotexnologiya keyingi yillarda genetik injeneriyaning yutuqalariga suyangan holda rivojlanmoqda. Bunday tarmoqlar ilk marta Amerikada keyinchalik Yevropa va Yaponiyada paydo bo‘lgan. Hozirgi kunda biotexnologiya usullari asosida ko‘plab antibiotiklar (4500 dan ortiq) olinmoqda [3].

Molekular biologiya va genetika biotexnologiyalarning nazariy asosi hisoblanadi. Biotexnologiya fan tarkibiga gen, hujayra va fermentlar muhandisligi, memberana texnologiyasi kabilar kiradi. Shu yo‘nalishlar yordamida hozirda seleksiya va urug‘chilik, o‘simlikshunoslik, chorvachilikdagi dolzarb muammolar hal qilinmoqda [4].

Genetika injeneriyasi duch keladigan muammolardan biri bu aholining ma'lum bir qismining transgen (genetik modifikatsiyalangan) organizmlar va ularning mahsulotlariga nisbatan ehtiyotkor va ba’zan salbiy munosabatdir. Bunga ommaviy axborot vositalarida transgenik mahsulotlar odamlar uchun zararli ekanligi, transgen organizmlarning o‘zi esa ekologik vaziyatga tahdid solishi va hokazolar ta’kidlangan nashrlar yordam berdi [10].

Shuni ta’kidlash kerakki, 20 yildan ortiq vaqt davomida rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada va boshqalar) sezilarli darajada genetik muhandislik mahsulotlari qo‘llanilmoqda. Biroq, ulardan foydalanishning ilmiy jihatdan tasdiqlangan nojo‘ya ta’siri aniqlanmagan. Hatto genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlarni (GMO) yaratish bosqichida ham kiritilgan gen hech qanday toksik yoki allergen komponentni sintez qilmasligini ta’minlash uchun qattiq nazorat qilinadi. Shundan so‘ng transgen organizm tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar laboratoriyalarda sinchkovlik bilan tekshiriladi [11].

Bundan tashqari, bozorga chiqarilganda genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar, shuningdek, kimyoviy yoki boshqa usullar bilan olingan har qanday boshqa mahsulotlar (dorilar, o‘simliklarning o‘sish stimulyatorlari, tatlandırıcılar, oziq-ovqat bo‘yoqlari, konservantlar, o‘g‘itlar va boshqalar) maxsus xizmatlar tomonidan tekshiriladi. Ular zaharlilik, allergenlik, kanserogenlik va boshqalar uchun sinovdan o'tkaziladi. Shuning uchun bunday sinovlardan o‘tgan transgen mahsulotlar boshqalardan ko‘ra xavfli emas. Genetik jihatdan o'zgartirilgan organizmlarning atrof-muhitga salbiy ta’siri ehtimoliga kelsak, hozircha aniq javob yo‘q va nazariy jihatdan bunday muammo mavjud.

Maxsus tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, transgen o'simliklarni yetishtirishning ekologik xavfini an’anaviy yangi naslchilik navlarini sinovdan o‘tkazish xavfi bilan solishtirish mumkin. Transgen o‘simliklarda paydo bo‘ladigan barcha birikmalar, qoida tariqasida, tabiatda allaqachon mavjud. Genlarni, masalan, gerbitsidlarga chidamliligini aniqlaydiganlarni begona o‘tlarga, ularning gerbitsidlarga chidamli transgen o‘simliklar bilan tasodifiy kesishishi natijasida o‘tkazishning ma’lum bir xavfi mavjud. Biroq, uzoq vaqt davomida gerbitsiddan foydalanish bilan bunday begona o‘tlar normal sharoitda paydo bo‘lishi uzoq vaqtdan beri ma’lum [12-13].

Bundan tashqari, genetik jihatdan o‘zgartirilgan o‘simliklar va tegishli madaniy va yovvoyi turlar o‘rtasida gen almashinuvi bu uzoq kelajakda mavjud ekotizimlarning barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin. Bugungi kunda transgen o‘simliklardan foydalanishning nisbatan qisqa muddati tufayli biz ularning atrof muhitga ta’sirining uzoq muddatli oqibatlarini mutlaqo aniq bashorat qila olmaymiz. Shu bois, genetik modifikatsiyalangan organizmlardan nazoratsiz foydalanishni istisno qilish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ayrim davlatlar gen injeneriyasi texnologiyalaridan foydalanish natijasida atrof-muhit va inson salomatligi uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ekologik oqibatlarning oldini olishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlarini ishlab chiqdilar [14].

Masalan, Belorussiyada, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, bioxavfsizlikning me’yoriy-huquqiy bazasini yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. 2006-yilda Belarus Respublikasining "Gen muhandislik faoliyati xavfsizligi to‘g‘risida" gi qonuni qabul qilindi. U genetik modifikatsiyalangan organizmlar va ular asosida yaratilgan mahsulotlar bilan ishlashda xavfsizlikning asosiy tamoyillarini shakllantiradi. Davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari, genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlarning xavfsizligini davlat ekspertizasidan o‘tkazish, ularni hisobga olish, atrof- muhitga chiqarish va boshqa masalalar belgilangan.

Ushbu chora-tadbirlarning barchasi genetik muhandislik texnologiyalaridan foydalanishning mumkin bo‘lgan zararli oqibatlarini minimallashtirishga yordam beradi, ularsiz 21-asrda insoniyat boshqara olmaydi va omon qolmaydi [2].

Xulosa: Gen injeneriyasi rivojlanib borayotgan va yosh sohalardan biri hisoblanadi. Sanoat va ishlab chiqarish sohalarida gen injeneriyasi usullaridan foydalanish ishlab chiqarish samarasining oshishiga, resurslar va vaqt tejalishiga olib keladi. Shu sababdan gen muhandisligi usullarini mukammal o‘rganish, hayotga tadbiq etish va yanada ishonchli hamda samarali usullarni ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 6128-6143.
2. Saatov T. et al. Study on hypoglycemic effect of polyphenolic compounds isolated from the Euphorbia L. plants growing in uzbekistan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2020. – T. 70.
3. Saatov T. et al. Antioxidant and hypoglycemic effects of gossitan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – T. 63.
4. Sobirova M., Murodova S. Effects of biopraparites on cynara scolymus L., micro and macroelements, and quantity of flavonoids // In E3S Web of Conferences//. 2021. Vol. 258.
5. Sobirova M.M., Murodova S.S. The Influence of Biofertilizers on the Growth and Development of a Medicinal Plant Artichoke (Cynara scolymus L.)// International journal for innovative research in multidisciplinary field issn: 2019. -10, – Impact Factor: 6.497.- pp. 46-49

6. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 890-900.
7. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 9. – C. 890-900.
8. Mustafakulov M. et al. Determination of antioxidant properties of l-cysteine in the liver of alloxan diabetes model rats //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – №. Special Issue. – C. 47-54.
9. Saatov T. et al. Neurodegeneration type and severity have linkage with plasma insulin in DM patients //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2022. – T. 81.
10. Mustafakulov M. A. et al. Aptamers and their use in biology and medicine aptamers and their applications in nanotechnologies, virology and biology //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 509-515.
11. Abduvalievich M. M. et al. Determination of HEPATOTROPIC effects of certain substances in experimental toxic hepatitis //Global Scientific Review. – 2022. – T. 10. – C. 160-162.
12. Mukhammadjon M. et al. The effect of ngf on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 9 (87). – C. 82-86.
13. Мустафакулов М. А. и др. Изучение антиоксидантной и антирадикальной активности листьев isatis tinctoria L //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 7-1 (97). – C. 40-44
14. Мустафакулов М. А. и др. Исследование влияния липосомальной формы кверцетина на отдельные биохимические параметры ткани мозга животных с экспериментальной моделью нейродегенеративного состояния //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 1-1 (103). – C. 33-39.

KARTOSHKA O‘SIMLIGIDA UCHRAYDIGAN KASALLIK TURLARI

Imomova Shamsiya Abduvahobovna,
Ahmedov Dilshod Hasan o‘g‘li,
Tursunboyev Sardor Muxtor o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada hozirgi kunda ekologik muhitning turli omillar orqali buzilishi natijasida meva va sabzavotlarni yetishtirishda ko‘pgina kasalliklar yuzaga kelmoqda. Hususan kartoshka o‘simligida uchraydigan kasalliklar va ularning turlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kartoshka, chirish, aynish, fitoftoroz, mikroorganizmlar, bakteriya.

Kartoshka muhim oziq-ovqat, ozuqabop texnik o‘simlik hisoblanib, yetishtiriladigan barcha mahsulotlar orasida muhim o‘rinni egallaydi. Kartoshka oziq-

ovqat sanoatida katta ahamiyatiga ega. Shuning uchun u don mahsulotlaridan so‘ng ikkinchi o'rinda turadi.

Kartoshkaning vatani Janubiy Amerika Kardilyerlaridir, chunki And tog‘i hududlarida va Tinch okeani sohillarida bu ekinning ko‘pgina yow oyi va yarim yowoyi turlari hozir ham o‘sadi. Kartoshka Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda XIX asr o‘rtalaridan keng tarqalgan.

Kartoshka tuganagidan olinadigan spirt sifati jihatidan ancha yuqori turadi. Shuningdek, farmatsevtika, atir-upa hamda aroq ishlab chiqarish sanoatida keng foydalaniiadi. Kartoshka kraxmaldan konditer, mato to'qish va kolbasa ishlab chiqarishda ham foydalaniiadi. Respublikamizda kartoshka, asosan oziq-ovqat maqsadida yetishtiriladi. Yetishtirilgan kartoshkaning 25-30% urug‘lik sifatida foydalaniiadi.

Kartoshka (*Solonum*) - Tomatdoshlar Solanaceae oilasiga mansub bo‘lib, bizning sharoitimizda *Solonum tuberosum* turi yetishtiriladi.

Madaniy kartoshka - tuganakmeva hosil qiladigan ko‘p yillik o'simlik bo‘lib, uning yer ustki qismi barg va poyalari har yili o‘sadi va nobud bo‘ladi.

Kartoshka tuganaklari mo‘tadil iqlim sharoitida tuproqda saqlanmaydi, chunki sovuq harorat uni zararlaydi. Shuning uchun bu tuganaklar kuz faslida kovlab olinib, bahorda qayta ekiladi va xuddi bir yillik o‘simlik sifatida o‘stiriladi. Kartoshka vegetativ tuganagi, o‘simtalari va qalamchalaridan ko‘payadi. Bundan tashqari, kartoshka urug‘idan ham ko‘payadi.

Kartoshka tuganagi qayta ishlangan vaqtida chiqadigan chiqindi (barda, turpi) ham qora mollarga beriladi. Kartoshka tuganagini oziq-ovqatda ko‘p ishlatishga sabab - uning tarkibida inson organizmi yaxshilaydigan uglevodlar, oqsillar asosan, kraxmalning ko‘pligi, C vitamini, mineral tuzlar, temir, kalsiy va boshqa moddalaming mavjudligidir. Xom tuganagi tarkibida C vitamini miqdori 40% mg/ga yetadi. Kartoshkaning yosh poyasi tarkibida 84% mg/ga suv bo‘ladi. Tuganagi tarkibi 75% suv va 25% quruq moddadan iboratdir. Quruq modda o‘z navbatida 1% mineral birikma, 1% kletchatka, 1,2-3,0% oqsil, 0,7% aminokislota, kraxmal 14-22%, qand 0,9% pektin moddalar 0,7%, organik kislotalar-0,2%, yog‘ 1% va boshqa moddalar 1,5% ni tashkil etadi. Tuganak tarkibida vitaminlardan: PP (0,57 mg,) Bi (0,11 mg), B2 (0,06 mg), B6 (0,22 mg) mavjud boiib, C vitaminining esa eng ko‘p miqdori 12 mg ni tashkil etadi va ayrim hollarda uning miqdori 40 mg ga yetadi. Yetilmagan yosh tuganaklar bu vitaminga juda boydir. Kartoshka ko‘kimtir rangga ega bolgan tuganaklarida zaharli modda glyukoalkaloid, solanin (1-20 mg%) moddasi hosil boladi. Bu zaharli modda ta’siri uni pishirish vaqtida qisman yo‘qotiladi. Kartoshka - texnik ekin hisoblanadi. Uni 1 tonna tuganagidan 112 litr spirt, 55 kg uglekislota, 0,39 iitr sivush moyi, 1500 litr barda yoki 170 kg kraxmal, 80 kg glukoza va boshqa mahsulotlar olinadi.

Hozirgi vaqtda kartoshkaning 2000 ga yaqin madaniy navlari bolib, shundan 20 ga 270 yaqini respublikamizda yetishtiriladi.

Boshqa o‘simliklarda bo‘lgani kabi kartoshka o‘simligi ham bir qancha kasalliklar bilan kasallanadi. Jumladan, kartoshkaning chirish va aynish kasalliklari,

Chirish - bu oqsil moddalarning mikroorganizmlar ta’sirida parchalanish jarayonidir. Oqsillar murakkab organik birikmalar bo‘lib, tuzilishi va xususiyatlari,

turli-tuman bo‘ladi. Oqsil moddalar ko‘p miqdorda oziq-ovqatda, o‘simlik, hayvon va odam tanasida bo‘ladi. Ko‘pchilik mikroorganizmlar oqsillarni ma’lum darajada parchalash qobiliyatiga ega. Ba’zilari xaqiqiy oqsillarni parchalay oladilar, boshqalari ularning qisman parchalangan mahsulotlarini – polipeptidlarni, uchinchilari faqat parchalangan sodda mahsulotlarni aminokislotalarni parchalaydilar. Mikroorganizmlar oqsil va uning parchalangan mahsulotlarini ozuqa va energetik material sifatida o‘zlashtiradilar. Oqsillarning gidrolizlanish jarayoni quyidagicha boradi: oqsil peptonlar polipeptidlar aminokislotalar. Nukleoprotedlarning parchalanishi quyidagicha bo‘ladi: Nukleoproteid oqsil va nuklein kislotalar fosfor kislota azotli asos pentozalar. Aminokislotalarning parchalanishi degidraza, dekarboksilaza fermentlari ta’sirida amin gruppasi ajralishidan boshlanadi. Bunda ammiak, turli organik kislotalar va spirtlar hosil bo‘ladi. Tarkibida oltingugurt bor aminokislotalar parchalanganda vodorod sulfid, merkantanlar va boshqa moddalar hosil bo‘ladi. Aromatik qatorli aminokislotalar parchalanib fenol, skatol, indol va boshqa juda qo‘lansa hidli moddalar hosil bo‘ladi. Oqsillar parchalanganda zaharli moddalar - ptomainlar (jasad zahari) hosil bo‘ladi. Aerob sharoitda aminokislotalarning parchalanishidan hosil bo‘lgan mahsulotlari yanada oksidlanib to‘la minerallashadi va ammiak, karbonat angidrid, vodorod sulfid, suv va fosfor kislotasining tuzlari hosil bo‘ladi. Anaerob sharoitda esa aminokislotalar parchalanishidagi mahsulotlar to‘la oksidlanmaydi. Hosil bo‘lgan organik kislotalar, spirtlar, ammiak, korbanat angidrid zaharli moddalar ko‘ngil aynitadigan ko‘llansa hidga ega bo‘ladi.

Chirituvchi mikroorganizmdan bakteriyalar katta ahamiyatga ega: spora hosil qiladigan va spora hosil qilmaydiganlari, aerob va anaeroblari. Ular orasidan keng taraqqiy etgan kartoshka va pichan tayoqchalari (Bacllus subtilis),konditer va sut mahsulotlarini shakar siropi va boshqa mahsulotlarni aynitadilar. Ular kartoshka, sabzavot va mevalarga tushsa ularni qoraytirib chiritadilar. Bakteriyalardan tashqari chirish jarayonlarida aktinomitsetlar va mog‘orlar katta rol o‘ynaydi. Chirituvchi mikroorganizmlar organik moddalarni parchalab tuproqni usimliklarga kerakli azot formalari bilan boyitadi. Ammo ular oziq - ovqatlarni aynitib, hayvonlar terisini va boshqa organik moddaga boy materiallarni chiritib, odamlarga katta zarar etkazadi [2].

Kartoshkaning aynish kasalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Kartoshkaning aynishi odatda tashqi noqulay ekologik sharoit hamda turli xildagi viruslar ta’sirida nav xususiyatlarini yomonlashtirish hamda hosil sifatini pasaytirish va uni keskin kamaytirishga olib keladi. Aynigan kartoshka o‘simligi barglarida xlorofill donalari keskin kamayadi, fotosintez hamda transpiratsiya jarayoni susayadi, kasalliklarga bardosh bera olmaydi, hosilda sifatli tuganaklar miqdori kamayadi va shu bilan birga uning mazasi o‘zgaradi. Markaziy Osiyoda o‘stiriladigan kartoshkalarda X,K,U,S va boshqa viruslar borligi aniqlangan. Kartoshka alohida viruslardan yoki ulaming infeksiyalardan, ayniqsa, qattiq zararlanadi. Kartoshka o‘simligini ayniganligi turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi, barglari bo‘rtib qoladi, maydalashadi, jigarrang tusga kirib dag‘allashadi.

Respublikamizda aynish kasalligining quyidagi turlari eng ko‘p tarqalgan: ***Burishgan mozaika***. Barglarining burishganligi bilan ifodalanadi. Bu virus X va S ta’sirida yuzaga keladi va uning barglarida to‘q qo‘ng‘ir dog‘lar hosil bo‘ladi.

Yo‘l-yo‘l mozaika. Barg tomirlarida jigarrang dog‘lar paydo bo’ladi bu virus U ta’sirida hosil bo’ladi.

Gotika. Bu kasallik belgisi, poyalar bo‘yi qisqarib, barglari poyaga o‘tkir burchak hosil qilib qo'shilib o‘sadi. Kasallikka uchragan o'simlik barglari maydalashadi, tuganaklar shakli o‘zgarib, urchuqsimon ko‘rinishga ega bo’ladi va uning mazasi keskin yomonlashadi. 0‘rta va kechpishar kartoshka navlari ko‘p yillar mobaynida reproduksiya qilinsa, bu kasallik keskin ko‘payib, hosilga sezilarli salbiy ta’sir ko'rsatadi.

Barglarning naychalanishi. Bu kasallik M virusi ta’sirida hosil bo‘lib, barglar o‘rta tomir tomon buralib naycha shakliga kirib qoladi.

Kudryash (hurpak). Bu kasallik belgisi shuki, tupda poyalar soni (10-15 dona) ko‘payib, barglar shakli o‘zgarib ketadi. Shu bilan birga yuqori toq yonbarglari o‘sib ketadi, poyasi esa kattalashadi. Bu tuganaklarning ko‘rinishini ham o‘zgartirib yuboradi. Shuning uchun urug‘lik tuganaklar saralanib olinayotganda ayniganlarini ajratib tashlash, kasallikning oldini olishga imkon beradi. Kartoshka ekiniga zararkunandalardan simqurt, kuzgi tunlam, kolorado qo‘ng‘zi va qandalalar katta zarar yetkazadi [1].

Fitoftoroz kasalligi. Phytophthora infestans oomitset zamburug‘i qo‘zg‘atadi Fitoftoroz kartoshka etishtiradigan ko‘p mamlakatlarda eng xavfli kasallik bo‘lib qolmoqda, O‘zbekistonda ham qayd etilgan kartoshka etishtiradigan ko‘p mamlakatlarda eng xavfli kasallik bo‘lib qolmoqda, ammo uning kartoshkada tarqalishi va hosilga ta’siri etarlicha o‘rganilmagan. Kasallik O‘zbekistonda ham qayd etilgan. [3].

Kasalliklarga qarshi kurashish uchun chidamli navlar ekish, urug’lik tuganaklarni ekishdan oldin dorilash, tuproqni pH 5-5,2 bo’lishini ta’minlash, almashlab ekishni joriy qilish, umumiy agrotexnika qoidalariga rioya etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. А.А.Воробьева, А.С.Быкова Атлас по Медитсинской, микробиологии.вирусологии и иммунологии Москва 2003й

2. X.N. Atabayeva, J.B. Xudoyqulov O‘simlikshunoslik Toshkent-2018y. 263-278b.

3. B.F. G‘oyibov, U.Z.Usmonov Kartoshka kasalliklari va ularga qarshi kurash usullari Международный научный журнал № 3 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» сентябрь, 2022 г.

4. Sh.M. Karimova, Z.Sh. Suyunov Oziq – ovqat mikrobiologiyasi Samarqand-2023y. 83-86b.

5. Sh.A.Imomova,D.A.Imomova, X.Mavlonov. Aydar – Arnasoy ko’llar xududidagi iqlim o’zgarishlarining dorivor o’simliklarga ta’siri. //Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi// Xorazm - 2023y.71-76b.

6. D.A.Imomova, Sh.A.Imomova. Aydar – Arnasoy ko’llar tizimi ayrim suv va tuproq namunalari kimyoviy elementlar tarkibining birlamchi natijalari. ORIENTAL JOURNAL OF GEOGRAPHY SJIF// 2023: 6.607. 1-9b.

TOKSIK GEPATITDA LIPIDLARNING PEROKSIDALNISH MAHSULOTLARIGA POLIFENOLLARNING TA'SIRI

Mallayeva Mavjudaxon Maxramovna
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali mustaqil izlanuvchisi
Mustafakulov Muhammadjon Abduvaliyevich
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
mmavjudaxon@mail.ru

Annotatsiya: Atrof-muhit omillari ta'sirining kuchayishi, sanoat va kimyoviy sintez mahsulotlarining miqdori tobora ko'payib borayotganligi sababli, jigarning kimyoviy moddalar ta'siriga chidamliligini oshiradigan va toksik stress ta'siriga javob reaksiya funksiyalarini normallashtiradigan gepatoprotektorlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: gepatit, gepatotoksik, alanin aminotransferaza, aspartat aminotransferaza.

Mavzuning dolzarbligi: Gepatotoksikantlarning ta'sir mexanizmi xilma-xil bo'lib, ular qaysi guruhga mansubligiga bog'liq. Umuman olganda, ularning zararli ta'siri lipidlarning perekisli oksidlanishining kuchayishi tufayli gepatotsitlarning membranasi va ferment apparatini o'zgartirishdan, shuningdek, toksik metabolitlar - gepatotoksin biotransformatsiyasi hosilalari to'planishidan iborat. Shuning uchun jigarning toksik shikastlanish holatida, birinchi navbatda, jigar hujayralari membranalarini funksional holatiga ta'sir qiluvchi omillarni cheklaydigan va ularning gistologik yaxlitligini ta'minlaydigan antioksidant terapiya qo'llaniladi[1,2]. Gepatobiliar tizim patologiyasining eng keng tarqalgan turlari – o'tkir va surunkali virusli gepatit, toksik va dorivor shikastlanishlar, alkogolli jigar kasalligi va steatoz kasalliklarida o'simlik tabiatli polifenollarning antioksidantlik ta'sir samarasidan foydalanish istiqbolli hisoblanadi.

Mavzuning maqsadi: Toksik gepatitda lipidlari peroksidlanishiga polifenol birikmalarni ta'sirini o'rganish iborat.

Material va metodlar: Tetraxlormetan (CCl_4) 50% zaytun moyidagi eritmasi interparential usulda 2 marta 2 ml/kg dozada 1 kunda yuborish orqali chaqirildi [3,4]. Preparatlar Slimarin (farmakologik sotuv nomi Karsil) 50 mg/kg, rutan 10 mg/kg, gossitan 10 mg/kg dozada gepatit chaqirilgandan so'ng 7 kun ichida 10 mg/kg dozada peroral kiritildi. Jigar to'qimasi gomogenatini ajratib olish differensial sentrifugalash orqali 150-200 grammli kalamushlar jigari to'qimasi gomogenatini ajratib oldik. Eksperimental toksik gepatit modeli chaqirilgan kalamushlarni polifenol birikmalar bilan korreksiyalanganda qon zardobidagi gepatoprotektiv faollikni baholash uchun lipidlarning perekisli oksidlanishini aniqlash uchun quyidagi ishlar amalga oshirildi: probirkaga 0,5ml mitoxondriya suspenziyasidan olib, ketma – ketlikda quyidagi eritmalar – 0,5ml triton X-100 1% li eritmasidan, uning ustiga 0,2 ml 0,6 M HCl eritmasidan va 0,8 ml 0,06 M TBK ishchi ertitmasidan solinib, hosil bo'lgan aralashma qaynab turgan suv hammomiga 10 minutga qo'yildi hamda 30 minut 15°C da sovutildi. Shundan so'ng hosil bo'lgan rangni turg'in bo'lishi uchun aralashma sovugandan

keyin ustiga 0,2 ml trilon B eritmasidan va 5 ml 96%li etanol solindi. Nazorat probirkaga hamma eritmalar solinadi (0,06 M TBK ishchi ertitmasidan tashqari). Lipidlarning perekisli oksidlanish mahsulotlarinig to‘planishi - MDA ning TBK bilan reaksiyasi orqali ifodalanadi. SF da 532 nm to‘lqin uzunligida o‘lchandi[5,6].

Olingan natijalar va ularning tahlili: lipid peroksidasiyasi hujayra tuzilmalariga oksidlovchi zarar etkazish va hujayra o‘limiga olib keladigan toksiklik jarayonida ishtirok etadigan asosiy molekulyar mexanizmlar sifatida qaraladi. Birinchidan, lipid peroksidatsiyasi oziq-ovqat olimlari uchun oziq-ovqat yog‘lari va yog‘larga zarar etkazish mexanizmi sifatida o‘rganildi, shunga qaramay, boshqa tadqiqotchilar lipid peroksidlanishi yuqori reaktiv turlarni ishlab chiqaradigan toksik metabolitlarning (masalan, CCl_4) oqibati, hujayra ichidagi membranalarning buzilishi va hujayra shikastlanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib brogan. Lipid peroksidlanishi vodorodni olish yoki kislorod radikalini qo‘shish bilan boshlangan zanjirli reaksiya bo‘lib, ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalarning oksidlanishga olib keladi. Ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar to‘yinganlarga qaraganda sezgirroq bo‘lganligi sababli, faollashtirilgan metilen (RH) ko‘prigi oksidlanadi. Biz olib borgan tajribalarda ham rutan va gossitanning jigar to’qimasining LPO maxsuloti MDA ta’sirini aniqlash uchun uning gomogenatidan foydalandik. Tajribamizda CCl_4 bilan chaqirilgan ekspermental toksik gepatit sharoitida jigar gomogenatidagi LPO maxsuloti MDA miqdoriga rutan va gossitanning ta’siri o’rganildi (3.3.1-rasm). Olingan natijalarga, sog‘lom kalamushlar jigar gomogenatidagi MDA miqdori 2.85±0.02 mmol/g ni tashkil etdi. CCl_4 bilan chaqirilgan toksik gepatit hayvonlarni jigar gomogenatidagi MDA miqdori 3.64±0.03 mmol/g ekanligi aniqlandi. Eksperimental toksik gepatit (nazorat) kalamush guruhlarida jigar gomogenatidagi MDA miqdori, sog’lomga nisbatan 35.1% ga ortishi aniqlandi[14,15]. Bu esa CCl_4 bilan chaqirilgan toksik gepatit hayvonlarining jigar hujayralari va mitoxondriya membranalaridagi lipidlarni peroksidlanish intensivligi ortganligidan dalolat beradi. Tajribalarda CCl_4 bilan chaqirilgan hayvonlarga 7 kun davomida 3-guruh hayvonlarga glabra (50 mg/kg peroral) va 4-guruhga esa sumax (10 mg/kg peroral), 5- guruhga karsil (10 mg/kg peroral) yuborildi.7 kundan keyin polifenollar bilan farmakoterapiya qilingan toksik gepatit kalamushlarni jigar gomogenatidagi MDA miqdori aniqlandi. Olingan natijalarga ko’ra, Slimarin, rutan va gossitan yuborilgan 2; 3 va 4 guruh hayvonlarining jigar gomogenatidagi MDA miqdori mos ravishda 3.05±0.02 mmol/g, 3.34±0.03 mmol/g va 3.26±0.02 mmol/g ni tashkil etishi aniqlandi[15]. Bu esa Slimarin, rutan va gossitan ta’sirida toksik gepatit kalamushlarni jigar gomogenatidagi MDA miqdori nazoratga (toksik gepatit) nisbatan mos ravishda 16.3%, 8.2%, 10.4% ga kamayganligidan dalolat beradi[7,8].

CCl_4 bilan chaqirilgan eksperimental toksik gepatit kalamush jigar gomogenatidagi lipidlarni pereksidli oksidlanish maxsuloti MDA miqdoriga polifenol birikmalarning ta’siri (*P<0,05; n=5; M±m). mmol/ml

Intakt	Gepatit	Gepatit+karsil 50 mg/ml	Gepatit+Glabra 32 mg/ml	Gepatit+Sumax 40 mg/ml
2,54	3,87	3,08	3,29	3,17

Qon zardobi va jigar to‘qimasida oqsil miqdori pasayishiga olib keladi. Eksperimental toksik gepatit hayvonlar jigari mitoxondriyalaridagi LPO maxsuloti - MDA miqdori sezilarli darajada oshishi, bu organlarning antioksidant tizimi faolligini pasayishini ko’rsatishi mumkinligi aniqlandi. Bundan tashqari, kalamush jigar mitoxondriyalari toksinlar ta’sirida rivojlanadigan oksidlovchi stressga jigar mitoxondriyalariga nisbatan ancha sezgir ekanligi isbotlandi[9,10]. Mitoxondriyalardagi oksidlanish metabolizmining xususiyatlari, jigar to’qimasida to’yinmagan yog’ kislotalarning to’planishi, membranalarning peroksidga nisbatan yuqori reaktivligini keltirib chiqaradi. Hosil bo‘lgan erkin radikallar antioksidant tizim fermentlar faolligini ingibrlashi hiobiga jigar hujayralari nekroziga sabab bo‘ladi.[11,12] Bizning tajribalarimizda o’rganilgan rutan va gossitan polifenol birikmalarimiz nafaqat ma’lum antioksidant faolligi bo’lgan moddalar sifatida, balki toksik gepatitli hayvonlarda mitoxondriyalarning funktsional holatiga ta’sir etishi aniqlandi.Polifenol birikmalar qon zardobidagi fermentlar konsentratsiyasining fiziologik holatga qaytishiga va antioksidan tizim fermentlari faolligini tiklanishi qayd etildi. Jigar to‘qimalarida LPO maxsuloti MDA miqdorining pasayishiga olib keldi[13,14].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 6128-6143.
2. Saatov T. et al. Study on hypoglycemic effect of polyphenolic compounds isolated from the Euphorbia L. plants growing in uzbekistan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2020. – Т. 70.
3. Saatov T. et al. Antioxidant and hypoglycemic effects of gossitan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – Т. 63.
4. Saatov T. et al. Study on antioxidant and hypoglycemic effects of natural polyphenols in the experimental diabetes model //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2018. – Т. 56.
5. Tuychiboyev J. I. et al. Gipotireoz modelida kalamush antioksidant tizimiga e vitamin va kurkuminning korreksiyalovchi tasiri //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 234-236.
6. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 890-900.
7. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 890-900.
8. Mustafakulov M. et al. Determination of antioxidant properties of l-cysteine in the liver of alloxan diabetes model rats //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – №. Special Issue. – С. 47-54.
9. Saatov T. et al. Neurodegeneration type and severity have linkage with plasma insulin in DM patients //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2022. – Т. 81.

10. Mustafakulov M. A. et al. Aptamers and their use in biology and medicine aptamers and their applications in nanotechnologies, virology and biology //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 509-515.
11. Abduvalievich M. M. et al. Determination of HEPATOTROPIC effects of certain substances in experimental toxic hepatitis //Global Scientific Review. – 2022. – Т. 10. – С. 160-162.
12. Mukhammadjon M. et al. The effect of ngf on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 9 (87). – С. 82-86.
13. Мустафакулов М. А. и др. Изучение антиоксидантной и антирадикальной активности листьев isatis tinctoria L //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 7-1 (97). – С. 40-44
14. Мустафакулов М. А. и др. Исследование влияния липосомальной формы кверцетина на отдельные биохимические параметры ткани мозга животных с экспериментальной моделью нейродегенеративного состояния //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 1-1 (103). – С. 33-39.
15. Saatov T. et al. Correction of oxidative stress in experimental diabetes mellitus by means of natural antioxidants //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2021. – Т. 73.

TRANSGEN HAYVON OLISH USULLARI

PhD., dots. Mustafakulov Muhammadjon Abduvaliyevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Mamadaliyeva Zulayho Ubaydullo qizi,
Fayzullayeva Mohichehra Alijon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabalari
mmustafakulov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisda transgen hayvonlarni olishda zigotaga begona organizm DNKsini mikroinyeksiya qilish va ebrional o’zak hujayralari aosida olingan transgen organizmlar yaratish usullarida molekulyar-genetik tahlilning ahamiyati katta ekanligi hamda zamonaviy biotexnologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri xo‘jalik ahamiyati qimmatli bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lgan transgen hayvonlarni, tabiatda o‘xshashi bo‘lmagan organizmlarni yaratish haqida ma’lumotlar keltirilgan.


Kalit so‘zlar: Transgenoz, mikroinyeksiya, o’zak hujayralar, blastotsista, transplantatsiya, plazmid, genetik konstruksiya.

Transgen hayvonlar olish texnologiyasi. Transgen hayvonlar – bu tajriba asosida olingan, organizmining har bir hujayrasida xromosomaga integratsiya bo‘lgan va nasldan-naslga beriladigan qo‘shimcha gen tutuvchi hayvonlardir. Transgen hayvonlarni olish klonlangan genlarni (DNK) urug‘langan tuxum hujayra (zigota) yoki embrional tana hujayralar yordamida amalga oshiriladi. So‘ngra retsipient urg‘ochi hayvonlarning reproduktiv organlariga xususiy yadrosi tana hujayralarining

modifikatsiyalangan embrion hujayralari yadrosi bilan almashtirilgan modifikatsiyalangan zigotalar, tuxum hujayralar yoki embrional tana hujayralari begona DNKsini tutuvchi blastotsistalar (embrionlar) ko‘chirib o‘tkaziladi[1-3].

Transgen hayvonlar olish tarixi. 1980-yilda amerika olimi Jorj Gordon (Gordon) yordamchilari bilan birgalikda zigota pronukleusi (tuxum hujayradagi yadro)iga DNKni mikroin’eksiya qilish orqali transgen hayvonlar olishni taklif etdi. Aynan mana shu usul transgen hayvonlar olishning keng tarqalishiga asos bo‘ldi. Transgen hayvonlar Rossiyada 1982-yil paydo bo‘lgan, AQSHda 1985 yilda zigotaning pronukleusiga mikroin’eksiya qilish orqali qishloq xo‘jalik hayvonlari quyon, qo‘y va cho‘chqalar olingan. AQSHning Genzyme Transgenics korparatsiyasi sutida inson albumini bo‘lgan qoramol yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Albumin terapiyada qondagi osmotik bosimni ushlab turish uchun foydalaniladi. Shuningdek Genzyme Transgenics insonlarning o‘sish gormoni va β interferonni olishning usullari bo‘yicha izlanishlar olib bormoqda. Angliyada sutining tarkibida qonni ivish faktori tutuvchi transgen qo‘ylar yaratilgan. Rossiyada esa samototropin genini tashuvchi cho‘chqalar yaratilgan[2-6].

Transgen hayvonlar yaratish usullari Transgen hayvonlarni olishni 2 xil usuli bor: urug'lantirilgan tuxum hujayra(zigota)ga begona organizm DNKsini mikroin'ektsiya qilish; (bu usul transgen sichqon olish uchun ishlab chiqilgan, keyinchalik esa transgen sigir, qo'y, quyon, echki kabi hayvonlarni olish uchun ham qo'llanila boshlandi)



1-rasm. Mikroin'ektsiya usulida transgen hayvon olish bosqichlari:

1- in'ektsiya qilish uchun zigota olish; 2- mikroin'ektsiya; 3- embrionlarni retsipient organizmga ko'chirib o'tkazish; 4- mikroin'ektsiya qilingan embrionlardan tug'ilgan hayvonlar: ularning faqat bir qismi transgen; 5- hayvon genomiga begona gen kiritilganligini tasdiqlash uchun molekulyar-genetik tahlil o'tkazish; 6- transgen gametalari mavjud hayvonlarni saralash. Transgen gomozigotalarni seleksiya qilish ya'ni transgen hayvonlarni o'zaro chatishtirish; 7- transgen hayvonlar podasi; 8- transgen hayvon sutidan dorivor oqsilni ajralishi[2].

Mikroin'ektsiya usulida transgen hayvon olishda dastlab genetik konstruktsiya yaratiladi. Buning uchun β-kazein geni promotori va begona organizm DNKsi yordamida genetik konstruktsiya yaratiladi. Yaratilgan konstruktsiya faqat sut bezlari hujayralarida ekspressiyalanishi va faqat laktatsiya davrida «ishlashi» lozim.

Shuningdek konstruktsiyadagi genlar transgen organizmga nojo'ya ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Tadqiqotchi tomonidan yaratilishi rejalashtirilayotgan transgen hayvonda avval bo'lmagan hossalarning (misol uchun, kattaligi, kichikligi, go'shtdorligi, tez nasl bera olishi va h.k.) vujudga kelishi ko'p jihatdan genetik konstruktsiyaga bog'liq. Konstruktsiyani yaratishda *Escherichia coli* bakteriyasi plazmidasidan foydalaniladi. Plazmida restriktaza fermentlari bilan kesiladi. Plazmidani kesilgan joyiga begona organizmdan olingan DNK fragmenti ulanadi. Plazmidaga begona DNKni ulash uchun ligaza fermentlaridan foydalaniladi. Hosil bo'lgan rekombinant DNK *Escherichia coli* bakteriyasiga kiritiladi va klonlanadi. Klonlar bakteriyadan ajratiladi va kesilib chiziqli shaklga ot'kaziladi. Chunki plazmidaga nisbatan chiziqli shakldagi DNK embrion genomiga oson o'rnashadi. Tayyor bo'lgan chiziqli shakldagi DNK (genetik konstruktsiya) zigotaga in'ektsiya qilinadi. In'ektsiyadan keyin zigota odatdagidan ancha kattalashadi. So'ngra zigota urg'ochi retspientga implantatsiya qilinadi. Ammo urg'ochi retspientdan tug'ilganmhayvonlarning hammasi ham transgen bo'lavermaydi[7-11]. Transgen bo'lganlarida esa begona gen organizmning barcha to'qimalarida bir hil tarqalgan bo'lmaydi. Shuning uchun transgen hayvon olishda molekulyar-genetik tahlilning ahamiyati katta. Urg'ochi retsipient-organizmdan erkak tug'ilgani ayni muddao. Chunki tug'ilgan erkak hayvon tuhum hujayralarida begona gen ekspressiyalangan bo'lsa, uni boshqa urg'ochilar bilan chatishtirish mumkin. Shunda begona gen keyingi avlodlarga o'tib ketaveradi. Erkak hayvonni urg'ochilar bilan chatishtirishda sun'iy urug'lantirish usulidan ham foydalanish mumkin. Ulardan tug'ilgan hayvonlar F1 avlod bo'ladi. Transgen hayvonlar liniyasi vujudga kelishi uchun F1 avloddagi hayvonlarni o'zaro chatishtirib, F2 avlod olish lozim. Tadqiqotning so'nggi bosqichida F2 avlod vakillarining gomozigotalari tahlil qilinadi. Transgen hayvonlar yaratishning ikkinchi usuli: embrional o'zak hujayralar yordamida transgen hayvonlar yaratish. Embrional o'zak hujayralar transgen hayvonlar yaratish mikroin'ektsiya usulidan birmuncha farq qiladi[12-15]. Embrional o'zak hujayralari liniyasi ilk marotaba 1981 yil Evans, Kaufman va Martinlar tomonidan sichqon blastotsistasidan olingan. Bu hujayralar polipotent bo'lib, kul'turada differentsiallanishi mumkin. Shuningdek embrional o'zak hujayralar somatik hujayralarning normal genotipini saqlaydi. Blastotsistaga kiritilgan embrional o'zak hujayralar homilani barcha organ va to'qimalarini bir maromda rivojlantirganligi aniqlangan (1984 yil). Tug'ilgan homiladagi belgilar undan keyingi avlodlarga ham o'tavergan. Hozirgi kunda embrional o'zak hujayralar yordamida transgen hayvonlar olish texnologiyasi ko'proq transgen sichqonlar yaratish uchun qo'llanilmoqda. Chunki so'nggi vaqtlargacha bunday hujayralarning faqat sichqonlardan olinganlari bor edi xolos. Biroq oxirgi yillarda boshqa ko'plab sut emizuvchilarning blastotsistalaridan embrional o'zak hujayralar ajratildi[2, 11].

Xulosa: Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda transgen organizmlar olish texnologiyasiga qiziqish ortib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi uchun mahsuldor hayvonlar yaratishga katta mablag‘lar ajratilmoqda. Hozirgi kunda transgen hayvonlar yaratish bir necha yo‘nalishda rivojlanib bormoqda. Transgen hayvonlarni yaratish insoniyatning ko‘pgina, oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi, dori preparatlarni ishlab chiqarish va ularni yetarli miqdorda olish kabi muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishankhodjaev T. et al. Study on Effects of Liposomal Quercetin on Biochemical Parameters of the Nigrostriatal System of Rats with Experimentally Induced Neurodegenerative Disease //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 6128-6143.

2. Saatov T. et al. Study on hypoglycemic effect of polyphenolic compounds isolated from the Euphorbia L. plants growing in uzbekistan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2020. – Т. 70.

3.Saatov T. et al. Antioxidant and hypoglycemic effects of gossitan //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2019. – Т. 63.

1. Saatov T. et al. Study on antioxidant and hypoglycemic effects of natural polyphenols in the experimental diabetes model //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2018. – Т. 56.

2. Tuychiboyev J. I. et al. Gipotireoz modelida kalamush antioksidant tizimiga e vitamin va kurkuminning korreksiyalovchi tasiri //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 234-236.

3. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 890-900.

4. Mustafakulov M. A. et al. Prospects of aptamer application in diagnostics of bacterial infections //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 890-900.

5. Mustafakulov M. et al. Determination of antioxidant properties of l-cysteine in the liver of alloxan diabetes model rats //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – №. Special Issue. – С. 47-54.

6. Saatov T. et al. Neurodegeneration type and severity have linkage with plasma insulin in DM patients //Endocrine Abstracts. – Bioscientifica, 2022. – Т. 81.

7. Mustafakulov M. A. et al. Aptamers and their use in biology and medicine aptamers and their applications in nanotechnologies, virology and biology //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 509-515.

8. Abduvalievich M. M. et al. Determination of HEPATOTROPIC effects of certain substances in experimental toxic hepatitis //Global Scientific Review. – 2022. – Т. 10. – С. 160-162.

9. Mukhammadjon M. et al. The effect of ngf on indicators of the antioxidant system in rat brain tissue //Universum: химия и биология. – 2021. – №. 9 (87). – С. 82-86.

10. Мустафакулов М. А. и др. Изучение антиоксидантной и антирадикальной активности листьев isatis tinctoria L //Universum: химия и биология. – 2022. – №. 7-1 (97). – С. 40-44

11. Мустафакулов М. А. и др. Исследование влияния липосомальной формы кверцетина на отдельные биохимические параметры ткани мозга животных с экспериментальной моделью нейродегенеративного состояния //Universum: химия и биология. – 2023. – №. 1-1 (103). – С. 33-39.

BIOTEXNOLOGIYANI O‘QITISHDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

b.f.d., prof. Murodova Sayyora Sobirovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
ssmuradova@rambler.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada biotexnologiyada ixtisoslik ta'limi muhim ahamiyatga ega ekanligi, ushbu sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo’yicha so’z yuritilgan. Shuningdek talabalar orasida o’tkazilgan so’rovnoma natijalari batafsil tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlar: biotexnologiya, qishloq xo'jaligi, sanoat va tibbiyot sohalari, mustaqil amaliy ko’nikma.

Biotexnologiya sohasi faol rivojlanayotgan yo’nalishlardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4899-sonli qarorida nazarda tutilgan dastur ushbu soha taraqqiyotning yangi davrini vujudga keltirdi

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi, sanoat va tibbiyot sohalari yangi biotexnologiyalar bilan o'zgartirilmoqda. Biotexnologiya ta'limi muhim ahamiyatga ega. Chunki bugungi kunda talabalar va jamiyatimizning a’zolari ushbu biologiyaning bevosita ishlab chiqarish bilan bo’g’liq texnologiyalarni ishlab chiqish va qo'llash to'g'risida qaror qabul qila oladigan darajada bilishi talab etiladi. Ushbu maqola O’zbekiston Milliy universiteti Jizzax filalida 70510103-Biotexnologiya mutaxassisligi bo’yicha bakalavriat talabalarini kasbga tayyorlash borasidagi ba’zi muammolarni tadqiq etishga qaratilgan bo’lib, biotexnologiyani o'qitishni takomillashtirishga ma’lum darajada xizmat qiladi [1,2].

Tadqiqotda talabalar biotexnologiya bilan bog'liq muammoli munozarali sinov savollariga javob berishni tanladilar, bu esa bir nechta talabalar biotexnologiyani o’zlashtirishda qiyinchilikka duch kelayotganini ko'rsatdi. Mazkur tadqiqot ushbu fan bo'yicha muvaffaqiyatli o'qush sifatini ta'minlash uchun talablarni ko'proq tushunish maqsadida o’tkazildi.

Tadqiqot ob’ekti sifatida universitetning IV kursida tahsil olayotgan 150-20 va 151-20 hamda III kurs talabalarining 50-21 va 51-21 guruhlari o’rtasida quyidagi savollar asosida o’tkazildi:

1. Siz nima uchun biotexnologiyaga sohasini tanlagansiz?
2. Biotexnologiyani o’rganishdagi asosiy muammolar nimalardan iborat?
3. Kasbiy faoliyat bo’yicha zarur bo’lgan mustaqil amaliy ko’nikmangizni bor, deb hisoblaysizmi?
4. Usbu soha bo’yicha kelajakda qanday yutuqlarga erishishishni ko’zlayapsiz?

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.

Tahlil natijalariga ko’ra, so’ralganlarning 80%i, mavzularning murakkabligi va o'quv dasturi mazmuniga mos keladigan amaliy ishlarning yetarli emasligi haqida xabar berishdi. Agar biotexnologiya maktabdan boshlab chuqur o‘rganilsa, bo‘lsa,

o‘qituvchilar o‘quvchilar uchun muhim va qiziqarli bo’lgan, lekin ko‘pchilik o‘qituvchilar ham tushunish va anglashga qiynaladigan ushbu fanni samarali o‘zlashtirish yo‘llarini aniqlash uchun qo‘shimcha tadqiqotlar, laboratoriya mashg’ulotlarini o’tkazish talab etiladi.

Siz nima uchun biotexnologiyaga sohasini tanlagansiz? Savoli bo’yicha so’ralganlarning deyarli 70% tushunmasdan biologiyaga qiziqqanligi uchun tanlaganini ifoda etdi.

Biotexnologiyani o’rganishdagi asosiy muammolar nimalardan iborat? Degan savolga aksariyat talabalar ilmiy adabiyotlarning yetishmasligi, borlarining ham xorijiy tillarda ekanligini ko’rsatgan bo’lsa, qolgan talabalar nazariy va amaliy darslarning uyg’unlashgan holda ketma-ketlikda yuqori darajada jihozlangan laboratoriyalarda o’tkazish muammolarini ko’rsatib o’tishgan.

Kasbiy faoliyat bo’yicha zarur bo’lgan mustaqil amaliy ko’nikmangizni bor, deb hisoblaysizmi? Ushbu savolga talabalarning 65% foizi javob berishga qiynaldi. Chunki amaliuotni bajarishda dastlabki bilimlar: eritmalar, ozuqa muhitlari tayyorlash, maqsadli mahsulotlarni ajratib olishda, laboratoriya mashg’ulotlarini to’g’ri bajarishda har bir talabada alohida kasbiy ko’nikma shakllanmaganli bois, uning yechimini topishda mustaqil ishlarni individual amaliy ish sifatida bajarish zarur, degan xulosaga kelindi.

Ushbu soha bo’yicha kelejakda qanday yutuqlarga erishishishni ko’zlayapsiz? Savoliga respondentlarning 17 foizi javob berishga qiynaldi, 83 foizi nazariy va amaliy bilimlari asosida to’g’ri javob berishga harakat qildi.

Talabalarning bilimlarni idrok etishi natijalarini hisobga olgan holda, Biotexnologiya bo'yicha biotexnologiya qo’shimcha kurslarini joriy etish yoki kuchaytirish zarurati tug'iladi. Tadqiqotlar asosida talabalarning soha bo'yicha cheklangan xabardorligini ko'rsatilib, talabalarni yetakchi ishlab chiqarish korxonalariga olib borib ish jarayonlari bilan muntazam tanishtirib borish talab etiladi.

Bundan tashqari, katta ehtiyoj bor tadqiqotlar uchun, ya'ni ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yo’nalishlarni uyg’unlashgan holda o’rganishga yordam beradigan fan predmetlarini dasturga kiritish masalani yechimini ijobiy hal etilishida muayyan darajada xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Biroq, talabalar ishlab chiqaruvchi sifatida qaror qilishlari mumkin bo’lib, yangi texnologiyani qabul qilish yoki qabul qilmaslik yoki rad etishga qaror qilish ko’nikmalarini shakllantirish ham muammoning yechimini topish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Synan AbuQamar, Qasim Alshannag, Abdelaziz Sartawi Rabah ratni EducationalAwarenessof_BiotechnologyissueAmongUndergraduate Students_at_The_United_Arab_Emirates_University // Biochemistry and Molecular Biology education https://www.researchgate.net/publication/273773670

2. O’Mathuna, D. P. (2007) Bioethics and biotechnology. Cytotechnology 53, 113–119.

3. Ёдгорова, М., & Муродова, С. (2022). Gmo mahsulotlari va ularning organizimga ta‘siri. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 303–304.

ДОРИВОР НАЪМАТАК (*ROSA CANINA* L.) НИНГ ХАЛҚ ТАБОБАТИДА ҚЎЛЛАНИШИ ВА УНИНГ ЗАНГ ЗАМБУРУҒЛАРИ

Холмурадова Т.Н.[1], Ўралов А.И [2]., Ғаффоров Ю.Ш.[1], Тешабоева Ш.А.[1], И.Ю. Ўринбоев[3]
[1]ЎзР ФА Ботаника институти,Тошкент
[2]Ўзбекистон Миллий университетининг Жиззах филиали
[3]Ўзбекистон Миллий Университети таянч докторанти, Тошкент
t_kholmurodova@mail.ru

Аннотация: Мақолада *Rosa canina* доривор ўсимлигининг инсон саломатлигини яхшилашда қўлланилиши ва ўсимликда паразитлик килувчи занг замбуруғлари тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: *Rosa canina*, доривор ўсимлик, занг, микромицет.

Ўзбек халқ табобатининг тарихий анъаналаридан фойдаланган ҳолда инсон касалликларини олдини олиш, даволаш, шунингдек, бошқа тиббий хизматлар кўрсатишнинг самарадорлигини ошириш ҳозирги кунда Республикамизда тиббиёт ва фармацевтика соҳаларининг олдида турган асосий вазифалардан биридир. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йилдаги 4668-сонли “Ўзбекистон Республикасида халқ табобатини ривожлантиришга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисида” ги қарорида ҳам бир қатор бажарилиши лозим бўлган ишлар ва вазифалардан бири халқ табобатига ўзининг улкан ҳиссасини қўшган қомусий олим, шарқ табиби Абу Али ибн Синонинг бизга қолдирган меъросини ўрганиш ва уни замонавий тиббиёт билан интеграциясини таъминлаш муҳимлиги келтирилган.

Ушбу илмий мақолада тиббиётимизнинг буюк алломаси, Абу Али ибн Синонинг “Тиб қонунлари” асарида келтирган доривор наъматак ўсимлиги ёрдамида кўпгина касалликларни даволашга оид маълумотларни ўрганиш ва таҳлил қилиш, шунингдек, ушбу ўсимликнинг замбуруғларини ўрганишга бағишланган.

Наъматак (*Rosa* L.) Раънодошлар оиласига мансуб бўлиб, ушбу туркумнинг дунёда 100-250 тури тарқалган. Марказий Осиёда 39 та, Ўзбекистонда наъматакнинг 17 та тури тарқалган. Баландлиги 2 м гача бўлган бута, унинг пояси ва барглари тикан билан қопланган. Наъматак гуллари қизғиш тусли очиқ пушти, сариқ, оқ рангга эга. Ўсимликнинг мевалари ёрқин қизил, гўштли. *Rosa* туркум турларининг ҳаётий шакли бутасимон бўлиб, улар дориворлик хусусиятларининг борлиги билан халқ ва замонавий тиббиётда ишлатилади. *Rosa* туркумининг кенг тарқалган ва доривор ўсимлик сифатида фойдаланиладиган турларидан бири бу наъматак яъни *Rosa canina* L. тури бўлиб, қадимдан халқ табобатида доривор ўсимлик сифатида ишлатиб келинган. Бизга маълумки, наъматак мевасида аскорбин кислотаси яъни витамин С кўп бўлиб, шунингдек, микроэлементлар: калий, магний, калций ва натрий кабиларни ўз ичига олади [1], [2].

Наъматакни ер устки ва ер остки қисмлари доривор восита сифатида ишлатилади. Мисол учун наъматак мевасининг дамламаси инсон организми иммунитетини ошириш билан бир қаторда, қон томирларини мустаҳкамлайди, юрак ишини барқарорлаштиради, қон босимини пасайтиради, ҳазм қилиш жараёнини меъёрига келтиради, холестерин даражасини пасайтиради, барча аъзоларнинг регенерациясини рағбатлантиради. Ўт хайдовчи, жигар касалликларини даволашда Абу Али ибн Сино томонидан кенг ишлатилган.

Наъматак мевасидан тайёрланган сироп асосан жигар хасталикларида холецистит, ўт ҳайдовчи восита ва вирусли гепатитларни даволашда қўлланилади. Наъматак ўсимлиги гулининг ҳиди юракни кувватлашда, қулоқ шанғиллашини йўқотиш, бош оғриғини даволашда ишлатилган. Ўсимликнинг танаси ва баргларидан тайёрланган қайнатмаси ошқозон касалликлари, дизентерияда ишлатилади.

Буюк табиб Абу Али ибн Сино наъматак тўғрисида “Наъматак ўсимлигининг барча турлари тозаловчи, суюлтирувчи ҳамда турли тиқилмаларни очувчи, томоқдаги ва бодомсимон безлардаги шишлар учун фойдалидир, қусишни ва ҳиқичоқни тўхтатади.

Бизга маълумки, ўсимликлар зараркунанда ва касалликлар оқибатида уларнинг ўсиши, ривожланиши ҳамда хосилдорлигини камайишига олиб келади. Шундай ўсимликлардан Раъногулдошлар оиласи вакилларидан бири бу наъматак турлари ҳисобланади. Республикамизда патоген ва сапротроф замбуруғлар учраши бизга маълум. ЎзР ФА Ботаника институти Микология ва альгология лабораторияси ходимлари томонидан олиб борилган илмий тадқиқотлар шуни кўрсатдики кейинги йилларда кўпгина доривор ўсимликларни патоген миркоорганизмлар билан зарарланиши оқибатида уларда турли замбуруғ касалликларининг кескин тарқалишига олиб келди.

Айниқса, доривор *Rosa* туркум турларида жуда кўп микромицетлар тарқалган бўлиб, булар орасида занг касаллигини келтириб чиқарувчи *Basidiomycota* бўлимига мансуб *Phagmidium* туркум вакиллари келтириб чиқаради. Занг замбуруғлар асосан гулли ўсимликларда паразитлик қилиб, уларни ўсиши ва ривожланишига катта зиён етказади [3],[4].

Республикамизнинг турли минтақаларидан йиғиб келинган *Rosa canina* ўсимлигида занг замбуруғ белгиларига эга наъмуналарни микологик таҳлил қилганимизда *Phragmidium* туркумидан *Ph. mucronatum* (Pers.) Schltdl. ва *Ph. tuberculatum* Jul. Müll. турларининг учраши аниқланди (1-расм). *Phragmidium* турлари ўсимликда занг касаллигини келтириб чиқаради. Касаллик қўзғатувчи замбуруғ вакиллари дастлаб ўсимлик баргларининг остки ва устки қисмида оч-сариқ доғ ҳосил қилиб, вақт ўтган сари барг пластинкаларини эгалаб боради. Айниқса, касаллик кучли зарарланганда улар ўсимликнинг ёш новдалари ва меваларигача тарқалиб бориб, барглар секин аста тукилиб боради ва натижада ёш ўсимликларнинг қуришига олиб келади. Ушбу занг касаллигини қўзғатувчи *Ph. mucronatum* ва *Ph. tuberculatum* турлари ўсимликларда дастлаб баҳор фаслининг апрел-май ойларида пайдо бўла бошлайди. Асосан занг касаллиги наматакда ёз фаслида кенг тарқалиб уни ривожланишига ёки умуман қуришига олиб келади.



1-расм. Наматакда (*Rosa canina*) занг касаллиги (*Phragmidium tuberculatum* Jul. Müll.) ва микроскопик кўриниши

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки шарқ табиби Абу Али ибн Синонинг бизга қолдирган меъросини инсонлар саломатлигини янада яхшилаш йўлида давом эттиришимиз ва доривор ўсимликларда касаллик келтириб чиқарувчи патоген замбуруғларни ўрганиш орқали, ўсимликларни химоя қилувчи мутахассислар учун касаликка қарши кураш тадбирларини амалга оширишига керакли маълумотлар бериш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бердиев Э.Т. Наъматак табиий витаминлар хазинаси. – Тошкент, 2018. – С. 19.

2. Мурдахаев Ю.М. Лекарственные растений Узбекистана. – Тошкент: Фан, 1984. – 186 с.

3. Пидопличко Н.П. Грибы паразиты культурных растений определитель. В 3-х т. – Киев, Наукова Думка, 1977. – Т.1. – С. 96-127.

4. Ғаффоров Ю. Ш. Микромицети сосудистих растений Наманганской области: Автореф. дис. ... канд. биол. наук. – Ташкент, 2004. – 21 с

OLACHIPOR BARG KARRAK *(SILYBUM MARIANUM L)* O‘SIMLIGINING ONTOGENEZ BOSQICHLARI

Salimova Farida Baxriddin qizi,
Mamatkulova Iroda Ergashevna
O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali
salimovafarida774@gmail.com

Annotatsiya: Olachipor barg karrak (*Silybum marianum* (L.) - mevalari gepatoprotektiv vosita sifatida ishlatiladigan mashhur dorivor o‘simlik.*Silybum marianum* (L.) ning ontogenezi G‘arbiy Sibir va O‘rta Ural tog‘larida o‘rganilgan. Bu hududlarda ikki yillik o‘simlik hisoblanadi. Ontogenez oddiy, to‘liq bo‘lmagan va ikkita davrni o‘z ichiga oladi: pregenerativ va generativ. Pregenerativ davrga sifatli xususiyat barg plastinkasining shakli hisoblanadi. Generativ davr (g) kurtakning apikal kurtaklarida to‘pgullar paydo bo‘lishi bilan boshlanadi.Yarim rozetkali o‘simlik hosil bo‘ladi. O‘rta Ural tog‘ining ko‘proq nam iqlimida generativ o‘simliklar biomorfologik parametrlarning yuqori qiymatlari -kurtaklar nishlarining balandligi, shoxlanishi va barglari, shuningdek barglarning soni va hajmi bilan ajralib turadi. Ammo O‘rta Ural tog‘ining uzoq qish davri ega- Novosibirsk viloyati bilan solishtirganda, qishining uzoqroq bo‘lishi alohida o‘simliklarning rivojlanishini sekinlashtiradi, bu esa keyinchalik unib chiqishiga va cho‘zilgan pregenerativ davrga olib keladi. Natijada, Novosibirsk viloyati bilan solishtirganda, asosiy to‘pgulning kichik o‘lchamliligi va O‘rta Ural tog‘idagi urug‘lar soni va vaznining pasayishi kuzatilgan[1].

Kalit so‘zlar: yuvenil, immatur, kotiledon, pregenerativ, generativ, to‘pgul, novda, entomofil, latent.

4. Kompyuter tarmoqlari texnologiyasida sun’iy intellektni qo‘llash. Kompyuter tarmog‘i xavfsizligini boshqarishda qo‘llaniladigan asosiy usullar - bu Firewall, kirish aniqlash va tizimga qarshi spam. Agar bu usullarga sun’iy intellekt qo‘shilsa, bu juda samarali bo‘ladi. Firewallning asosiy asosi axborotni aqlli aniqlash, xavfsizlikni amalga oshirishda ba’zi ma’lumotlarni boshqarish, ehtimollik, statistika va boshqa matematik usullardan foydalanib aqlli identifikatsiya texnologiyasi asosida ma’lumotlarini ajratish, tasniflash va o‘chirishdan iborat. Aqlli tanib olish texnologiyasini qo‘llash kompyuter tarmog‘i texnologiyasidagi jarayonda intensiv hisoblash o‘rnini bosadi. Va axborot xavfsizligini boshqarish ham muhim rol o‘ynaydi [12]. Ba’zi zararli ma’lumotlar kompyuter tarmog‘iga kirganda, firewall to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu ma’lumotni blokirovka qilishi mumkin. Shuning uchun himoya kompyuter tarmog‘i xavfsizligini boshqarish juda aniq, spamni qisqa vaqt ichida samarali ravishda ajrata oladi va kompyuter tarmog‘idagi virusli fayllarning buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Kompyuter tarmog‘ining asosiy yadrosi xavfsizlikni boshqarish - bu hujumni aniqlash, kirishga sun’iy intellektni qo‘llash, eng aniq ta’sirga egaligini aniqlash, ba’zi xavfli omillar kompyuter tarmog‘iga bostirib kirganda buzg‘unchilikni aniqlash ushbu xavfli omillarni to‘rt jihatdan qayta ishlaydi: ma’lumot to‘plash, ma’lumotlar axborotni qisqartirish, axborot xatti-harakatlarini tasniflash va xavfni aniqlash [13].

Kiberhujumga uchragan tizimlarda sun’iy intellektdan foydalanish eng ko‘p umumiy usul, ekspertlar ikki integratsiya to‘liq ma’lumotlar bazasi va axborotni fikrlash texnologiyasi yaratish uchun empirik yo‘l-yo‘riq asoslangan. Bunda printsp asosan turli kompyuter tarmoqlari xavfsizligini boshqarish markazlari uchun ma’lumotlar, ularni birlashtirish va tartibga solish [14]. Kiberhujumga uchragan tizimi sun’iy intellekt identifikatsiyaga asoslangan ba’zi intruziv xavf omillarini ajratib qo‘yishi mumkin. Va bunda sun’iy intellekt asosan kompyuter tarmog‘iga asoslangan yaratish uchun muhit, shu bilan birga, kirish texnologiyasi va sun’iy intellektni birlashtiriladi va intruziv xavf omillariga duch keladi [15]. Ekspert tizimini ishlab chiqarish uchun ikkalasining integratsiyasi, intruziv omil uzatish tizimida to‘g‘ridan-

to‘g‘ri va avtomatik ravishda aniqlanishi mumkin, Shu bilan birga, xavfsizlik yozuvida boshqaruv, ekspert tizimi ko‘rib chiqish yozuvlari va ko‘rib chiqish uchun to‘liq ko‘rib chiqish tizimini turli darajadagi xavfli omillarning manbalari, maqsadlari, turlari va xavfini tasniflash qoidalari shakllantirishi mumkin. Intruziv xavfli omillarni samarali ravishda ajratib olish va tahlil qilish mumkin [16].

Sun’iy neyron tarmoqlari. Sun’iy intellektni sun’iy deb atash mumkin bo‘lgan sabablardan biri u fikrlash tarzi va uslubi kabi noyob inson inson xulq-atvori va odatlariga samarali taqlid qila oladi [17]. Sun’iy intellekt insonning ma’lum darajada o‘rganish qobiliyatini va shunga o‘xshash simulyatsiya qobiliyatini egallashi mumkin. Insonning ishlashiga taqlid qilishda eng muhim taqlid fikrlash, asab tizimining simulyatsiyasidan kelib chiqadi. Insonning asab tizimi juda rivojlangan, sun’iy intellektning taqlid qilish samaradorligi kuchli, shuning uchun ba’zi ma’lumotlarni qayta ishlashda, sun’iy intellektni qayta ishlash inson tafakkurini qayta ishlash usullariga yaqinroq bo‘lishi mumkin [18]. Eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri namoyon bo‘lish aqlli ovozli kiritishda, biz ovozli kiritish paytida xatolarga yo‘l qo‘yamiz va bo‘lishi mumkin ovozli kiritish muhitida ba’zi shovqin effektlari bo‘lishi, natijada kirish tili tushunarsiz bo‘ladi. Va sun’iy intellekt insonning oddiy fikrlashiga taqlid qilishi mumkin, ba’zi bir noto‘g‘ri ovoz kiritishni tuzatishi mumkin, shuningdek shovqin ta’sir qilmasdan inson tafakkuriga taqlid qilish orqali inson tilini simulyatsiya qilishi mumkin [19]. Shuning uchun, aqlli ovozli kiritishda sun’iy intellektning xatolarni qayta ishlash va simulyatsiya qilish imkoniyatlari juda katta.

5. Xulosa. Kompyuter tarmog‘i texnologiyasi hayotimizning har bir javhasiga kirdi, jamiyat va insoniyat uchun ishonch juda tez rivojlanayotgan davrga duch kelmoqda. Faqat sun’iy intellekt va kompyuter tarmog‘i texnologiyasi bir-biri bilan birlashtirilishi insoniyatga ko‘proq samarali yordam berishi uchun muhim rol o‘ynaydi. Sun’iy intellektdan foydalanish kompyuter tarmog‘i texnologiyasini ancha optimallashtirdi, inson ma’lumotlarining xavfsizligini ta’minlash, kompyuter tarmog‘ining texnologiyasi va sun’iy intellekt kombinatsiyasi davom etmoqda, odamlar undan oladigan qulayliklar ham tobora ko‘proq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nizomiddin N. et al. TA’LIMDA DASTURLASH JARAYONINI BAHOLASHGA ASOSLANGAN AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMNI TADBIQ ETISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 24-28.
2. Choryorqulov G. H., & Qosimov NS (2023) //ELEKTRON JADVAL MODELINING TAVSIFLANISHI. PEDAGOGS Jurnali. – Т. 30. – №. 3. – С. 67-73.
3. Чорркулов Г., Норматов Н., Мамараимов А. Роль анализа текстовых связей в электронных документах в информационной безопасности //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 67-71.
4. Норматов Н., Мамараимов А. Ta’lim tizimida baholash tizimini avtomatlashtirishni joriy etish jarayonlari va foydalanish metodlari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 356-359.

5. Мамараимов А., Чорёркулов Г., Норматов Н. Tanib olish modullarini dasturiy amalga oshirish //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 38-44.

6. Sanoqul o‘g‘li Q. N. et al. ELEKTRON HUJJAT ALMASHINUVINI AVTOMATLASHTIRISH MODELINI ANALITIK TAHLILI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 5. – С. 89-100.

7. Mamatkulovich B. B., Shuhrat o‘g‘li M. S., Jasurjonovich B. J. SPECIAL DEEP CNN DESIGN FOR FACIAL EXPRESSION CLASSIFICATION WITH A SMALL AMOUNT OF DATA //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 3. – С. 472-478.

8. Mamatkulovich B. B. et al. Simplified machine learning for image-based fruit quality assessment //Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. – 2023. – Т. 19. – С. 8-12.

9. Mamatkulovich, B. B., Dilshod o‘gli, Y. A., & Akmal o‘g‘li, A. A. (2023). Predicting daily energy production in a blockchain-based P2P energy trading system. Texas Journal of Engineering and Technology, 18, 7-11.

10. Javlon, K., & Erali, M. (2023). STRUCTURE AND PRINCIPLE OF OPERATION OF FULLY CONNECTED NEURAL NETWORKS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 136-141.

11. Мустафоев, Е., & Холматов, Ж. (2023). Brayl matn tasviri sifatini oshirish usullari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 23-27.

12. Mustafoyev, E. M., & Maydonova, Z. N. (2023). MOBIL ILOVA YARTISHDA FOYDALANILGAN ONLAYN APP INVERTOR PLATFORMASIDAN FOYDALANISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(6), 23-28.

13. Obid o‘g A. S. J. et al. Numpy Library Capabilities. Vectorized Calculation In Numpy Va Type Of Information //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 15. – С. 132-137.

14. Javlon X. et al. Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 6. – С. 352-357.

15. Фитратович В. и др. МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ МНОГОФАЗНОЙ ФИЛЬТРАЦИИ В НЕФТЕГАЗОВОМ ПЛАСТЕ ПРИ ЕГО ЗАВОДНЕНИИ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 520-525.

16. Jamshid S. ENTROPY EVALUATION CRITERION IN DECISION TREE ALGORITHM EVALUATION //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 236-239.

17. Салимов Ж., Абулаева А. Классификации дерева в машинном обучении и гиперпараметрах //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 71-79.

18. Obid o‘g‘li S. J., Nodir o‘g‘li X. A., Jasurjonovich B. J. SUPERVISED LEARNING REGRESSION ALGORITHM SIMPLE LINEAR REGRESSION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 69-76.

19. Ramazon, Mixliyev, and Babayarov Abdusattor. "MIKROSKOP YORDAMIDA HUJAYRALARDAGI QON VA OQ QON HUJAYRALARI SONI BO‘YICHA BEMORLARNING SOG‘LIG‘INI ANIQLASH." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2023): 133-137.

KOMPANIYALARNI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI

i.f.n., dots. Ko‘chimov Abdujamil Hamraqulovich
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Ermatov Murodjon Sunnatulla o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali magistranti
kuchimov7474@gmail.com

Annotatsiya. maqolada innovatsion boshqaruvning muhimligini, muammolarini va uning kompaniyalarda qanday o‘tkazilishi mumkinligi bayon etilgan. Innovatsion boshqaruvning maqsadi va uning muhimligi ko‘rsatilgan bo‘lib, boshqaruvning kompaniyalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan afzalliklari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Innovatsion boshqaruvning amaliy usullari va ularning kompaniyalarda qanday qo‘llanilishi tahlil qilingan. Innovatsion boshqaruvning kompaniyalarda olib kelishi mumkin bo‘lgan foydasi va uning muvaffaqiyati asoslangan. Bu natijalar asosida, innovatsion boshqaruvning muhimligi va qo‘llanilishi ko’rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion boshqaruv, korporativ boshqaruv, strategik boshqarish, kommunikatsiya, boshqaruv uslubi.

Innovatsiya atamasi, yangiliklarni yaratish va amalga oshirish jarayonini anglatadi, bu esa yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni ishlab chiqish yoki mavjud mahsulotlarni yaxshilash va rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Innovatsiya atamasi, biznes, salomatlik, o‘qitish, kommunikatsiya, transport, energiya va boshqa sohalarda sodir bo‘lishi mumkin.

Innovatsiya atamasi bir nechta bosqichlardan iborat bo‘lishi mumkin. Boshqaruv bosqichida, kompaniyalar o‘zlarining mahsulotlari, xizmatlari yoki ishlarini yangilash va rivojlantirish uchun boshqaruvda qilishlari kerak bo‘lgan innovatsiyalar bo‘yicha strategiyalarni belgilaydilar[1]. Keyinroq, ishlab chiqarish bosqichida, mahsulotlarni yangilash va rivojlantirish uchun yangi texnologiyalar va usullarni joriy etish maqsadida amaliyotlarni boshlaydilar. Tijoratlashtirish bosqichida yangi mahsulotlarni bozorda ishlab chiqarish va tarqatish jarayonlarini belgilash uchun tijoratlashtirish strategiyalarini rivojlantirishadi.

Zamonaviy olimlar innovatsiyani yangiliklar yaratish, takliflar keltirish va muammolariga yangiliklar bazasiga asoslangan, iste’molchilarning ehtiyojlarini bartaraf etish uchun yaratilgan ilmiy va amaliy faoliyat sifatida ko‘rib chiqishadi. Bu ularning yangi g‘oyalar va yondashuvlar bilan ishlash, jamiyatga foyda olib keluvchi

mahsulotlar yaratish va ijtimoiy-moliyaviy rivojlanishga ko‘maklashishdagi ro‘yxatdan tashqari, ularning biznes, salomatlik, o‘qitish va boshqa sohalar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishda ham ahamiyatli ishtirok etishini anglatadi. Innovatsiyalarni boshqarish - bu amalda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan va muayyan ehtiyojlarni qondirishga qodir bo‘lgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoki texnologiya ko‘rinishida mujassamlangan ijodiy faoliyatning yakuniy natijasidir[2]. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, innovatsiya - bu iste’molchilarning ma’lum ehtiyojlarini qondirish uchun amaliy foydalanish maqsadida yangi g‘oyalar va bilimlarni amalga oshirish natijasidir.

Innovatsiyalar bo’yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish ushbu kontseptsiyaning ikkita tushunchali talqinini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: iqtisodiy va ijtimoiy[3]. “Innovatsiya” tushunchasining iqtisodiy talqini innovatsiyalar bo‘yicha investitsiyalar, ulardan ko‘proq foyda olish uchun xarajatlar, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar sotishining, innovatsiyalar davomida ommaviy omonatlar va sifatni ta’minlashga oid talablar kabi mavzularni qamrab olishni o'z ichiga oladi. Yetakchi iqtisodchilarning fikriga ko’ra, investitsiyalar innovatsiyalarni yanada samaraliroq qiladi va investitsiyalar tufayli innovatsiyalar tezroq va muvaffaqiyatli bo‘ladi. Innovatsiyalarning investitsiyalar bilan uyg‘unlashuvi mahsulot, xizmat ko‘rsatishning raqobatbardoshligini oshiradi, iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishiga olib keladi. O’zgarishlar iqtisodiy munosabatlar boshqaruv jarayonlariga, iqtisodiy aloqalar oqimiga ta’sir ko’rsatadi.

Innovatsiyalarning ijtimoiy tahlilida jamiyatdagi, tashkilotdagi, jamoadagi innovatsiya jarayoniga e’tibor beriladi. Innovatsiyalarni ijtimoiy talqin qilishda asosiy e’tibor nizolarni ko’rib chiqish, manfaatlarni muvofiqlashtirishga qaratiladi. Ushbu tushunchaga ko‘ra, innovatsiya - bu bilimlarni ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy texnologiyalarga aylantirishdir. Bunda innovatsiya bilimlarni tijoratlashtirish, undan foyda olish asosiy o‘rinda turadi.

Korporativ bilimlarni boshqarishning birinchi va eng muhim bosqichi ularni begonalashtirish jarayonidir, ya’ni biznes jarayonlari, ijtimoiy texnologiyalar, ko‘rsatmalar, qoidalar, tavsiyalar ko‘rinishidagi yozma qayd qilish. Bilimlarni begonalashtirish tizimli, axloqiy, asosli bo’lishi kerak. Bilim xodimlarining bilimlarini mustahkamlashni rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish kerak bo‘lgan yangi funktsiya sifatida ajratib ko‘rsatish kerak. Bilim xodimi har doim ham o‘z bilimining begonalashishiga osonlikcha rozi bo‘lavermaydi. Bilim xodimlari - o‘zlarini ilmiy tadqiqotchilar sifatida ko'rsatadigan insonlar, institutlar yoki tashkilotlardir. Ular ilmiy tadqiqotlar olib borish, ma’lumotlar olish, tahlil qilish, ma’lumotlarni amaliyotga tatbiq etish va boshqa ilmiy faoliyatlar ustida ishlaydilar. Bilimlarni tuzatish jarayoni bilim xodimining qarshiligi bilan bog‘liq bo‘lgan holda juda ziddiyatli bo’lishi mumkin. Xodimning begonalashish jarayoniga qarshilik ko‘rsatishni majburlash orqali oldini olish mumkin. Korporativ bilimlarni boshqarish uchun maqbul ijtimoiy texnologiyani yaratish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin[4]:

- Bilim xodimlarini boshqarishda ularning erkinlik darajasini oshirishni hisobga olish kerak;
- Boshqaruv uslubi va tashkiliy madaniyat o‘zini o‘zi rivojlantirib borish bilim darajasiga mos kelishi kerak;

- Bilim xodimlari bilan ularning talablarini o‘z vaqtida aniqlab olish va bu so‘rovlarni diqqat bilan ko‘rib chiqish kerak;
- Bilim xodimi kompaniyada nafaqat professional, balki shaxs sifatida ham hurmatga sazovor bo‘lishi kerak.

Korxonalar xodimlarini boshqarish sohasidagi tizimlar quyidagilar uchun ishlatilishi mumkin:

- Kadrlar rivojlanishi va holatidagi ijobiy yoki salbiy tendentsiyalarni ko‘p qirrali tahlil qilish, menejer imidjini, uning jamoa bilan munosabatlarining xarakterini tahlil qilish asosida korxona tuzilmasini optimallashtirish;
- Har bir xodim uchun kasbiy, psixologik, fiziologik parametrlarning ta’riflari, uning salbiy ko’rinishlarini, xulq-atvor xususiyatlarini aniqlash va baholash, ziddiyatli vaziyat, moslik, o‘z-o‘zini hurmat qilish, salohiyat, ijtimoiy-psixologik kompetentsiya, xodim uchun turli matn xususiyatlarini shakllantirish;
- Umumiy va maqsadli kasbiy yo‘l-yo‘riq, kasb tanlash, ishga qabul qilish, qisqartirish, attestatsiyadan o‘tkazish, xodimning kasbiy yaroqliligini va o‘rganish qobiliyatini baholash, eng ko‘p tavsiyalar olish uchun samarali foydalanish har bir xodim korxonaning o‘ziga xos sharoitida kasblar, lavozimlar yaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Innovatsion boshqaruv - korxonada yangiliklarni o‘rganish, ularni amalga oshirish va xizmatlar, mahsulotlar yoki jarayonlarda yangiliklarni joriy etish, jarayonlarini rivojlantirishga oid strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu boshqaruv usuli, korxonalarning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muhimdir, chunki bu ularga yangiliklar bilan qadam qo‘yish va rivojlangan bozorlarga kirish imkonini ta’minlaydi. Innovatsion boshqaruv, innovatsion qarorlarni keng qamrovli korxona strategiyasi va taktikalari bilan bog‘lab chiqarish, innovatsion jarayonlarni boshqarish, yangi fikrlarni oshirish va ularni amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan imkoniyatni ta’minlash, innovatsion jamoalar va hamkorliklarni rivojlantirish va innovatsiyalarni miqyoslash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bu boshqaruv shakllari, korxonalarning o‘zini turli sohalar va turli darajalardagi innovatsiyalarni o‘rganish, rivojlantirish va amalga oshirishga olib kelishi uchun muhimdir.

Innovatsion boshqaruv korxonada yangiliklarni o‘rganish, rivojlantirish va amalga oshirishga oid muhim usullarni o‘z ichiga oladi. Mavzu yuzasidan kelib chiqib, korxonada boshqaruvni rivojlantirish uchun quyidagi innovatsion usullarni taklif qilish mumkin:

- Strategik yo‘nalishlarni aniqlash: Korxonaning faoliyat sohalari va bozor talablarini tushunish va undan foydalanish.
- Yangiliklarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash: Korxonalarda yangi fikrlarni va innovatsiyalarni yaratish uchun mehnat resurslarni ajratish.
- Innovatsion jamoalar yaratish: Ichki va tashqi sohalar bilan hamkorlik qilish va innovatsion fikrlarni o‘zlashtirish uchun jamoalar yaratish.
- Xodimlarni o‘rganish va rivojlantirish: Xodimlarni yangi fikrlar yaratish va ularni amalga oshirishga rag‘batlantirish uchun motivatsiyalash.
- Boshqaruv tizimini rivojlantirish: Yangiliklarni qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonlarini mustahkam qilish uchun boshqaruv tizimlarini o‘zgartirish va rivojlantirish ва h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Q. Yo‘ldoshev, J.X.Rashidov. Menejment tadqiqot usullari. Darslik. 2021. 152 bet.
2. R.I. Gimush, F.M. Matmurodov. Innovatsion menejment. O‘quv qo’llanma. 2008. 146 bet
3. Инновационный менеджмент. Учебное пособие. Редакционная группа Гончаренко Л.П. и др. -М.: КНОРУС, 2005 г. с.544.
4. Мухамедъяров А.М. Инновационный менеджмент. Учебное пособие. -М.: Инфра-М , 2005 г. с. 127.
5. Qosimova D., Ko‘chimov A. Fundamentals of investment environment in the process of digital transformation of the economy //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 417-421.
6. Kuchimov A. et al. AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING GREEN ECONOMY: A MULTIDISCIPLINARY EXPLORATION //Journal of Contemporary World Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 59-62.
7. Медынский В.Г. Инновационный менеджмент. Учебник. -М.: Инфра-М , 2005 г. с.295.
8. Менеджмент организации. М. Инфра, 1996 г
9. https://uzpedia.uz/pedia/innovatsiyalarni_boshqarish
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Innovatsiya_menejmenti

FACTORS AFFECTING THE PARTICIPATION OF COUNTRIES IN THE INTERNATIONAL DIVISION OF LABOR AND DEVELOPMENT INDICATORS

Gaybullayev Sarvar O‘ktam ugli
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

Abstract: In this article, the advantages and disadvantages of our country's membership in the labor organization, the current state of world integration, goods exported under favorable conditions of international exchange and achieve the social difference between international and national values of services, production of national goods in exchange for cheap imported goods and services and the factors of abandonment of services are highlighted

Key words: Comparative advantage, International division of labor, Economic geographical situation, Agro-climatic conditions, Customs union, Regional division of labor, factors of geographical division of labor, stages of regional division of labor, economic regionalization and regional division of labor.

Among the most important regional and sectoral economic groups, the following should be noted: European Union (EU), Association of South-South Countries (ASEAN), Latin American Integration Association (LAI), North American Free Trade. Agreement (NAFTA), Organization of Petroleum Exporting Countries (OPEC) and others. Developing countries are determined to rebuild their economies and change the

current nature of their relations with economically developed countries[1]. They put forward demands for the creation of a New World Economic Order, which includes controlling the activities of transnational corporations in developing countries, setting fair prices for raw materials and finished products, providing economic assistance without any political conditions, etc.

The specialization of enterprises of different countries in a certain product is related to modern ITI. As the technological system of production became more complex, the details used in the finished product increased[2]. For example: up to 20,000 parts are used in passenger cars, up to 100,000 in rolling mills, and up to 250,000 in electric locomotives.

International production specialization (XII) is developing in two directions - production and territorial direction. In turn, the direction of production: a) inter-industry; b) group of countries; c) is divided into the specialization of individual enterprises.

Territorial international production specialization: a) individual countries; b) group of countries; c) regions are divided into production specialization for certain goods and their parts for the world market. Another form of international division of labor is international production cooperation. Its objective basis is the growing level of development of production forces, as well as stable cooperation between independent enterprises, regardless of whether it occurs inside or outside the country. is the process of production relations[3].

We can say that the international geographical division of labor takes place with two complementary processes.

First, it is an international production specialty, which can be both inter-industry and intra-industry. In intersectoral specialization, the country usually produces and exports relatively few types of products, primarily mining and fuel-raw materials industry, as well as agriculture. For specialization within the industry is a characteristic of specialization in the production of finished products (subject), as well as parts and assemblies (detail). There is also step-by-step (technological) specialization[4].

Secondly, such international production cooperation, formation of production relations between individual countries and national economies. Such specialization and cooperation determine the "face" of each country in the international geographical division of labor. They also lead to the emergence as a result of MGRT usually a territorial gap between the areas of product production and consumption.

With the development of the scientific and technical revolution, the international geographical division of labor is gradually becoming more complicated. For example, it increasingly goes beyond production. Territorially, this complexity leads to the formation of separate zones.

Although in classical economics the international division of labor is considered to benefit specialized activities, there are other analyzes that pay more attention to the inequalities and structured hierarchies that this division creates.

Advantage;

- More efficient use of resources, because each country can use its potential and wealth in the tasks that are most appropriate for it. This allows the country to fully utilize its economic resources.

- Cost reduction in two ways: economies of scale of production leading to lower prices and use of comparative advantages.

- Effective development of nations is ensured through trade exchange. Excess can be exported, which affects the circular flow of income.

Disadvantages;

Some economic analysts have discredited the effects of the international division of labor, arguing that this division only created poverty and inequality in commodity-producing countries.

Indeed, in the 1980s, the economist Raul Prebish, a member of the UN Economic Commission for Latin America, argued that the international division of labor led to the division of the world into two groups: one producing raw materials, and the other industrialized products producing raw materials.

The international division of labor is very important for expanding trade between different countries and forming an objective platform for the development of the world market.

The international division of labor refers to the specialization of certain countries in different areas of production, particularly in products or in selected parts of the production process. The concept suggests that the spread of markets around the world will lead to a progressive differentiation of economic activity.

This is similar to the existing division of labor in a company, but instead on an international scale. In this way, just as some workers specialize in certain tasks, it is observed internationally that nations specialize in certain production activities.

For example, as Switzerland is considered to specialize in financial services, Brazil is observed to specialize more in the production of coffee or chicken. The rise of large-scale industry led to greater differentiation in production and the development of specialization that transcended national boundaries.

The international division of labor was facilitated by the large demand of industrial countries for large quantities of agricultural products and raw materials supplied by economically less developed countries.

The international division of labor was facilitated by the large demand of industrial countries for large quantities of agricultural products and raw materials supplied by economically less developed countries. The theory of comparative advantage is perhaps the most important concept in international trade theory. Economic advantage is the fact that one country produces a given output more economically than another. Differences between countries in comparative advantage determine patterns of specialization.

List of used literature:

1. Sirojiddin S. et al. SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS A PLACE TO PROVIDE EMPLOYMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 115-119.

2. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 95-99.

3. G’aybullayev, S. (2022). O‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO‘NALISHLARI
4. Bahrom X. et al. THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 287-293.
5. G’aybullayev S. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – С. 86-89.
6. Sarvar G. et al. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 125-129.
7. G'aybullayev S. The place of the digital economy today //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 116-126.
8. G’Aybullayev Sarvar O. et al. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 119-125.
9. Sarvar O'ktam o'g G. et al. SYSTEMATIC-SITUATION APPROACH IN MANAGEMENT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 999-1008.
10. Bahrom X. et al. O’ZBEKISTON VA AQSHNING IQTISODIY MUNOSABATLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – С. 63-69.
11. G’Aybullayev Sarvar O. et al. FRANCHAYZINGNING BUGUNGI IQTISODIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 16. – С. 116-120.
12. O‘G‘Li X. Y. K. et al. IQTISODIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHNING BUGUNGI KUNDA MUHIM AHAMIYATI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 15. – С. 41-45.
13. G’aybullayev S. THE ROLE OF MARKETING ACTIVITIES IN INCREASING THE POTENTIAL OF TEXTILE ENTERPRISES //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 7.
14. Гайбуллаев С., Пулатова М. Ish haqi va mehnat munosabatlari //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 370-372.
15. Гайбуллаев С., Анорбоева Д. O ‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o ‘tish muammolari //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 236-238.

ZAMONAVIY WEB ILOVALARDA AUTENTIFIKATSIYA DASTURIY VOSITALARINI QO‘LLASH

p.f.f.d, dots. Aliboyev Sobir Xolbayevich,
mag. Gulmurodova Dinora Akram qizi,
mag. Gulmurodova Shohsanam Akram qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
dinoragulmurodova1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola web ilovalarda foydalanuvchilarni himoyalash algoritmlari va autentifikatsiyalash usullarini tahlil qiladi, asosan tokenga asoslangan avtorizatsiyani o`rganadi.

Kalit so‘zlar: token, elektron identifikatsiya, avtorizatsiya, cloud computing, asosiy arxitektura modeli.

Kiberjinoyat endi global muammoga aylandi. 2018 yilda jahon iqtisodiyotiga kiberjinoyatlardan ko‘rilgan zarar 1,5 trillion dollarni tashkil etgan. 2022-yilda yo‘qotishlar 8 trillion, 2030-yilda esa kiberjinoyatlardan ko‘rilgan zarar 90 trillion dollardan oshishi mumkinligi taxmin qilinmoqda. Kiberjinoyatlardan yo‘qotishlarni kamaytirish uchun foydalanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash usullarini takomillashtirish zarur. Hozirgi vaqtda kuchli xavfsizlik strategiyasini amalga oshirishga yordam beradigan ko‘plab autentifikatsiya va avtorizatsiya usullari mavjud, Ular orasida ko‘plab mutaxassislar tokenga asoslangan avtorizatsiyani eng yaxshisi deb ajratib ko‘rsatishadi.

Token kompyuter tarmoqlari va ilovalaridagi foydalanuvchi yoki individual seansni identifikatsiyalash vositasidir

Token (shuningdek, apparat tokeni, USB kaliti, kriptografik token) foydalanuvchining axborot xavfsizligini ta'minlash uchun mo‘ljallangan ixcham qurilma bo‘lib, uning egasini aniqlash, axborot resurslariga masofaviy kirishni ta'minlash va hokazolar uchun ham qo‘llaniladi, Qoidaga ko‘ra, bu autentifikatsiyani soddalashtirish uchun ishlatiladigan jismoniy qurilma. Shuningdek, ushbu atama muvaffaqiyatli avtorizatsiyadan so‘ng foydalanuvchiga beriladigan va xizmatlarga kirish uchun kalit bo‘lgan dasturiy ta'minot tokenlariga tegishli bo‘lishi mumkin.

Tokenlar uchta usuldan birida ishlaydi:

- vaqt bo‘yicha sinxron
- hodisa boyicha sinxron,
- yoki javob berish shuninqdek, asinxron deb ham ataladil

Tokenlar elektron identifikatsiya qilish uchun mo‘ljallangan (masalan, bank hisobiga kiruvchi mijoz), shu bilan birga ular parol o‘rniga ham, u bilan birga ham ishlatilishi mumkin. Qaysidir ma'noda, token biror narsaga kirish uchun elektron kalitdir.

Kiberjinoyatlardan yo‘qotishlarni kamaytirish uchun foydalanuvchilarning xavfsizligini ta'minlash usullarini takomillashtirish zarur. Hozirgi vaqtda kuchli xavfsizlik strategiyasini amalga oshirishga yordam beradigan ko‘plab autentifikatsiya va avtorizatsiya usullari mavjud, Ular orasida ko‘plab mutaxassislar tokenga

asoslangan avtorizatsiyani eng yaxshisi deb ajratib ko‘rsatishadi. Qoida tariqasida, ularni qo‘llash mafkurasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) Akkauntlar yaratiladi, ya'ni foydalanuvchilar nom va parol, raqamlar yoki har qanday malum belgilar kombinatsiyasini o‘ylab topadilar.

2) Serverga kirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun foydalanuvchi ushbu noyob kombinatsiyani saqlashi va har doim unga kirish huquqiga ega bo‘lishi kerak.

3) Agar siz serverga qayta ulanishingiz va akkauntingiz bilan tizimga kirishingiz kerak bo‘lsa, foydalanuvchi parolni va loginni qayta kiritishi kerak.

Token avtorizatsiyasi butunlay boshqacha tarzda ishlaydigan tizimdir. Token avtorizatsiyasi bilan ikkilamchi xizmat server so‘rovini tekshiradi. Tekshiruv tugallangach, server token chiqaradi va so‘rovga javob beradi. Foydalanuvchi hali ham eslab qolish uchun bitta parolga ega bo‘lishi mumkin, ammo token o‘g‘irlash yoki yengish ancha qiyin bo‘lgan kirishning boshqa shaklini taklif qiladi. Va sessiya yozuvi serverda joy egallamaydi. Aslida, avtorizatsiya tokeni foydalanuvchining axborot xavfsizligini ta'minlash uchun mo‘ljallangan qurilma bo‘lib, uning egasini aniqlash uchun ham qo‘llaniladi. Odatda, bu autentifikatsiyani osonlashtirish uchun ishlatiladigan jismoniy qurilma.

Asosiy arxitektura modeli

1) llova maxfiy ma'lumotlarning qismlarini to‘playdi yoki yaratadi.

2) Ma'lumotlar darhol tokenizatsiya serveriga o‘tkaziladi - u mahalliy sifatida saqlanmaydi.

3) Tokenizatsiya serveri ma'lumotlar uchun tasodifiy yoki yarim tasodifiy tokenlarni yaratadi. Maxfiy ma'lumotlar tokenlari xavfsiz ma'lumotlar bazasida saqlanadi [odatda shifrlangan].

4) Tokenizatsiya serveri tokenni ilovaga qaytaradi.

5) llova token va maxfiy ma'lumotlarni saqlaydi. Token ko‘p dastur operatsiyalari uchun ishlatiladi.

6) Haqiqiy maxfiy ma'lumotlarni olishingiz kerak bo‘lsa, vakolatli dastur yoki foydalanuvchi uni so‘rashi mumkin.

Maxfiy ma'lumotlar mahalliy ma'lumotlar bazalarida saqlanmaydi va ko‘p hollarda ularga kirish sezilarli darajada cheklangan, bu esa sizib chiqish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Hozirgi kunda jamiyatda mavjud har bir sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda ularni zamonaviy cloud computing xizmati yordamida turli webga asoslangan dasturiy vositalar yordamida boshqarish mumkin. Juda ko‘p tashkilot va korxonalarning o‘zlarida hozirda web ilovalar mavjud va bu ilovalardan o‘z tizimlarini yuritishda va foydalanuvchilar bilan aloqani bog‘lashda foydalanib kelinmoqda. Bu jarayonlarda foydalanuvchilarning malumotlaridan ruhsatsiz foydalanishga urinib ko‘rishlar kabi xolatlar sababli foydalanuvchilarni autentifikatsiyadan o‘tkazish jarayoni yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu maqolada web ilovalarda foydalanuvchilarni himoyalash algoritmlari va autentifikatsiyalash usullarini tahlil qilindi va quyidagi natijalar olindi.

- Web ilovalarda foydalanuvchilarni himoyalash algoritmlarini tahlil qilindi;
- Web ilovalarda foydalanuvchilarni autentifikatsiyalash usullari tahlil qilindi;
- Tokenga asoslangan authentifikatsiya usuli tahlil qilindi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi.
2. Archana, B. S., Chandrashekar, A., Bangi, A. G., Sanjana, B. M. and Akram, S. (2017) Survey on us-able and secure two-factor authentication.
3. Tatli, E. I. (2015) Cracking More Password Hashes With Patterns.
4. Rouse, M. (2015). knowledge-based authentication (KBA). Available: https://searchsecurity.techtarget.com/de□nition/knowledge-based-authentication. Last accessed 7th November 2019.
5. Elets News Network. (2018). From July 1, authen-ticate Aadhaar through face recognition. Available: https://egov.eletsonline.com/2018/01/from-july-1-authenticate-aadhaar-through-face-recognition/. Last accessed 9th November 2019.
6. Muppidi, S. (2017) Companies Need More Than Two-Factor Authentication to Keep Users Safe. Har-vard Business Review Digital Articles, 2-4.
7. Hayot faoliyati xavfsizligi. G‘.Yo.Yormatov, O.R.Yuldashev, A.L.Hamrayeva, Toshkent-2018.
8. Hayot faoliyati xavfsizligi. M.X.Tojiyev, I.Nigmatov, Toshkent-2015
9. https://digitalcommons.unf.edu
   https://dataprot.net/statistics/two-factor-authentication-statistics
10. Meliyev, F. F., & Baratov, J. R. (2022). RAQAMLI PATOLOGIYANING HOZIRGI HOLATI VA UNDA MASHINAVIY O ‘QITISH USULLARINI QO ‘LLASHNING ISTIQBOLLARI. ББК 22.18 С 56, 243.
11. Mirzaev, N. M., Meliev, F. F., & Baratov, J. R. (2022). ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO DETECT CANCERS FROM HUMAN COLON HISTOLOGICAL IMAGES. ББК 22.18 С 56, 181.
12. Мирзаев, Н. М., Мелиев, Ф. Ф., & Баратов, Ж. Р. (2022). ИККИ ЎЛЧОВЛИ БЎСАҒАВИЙ ФУНКЦИЯЛАРГА АСОСЛАНГАН СТАТИСТИК ТАНИБ ОЛИШ АЛГОРИТМЛАРИНИ ҚУРИШ. ББК 22.18 С 56, 210.

BOSHLANG‘ICH MAKTABDA MOBIL TA’LIMDAN FOYDALANISH: BU MUHIMMI?


p.f.f.d. (PhD) Mingboyev Ulug‘bek Xujayevich,
Gulmurodova Shohsanam Akram qizi,
Gulmurodova Dinora Akram qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
gulmurodovashohsanam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola mobil ta'lim texnologiyasidan boshlang'ich maktab darajasidagi o'quvchilar uchun foydalanishni tavsiflaydi. Juda ko'p ta'lim dasturlari bor. Shuning uchun tadqiqotchilar bu ilovalar ta'lim uchun kerakmi yo`qmi shu haqda bilishni xohlashadi. Bu maqola o`quvchilar uchun ta'lim ilovalaridan foydalanish sifatli MO‘AT usuli qo'llanilishi o`rganadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv qobiliyatlar, analog media, analitik ko'nikmalar, MO‘AT muhandislik modeli, ta'limga integratsiyalashgan tematik yondashuv.

Bolalarning aytishicha, o'rgatuvchi ilovalardan foydalanish ular o'z malakalarini oshirishga yordam bergan. Guruhlarda ishlashganda, ular aloqa, muloqot qobiliyatlarini va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishgan. Maktablar kabi rasmiy ta'lim sharoitlarida mobil ta'lim turli usullar bilan amalga oshiriladi. Misol uchun, mobil texnologiyalar analog media va texnologiyalarni almashtirish uchun qo'llaniladi. Tadqiqotlarga ko'ra, boshlang'ich maktabdagi bolalar kattalarnikidan farqli o'rganish uslublariga ega[1-3]. Ular yangi ma'lumotlarni qayta ishlaydilar turli yo'llar va turli xil o'rganish xususiyatlariga ega. Shuning uchun, innovatsion texnika va ma'lumot yordamida turli xil o'rganish uslublari va yondashuvlariga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan pedagogika va ta'limda kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va mobil texnologiyalar kirib keldi. Bunga qo'chimcha ravishda, mobil texnologiya mavjudligi, moslashuvchanligi, qulayligi tufayli bugungi jamiyatda muhim va zarurdir[4-5]. O`quvchilar planshetlarida o'quv dasturlarini o'ynaganlarida, ular shunday deb aytishdi. “Matematika qobiliyatlarini mashq qilishda juda foydali. Shuningdek, sinfdoshlari bilan raqobatlashishga da'vat etish mumkinligi (masalan ko'ngilochar o'yinlar) o'ynash paytida mukofot (va natijalar) olish orqali ijtimoiy ko`nikmani rivojlantirishga yordam beradi.” Umuman olganda, o‘quvchilar buni foydali deb topishdi. O‘quvchilar analitik ko'nikmalardan foydalanishlariga yoki turli xil imkoniyatlarni sinab ko'rishlariga ishonch hosil qilishdi.

Boshlang'ich maktablar, ta'limga integratsiyalashgan tematik yondashuv. integratsiyalashgan mavzular asosida o'rganishdan foydalanadilar. Ta`limda MO‘AT( Mobil O‘yinga Asoslangan Ta`lim)dan foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida ushbu maqolada muhandislik modelini ishlab chiqarildi.(1- rasm) MO‘AT raqamli o'rganishning bir turi. Mobil o‘yinga asoslangan ta’lim - bu dars mavzusining qisqacha mazmunini o‘z ichiga olgan, ta’limning turli darajalari tomonidan tuzilgan, amaldagi o‘quv dasturiga moslashtirilgan va mobil qurilmalarda ishlay oladigan o‘yin.



1-rasm MO‘AT (Mobil O‘yinga Asoslangan Ta`lim)muhandislik modeli

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari mobil texnologiyalardan foydalanishni bilishlari kerak, chunki u bizning bolalarimizning ta'lim salohiyatini keskin yaxshilash uchun yordam beradi. Tatqiqotga ko'ra, mobil o'rganish ilovalari yoshlar uchun foydalanishga qulay bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bu ta'lim ilovalari o‘quvchilarning bir-birlari va o`qituvchilari bilan real vaqt rejimida aloqalarini rivojlantirish uchun ishlab chiqilganini e`tiborga olish joiz. Shuning uchun ushbu maqolada mobil o‘yinga asoslangan ta`limni rivojlantirish maqsadida mobil o‘yinga asoslangan ta`lim muhandislik modeli ishlab chiqildi.Ya'ni talablarni tahlil qilish va rejalashtirish, mobil aloqa va texnik tahlil, o'quv materiali dizayni, o'yin xususiyatlari dizayni, o'quv mazmuni ishlab chiqish, o'yin aktivlarini ishlab chiqish, kodlash va mexanik rivojlanish usullari va o'yin xususiyatlari integratsiyasi qilish tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xujayevich M. U. Some methodological issues of the formation of communicative competence of students using educational online resources //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 7. – №. 2.
2. Xujaevich M. U. Pedagogical conditions for the formation of communicative competencies of students of vocational schools using interactive teaching methods //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 12. – С. 345-347.
3. Мингбоев У. Х. Педагогические условия формирования коммуникативного умения у студентов по специальности" информационные технологии" //Молодой ученый. – 2016. – №. 10. – С. 1249-1252.
4. Risda Amini, R., Amini, R., Eka Handayani, S., Fitria, Y., May Lena, S., & Helsa, Y. (2019). Development of Integrated Thematic Teaching Materials using Problem-Based Learning Model in Elementary School.
5. Ghunu, N. M. S. (2022). The Challenges of Remote Area Elementary Schools in Thematic Curriculum Implementation. International Journal of Instructionstruction.
6. 10. Meliyev, F. F., & Baratov, J. R. (2022). RAQAMLI PATOLOGIYANING HOZIRGI HOLATI VA UNDA MASHINAVIY O ‘QITISH USULLARINI QO ‘LLASHNING ISTIQBOLLARI. ББК 22.18 С 56, 243.
7. 11. Mirzaev, N. M., Meliev, F. F., & Baratov, J. R. (2022). ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO DETECT CANCERS FROM HUMAN COLON HISTOLOGICAL IMAGES. ББК 22.18 С 56, 181.
8. 12. Мирзаев, Н. М., Мелиев, Ф. Ф., & Баратов, Ж. Р. (2022). ИККИ ЎЛЧОВЛИ БЎСАҒАВИЙ ФУНКЦИЯЛАРГА АСОСЛАНГАН СТАТИСТИК ТАНИБ ОЛИШ АЛГОРИТМЛАРИНИ ҚУРИШ. ББК 22.18 С 56, 210.

SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISH

PhD. Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
ulajaha12@gmail.com.

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliq qarzdorligi paydo bo'lishining asosiy sabablari tadqiq etilgan. Shuningdek, mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan soliq qarzdorligini undirish amaliyoti tadqiq etilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etgan holda qisqartirish borasida xulosalar shakllantirilgan.

Asosiy tushunchalar: Soliq organi, soliq to'lovchilar, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, soliq yuki, soliq qarzdorligi, davlat, budjet.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Xususan, biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimi va infratuzilma yaratish hamda mulk huquqini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Tadbirkorlik subyektlarini mikro, kichik, o'rta va yirik toifalarga, tuman va shaharlarni esa 5 ta toifaga ajratish orqali tadbirkorlikni manzilli qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yildi. [1]

Hukumatimiz tomonidan mamlakatda tadbirkorlik faoliyatlarini keng qo'llab-quvvatlash pirovardida, soliq sohasini ham, jumladan soliq tushumlarini oshirishda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, sun'iy intellekt axborot tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini joriy etish kelgusida mamlakatni yanada iqtisodiy mustahkam bo'lishiga o'zining ijobiy hissa qo'shishiga ishonch bildirilmoqda. Barchamizga ma'lumki, davlatimiz budjeti daromadlarining 80 foizidan ortiq qismi aynan soliqlar hisobiga shakllanadi. Soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarning belgilangan muddatda va miqdorda to'lab berilishi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar xarajatlari qismini moliyalashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib soliqlarning belgilangan muddatda va to'liq hajmda kelib tushishi muhim ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida, nafaqat soliq to'lovchilarga, balki soliq organlariga ham soliqlarni budjetga o'z vaqtida tushishini ta'minlashda, shu jumladan soliq qarzdorligini qisqartirishda mas'uliyatli vazifa yuklaydi.

Mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida soliq qarzdorligini vujudga kelish sabablarini o'rganish hamda ularni qisqartirishning ayrim masalalari bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik olim Michael Brostek (2009) esa o'z tadqiqotida soliq qarzini undirilishining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarini ko'rsatib o'tadi, xususan:

- mamlakatda soliq qarzdorligi summalarining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yishni oldini olishda soliq yukini pasaytirish kelajakda soliq qarzdorliklari kamayishiga olib keladi;

- muddatida to‘lanmagan soliqlar va yig‘imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan davr mobaynida o‘z ijobiy natijasini beradi. [2]

Rus tadqiqotchisi V. Morozning fikriga ko‘ra esa, “Soliq to‘lovchilarning soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Hech qachon sud yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi. Faqatgina soliq qarzdorligi, penya hamda moliyaviy sanksiyalar undirishni talab etadi. Hattoki, soliq qarzi ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to‘lanishi mumkin. Aynan shu xulosa nafaqat soliq qonunchilikda belgilab qo‘yilsa va buning natijasida fuqarolarning huquqiy ongida ham aks etsa, balki soliq to‘lovchilar uchun soliqlar “erkinlik” belgisi sifatida ham namoyon bo‘ladi” – deb ta’kidlab o‘tgan. [3]

Mamlakatimizda soliq qarzdorligini undirish mexanizmini takomillashtirishda soliq ma’murchiligini to‘g‘ri tashkil etish, soliq sohasini raqamlashtirish, soliq qonunchiligida belgilangan normalarga qonunosti hujjatlar ya’ni nizom, tartib yoki yo‘riqnomalar ishlab chiqish va asosiysi ishlab chiqilayotgan soliq qonunchilik hujjatlari shaffof va adolatli bo‘lishi muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birgalikda, rivojlangan mamlakatlarning samarali tajribalarini, shu jumladan soliq sohasida joriy etilgan sun’iy intellekt axborot tizimlarini o‘rganish va ularni amaliyotga joriy etish ham soliq qarzdorligini undirish mexanizmini yanada takomillashtirishda ijobiy rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bugungi kunda xorij mamlakatlari tomonidan amaliyotda qo‘llanilayotgan soliq qarzdorligini undirish mexanizmlarini quyidagi davlatlar misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin:

Ispaniya davlatida soliq to‘lovlarini kechiktirish yoki to‘lamaslik quyidagi jarimalarni solishga sabab bo‘ladi:

Muddatlar	**Stavka**
Yanvar-mart	qo‘shimcha 5 %
Aprel-iyun	qo‘shimcha 10 %
Iyul-dekabr	qo‘shimcha 15 %
Bir yildan keyin	qo‘shimcha 20 %

1-rasm. Ispaniyada soliq qarziga nisbatan hisoblanadigan foiz tahlili

Yuqoridagi 1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Ispaniya davlatida soliqlar va boshqa to‘lovlarni kechiktirib to‘lash yoki soliq qarzdorligi o‘z vaqtida to‘lamaslik, soliq summasiga nisbatan o‘sib boruvchi tartibda foiz miqdorida, ushbu miqdorlar avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali hisob-kitob qilinib, moliyaviy jarimalar qo‘llaniladi. Soliqlarni to‘lash muddati o‘tganidan so‘ng soliq to‘lovlari qancha tez to‘lansa, shuncha jarima stavkasi past bo‘ladi.

Shuningdek, Ispaniya soliq deklaratsiyasini (hisobot) kechiktirib taqdim etish yoki taqdim etmaganlik uchun jarima 100 yevro, agar soliq organi tomonidan soliq deklaratsiyasini taqdim etish to‘g‘risida ogohlantirish olganidan keyin ham soliq deklaratsiyasi taqdim etilmasa 200 yevroga jarimaga tortiladi.

Bundan tashqari Ispaniyada soliq qonunchiligini buzilishiga qarab 3 turdagi jarimalar qo‘llanilishi mumkin:

- kichik qoidabuzarliklar soliq qarzdorligi summasining 50 foizi miqdorida jarima, shuningdek, foiz (penya)lar;
- jiddiy qoidabuzarliklar sodir etilsa, soliq qarzdorligi summasining 50-100 foiz miqdorigacha jarima, shuningdek, foiz (penya)lar;
- juda jiddiy qoidabuzarliklar sodir etilsa, soliq qarzdorligi summasining 100-150 foiz miqdorigacha jarima, shuningdek, foiz (penya)lar undiriladi.

Shuningdek, soliq to‘lovchining soliq qarzdorligi uzilmay qolaversa, soliq qarzdorligini undirishni soliq to‘lovchining bankdagi hisobvarag‘iga yoki mol-mulkiga qaratiladi. [4]

Avstraliya davlatida soliq to‘lovchilarda soliq qarzdorligi vujudga kelsa, soliq organi quyidagilarni amalga oshiradi:

Avstraliya davlatida soliq qarzdorligini undirish jarayoni to‘liq raqamlashtirilgan bo‘lib, soliq qarzdorligiga nisbatan har chorakda foiz (GIS stavkalari) hisoblanadi. Ushbu foiz stavkalari avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali har yilning kelgusi choragi uchun tabaqalashtirilgan stavkalarni joriy etib boradi. Buni quyidagi rasm asosida ko‘rishimiz mumkin:

Chorak	GIS choraklik stavkasi	GIS kunlik stavkasi
2023-yil, aprel-iyun	7,89 %	0,02155738 %
2023-yil, yanvar-mart	7,91 %	0,02161202 %
2022-yil oktabr-dekabr	7,98 %	0,02186301 %
2022-yil iyul-sentabr	8,54 %	0,02339726 %

2-rasm. 2022-2023-yillar uchun GIS foiz stavkalari

Bundan tashqari, Avstraliya soliq tizimida soliq qarzdorligini kelgusi yil uchun prognozlash qobiliyatiga ega sun’iy intellekt (dasturiy mahsuldan) foydalaniladi. [5]

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatda soliq qarzdorligi ulushini qisqartirishda, soliq yukini kamaytirish, soliq qonunchiligini mukammallashtirish bilan birgalikda bugungi kun talablariga mos ravishda soliq qarzdorligini undirish amaliyotini barcha jabhalarini raqamlashtirish ijobiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Michael Brostek. Tax debt collection IRS needs to better manage the collection notices sent to individuals. // United States government Accountability office.-2009. P-27.

3. Мороз В.В. (2011) Налоговое администрирование задолженности организаций по налогам и сборам: проблемы взыскания.: дис. канд. экон. наук. – с. 36.

4. https://theonestopproblemshop.com - sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

5. https://www.ato.gov - sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

MAMLAKATDA SOLIQ QARZDORLIGINI QISQARTIRISH AMALIYOTINI RAQAMLASHTIRISH YO‘LLARI

PhD Hakimov Ulug‘bek Furqat o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
ulajaha12@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada soliqlarning iqtisodiyotidagi ahamiyati hamda bugungi kunda, mamlakatda soliq qarzdorligi qisqartirish dolzarb masalalardan biri ekanligi tadqiq qilingan. Shuningdek, soliq qarzdorligini qisqartirishda raqamlashtirish mexanizmlarini joriy etish tadqiq etilgan hamda mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o‘rganilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq qarzdorligini qisqartirish, shu jumladan uni samarali undirish amaliyotini yanada takomillashtirish borasida takliflar shakllantirilgan.

Asosiy tushunchalar: Soliq organi, soliq to‘lovchilar, raqamlashtirish, soliq, soliq qarzdorligi, davlat, budjet.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash bilan bir paytda soliq tizimini, xususan soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Hammaga ma’lumki, soliq tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari, mamlakatimizda soliq ma’muriyatchiligini samarali tashkil etishning zamonaviy usul va shakllardan keng foydalangan holda rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi. [1]

Mamlakatda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, shu jumladan, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha qarzdorlik summalari, ularni qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, xorijiy iqtisodchi olim M. Orlovaning fikriga ko‘ra, «Soliq qarzdorligi tushunchasiga har xil manbalarda turli xil ta’rif berilgan. Bugungi kunda soliq qarzdorligiga soliqlar va yig‘imlar, sug‘urta to‘lovlari hamda ular bo‘yicha hisoblangan foiz (penya)lar, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik

normalarini buzganlik uchun qo‘llaniladigan moliyaviy jarimalar bo‘yicha bajarilmagan majburiyatlar kiradi. Agar Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksida keltirilgan normalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, soliq qarzdorligi 2 guruhga bo‘linadi:

- joriy soliq qarzdorligi;
- soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan soliq qarzdorligi. [2]

Bundan tashqari, I.G. Vinoxodova ham o‘zining ilmiy ishida soliq qarzlarini undirishda soliq qarzi mavjud xo‘jalik yurituvchi subyektlardan mol-mulklarini xatlash jarayonini ko‘paytirish samarali natija berishini aytib o‘tadi. [3]

Yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlarning soliq qarzdorligi hamda uni paydo bo‘lishi yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalariga qo‘shilgan holda yana shuni aytib o‘tish kerakki, soliq qarzdorligini undirishda inson faktorini kamaytirgan holda ya’ni soliq sohasinining barcha jabhalarini raqamlashtirish ham mamlakatda soliq qarzdorligini qisqartirishiga olib keladi. Shuningdek, davlatdagi siyosiy beqarorliklar uning iqtisodiyotini izdan chiqarish, qolaversa iqtisodiyotning sikllarida “iqtisodiy tushish” yoki inqiroz davrida ham soliq qarzdorligini o‘sish ehtimoli katta bo‘ladi. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini yuritishni yaxshi bilmaslik va korporativ soliq menejmentini tushunmaslik, tadbirkorlardagi uquvsizlik va bilimsizlik tufayli ham soliq qarzdorligi paydo bo‘lishi tabiiy hol.

Amaliyotda jismoniy shaxslarda soliq organi tomonidan faqatgina soliq qarzdorligini to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomalari yuboriladi hamda buni quyidagi rasm ma’lumotlaridan ko‘rib chiqishimiz mumkin.

T/r	Ko‘rsatkichlar	Miqdor
1	Mol-mulk va yer soliqlarini to‘laydigan o‘rtacha jismoniy shaxslar soni	9 600 000
2	Yil davomida soliq organi tomonidan o‘rtacha chiqariladigan to‘lov xabarnomalar soni	9 000 000
	Shundan: qog‘ozda chop etiladigan to‘lov xabarnomalarning o‘rtacha soni	9 000 000
3	Soliq organlarida soliq qarzdorligini undirish bilan shug‘ullanadigan xodimlarning o‘rtacha soni	675
4	Soliq kodeksiga asosan, yil davomida to‘lov xabarnomalar topshiriladigan kunlarning o‘rtacha soni	60
5	Bitta xodim tomonidan 1 kunda topshirishi lozim bo‘lgan to‘lov xabarnomalarning o‘rtacha soni	220

1-rasm. Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha qarzdorligini undirishda soliq organlari tomonidan chiqarilgan to‘lov xabarnomalar tahlili. [4]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, soliq organi tomonidan chiqarilgan 9 000 000 ta to‘lov xabarnomalarning barchasi ham obyektiv yoki subyektiv sabablarga ko‘ra soliq to‘lovchiga yetib bormasligi mumkin. Sababi, amaliyotda 1 ta xodim tomonidan 1 ish kuni davomida 220 ta to‘lov xabarnomalarni

tarqatishning jismoniy jihatdan imkoni yo‘q. Bundan tashqari, soliq to‘lovchining yashash manzilida bo‘lmasligi ham to‘lov xabarnomalarning belgilangan tartibda yetkazib berilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Natijada, soliq organi mas’ul xodimlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni to‘liq bajara olmay, sun’iy ravishda soliqlarni belgilangan muddatda tushmasligiga javobgar bo‘lib qolish ehtimoli vujudga keladi. Qolaversa, mazkur holat soliq qarzdorligini to‘lash muddatini kechikishiga ham olib keladi. Albatta bugungi kunlarda, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlaridan qarzdorlik summalarini to‘lash to‘g‘risida to‘lov xabarnomalari mobil aloqa orqali “SMS” yuborilmoqda. Mazkur amaliyot soliq organi uchun ham, soliq to‘lovchi uchun ham juda qulaydir. Sababi, bunda soliq organi xodimining ish vaqti tejaladi, keraksiz xarajatlar (qog‘oz sarfi, transport xarajati va boshqalar) kamayadi hamda jismoniy shaxslar ortiqcha bezovta qilinmaydi. Ammo shuni ham yodda tutish kerakki, bu o‘z navbatida yuqorida o‘rganilayotgan masalaning to‘liq yechimi bo‘la olmaydi. Chunki, Soliq kodeksida “Soliqni to‘lash to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomasi soliq organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga imzo qo‘ydirilgan holda yoki to‘lov xabarnomasi olinganligini va olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usulda har yili 1-martdan kechiktirmay topshiriladi”[5] - deb belgilangan.

Muallif fikricha mamlakatda soliq qarzdorligi ulushi qisqartirishda quyidagi takliflar o‘z samarasini beradi:

- soliq to‘lovchilar tomonidan budjetga to‘lanadigan soliqlarni “online” (respublika, viloyatlar va tumanlar kesimida) rejimda kuzatish imkoniyatini ya’ni avtomatlashtirilgan axborot tizimi yaratish maqsadga muvofiq. Bu soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini rivojlantirishiga, shuningdek soliq organiga ishonchni oshirishga va soliqlarni o‘z vaqtida to‘lanishiga sabab bo‘ladi;
- soliq ma’muriyatchiligining barcha jabhalarini raqamlashtirish davlat budjetiga soliq tushumlarini oshirishda va mamlakatda soliq qarzdorligi ulushini qisqartirishda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni.
2. Orlova M.E., Nasyrova V.I. and Salmina S.V. Tax debt and ways of reducing it. // 3C TIC. Cuadernos de desarrollo aplicados a las TIC. – 2019.
3. Vinoxodova I.G. (2019) Sovershenstvovanie praktiki vzыskaniya zadoljennosti organizaцiy po nalogam i sboram. // Nauchnoe statya.-c.22.
4. U.F. Hakimov. Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati 2023-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 423 va 439-moddalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020-yil.

MATLAB AMALIY DASTURIDA LIMITLARNI HISOBLASH

p.f.f.d (PhD). Halimov O‘ktam Haydarovich,
Raxmonova Manzura Yusuf qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
uktam-8719@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada matlab dasturidan foydalanib funksiya limitini hisoblash, chap va o‘ng limitlarni grafik asoslash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlari. Matlab, iqtisod, soha, talaba, ta’lim, matematika.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi va iqtisodiy sohalarda, hisob-kitob ishlarida raqamli texnologiyalaridan keng samarali foydalanib kelinmoqda. Birgina oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini misol qilib oladigan bo‘lsak tizimni zamonaviylashishi, shuningdek, oliygohlarning jamiyat va iqtisodiyotdagi o‘rni juda katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rishimiz mumkin. Bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislar iqtisoslik fanlar bilan bir qatorda aniq va tabiiy fanlarni yaxshi o’zlashtirishlari zarur. Biz bilamiz aniq va tabiiy fanlar jamiyatda kechayotgan jarayonlarni o‘rganish va tahlil etishda asosiy vositalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu vositalarning imkoniyatlaridan samarali va tez suratlar bilan foydalanishni kompyuter texnologiyalarining zamonaviy yutuqlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Matematika faniga ixtisoslashgan kompyuterli dasturlar buning yaqqol misolidir, shulardan MATLAB dasturiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Dastlab MATLAB boshqarish tizimlarini loyihalash (Djon Littlning asosiy mutaxassisligi) uchun mo‘ljallangan edi, lekin u tezlik bilan boshqa ilmiy va muhandislik sohalarida ham mashhur bo‘ldi. Undan ta’lim tizimida ham, xususan chiziqli algebra, matematik analiz va sonli usullarni o‘qitishda keng foydalanila boshladilar. MATLAB amaliy dasturi zamon talablariga mos bo‘lib bugungi kunda talabalarda bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishga yaqindan yordam beradi, dunyoqarash va tizimli fikrlashni shakllantirishga ko‘maklashadi.

MATLAB amaliy dasturi differensiallash va hosila hisobiga oid misollarni yechishda, yuqori tartibli hosilani yechish va chegaralarni hisoblashning turli usullarini taqdim etadi. Eng muhimi, murakkab funksiyalarning hosilasini yechish orqali uning grafigini yasash mumkin. Bundan tashqari funksiya max va min qiymatlarini aniq ko‘rsatish mumkin. MATLABda limitlar xossalarini tekshirishni muhokama qilamiz.

Eng asosiysi MATLAB limit buyrug‘i bilan ifodani argument sifatida qabul qiladi va mustaqil o‘zgaruvchining nolga aylanishi bilan argument limitini aniqlaydi.

Masalan, f(x) = $(x^3+5)/(x^4+7)$ funksiyaning chegarasini hisoblaymiz, bunda $x \to 0$ shart qo‘yamiz.

```
>> syms x
>> limit((x^3 + 5)/(x^4 + 7))
ans =5/7
```

Chap va o‘ng tomonli limitlar.

Agar funksiya o‘zgaruvchi ma'lum bir nuqtada uzilishga ega bo‘lsa, bu nuqtada limit mavjud emas. Boshqacha qilib aytganda, f(x) funksiyaning limitlari x = a da

uzilishga ega bo‘ladi, bunda limit qiymati x ga chap va o‘ng tomondan yaqinlashganda, limit qiymatiga teng bo‘lmaydi.

Bu chap tomon va o‘ng tomon limitlari tushunchasiga olib keladi. Chap tomon limit chapdan $x \to a$, ya'ni x a ga intilganda $x < a$ qiymatlari uchun limitik nuqta topiladi. O'ng tomon limiti $x \to a$, o‘ngdan, ya'ni x a ga intilganda $x > a$ qiymatlari uchun limitik nuqtasi topiladi. Chap tamon limiti va o‘ng tomon limiti teng bo‘lmasa, limiti mavjud emas.

Misol tariqasida quyidagi funksiya limitini ko‘rib chiqamiz:


$$\lim_{x\to 3}(x-3)/|x-3|$$

Biz $\lim_{x\to 3} f(x)$ mavjud emasligini ko‘rsatamiz. MATLAB dasturi bizga bu misolni ikki yo‘l bilan bajarishga yordam beradi:

1)Funksiya grafigi x=3 nuqtada uzilishga ega. 2) o‘ng va chap limitlarni hisoblash jarayonida bir xil emasligini ko‘rsatish orqali.

Limit buyrug‘iga "chap" va "o‘ng" belgilar qo‘yish orqali chap va o‘ng tamon limitlarini argument sifatida hisoblaydi.

```
>> syms x
>> f = (x - 3)/abs(x-3);
>> ezplot(f,[-1,5])
>> l = limit(f,x,3,'left')
l =
-1
>> r = limit(f,x,3,'right')
r =
1
```



1-rasm. MATLAB dasturida o‘ng va chap tomon limitlar

Umuman olganda MATLAB dasturi matematikaning rivojlanishi davomida to‘plangan matematik hisoblashlar bo‘yicha tajribani o‘zida mujassamlashtirgan va uni grafik vizuallash, animasiya vositalari bilan uyg‘unlashtirilgan. MATLAB dasturi fan va texnikaning eng yangi yo‘nalishlari bo‘yicha ham juda kuchli opsrasion muhit bo‘lib xizmat qila oladi va natijalarni yuqori darajada vizuallashtirish imkoniyatlariga egaligi bilan xarakterlanadi. O’zbekistonda MATLAB dasturi o‘zining hisoblashlar va natijalarni vizuallash bo‘yicha yuqori samaradorligi bilan mashhur.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dyakonov V. P., Abramenkova I. V., Kruglov V. V. MATLAB 5 s paketami rasshireniy. – M.: Nolidj, 2001
2. Dadajonov, M.Muhitdinov MATLAB asoslari.-T.”Fan” nashriyoti.2008
3. Axberdiyeva O. M. et al. IQTIOSODIY-MATEMATIK MODELLASHTIRISH ASOSLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 7. – С. 145-149.
4. Axberdiyeva O. M. et al. ILMIY TADQIQOT ISHINI OLIB BORISHDA MODELLASHTIRISH ASOSLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 7. – С. 150-155.
5. Halimov O. et al. TEXNIK MUHANDISLAR VA BO ‘LAJAK MUHANDIS TALABALARNING MATEMATIK KOMPETENTLIK DARAJASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 725-732.
6. Халимов У., Якубхонова М. Murakkab matematik masalalarni bajarishda “MAPLE” amaliy dasturidan foydalanish //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 202-205.
7. http://www.lephanpublishing.com/MatlabCsharp.html
http://www.lephanpublishing.com/MATLABBookCplusplus.html

GRAFIKLI MATEMATIK MASALALARNI YECHISHDA MAPLE DASTURIDAN FOYDALANISH

Hamdamov Foziljon Rustamjon o‘g‘li,
S. Sa’dullayeva
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada murakkab matematik masalalarning grafikli yechimini topishda matematik tizimlardan foydalanish ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlari. Maple, plot, kompetentlik , loyihalashtirish, grafik.

Bugungi kunda matematik dasturlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni va roli ancha sezilarli va samaraliroqdir. Talabalarda matematik tizimlardan foydalanish ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish matematika va informatika fanlarining asosiy maqsadlaridan biridir. Ayniqsa biror loyihani bajarishda yoki foyfali madelni

yaratishda albatta unu nazariy jihatdan o'rganamiz, taxlil qilamiz va tajribada sinab ko'ramiz. Nazariy jihatdan uni yaratishda jarayonida murakkab matematik masalalarga duch kelamiz. Murakkab matematik masalalarni yechish jarayonida bazi qiyinchiliklarg yo'limizda paydo bo'ladi. Ushbu jarayonda biz matematik tizimlarga murojat qilsak ishimiz osonlashadi. Matematik tizimlarning turlari bukungi kunda keng ommalashgan bo'lib, ulardan Maple amaliy dasturiga qisqacha to'xtalib o'tamiz [1-4].


Maple kompyuterda analitik va sonli hisoblashlarni bajaruvchi, 2000 dan ko'proq komandalarni o'z ichiga olgan va algebra, geometriya, matematik analiz, differensial tenglamalar, diskret matematika, fizika, statistika, matematik fizika masalalarini dastur tuzmasdan yechish imkoniyatini beruvchi matematik tizim paketidir. Birgina Maple grafik prosessori - grafiklar yaratish va uni taqdimot qilish imkoniyatini beradi. Grafik prosessor foydalanuvchini grafik vositalarining eng qulay va sodda imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. Foydalanuvchi oddiy funksiyalarning grafigini tizimli amalga oshirishi mumkin. Tradision ko'rinishdagi grafiklar bilan birgalikda qutb grafiklari, fazoviy grafiklar, vektorli maydon grafiklari va hokozolarni ham oson yasash mumkin. Matematik masalalarni grafigini yaratishda Maple dasturining plot- buyrug'idan foydalanamiz [5-8].

Misol uchun bir o'zgaruvchili *f(x)* funksiyaning grafigini chizish uchun (*Ox* o'qi bo'yicha $a \le x \le b$ intervalda va *Oy* o'qi bo'yicha $c \le y \le d$ intervalda) quyidagi komanda ishlatiladi. **plot(f(x), x=a..b, y=c..d, parameters). Parameters** – chizmani boshqarish parametri. Agar bu parametrlar berilmasa, u holda to'g'ridan to'gri parametrlar qabul qilinadi. Uskunalar panelidan foydalangan holda chizmaning holatini belgilash mumkin. Asosan plot buyrug'i quyidagi funksianallikga ega, ya'ni 1) **title= "text",** bu yerda **text** – chizmaning sarlavhasi (tekstni qo'shtirnoqsiz ham yozish mumkin, agarda u faqatgina lotin harflaridan iborat va probelsiz bo'lsa), 2) **coords=polar –** maydon koordinatalarining qo'yilishi, 3) **axes** – koordinata o'qlari tipining qo'yilishi: **axes=NORMAL** – oddiy o'qlar; **axes=BOXED** – grafik masshtabli ramkada; **axes=FRAME** – markazi rasmning chap tomondan pastda joylashgan o'qlar; **axes=NONE** – o'qlarsiz, 4) **scaling** – rasm masshtabining qo'yilishi: **scaling=CONSTRAINED** – o'qlar bo'yicha bir xil masshtabda; **scaling=UNCONSTRAINED** – oynaning o'lchamiga qarab grafik masshtablanadi, 5) **style=LINE(POINT)** – chiziqlarda chiqarish (yoki nuqtalarda), 6) **numpoints=n** – grafikning aniqlangan nuqtalar soni, 7) **solor** – chiziq rangining qo'yilishi: ranglarning inglizcha talqin qilish kerak, masalan, **yellow** – sariq va h.k, 8) **xtickmarks=nx** va **ytickmarks=ny** – *Ox* va *Oy* o'qlarida belgilashlar sonini bildiradi, 9) **thickness=n,** bu yerda **n=1,2,3…** – chiziq qalinligi, 10) **linestyle=n** – chiziq tipi: uzluksiz va h.k. (**n=1** – uzluksiz), 11) **symbol=s** – simvol tipi, u quyidagi nuqtalarni o'z ichiga oladi: **BOX, CROSS, CIRCLE, POINT, DIAMOND**, 12) **font=[f,style,size]** – tekstni kiritish uchun shrift turini tanlash: **f -** shrift nomini so'raydi: **TIMES, COURIER, HELVETICA, SYMBOL; style –** shrift stilini so'raydi: **BOLD, ITALIC, UNDERLINE; size** – pt. da shrift o'lchami, 13) **labels=[tx,ty]** – koordinata o'qlari bo'yicha yozuvlar: **tx** – *Ox* o'qi bo'yicha va **ty** – *Oy* o'qi bo'yicha, 14) **discont=true** – uzluksiz uzilishlarning uzilishini bildiradi va h.k.

Mapleda y=f(x) funksiyaning grafigini chizshni ko‘rib chiqamiz. Buinda **y=y(t), x=x(t)** parametrik ko‘rinishda berilgan funksiyaning grafiklari sifatida qaraymiz:


Misol. $y = \frac{\sin x}{x}$ funksiyaning grafigini -4π dan 4π gacha bo‘lgan intervalda qalin chiziq bilan chizish:

>plot(sin(x)/x,x=-2*Pi..4*Pi, labels=[x,y],labelfont=[TIMES,ITALIC,12], thickness=2);



2-Misol $y = \frac{x}{x^2 - 1}$ birinchi tur uzlishga ega bo‘lgan funksiyaning grafigini chizish:

> plot(x/(x^2-2),x=-3..3,y=-3..3,color=red);



Demak Maple amaliy dasturida yaratilgan grafiklarni tez-tez o’zgartirish, ularga matnli yozuvlar qo‘shish va chizmani hujjatning ixtiyoriy joyiga ko’chirish imkoniyati mavjud ekan. Umuman olganda Maple gragikasi loyiha ishlarini bajarish jarayonida grafik va murakkab matematik hisoblashlarni tushunishni yengillashtirishini ko‘rishimiz mumkin ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. D.F.Mironov “Kompyuternaya grafika v dizayne” Peterburg, 2008

2. Нуралиев Т. Issiqlik o ‘tkazuvchanlik tenglamasi uchun ayirmali sxemalar //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 193-197

3. Turakulov O., Mamanov S. MAIN FUNCTIONS OF PROFESSIONAL TEACHING OF MATHEMATICS IN VOCATIONAL SCHOOLS //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 94-102.

4. Klara X. et al. MURAKKAB TUZILISHDAGI ARALASH MAKSIMUMLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMALARI UCHUN CHEGARAVIY SHART //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 5. – С. 34-40.

5. Рабимкул А. и др. ВОССТАНОВЛЕНИЯ ЯДРО СПЕКТРАЛЬНОЙ МЕРЫ ОПЕРАТОРА ДИРАКА ПО НЕТОЧНЫМ СПЕКТРАЛЬНЫМ ДАННЫМ //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 258-262.

6. Алимов С., Холманова К. Matematika fanini o ‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 565-569.

7. .Yuldashev T., Holmanova K. NONLINEAR FREDHOLM INTEGRO-DIFFERENTIAL EQUATION WITH DEGENERATE KERNEL AND NONLINEAR MAXIMA //Журнал математики и информатики. – 2021. – Т. 1. – №. 3.

8. .Baxtiyor P. et al. BA’ZI BIR MUHIM XOSMAS INTEGRALLARNI HISOBLASHDA FRULLANI FORMULASIDAN FOYDALANISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 363-367.

ZAMONAVIY ALGORITMLARDA TURING MASHINASI ALGORITMIDAN FOYDALANISH

Irgasheva Umida Abdimital qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Iskandarova Ziyoda Abdumajidovna
Jizzax Politexnika instituti
Xudoyshukurova Ruxsora Shuxrat qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
irgashevaumida1997@gmail.com

Annotatsiya. Turing mashinasi matematik model sifatida kompyuter ilovalarini yaratish, qidiruv algoritmlarini tashkil etish, optimallashtirish masalalari va sun’iy intellekt algoritmlarini ishlab chiqishning asosini tashkil qiladi. Raqamli iqtisod va innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ushbu jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etish hamda o‘rganuvchiga algoritmini tushuntirishda Turing mashinasidan foydalanish to‘g‘ri yo‘ldir.

Kalit so‘zlar. Turing mashinasi, matematik model, algoritm, lenta, qidiruv algoritmlari, optimallashtirish, sun’iy intellekt.

Zamonaviy algoritmlarda Turing mashinasi (TM) algoritmlarning o‘rni katta ahamiyatga ega. Turing mashinasi 20-asrning eng qiziqarli va hayajonli intellektual kashfiyotlaridan biridir. Bu hisoblashning oddiy va foydali mavhum modeli (kompyuter va raqamli) bo’lib, har qanday kompyuter vazifasini amalga oshirish uchun etarlicha umumiydir Uning asosiy qurilmasi lenta, boshqaruvchi qurilma va sanashni qayd etuvchi uchidan iborat. Lenta hujayralarga bo’linadi va har bir lahzasidagi har bir katakka tashqi alfavitdan belgilar yoziladi. Boshqaruvchi qurilma esa har bir vazifa sinfi uchun muhim holatlar va amallarni topadi. Sanashni qayd etuvchi uchi esa mashina ishlash paytida bo’sh hujayralarda yangi katakchalar qo’shilishi mumkin Turing mashinasi cheksiz hotiraga ega hayoliy mashinadir. Ushbu model Turing tomonidan 1936-yilda ishlab chiqilgan va kompyuter ilovalarini yaratishda keng qo‘llanilgan. Hozirda Turing mashinasi algoritmlari quyidagi yo‘nalishlarda foydalanilmoqda:

-Qidiruv algoritmlari: Turing mashinasi qidiruv algoritmlarini o‘rganishda asosiy modeldir. Qidiruv algoritmlari, ma’lumotlarni topish va filtratsiya qilish uchun juda muhimdir. Bu algoritmlar ma’lumotlar bazasida kerakli ma’lumotlarni topish uchun ishlatiladi. Qidiruv tizimlari, kompyuterda, kompyuter tarmog‘ida yoki butunjahon web tarmog‘ida World Wide Web saqlanayotgan ma’lumotlarni qidirishga mo‘ljallangan dasturdir. Bu tizimlar foydalanuvchining qidiruv so’roviga javoban qaysi veb-sahifalarni qaytarishi kerakligini aniqlash uchun foydalanadigan qoidalar, ko’rsatmalar yoki murakkab hisoblar to’plamidir. Misol uchun, Google qidiruv tizimining algoritmi qidiruv natijalarida qanday veb-sahifalar paydo bo’lishi kerakligini aniqlash uchun veb-sahifadagi kontentning dolzarbligi va unga qancha boshqa veb-saytlar bog’lanishi kabi yuzlab omillarni hisobga oladi. Turing mashinasi esa matematik asosida tuzilgan abstrakt avtomat modelidir. Ushbu model, algoritmlarni tushuntirish va tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo’lgan asosiy konseptlardan biridir. Shuningdek, ketma-ket qidiruv algoritmi ro‘yxatning saralanganligi ahamiyatga ega bo‘lmasa-da, lekin saralangan ro‘yxatda eng yaxshi natijaga erishiladi. Bu algoritm, biror aniq elementni mavjud ro‘yxat elementlarini birma-bir qarab chiqish orqali qidirib topish masalasi hal qilinadi. [1]

-Optimallashtirish: Turing mashinasi optimallashtirish masalalari uchun ham muhimdir. Bu model, matematik masalalarni yechishda yordam beradi. Optimallashtirish usullari, Turing mashinasi yordamida yechiladi. Endi, Turing mashinasining optimallashtirishda ahamiyatini ko’rib chiqamiz:

1.Matematik masalalarni yechish: Turing mashinasi matematik masalalarni yechishda yordam beradi. Bu masalalar, matematik modellar va funksiyalar orasidagi optimallashtirishni o’rganishda muhimdir. Turing mashinasi, bu masalalarni yechish uchun algoritmni yaratishda asosiy model sifatida ishlatiladi.[2]

2.Algoritmlarni optimallashtirish: Turing mashinasi algoritmlarni optimallashtirishda ham muhimdir. Algoritmlarni tezroq va samarali ishlatish uchun optimallashtirish usullari Turing mashinasini asosiy model sifatida qabul qiladi. Bu kompyuter ilovalarini tezroq ishlatishga imkon beradi. [3]

- Sun’iy intellekt: Turing mashinasi sun’iy intellekt sohasida ham keng qo‘llaniladi. Uning asosiy vazifalari o‘zgaruvchan ma’lumotlarni qabul qilish va uni ishlab chiqishdir. Bu esa sun’iy intellekt algoritmlarini yaratishda muhimdir. Sun’iy

intellekt (SI) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi. Bu sohada kompyuter ilovalarini o‘rganish, optimallashtirish masalalari yechish, tabiiy tilni tushunish, o‘zini-o‘zi boshqaradigan avtomobillar va boshqalar kabi ko‘plab yutuqlar erishilgan. Alan Turing, sun’iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo‘lgan. 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan sun’iy intellekt, 2012-yilda chuqur o‘rganuv boshqa sun’iy intellekt metodlaridan ustunligini namoyon etganda hamda 2017-yilda transformer arxitekturasida erishilgan yutuqlar ortidan keskin ortgan.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Toxir Turg'un o'gli, A. (2023). C# DA FAYLAR ORQALI MA’LUMOTLARNI SARALASH VA FAYLLAR BILAN ISHLASH ALGORITMLARINING XUSUSIYATLARI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 139-141).

2. Maxammadi R., Umida I., Noyob U. BILVOSITA KUZATUVLARDAN HARORAT O‘ZGARISHINI QAYTA TIKLASH MUAMMOSI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 367-369.

3. Абдумаликов А. А. и др. МОДЕЛЬ И АЛГОРИТМЫ ПРОЦЕССА УСТРОЙСТВ КОНТРОЛЯ И МОНИТОРИНГА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЕМ //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 120-129.

4. Nasriddinovich, U. A. (2023). C# DA WEB KAMERA ORQALI QR KOD YASASH VA O ‘QISH TEXNOLOGIYASI. Journal of Integrated Education and Research, 2(4), 30-34.

5. Рустамов М. Ж., кизи Иргашева У. А. ЗАДАЧА ВОССТАНОВЛЕНИЯ СКОРОСТЬ ИЗМЕНЕНИЕ ТЕМПЕРАТУРЫ ПО КОСВЕННЫМ НАБЛЮДЕНИЯМ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 22-29.

6. Рустамов, М., & Иргашева, У. (2022). Задача наблюдаемоста в процессе диффузии. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1).

7. Искандарова З., Иргашева У. Цифровизация и образование для устойчивого развития //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 197-200.

8. Toxir Turg'un o'gli, A. (2023). O ‘RINLARNI ALMASHTIRISH USULLARI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 133-138).

9. Toxir, A., & Lobar, A. (2023). MOBIL ILOVALAR ORQALI YOSH BOLALARDA UCHRAYDIGAN NUTQ BUZILISHLARINI BARTARAF ETISH. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 906-911).

10. Jabborovich R. M. et al. BIR JINSLI BO ‘LMAGAN ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASINI FURYE (O ‘ZGARUVCHILARNI AJIRATISH) USULI YORDAMIDA YECHISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 79-84.

11. Nasriddinovich, U. A., & Xayriddin o‘g‘li, E. F. (2023). ELEKTRON FITNESS KLUBINING DASTURIY TAMINOTINI YARATISH USLUBLARI. Journal of new century innovations, 26(4), 143-149.
12. Баратов, Ж. Р. (2021). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЕНЕТИЧЕСКОГО АЛГОРИТМА ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ ДИАГНОСТИКИ. Экономика и социум, (3-1 (82)), 458-464.
13 Norqo’ziyev , Q. (2023). MOBIL ROBOTLAR UCHUN YO’LNI REJALASHTIRISH ALGORITMI. Research and Implementation. извлечено от https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/746
14. Норкозиев, К., & Тоджиев, А. (2023). Использование искусственных нейронных сетей при разработке алгоритма поиска оптимального пути мобильных роботов в динамических средах. Информатика и инженерные технологии, 1(1), 25–29. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25025
15. Тоджиев, А., & Норкузиев, К. (2023). The role of artificial intelligence technology in individualized teaching . Информатика и инженерные технологии, 1(2), 153–156. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25014

BELGILANGAN RAQAMLI RANGLARNI HOSIL QILISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYASI

Matkarimova Dilnoza Baxodirovna,
PhD, dots. Islamova Zulayho Shuxratovna,
t.f.d., prof. Nabiyeva Iroda Abdusamatovna,
Abdugapporova Farida Shodibek qizi,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
niroda@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada 58% gacha rangsizlantirilgan sof jun mato namunasida aktiv bo’yovchi modda – *(Setazol blue R Specil)* va *(Setazol Red)* bilan *OSBORN Textile* pantonida belgilangan – qizil – 6790/W56 va ko’k – 6801/W67 raqamli ranglarni past haroratda hosil qilish imkoniyatlari o’rganilgan.


Kalit so‘zlar: sof jun mato, raqamli ranglar, rang sifat ko’rsatkichi, past haroratli bo’yash

Jun asosida tayyorlanadigan to‘qimachilik mahsulotlarining qo‘llanilish sohasiga mos ravishda, uning morfologik xususiyati, ustmolekulyar strukturasi, fizik-mexanik va gigiyenik xossalarini ta’minlovchi kimyoviy pardozlash jarayonlari mavjud [1]. Raqamli bo’yash texnologiyalari orqali jun tolali matolarga yuqori intensivlikdagi mustaxkam ranglarni xosil qilish innovatsion xarakterga ega [2].

Tadqiqot ob’ekti sifatida yuza zichligi 118,3 g/m^2, qalinligi 0,53 mm, 58% gacha rangsizlantirilgan sof jun matosi olingan. Aktiv bo’yovchi moddalar *(Setazol blue R Specil)* va *(Setazol Red)* bilan jun matosini bo’yash quyidagi texnologik ketma-ketlik

bo‘yicha amalga oshirildi: mato massaga nisbatan 3% bo‘yovchi modda, 2 g/l dan sirka kislotasi va ammoniy sulfat bo‘lgan eritmada 40^0C haroratda 40 daqiqa davomida ishlov berish, 100% darajada siqish, (och ranglar hosil qilish uchun quritish), ammoniy gidroksidning (25%-li) pH=9 ga teng bo‘lgan eritmasida 30 daqiqa ishlov berish. Jarayon tugagach namunalar 80^0C haroratdagi texnik yuvish vositasi eritmasida 10-15 daqiqa davomida yuviladi. So‘ngra issiq va sovuq suvda namunalar yuvilib, quritiladi.

Mato namunalarini bo’yash uchun *OSBORN Textile* pantonida belgilangan raqamdagi qizil – 6790/W56 va ko’k – 6801/W67 ranglar *Color Focus-3 DLF-72S* laboratoriya jixozida belgilangan ranglarni xosil qilishning koloristik xarakteristikalari o‘rganildi. Aktiv bo’yovchi modda bilan bo‘yalgan sof jun tolali matolarning rang xarakteristikalari D_{65} standart nurlanishda *X-ride* spektrokolorimetrida aniqlandi. Rang xarakteristikalarni sistemalashtirish uchun rang doira sistemasi va L.a.b. rang modelidan foydalanildi (1-rasm).



Geografik koordinatalar – kenglik, uzunlik va balandlik kabi L*, a * i b * rang qiymatlari rangni qaerda joylashgani va u xaqidagi ma’lumotni beradi.

*C** - rangning to‘yinganligini, *h* - rang tusini, *a** va *b** rang koordinatalari (*a**-qizil yoki yashil, *b** - sariq va ko‘k ranglar) majudligini bildiradi.

1-rasm CiE Lab rang maydon modeli [3]


Barcha namunalarning rang sifatlari 360 nm to‘lqin uzunlikda aniqlandi, olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Bo’yalgan namunalarni *Osborn Textile Pantone*dagi rang koloristik ko’rsatkichlariga bo’lgan qiyosiy natijalari

Namunalar	Koloristik ko’rsatkichlari			
	C*	h*	a*	b*

Osborn Textile Pantoni – qizil 6790/W56	66,06	30,69	22,21	21,18
Setazol Red bilan bo'yalgan namuna	67,16	29,68	21,46	21,09
Osborn Textile Pantone– ko'k 6801/W67	58,06	18,89	10,06	15,98
Setazol blue R Specil bilan bo'yalgan namuna	59,18	18,52	10,75	15,82

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar namunalarning koloristik ko'rsatkichlarini *Pantone*da belgilangan raqamdagi koloristik qiymatlardan Setazol Red rangning to'yinganligi – 1,1, qizil yoki yashil rangning qiymati - 0,75, sariq va ko'k rang - 0,09 ga ega ekanligi, Setazol blue R Specilda rangning to'yinganligi – 1,12, qizil yoki yashil rangning qiymati - 0,69, sariq va ko'k rang - 0,16 ko'rsatkich bilan farqlanayotganligi bilan namoyon bo'lgan. Bo'yash jarayonining asosiy sifati rang tusi qiymatlari bilan bog'liq bo'lib, Setazol Red *h* – 1,01 %, Setazol blue R Specil *h* – 0,37 % ko'rsatkich farqi bilan namoyon etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich orqali raqamli rang intensivligini belgilash mumkin. Sof jun matoning spektral qaytarish koeffitsentiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2- rasm. Bo'yovchi modda konsentratsiyasining mato rang intensivligiga ta'siri. a - (Setazol blue R Specil) bilan bo'yash jarayoni natijalari b - (Setazol Red) bilan bo'yash jarayoni natijalari

Setazol Red bilan bo'yalgan namunalarning rang to'yinganlik darajasi sof jun matolarida - a* dan +a*, Setazol blue R Specil bilan +b* dan - b* rang maydonida markaziy o'qga yaqinlashganiligini bildiradi, ya'ni bunda sof jun matolarini rang tozaligi ortib borib, eritmada bo'yovchi modda konsentratsiyasi mato massasiga nisbatan 3% bo'lganida egri chiziqning *Y* o'q bilan bir nuqtada kesishishi va sistemada muvozanat vujudga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Khusniddin Ismoilov, Sachin Chauhan, Mingxing Yang, Islamova Zulaykho, Quan Heng. Preparation and Application of Anionic and Cationic Waterborne Polyurethanes and Graphene-Cellulose Nanocrystal as an Antistatic Agent for Cashmere // Scientific Research Publishing «Graphene» New York-2019, Oct. 8. – 19-31 p.p.
2. https://dormeuil.com/blogs/news/dyeing-wool-the-art-of-colouring-cloth-for-suits
3. Инструксия по ползованию. Kompyuter kolor matching system operation and maintenanse manual. Korea industrial technology ODA. 2012. P.79.

ANDROID ILOVALARINI XAVFSIZLIK XUSUSIYATLARI TAHLILI: SSO PROTOKOLI MISOLIDA

Jabbarov Nuriddin Akbarovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
nuriddinjabbarov2696@gmail.com

Annotatsiya. Uyali telefonlar odamlarning internetga kirishlari uchun asosiy yondashuvga aylanib borayotganligi sababli, odamlar o‘z mobil telefonlaridan foydalanayotganda xavfsizlik asosiy muammo hisoblanadi. Foydalanuvchilarning cookie-fayllari va hisobga olish ma’lumotlari kabi axborotlarni himoya qilish uchun samarali izolyatsiya mexanizmlariga ega bo‘lgan veb-brauzerdan farqli o‘laroq, Yagona kelib chiqish siyosati (SOP) Android ilovalarini ishlab chiquvchilar izolyatsiya mexanizmini o‘zlari amalga oshirishlari kerak. Ushbu maqolada Facebook SDK yordamida Yagona tizimga kirish (SSO) xizmatini taqdim etuvchi ilova tahlil qilingan. Ilovadan olingan tarmoq trafigi rasmiy modellarni yaratadi va rasmiy modellarning belgilangan xususiyatlarini tekshirish uchun Proverif tekshirgichidan foydalaniladi. Tahlildan so‘ng SOPni buzadigan bitta zaiflik aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Yagona kelib chiqish siyosati (SOP), Yagona tizimga kirish (SSO), Android operatsion tizimi, identifikatsiya provayderida (IdP), xizmat ko‘rsatuvchi provayder (SP), Facebook SDK, Droidsafe, Proverif tajovuzkor modellar.

Hozirgi kunda axborot xavfsizligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompaniyalar, hukumatlar va harbiylar turli sabablarga ko‘ra internetga ulanadi, masalan, jamoatchilikka ma’lum xizmatlarni taqdim etish, sheriklar bilan hamkorlik qilish va o‘z xodimlariga masofadan ishlashga ruxsat berish va hokazo. Biroq, ular internetga ulanganda, dushmanlar o‘zlarining ichki tarmoqlariga kirishlari va zaifliklar mavjud bo‘lsa, shaxsiy ma’lumotlariga kirishlari mumkin bo‘lgan kirish yo‘llarini ham ochib berishadi. Mobil qurilmalar orqali internetga ulangan shaxs haqida gap ketganda ham xuddi shunday holat. Shaxsiy ma’lumotlarning sizib chiqishi jiddiy muammolarga hattoki moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin [1], [2].

Android operatsion tizimi eng ommabop mobil operatsion tizimga aylandi, ammo Android ilovalari o‘ylaganchalik xavfsiz emas. Zaifliklar va tahdidlar

o‘rnatilgan Android ilovasi protokolidagi nuqsonlardan [3], ilovalarda protokollarni qo‘llashdagi xatoliklar va tushunmovchiliklar [4], ma’lum SDK lardan foydalanishdagi tajribaga ega bo‘lmaslik [5] va hatto Android operatsion tizimining o‘zidan kelib chiqishi mumkin [6], [7].


Ko‘pgina zaifliklar aslida dasturga muvofiqdir. Shuning uchun, Android ilovalarining xavfsizlik darajasini oshirish uchun ularni aniq amalga oshirishning xavfsizlik xususiyatlarini o‘rganish juda muhimdir.

Ushbu maqolada o‘zimizning davom etayotgan tadqiqot loyihamizning dastlabki natijalarini asosan ikkita tahliliy usul bilan taqdim etamiz: Yagona tizimga kirish (SSO) xizmatini taqdim etuvchi Android ilovalarining rasmiy tahlili va Android ilovalarida axborot oqimining sizib chiqishining dastlabki tahlili.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan tobora ko‘proq veb-saytlar paydo bo‘ladi va ular foydalanuvchilarning ma’lumotlarini yozib olishni talab qiladi. Foydalanuvchilar ushbu veb-saytlarning xizmatlaridan foydalanishdan oldin ro‘yxatdan o‘tishlari kerak. Biroq, foydalanuvchi qanchalik ko‘p akkauntga ega bo‘lsa, foydalanuvchi yangi hisoblarni ro‘yxatdan o‘tkazishni shunchalik istamaydi, chunki bu turli veb-saytlarda turli hisoblarni boshqarish xarajatlarini oshiradi. Shu sababli, foydalanuvchi o‘zining turli hisoblari uchun bir xil paroldan foydalanishi mumkin. Shunga qaramay, bu muqarrar ravishda bitta parolning buzilganligi uning boshqa veb-saytlardagi identifikatorlarini xavf ostiga qo‘yadi. Buzg‘unchi hujum yordamida foydalanuvchining boshqa hisoblarini buzishga urinishi mumkin. Agar foydalanuvchi oddiy paroldan foydalansa, bu vaziyatni yanada kuchaytiradi.

SSO va Facebook-ning Androidda amalga oshirilishi

Oddiy SSO tizimga kirish jarayoni 1-rasmdagi kabi ishlaydi.



1-rasm. SSO tizimga kirish jarayoni

Bu SSO tizimiga muvaffaqiyatli kirishning umumiy jarayoni. Biroq, turli SSO dasturlarida tafsilotlar boshqacha bo‘lishi mumkin.

1) Birinchidan, foydalanuvchi IdPda o‘z identifikatori bilan SPga kirish uchun so‘rov yuboradi.

2) SP foydalanuvchi o‘zini da’vo qilgan shaxs ekanligini isbotlash uchun IdP dan kirish tokenini taqdim etishini talab qiladi. SP foydalanuvchini IdP ga yo‘naltiradi.

3) Foydalanuvchi IdP-ga kiradi va IdP-dan unga kirish tokenini yaratishni so‘raydi.

4) IdP foydalanuvchini yaratilgan kirish tokeni bilan SP ga qayta yo‘naltiradi.

5) Foydalanuvchi SP ga kirish tokenini taqdim etadi. SP kirish tokenini IdP bilan tekshiradi va foydalanuvchini tizimga kiritadi.

2-rasmda Android tizimida Facebook SSO login protokolining amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Qisqartirish uchun foydalanuvchi 2-rasmda ko‘rsatilmagan va

foydalanuvchi tizimga kirish tugmasini bosish yoki foydalanuvchi hisob ma’lumotlarini kiritish kabi kerak bo‘lganda Android bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

1) SP va SP ga kirish uchun foydalanuvchi so‘rovlari Facebook SDK ga foydalanuvchi kirish tokenini so‘rab so‘rovni boshlaydi.


2) Facebook SDK so‘rovni Facebook serveriga o‘zining Facebook akkaunti identifikatori foydalanuvchi hisob ma’lumotlari bilan yuboradi.

3) Facebook serveri foydalanuvchining hisob ma’lumotlarini tekshiradi va muvaffaqiyatli tekshirishdan so‘ng cookie-fayllar foydalanuvchiga SP foydalanuvchining Facebook akkauntiga qanday ma’lumotlarga kirishini ko‘rsatuvchi shakl bilan qaytariladi.

4) Foydalanuvchi avtorizatsiyaga rozilik beradi.

5) Facebook kirish tokenini yaratadi va uni Facebook SDK-ga qaytaradi.

6) Facebook SDK SP ga kirish tokenini yetkazib beradi va SP foydalanuvchini tizimga kiritadi.



2-rasm: Odatda SSO tizimga kirish jarayoni

Taklif etilayotgan usul tavsifi

Facebook SSO joriy etilishini rasman tekshirish uchun uni amalga oshirishdan oldin protokolning rasmiy modelini yaratishi kerak.

Asosan, tahlil to‘rt bosqichdan iborat. Ular protokolni olish bosqichi, protokolni modellashtirish bosqichi, tekshirish bosqichi va yakuniy natijalarni tahlil qilish bosqichi. Har bir bosqichda artefaktlar yaratiladi va artefaktlar keyingi bosqichda kirish sifatida ishlatiladi. Xavfsizlik bo‘yicha tahlilchi modeldagi mumkin bo‘lgan zaifliklarni aniqlash va tasdiqlash uchun yakuniy bosqichda yaratilgan artefaktlarni qo‘lda tahlil qilishi kerak.

1) Protokolni chiqarish: Facebook SSO protokolini qanday amalga oshirishini hujjatlashtirmaganligi sababli, rasmiy modelni to‘g‘ri yaratish uchun Facebook SDK va Facebook serveri o‘rtasida nima uzatilishini va uzatilgan xabarlarning semantikasini tushunish kerak. Ushbu ma’lumotlarni bilish uchun Facebook SDK ning statik tahlili o‘tkaziladi, uning manba kodini qo‘lda tekshiradi va kirish jarayonida SDK nima qilishini va SDK SP va Facebook serveri bilan qanday bog‘lanishini tushunish uchun. Keyin, protokolni dinamik ravishda ishga tushirish orqali Facebook SDK va Facebook serveri o‘rtasidagi tarmoq trafigini ushlaydi. Shundan so‘ng, ortiqcha xabarlar va

parametrlarni olib tashlash orqali olingan tarmoq trafigini modellashtirish jarayonining qulayligi uchun tozalanadi.

2) Protokolni modellashtirish: Oldingi bosqichda olingan takomillashtirilgan protokol bilan muallif rasmiy modelni yozilgan Pi-hisobida quradi, bu Proverif [9] da qo‘llaniladigan modellashtirish tili bo‘lib, rasmiy modelni tanlovini tekshiradi. Ushbu bosqichdagi asosiy to‘siq - bu aniq amalga oshirish va yuqori darajadagi model namoyishi o‘rtasidagi bo‘shliq.

Ushbu muammoni yengillashtirish uchun avval intuitiv ravishda aniqlangan protokolni Pi-hisobiga yaqin bo‘lgan oraliq tasvirga aylantiradi. Asosiy modelga asoslanib, model ustidagi to‘rt xil tajovuzkorni taqdim etadi va tekshirilishi kerak bo‘lgan xususiyatlarga ega to‘rtta rasmiy modelni oladi. Birinchi tajovuzkor modeli - bu tajovuzkor aloqa kanalida, ya’ni tarmoqda tinglaydigan tarmoq hujumchisi, ikkinchisi zararli SP bo‘lib, u foydalanuvchiga xizmatlarni taqdim etadi va foydalanuvchilarga IdPda o‘z identifikatorlari bilan kirishga imkon beradi, uchinchi va to‘rtinchisi tizimdagi zararli dastur bo‘lib, ular faqat tizimdagi zararli dastur ildiz huquqini qo‘lga kirita oladimi yoki yo‘qligi bilan farqlanadi. Xavfsizlik tahlilchisi tomonidan ushbu to‘rtta tajovuzkor modelida aniqlangan xususiyatlar protokol xavfsizligi va foydalanuvchi maxfiyligiga eng mos keladigan autentifikatsiya xususiyati, avtorizatsiya xususiyati va maxfiylik xususiyatini o‘z ichiga oladi.

3) Tekshirish va tahlil: Oxirgi bosqichda olingan aniqlangan protokolning to‘rtta rasmiy modeli ushbu bosqichda xavfsizlik tahlilchisi tomonidan belgilangan xususiyatlar bilan tekshirilishi kerak bo‘lgan kirishlar sifatida ishlatiladi. Tekshiruvdan so‘ng Proverif modellar uchun tekshirish hisobotlarini yaratadi. Hisobotlarni tekshirish orqali xavfsizlik tahlilchisi tekshirilayotgan xususiyatlarning buzilishini va protokolning mumkin bo‘lgan zaifliklarini aniqlaydi. Agar shunday bo‘lsa, xavfsizlik bo‘yicha tahlilchi haqiqiy dunyo qurilmasiga hujumlarni qayta tiklaydi.

Tekshirish natijalari

Tasdiqlash jarayoni tugagandan so‘ng Proverif to‘rtta tajovuzkor modeli uchun tekshirish hisobotlarini yaratadi. Avtorizatsiya xususiyatlaridan faqat bittasi to‘g‘ri, ikkinchisi noto‘g‘ri yoki isbotlanmaydi. Tasdiqlangan modellar shuni ko‘rsatadiki, barcha tajovuzkor modellarida Facebook serveri avtorizatsiya jarayonini “foydalanuvchi” ning xohishiga ko‘ra tugatadi, xoh u haqiqiy foydalanuvchi bo‘ladimi, xoh foydalanuvchining hisob ma’lumotlarini buzgan va o‘zini shu foydalanuvchi sifatida ko‘rsatayotgan tajovuzkor bo‘ladimi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ba’zi hollarda SP uchun takroriy hujum bo‘lishi mumkin. Biroq, bu tarmoq aloqasida keng tarqalgan *https* protokoli tufayli real dunyoda zaiflik emas va bu modellarni tekshirish natijalarida noto‘g‘ri ijobiydir.

Tarmoq tajovuzkori va tizimdagi zararli dastur uchun ildiz huquqiga ega bo‘lmagan tajovuzkor modellari uchun foydalanuvchi Facebook serveridan kiritgan va qaytargan barcha sirlar xavfsizdir, maxfiylik xususiyatlarining barchasi haqiqat ekanligi isbotlangan. Chunki tarmoq tajovuzkori uchun, tajovuzkor kanalni tinglashi mumkin bo‘lsa-da, lekin kanal shifrlanganligi sababli, u xabarlarni parolini hal qila olmaydi yoki soxtalay olmaydi. Ildiz huquqiga ega bo‘lmagan zararli dastur uchun u boshqa ilovalarning shaxsiy ma’lumotlariga kira olmaydi, shuning uchun u foydalanuvchi va Facebook serveridan sirlarni ololmaydi. Zararli SP tajovuzkor

modeliga kelsak, foydalanuvchi kiritilgan barcha hisob ma’lumotlari o‘g‘irlanishi va maxfiylik xususiyatlarining barchasi yolg‘on ekanligiga shubha yo‘q.

Ildiz huquqiga ega zararli dastur natijasida foydalanuvchining hisob ma’lumotlari xavfsiz ekanligi isbotlangan, maxfiylik xususiyatlari to‘g‘ri isbotlangan, Facebook serveridan qaytarilgan hisob ma’lumotlari esa xavfsiz emas. Bu, aslida, Yagona Origin Siyosatini (SOP) [10] buzganligi sababli amalga oshirishning katta kamchiliklarini ochib beradi. Kirish tokenini SP ning shaxsiy xotirasida saqlash oqilona bo‘lsa-da, lekin Facebookga tegishli bo‘lgan Facebook cookie-fayllarini SP xotirasida saqlash to‘g‘ri emas, chunki bu SOPni buzadi.

Amalga oshirishning ushbu kamchiligini maqsad qilib, SP shaxsiy xotirasiga kira oladigan har bir kishi Facebook cookie-fayllarini o‘g‘irlashi va jabrlanuvchining Facebook akkauntiga kirish uchun brauzerda cookie-fayllardan foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S. Steiner, “The dangers of identity theft,” Aug 2013. [Online]. Available: http://goo.gl/ONKbLm

2. P. Oliver, “What’s most dangerous kind of identity theft?” Mar 2015. [Online]. Available: http://goo.gl/BXtoUP

3. R. Wang, S. Chen, and X. Wang, “Signing me onto your accounts through facebook and google: A traffic-guided security study of commercially deployed single-sign-on web services,” in S&P, 2012.

4. E. Y. Chen, Y. Pei, S. Chen, Y. Tian, R. Kotcher, and P. Tague, “Oauth demystified for mobile application developers,” in CCS, 2014.

5. R. Wang, Y. Zhou, S. Chen, S. Qadeer, D. Evans, and Y. Gurevich, “Explicating sdks: Uncovering assumptions underlying secure authentication and authorization.” in USENIX Security, 2013.

6. H. Bagheri, E. Kang, S. Malek, and D. Jackson, “Detection of design flaws in the android permission protocol through bounded verification,” in FM, 2015.

7. G. Bai, J. Sun, J. Wu, Q. Ye, L. Li, J. S. Dong, and S. Guo, “All your sessions are belong to us: Investigating authenticator leakage through backup channels on android,” in ICECCS, 2015.

8. C. Bansal, K. Bhargavan, and S. Maffeis, “Discovering concrete attacks on website authorization by formal analysis,” in CSF, 2012.

9. B. Blanchet, B. Smyth, and V. Cheval, “Proverif 1.86: Automatic cryptographic protocol verifier, user manual and tutorial,” INRIA Paris-Rocquencourt, LSV, ENS Cachan & CNRS & INRIA Saclay IIle-de-France, Paris, France, 2013.

10. M. Zelwski, “Browser security handbook, part 2,” 2011. [Online]. Available: https://goo.gl/Vi3dGO

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСОВ В ОБУЧЕНИИ ПРОГРАММИРОВАНИЮ НА ПЛАТФОРМЕ ARDUINO: МЕТОДИКА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Туракулов Олим Холбутаевич,
Жомуродов Дустмурод Мамасолиевич
Джизакский филиал Национального университета Узбекистана
dustmurod@jbnuu.uz

Аннотация: Работа посвящена разработке и оценке эффективности электронных образовательных ресурсов для обучения программированию на Arduino. Методика включает анализ литературы, создание интерактивных симуляций и применение технологий AR/VR. Оценка включает анализ успеваемости студентов, обратную связь и мониторинг тенденций. Результаты подтверждают практическую значимость электронных образовательных ресурсов и указывают на их перспективы в современном образовании.

Ключевые слова: Arduino, электронные образовательные ресурсы, программирование, методика создания, интерактивные симуляции, дополненная и виртуальная реальность, оценка эффективности

В современном образовании наблюдается растущий интерес к использованию электронных ресурсов в обучении, обусловленный постоянным развитием информационных технологий и их потенциалом для улучшения учебного процесса. Особое внимание уделяется разработке и применению электронных образовательных материалов для обучения программированию на платформе Arduino, популярной среди студентов и преподавателей. В данной работе представлена методика создания и использования таких ресурсов, включая анализ существующих исследований, разработку материалов и оценку их эффективности.

При разработке методики создания электронных образовательных ресурсов для обучения программированию на Arduino был проведен обзор существующей литературы. Анализировались академические статьи, публикации и практические исследования, посвященные использованию электронных ресурсов в образовании, а также методике обучения программированию на Arduino.

На основе обзора были выявлены ключевые аспекты, влияющие на эффективность обучения на Arduino с использованием электронных ресурсов, такие как структурирование учебного материала, выбор контентных форматов и методы оценки и поддержки обучения.

Методика создания электронных образовательных ресурсов включает следующие этапы:

1. Выбор платформы: определение подходящей платформы для создания и распространения ресурсов, такой как веб-сайт, онлайн-платформа для обучения или блог.

2. Структурирование материала: деление материала на логические блоки с описанием основных концепций, примерами кода и практическими заданиями.

3. Выбор форматов контента: определение эффективных форматов представления информации, включая текст, видео, интерактивные задания и симуляции.

Таким образом, разработанная методика создания электронных образовательных ресурсов обеспечивает систематизацию и эффективное использование материалов для обучения программированию на платформе Arduino. Она позволяет создавать качественные и доступные образовательные ресурсы, способствующие успешному усвоению материала студентами.

При использовании электронных образовательных ресурсов для обучения программированию на платформе Arduino, особенно в контексте симуляторов и технологий дополненной/виртуальной реальности (VR/AR), можно применять следующие методики [1]:

Интерактивные симуляции: Разработка интерактивных симуляций, позволяющих студентам в реальном времени взаимодействовать с виртуальными экземплярами платформы Arduino и эмулировать работу программ и цепей. Это помогает студентам понять принципы работы и проверить свои навыки программирования без физического доступа к реальным компонентам.

Qo‘chqarova Feruza Dilshod qizi,
Muhiddinova Yulduz Olim qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv muhitda kasbiy faoliyatga psixologik-pedagogik tayyorgarligini shakllantirish bo‘yicha ta’limda zamonaviy yo‘nalishlaridan foydalanish xususiyatlari tahlil etilgan. Shu bilan birga, ta’limda demokratiyaning zamonaviy tendentsiyalari, nostandart usullaridan foydalangan holda bo‘lajak pedagog va o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi muammosini rivojlantirish masalalari keltirilgan. Shu sababli, biz inklyuziv ta'lim fanlarini o‘rganishda, shuningdek ularning keyingi faoliyati uchun bevosita maktabgacha ta'lim muassasasida yoki boshlang‘ich maktabda foydalanishimiz mumkin bo‘lgan talabalarning kasbiy va shaxsiy fazilatlari darajasini oshirish uchun innovatsion texnologiyalar taklif etilgan

Kalit so‘zlar*:* Alohida yordamga muhtoj bolalar ,maktab,maxsus ta’lim, logoped, inklyuziv ta‘lim, nutq nuqsonlari, ehtiyoj.

Kirish. Inklyuziv ta’lim - nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (ba’zi sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. "Inklyuziv ta‘lim" atamasi fransuzcha “inclusif” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘z ichiga oladi” deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom, ya’ni sog‘ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta’limini anglatadi. Inklyuziv ta’limning mazmun mohiyati to‘g‘risidagi bilim va ma’lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo‘yilgan birinchi qadamdir. Integratsiyalashgan ta’lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar bolalarning ta’lim va tarbiyasiga bo‘lgan qarashlarning o‘zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga erta tashxis qo‘yish va ularga yordam ko‘rsatish davlat tizimi ilmiy o‘rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb bo‘lib bormoqda, buni biz mana shu missollarda ham ko‘rishimiz mumkun Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim oladi. Hozirda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda.

Shunga ko‘ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, psixologik va pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash zarur. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41- moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb belgilab qo‘yilganligi ham ta’lim sohasiga bo‘lgan ulkan e’tibordir. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta’limga bag‘ishlanganligi diqqatga sazovordir. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish 20-modda. Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etiladi. chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan. 2021/2022 o‘quv yilidan respublikamiz miqyosida umum ta’lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi. Inklyuziv ta’lim subyektlarini psixologik pedagogik qo‘llab-quvvatlash alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilari kamsitilmasdan sifatli ta’lim olish, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami ko‘rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi. Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalar:

- eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar); - ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar); - somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar); - nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish); - tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o‘sishining yetishmovchiligi — pakanalik); - aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar; - aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji), intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar, hulq-atvor va ruhiyatning qo‘pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar; - intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo‘lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda). Ushbu shaxslar uchun eng mos muloqot va ma’lum darajadagi va ma’lum bir yo‘nalishdagi ta’lim olish, shuningdek, ushbu o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, shu jumladan alohida ta’lim ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish orqali eng qulay bo‘lgan sharoitlarni yaratish lozimdir. Shunday qilib, inklyuziv ta’limni qo‘llabquvvatlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish ushbu ta’lim modelida tashkiliy, huquqiy, uslubiy axborot va kadrlar muammolarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

1. Maktab - Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga qamrab oladi va alohida ta’lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo‘naltirishda har tomonlama yordam ko‘rsatadi. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolani o‘ziga o‘xshagan nogironligi bo‘lgan bolalar emas sog‘lom bolalar bilan birgalikda ta’lim olishiga zamin yaratadi. Inklyuziv ta’lim haqida tushunchaga ega bo‘lgan otaonalarni endilikda inklyuziv ta’limda o‘qiydigan farzandi bo‘lgan oilalarga tashriflarini tashkil etish ota-onalar uchun uyushma yoki o‘z-o‘ziga yordam guruhini tashkil etishga yordam berish (telegram guruhlari) ta’lim jarayonida sinfdagi biror narsani tuzatishga yoki tuzishga yordam berish uchun otalarni taklif qilish; - maktab komissiyalari yoki yig‘ilishlarida ota-onalarning vakilligini ta’minlash ota-onalarga bolalar uchun sevimli mashg‘ulotlarni tashkil etishda yordam berish; - ota-onalarning o‘z huquqlarini himoya qilishlarini ta’minlash, qonunchilik va xizmatlar ko‘rsatishga ta’sir ko‘rsatadigan jamoat tashkilotlarining ishlariga jalb qilish.

2. Maktab direktori: Direktor qo‘llab-quvvatlash guruhining a’zosi. U dastur rejalarini tayyorlash, amalga oshirish va baholashni ta’minlaydi. Direktor o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, yordamchi hodimlarni ta’minlaydi, talabga muvofiq tegishli materiallar va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazadi, Maktab direktori o‘quvchining individual moslashtirilgan adaptiv dasturini muvofiqlashtirish va ishlab chiqish uchun asosiy mas’uliyatni o‘qituvchiga, odatda maxsus ta’lim o‘qituvchisiga yuklaydi. Xodimlar ota-onalar va kerak bo‘lganda o‘quvchilar va boshqa mutaxassislar yordamida dastur rejalarini ishlab chiqadilar.

3. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi: Butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bola huquqlariga doir xalqaro va O‘zbekistonda qabul qilingan qonunlar, qarorlarni bilishi va ularga amalga oshirishi zarur. - ta’lim-tarbiya jarayonini davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv reja va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boradi - alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishi va ta’lim jarayonini shunga mos ravishda olib bora olishi. - alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning imkoniyatiga mos ravishda individual yondoshuvni amalga oshirish (dars davomida va darsdan tashqari); - ta’lim jarayonida hamkorlikda faoliyat olib borishning samaradorlikka erishish va unda ota-onaning o‘rnini ko‘rsatib berish; - ta’limda zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish (kompyuter, monitor, tarqatma materiallar va hokazo) - inklyuziv ta’lim bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini doimiy ravishda o‘rganib borish, va ularning ish faoliyatida qo‘llash; - innovatsion bilim, malaka hamda ko‘nikmalar bilan qurollanib yurishi - sinf jamoasi orasida do‘stona munosabat muhitini o‘rnatish va nazorat qilib birish. - doimiy ravishda o‘z ustida ishlash va tajriba almashib borish; - o‘quvchilarning yutuqlarini baholash va yetkazish strategiyasini ishlab chiqishi lozim, ochiq va muntazam ravishda muloqot qilish. Inklyuziv boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har doim alohida ta’lim ehtiyojli o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo‘lishadi. Ushbu muloqot uchun ba’zi tavsiyalar: ota-onalarga bolaning milliy ta’lim dasturida qanday va qay darajada ishtirok etishini o‘rgatish (asosan yakka mashg‘ulotlarda); • ota-onalarga tarbiya dasturlari va qo‘llabquvvatlash guruhlariga kirish huquqini berish otaonalar bilan aloqa bog‘lash ya’ni: telefon yoki yozma aloqa bog‘lash, ularni qo‘llab-quvvatlash guruhi yig‘ilishlari to‘g‘risida xabardor qilib borish.

4. Maxsus o‘qituvchi: Maxsus o‘qituvchi butun ta’lim jarayonida korreksion rivojlantiruvchi faoliyat olib boradi. Sinf o‘qituvchisi tomonidan o‘tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzu yuzasidan alohida ehtiyojli o‘quvchiga individual tarzda tushuntirib beradi. • o‘quvchilarning kuchli tomonlarini va ehtiyojli sohalarini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta’minlaydi; • o‘qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi; • milliy dastur asosidagi ta’limni samarali o‘zlashtirilishida muhim o‘rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi; • o‘quvchilarning bilimini nazoratini to‘g‘ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi; o‘quvchilar bilan individual ta’lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog‘liq bola rivojlanishining o‘ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi; • maktabda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi; ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.

Tyutor (yordamchi pedagog xodim) - Inklyuziv ta’lim sinflari joriy qilingan maktablarga tyutorlar (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega oliy ta’lim muassasalarining pedagogika yo‘nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilinadi. Talabalarni inklyuziv ta’lim sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tyutor: - ta’lim jarayonida sodir bo‘ladigan muammolar va qiyinchiliklarni yengishga ko‘maklashadi; - o‘quvchilarning o‘quv dasturlarini davlat ta’lim

standartlari talablariga muvofiq darajada o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi, bolaning o‘quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar beradi; - ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikda ta’lim oluvchilarning ta’limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o‘rnatadi. Tyutorlar dastlab o‘zi biriktirilgan sinfni kuzatadi. Har bir bola haqida barcha ma’lumotlarni to‘liq o‘rganadi. Dars davomida o‘qituvchiga yordamlashadi, lekin o‘zining faoliyatini iloji boricha o‘quvchilarga sezdirmasligi kerak bo‘ladi. Sinf o‘qituvchisi yo‘q bo‘lgan hollarda, tyutor o‘qituvchi o‘rnini bosuvchi sifatida ham faoliyat olib borishi mumkin. Shunda tyutorga sinfdagi o‘quvchilar uchun javobgarlik yuklatiladi. O‘quvchi haqida asosiy ma’lumotlar ham yig‘ma jildlar tyutorda ham bo‘lishi talab qilinadi.

Maktab psixologi - Maktab psixologi inklyuziv sinfdagi har bir o‘quvchining psixologikpedagogik tavsifi bilan tanishadi; - ularning ruhiy, jismoniy holatidan kelib chiqqan holda bu bolalar bilan yakka va kichik guruhda psixologik moslashuv treninglarini olib boradi; - inklyuziv sinf o‘quvchilari bilan yalpi psixologik o‘yinlar va mashg‘ulotlar olib boradi; - sinfdagi otaonalar bilan sinf jamoasida do‘stona munosabat muhitini shakllantirishda ota-onaning o‘z farzandi bilan olib borilishi zarur bo‘lgan ishlar yuzasidan maslahatlar odib boradi; - o‘quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o‘rganish va ularni tarbiyalash bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

Tibbiyot xodimi - Maktabdagi inklyuziv sinfdagi alohida ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarni alohida hisobga olgan holda tibbiyot xodimi o‘quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko‘rsatiladi. Tibbiyot xodimi: - o‘quvchilarning ruhiy asab holatini tekshiradi, zarurat bo‘lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi; - korreksion-pedagogik ta’lim jarayonida bolalar sog‘ligini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me’yorini belgilaydi; - o‘quvchilarning somatik va ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan ota-onalarga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan xamkorlikda ularni sog‘lomlashtirish ishlarini olib borishdan iborat.

Xulosa. Yana bir muhim psixologik jihat - nogiron bolalarga nisbatan pedagogik optimizm, bunday bolaning rivojlanishidagi muvaffaqiyatga ishonch va uning salohiyatiga ishonishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, bolaga haddan tashqari talablar qo‘yishdan ehtiyot bo‘lish kerak, undan qodir bo‘lgan natijalarni kutish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bozorov O. Bo‘lajak logopedlarni kasbiy tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv //Центральноазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований. – 2021. – №. Conference TSPU. – С. 401-407.

2. Муминова Л.Р. Логопедик текшириш ва ўқитиш. - Т.: Ўқитувчи, 1993.URL: http://www.sisf.uz/

3. Муминова Л.Р. Ўзбекистон Республикасида инклюзив таълим концепцияси. Ривожланишида нуқсони бор болалар нутқини логопедик кўрикдан ўтказиш методикаси. - Т., 2009.

4. Муминова Л. Ўзбекистон Республикасида инклюзив таълим концепцияси. Ривожланишида нуқсони бор болалар нутқини логопедик кўрикдан ўтказиш методикаси. – Т., 2009

5. Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.

6. Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY JIHATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).

7. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O‘QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).

8. Adilova, M. (2023). MAKTABGACHA TARBIYA YOSH DAVRIDA HISSIY SOHANING RIVOJLANISHI VA O‘Z-O‘ZIGA BAHONING NAMOYON BO‘LISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(3), 192-198.

9. Адилова, М. (2023). Ta’lim tizimida zamonaviy psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos ahamiyatlari. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(2), 421-427.

10. Shamsiddinovna, A. M. (2023). SPECIFIC FEATURES OF TODAY'S SOCIAL PSYCHOLOGICAL PROBLEMS. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(11), 155-159.

11. Адилова, М. (2023). Психологические характеристики готовности детей к школе. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(1), 334-338.

12. Адилова, М., & Зайниддинов, А. (2023). Ta’lim jarayonida o‘quv motivatsiyalarini o‘quvchilarda shakllanishini rivojlantirish. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(2), 416-421.

13. Адилова, М. (2023). Ta’lim tizimida zamonaviy psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos ahamiyatlari. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(2), 421-427.

14. Shamsidinovna, A. M., & Kamol O‘g‘li, M. A. (2024, March). DEVELOPMENT OF INCLUSIVE COMPETENCE IN FUTURE PEDAGOGUES. In *Next Scientists Conferences* (pp. 55-59).

15. Shamsidinovna, A. M. (2024, March). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF IMPROVING STUDENTS'PROFESSIONAL SPEAKING COMPETENCE. In *Next Scientists Conferences* (pp. 46-49).

16. Shamsidinovna, A. M., & Qizi, Q. N. S. (2024, March). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN SCHOOL EDUCATION AND ITS DEVELOPMENT TODAY. In *Next Scientists Conferences* (pp. 31-33).

17. Shamsidinovna, A. M., & Qizi, M. N. A. (2024, March). CREATIVITY AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN STUDENTS. In *Next Scientists Conferences* (pp. 60-63).

TALABALARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV FIKRLARNI AHAMIYATI

Adilova Madina Shamsiddinovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Boymatova Dilorom Agzamjonovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Ma‘lumki jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munasabatlarning tadbiq etishga mo‘ljallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko‘lami kengayib borishi uning mas‘uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Ushbu tezisda talabalar dunyoqarashi, tafakkurini rivojlantirishda kreativlikning o‘rni va uni aniqlash usullarining nazariy tahlillari berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tafakkur,mantiq, kreativlik, faoliyat, usul, ta‘lim,yangicha yondashuv,rivojlanish.

Jamiyatimizda bugungi kunda o‘zgarib borayotgan sohalar mavjud, shuning uchun, talabalarda mantiqiy tafakkur va kreativlikni rivojlantirish va ularga yangi yondashuvlar qilishning ahamiyati katta. Bu ularni mustaqil o‘zgarishlarga qodir va o‘zlarining o‘ylaganlaridan tashqari yechimlar topishga kuch beradi. Talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda kreativ fikrlarning ahamiyati bugungi kunda juda katta. Bugunning dunyosida, talablarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish faqatgina faktlar va ma'lumotlar ustida emas, balki muammolarga yangi yondashuvlar topish, muammolarga ishora qilish, va yangi yechimlar qidirishga asoslanadi. Bu esa faqatgina mustaqil fikrlarni o‘rganish va ularni ijod qilish orqali amalga oshiriladi. Kreativ fikrlar mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir, Kreativ fikrlar, talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy qismlaridan biridir va bugungi kundagi barcha sohalar, o‘rtasidagi munosabatni kuchaytirishga yordam beradi. Kreativlik, talabalar uchun mantiiy tafakkur va muammolarni yechishda kerakli ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi,kreativ fikrlar, jiddiy muammolarga yangicha yondashuv, yechimlar taklif qilishga olib keladi va shuningdek,samarali usullarni taqdim etishga imkoniyat yaratadi. Shaxs tarbiyasi, uning ijtimoiy-psixologik kamoloti har qanday davlatning bosh strategik masalalaridan biridir, chunki shaxsni ma‘lum ezgu g‘oyalar, ijtimoiy-psixologik va yuksak intellektual talablar asosida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo‘lmaydi. Zero, bu jarayonda eng avvalo ta‘lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta‘lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonning keng ko‘lamda amalga oshirilishi uchun esa eng avvalo ta’lim tarbiya bilan shug‘ullanuvchi barcha xodimlarga ayniqsa psixologlarga juda katta ma’suliyat yuklaydi. Buning uchun har qaysi ota–ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli

fikirlaydigon komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim – sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Tabiyki, eng avvalo ushbu vazifani bajarishni esa ta‘lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning bugungi zamon talablariga javob bera oluvchi ijodiy izlanuvchi – psixologik holatiga jiddiy e‘tiborni qaratishdan boshlash kerak bo‘ladi.

Demak, ta‘lim davridayoq har bir talaba shaxsida o‘quv faoliyatiga bo‘lgan faol-ijobiy munosabat motivlarining yetarli darajada shakllantirish bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq qilish masalasi bugungi ta‘lim oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lmog‘i zarur masaladur.Bugungi kunda bizga qat'iy talablar va muammolar ortib chiqmoqda, shuning uchun kreativlikni rivojlantirish muhumdir. Talablar kreativlik yoki innovatsiya yordamida hal qilinishi qiyindek ko‘rinishi mumkin, shuning uchun talabgorlarning kreativ fikrlarni o‘rganish va ularni amaliyotda o‘tkazishga imkoniyatlar yaratish juda muhimdir. Bu esa talabalar o‘zlarining o‘ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni muvaffaqiyatli kasbga ega bo‘lishiga yordam beradi. Shuningdek, eng avvalo ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bilan birga bu jarayonga nisbatan bugungi talabaning munosabatlarida turli xil ijtimoiy-psixologik omillar ta‘sirining ortib borayotganligi, ta‘lim ob‘ekti, sub’ekti, o‘qituvchi, talaba, guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar motivatsiyasining o‘quv jarayonida tez-tez o‘zgarib borayotganligi ta‘lim ob’ektlarida o‘quv faoliyati va o‘quv faolligining o‘zaro mutanosibligiga jiddiy e‘tibor qaratishning zarurligi, o‘quv faolligi doirasidagi munosabat talabaning ijodiy bilim olishiga ta‘sir etuvchi, tashqi va ichki psixologik omillarda keskin o‘zgarishlarning kuzatilayotganligidir. Talaba shaxsida kechayotgan o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga va faoliyatga bo‘lgan munosabatlar bevosita ta‘lim samaradorligiga ta‘sirini hisobga olish va bu ta‘sir doirasida har bir o‘quvchi shaxsini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarning tobora ortib borayotganligi kabi holatlar bilan belgilanadi va baholanadi. Talab shaxsini rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliyintellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo’ladi. Bu borada, ayniqsa, ta’lim jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroqdir. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o’z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o’z hissasini qo’shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog’liq. Shunga ko’ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir talabani ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va har bir talaba bugungi kunda o‘z shaxsini rivojlantirish uchun ongli tarzda o‘zini anglab,tanlagan sohasi yuzasidan yangicha qarashlar bilan izlanish kerakligini anglagan holda harakat qilish kerak.

Ijodkorlik faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo’lishidan tortib, to namoyon bo‘lishigacha jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji uning harakatlarida yangi, ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi [2, 15]. Ta‘lim-tarbiya jarayonida talabalardagi yashirin iste‘dodlarni yuzaga chiqarish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish – kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehnli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni yetkazish sanaladi. Bu davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g‘oyasiga mos keladi. Demak, shaxsning imkoniyatlari qancha oshib borsa, u faoliyatni

shunchalik muvaffaqiyatli darajada bajaradi. Kreativ tafakkurni rivojlantirishning usullari sifatida bugungi kunda ko’pgina mualliflar taklif etayotgan uslubiy yechimlarda kognitiv yondashuv ustuvorligi seziladi. Ko‘pchilik mualliflar ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali usullari sifatida kreativlik asosini tashkil etuvchi bilish jarayonlari (ijodiy xayol, tanqidiy tafakkur va h.k.)ni faollashtirishga mo’ljallangan mashq va topshiriqlardan iborat metodikalarni taklif etadilar. Kreativlik qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida qator mualliflar turli materiallar asosida ijodiy xayolni mashq qildirishga mo’ljallangan metodikalarni taklif etadilar. Jumladan, Ye.P.Rogovning amaliy qo‘llanmalarida taklif etilgan, guruhiy shaklda o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan mashqlarda, masalan, trening ishtirokchilaridan biri qandaydir fantastik vaziyatli savol (masalan, “Agar odamlar bir-birining fikrini o‘qiy oladigan bo’lib qolganda, Yerdagi hayotda qanday o‘zgarishlar ro‘y berar edi?” degan savol)ni o‘rtaga tashlash, guruhning qolgan a‘zolariga o‘zlarining imkon qadar rangbarang javoblarini shakllantirish vazifasi berilishi mumkin,yana bir qancha shunday usullardan foydalanishimiz mumkin,talabalarga muommoli biron bir vaziyatni aytib yechimini o‘zlariga qoldiriladi talabalar tamonidan eng yaxshi yechimlar ular birgalikta topishadi va muommoli vaziyatdan chiqishni eng samarali bir qancha yo‘llarini birgalikda topishadi. Mantıqiy tafakkur talabalarga maslahat beradi va muammolarni yechishda ularga qo‘llanish imkoniyatini beradi. Bu, ularning o‘zining o‘ylash va muhokama qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kreativ fikrlar esa yangiliklar va innovatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu, talabalarga muammo hal qilishda va yangi yechimlar izlashda yordam beradi. Bugungi kun, bu xususiyatlar dunyoda o‘zining o‘rni bilan birlashtirilgan. Shuningdek, kreativ fikrlar va mantıqiy tafakkur talabalarga o‘z fikrlarini o‘zlarining sohalarida amalga oshirish va ijro etish imkoniyatini beradi. Bu, ularning o‘zlarini shaxsiy va professional rivojlantirishiga yordam beradi va ularni dunyoqarashning muvaffaqiyatli fuqarolarga aylanishiga ko‘maklashadi. Yani, bugungi kunda talabalarda mantıqiy tafakkur va kreativ fikrlarni rivojlantirish, ularning shaxsiy, akademik va professional hayotlarida muvaffaqiyatlarga erishishda ahamiyatga ega. Bu qobiliyatlar ularga muammolarini hal qilish, innovatsiyalarni o‘rganish va o‘zlarining sohalarida ilg‘or yangiliklar yaratishga imkon beradi.

Xulosa: Jamiyat kreativlikni qo‘llab-quvvatlash va uning rivojlanishini ta'minlash uchun muhim qo‘llab-quvvatlash jarayonlarini ham o‘z ichiga olgan holda, talabalar kreativlikni o‘rganishi, unga intilish va uning muhimligini tushunishga yordam beradigan o‘quv va o‘rgatish tizimini rivojlantirish lozim. Bu esa kelajakda paydo bo‘ladigon muammolarga yaxshi yechim topishda va talabalarga dunyoning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashishida qiyinchilik hosil qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримова В.М. Логико-операциональный аспект формирования самостоятельного мышления. Таълим ва тарбия - 2000, 1-2-сон. 92 -94 б.
2. Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O‘RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.
3. Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOIY-

PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.

4. Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.

5. Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY JIHATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).

6. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O‘QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).

7. Adilova, M. (2023). MAKTABGACHA TARBIYA YOSH DAVRIDA HISSIY SOHANING RIVOJLANISHI VA O‘Z-O‘ZIGA BAHONING NAMOYON BO‘LISHI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, *3*(3), 192-198.

8. Адилова, М. (2023). Ta’lim tizimida zamonaviy psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos ahamiyatlari. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(2), 421-427.

9. Shamsiddinovna, A. M. (2023). SPECIFIC FEATURES OF TODAY'S SOCIAL PSYCHOLOGICAL PROBLEMS. *International Journal of Advance Scientific Research*, *3*(11), 155-159.

10. Адилова, М. (2023). Психологические характеристики готовности детей к школе. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(1), 334-338.

11. Адилова, М., & Зайниддинов, А. (2023). Ta’lim jarayonida o‘quv motivatsiyalarini o‘quvchilarda shakllanishini rivojlantirish. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(2), 416-421.

12. Адилова, М. (2023). Ta’lim tizimida zamonaviy psixologik xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos ahamiyatlari. *Информатика и инженерные технологии*, *1*(2), 421-427.

13. Shamsidinovna, A. M., & Kamol O‘g‘li, M. A. (2024, March). DEVELOPMENT OF INCLUSIVE COMPETENCE IN FUTURE PEDAGOGUES. In *Next Scientists Conferences* (pp. 55-59).

14. Shamsidinovna, A. M. (2024, March). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF IMPROVING STUDENTS'PROFESSIONAL SPEAKING COMPETENCE. In *Next Scientists Conferences* (pp. 46-49).

15. Shamsidinovna, A. M., & Qizi, Q. N. S. (2024, March). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN SCHOOL EDUCATION AND ITS DEVELOPMENT TODAY. In *Next Scientists Conferences* (pp. 31-33).

16. Shamsidinovna, A. M., & Qizi, M. N. A. (2024, March). CREATIVITY AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN STUDENTS. In *Next Scientists Conferences* (pp. 60-63).

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI EMOTSIONAL INTELLEKT XUSUSIYATLARI

Sharafitdinov Abdulla XXX
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Insonlar boshqa odamlarni tushunish va boshqarish qobiliyatida farqlanadi. Ushbu maqolada hamma insoniy munosabatlarda oqilona harakat qilishida emotsional intellekt namoyon bo‘lishi va bu xususiyat o‘smirlik davrida muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Emotsionallik, intellekt, o‘z-o‘zini anglash, aql-idrok, empatiya, ishonch, motivatsiya, rivojlanish, hissiy yaqinlik.

Kirish. O‘smirlik davridagi hissiy soha bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ular qisman biologik yetuklik omillari bilan bog‘liq, lekin, albatta, bu davrga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar, birinchi navbatda, o‘z-o‘zini anglash, aql-idrok, qiziqish, qadriyatning yangi darajasini shakllantirish kabi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘smirlarga xos bo‘lgan hissiy beqarorlik, nomutanosiblik kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi bilan namoyon bo‘lishi mumkin, bu ba'zi hollarda o‘smirning hayotiga yuzaki ta'sir qiladi, unga ma'lum bir rang, ohang beradi, boshqalarida esa bu uning kechinmalarining asosiy mazmuniga aylanishi mumkin. O‘smirlik davrida juda tez-tez uchraydigan qarama-qarshi psixologik intilishlar (masalan, balog‘atga yetish istagi va uning oqibatlaridan qo‘rqish o‘rtasidagi ziddiyat) hayajon, shiddatli va kuchli salbiy his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishi va ixtiyoriy nazoratni yo‘qotishi, impulsivlikning kuchayishi bilan tavsiflanadi.

Hissiy sohaning shakllanishi bu yoshda jadal rivojlanayotgan o‘smirning tasavvurlari, fantaziyalari va orzulari bilan chambarchas bog‘liq. O‘smirlik davrida tasavvurni rivojlantirish uchun L.S. Vygotskiy ikkita asosiy shaklga e'tibor qaratdi: plastik va hissiy [1-2]. Ularning asosiy farqi fantaziyalar qurilgan material bilan belgilanadi. U plastik tasavvurni ob'ektiv deb ataydi, chunki u asosan tashqi taassurotlardan foydalanadi va hissiy - sub'ektiv, chunki u ichki hayot elementlaridan qurilgan.

Ularning modeli to‘rtta komponentdan iborat bo‘lib, har biri hissiy intellektning turli sohalari bilan bog‘liq qobiliyatlarni tasvirlaydi.

Birinchi komponent hissiyotlarni to‘g‘ri tushunish, baholash va ifodalash qobiliyatini tavsiflaydi. Bu komponent his-tuyg‘ularni tahlil qilish, ularning bir-biri bilan aloqalarini aniqlash, hissiy ma'lumotlardan fikrlash va qaror qabul qilish uchun asos sifatida foydalanish bilan bog‘liqdir[3-4].

Ikkinchi komponent hissiyotlarning boshqa odamlar bilan aloqalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu komponent odamning boshqa kishilarning his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarish qobiliyatiga asoslangan.

Uchinchi komponent hissiyotlarni tushunish va hissiy idrok qobiliyatini ifodalaydi. Bu komponent hissiyotlarni tushunish, ularning ma'nosini tushunish va bu ma'nolar haqida fikr yuritish qobiliyati bilan bog‘liqdir.

To‘rtinchi komponent hissiy intellektning intellektual rivojlanish darajasini oshirish qobiliyati bilan bog‘liqdir.

Tuyg‘ularni idrok etish, baholash va ifodalash odamlarning his-tuyg‘ularni qanday aniqlik bilan ajrata olishlari, hissiy tarkibni aniqlashlari bilan bog‘liq. Ushbu boshlang‘ich komponent hissiyotni og‘zaki bo‘lmagan idrok etish va ifodalash bilan bog‘liq. Baxt, qayg‘u, g‘azab yoki qo‘rquvning insoniy ifodalari juda universaldir. Voyaga etgan odam o‘zining ichki his-tuyg‘ularini nazorat qila oladi, hissiy jihatdan yaqin, shuning uchun boshqa odamning yuzida yoki ovozida ko‘rsatilgan his-tuyg‘ularni aniq idrok etish qobiliyati his-tuyg‘ularni yanada nozikroq tushunish uchun hal qiluvchi boshlang‘ich nuqtani beradi.

Bar-On: hissiy intellektning aralash modeli. Bar Onning hissiy intellekt modeli insonning muvaffaqiyatga erishishi va amalga oshirishi kerak bo‘lgan potentsialga urg‘u beradi [5-6]. Bu shaxsning ijtimoiy va shaxsiy xarakterdagi muammolar va muammolarni hal qilish qobiliyatiga urg‘u beradi. Model bir qator hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarga e'tibor qaratadi. Ular orasida o‘z-o‘zini anglash va tushunish, o‘zini ifoda eta olish ko‘nikmalari va qobiliyatlari ustunlik qiladi. Shuningdek, u boshqalarni tushunish va ular bilan munosabatda bo‘lish va o‘zaro munosabatda bo‘lish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Model natijadan ko‘ra jarayonning muhimligini ta'kidlaydi [7-8].

Metodika: Tadqiqot ishimizning eksperiment bosqichida biz V.V.Boykoning “Empatik qobiliyatlar darajasini diagnostika qilish” metodikasi, N.Xollning “Emotsional intellektni baholash” testi, Dj.Gilfordning “Sotsial intellektni o‘lchash” testi, D.Amirxan metodikasi, V.M.Yaltonskiy va N.A.Sirot modifikatsiyasi bilan “Hayotiy muammolarni yengib o‘tish strategiyalarini o‘rganish metodikasi, R.B.Kettellning “Shaxsning 16 omil yordamida o‘rganish” so‘rovnomasi va Gerbachevskiyning “Intilish darajasi” testidan foydalandik.

Natijalar:

O‘smirlarda kurashuvchanlikning hissiy intellekt ta'sirida tarkib topishi emotsional intellektning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Emotsional intellekt, insonning o‘z emotsiyalarini tushunish, boshqalar bilan o‘zaro aloqalarni boshqarish va o‘zining o‘zini rag‘batlantirish qobiliyatini aks ettiradi. Bu esa kurashuvchanlik va jamoatda muvaffaqiyatga erishish uchun muhimdir.

N.Xollning emotsional intellektni baholash testi, V.V.Boykoning empatik qobiliyatlar darajasini diagnostika qilish metodikasi, R.B.Kettellning “Shaxsning 16 omil yordamida o‘rganish so‘rovnomasi korrelatsiya natijalari

Ko‘rsatkichlar	Ishonuvchanlik shubhalanuvchanlik	O‘ziga ishonch - ishonmaslik	Mustaqillik tobelik	O‘zini nazorat qilish	Qo‘zg‘aluvchanlik zo‘riqish
Empatik qobiliyat	-,069	,054	,000	,008	-,012
Emotsional bilimdonlik	-,061	-,124(**)	-,017	-,097(*)	-,205(**)
Emotsiyalarini boshqarish	-,014	,003	,059	-,056	-,008
O‘z-o‘zini rag‘batlantiruvchi	-,075	,010	-,033	,016	-,124(**)
Empatiya	-,081	,000	,005	-,051	-,203(**)

Muloqotga moyillik	,156(**)	,214(**)	,118(**)	,220(**)	,132(**)
Hissiy barqarorlik-beqarorlik	,182(**)	,234(**)	,236(**)	,167(**)	,346(**)
Hukmronlikka intilish-tobelik	,079	,143(**)	,116(**)	,143(**)	,181(**)
Ijtimoiy yetuklik	,057	,084(*)	,203(**)	,247(**)	,104(*)
Ijtimoiy mardlik, dadillik	,223(**)	,209(**)	,164(**)	,311(**)	,286(**)

Emotsional bilimdonlik ko‘rsatkichi, o‘ziga ishonch-ishonmaslik ko‘rsatkichi bilan (r_s=-,124; p<0.01); o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichi bilan (r_s =-,097; p<0.05); qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish ko‘rsatkichi bilan (r_s=-,205; p<0.01) manfiy korrelatsiya hosil qilgan.

O‘z-o‘zini rag‘batlantiruvchi ko‘rsatkichi qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish ko‘rsatkichi bilan (r_s= -,124; p<0.01) manfiy aloqadorlik hosil qilgan.

Empatiya ko‘rsatkichi qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish ko‘rsatkichi bilan (r_s=-,203; p<0.01) manfiy aloqadorlik (korrelatsiya) hosil qilgan.

Muloqotga moyillik ko‘rsatkichi ishonuvchanlik va shubhalanuvchanlik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,156; p<0.01); o‘ziga ishonch-ishonmaslik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,214; p<0.01); mustaqillik va tobelik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,118; p<0.01); o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,220; p<0.01); qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,132; p<0.01) musbat aloqadorlik (korrelatsiya) hosil qilgan.

Hissiy barqarorlik-beqarorlik ko‘rsatkichi ishonuvchanlik va shubhalanuvchanlik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,182; p<0.01); o‘ziga ishonch -ishonmaslik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,234; p<0.01); mustaqillik va tobelik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,236; p<0.01); o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,167; p<0.01); qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,346; p<0.01) musbat korrelatsiya hosil qilgan.

Hukmronlikka intilish-tobelik ko‘rsatkichi o‘ziga ishonch-ishonmaslik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,143; p<0.01); mustaqillik va tobelik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,116; p<0.01); o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,143; p<0.01); qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,181; p<0.01) musbat korrelatsiya hosil qilgan.

Ijtimoiy yetuklik ko‘rsatkichi o‘ziga ishonch-ishonmaslik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,084; p<0.05); mustaqillik va tobelik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,203; p<0.01); o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,247; p<0.01); qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,104; p<0.05) musbat korrelatsiya hosil qilgan.

Ijtimoiy mardlik, dadillik ko‘rsatkichi ishonuvchanlik va shubhalanuvchanlik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,156; p<0.01); o‘ziga ishonch-ishonmaslik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,209; p<0.01); mustaqillik va tobelik ko‘rsatkichi bilan (r_s=,164; p<0.01); o‘zini nazorat qilish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,311; p<0.01); qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish ko‘rsatkichi bilan (r_s=,286; p<0.01) musbat aloqadorlik (korrelatsiya) hosil qilgan.

Xulosa: Emotsional intellektning rivojlanishi orqali, o‘smirlar o‘z emotsiyalarini tushunish va o‘zaro aloqalarini yaxshilash bilan bog‘liq mahoratlarini oshirishlari mumkin bo‘ladi. Bu esa ularning qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik

qobiliyatini kuchaytiradi va ularni kurashuvchanlik holatlarida muvaffaqiyatga olib keladi.

Emotsional intellekt rivojlanishi, insonlarning o‘z emotsiyalarini tushunish, ularni boshqarish va o‘zaro aloqalarni rivojlantirish ko‘nikmalarini oshiradi. Bu esa ularning o‘zini va boshqalarni tushunish va tahlil qilish, muammolar yechish va majburiyatlar bilan yaxshi boshqarish, qo‘shni his-tuyg‘ular bilan ishlash, maqsadlarga yo‘naltirish va qo‘shimcha motivatsiyani rivojlantirishga imkon beradi.

O‘smirlarda emotsional intellektning rivojlanishi, kurashuvchanlik holatlarida o‘zini bajarish, aloqalar, ko‘rsatiladigan ehtirom va muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan muhim asosiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘smirlarni muvaffaqiyatli bo‘lishga, o‘zini va boshqalarni tushunishga, tahlil qilishga va hamkorlikni kuchaytirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. XXX, Sharafitdinov Abdulla. "IMPORTANT DETERMINANTS OF GERONTOPSYCHOLOGY." *International Scientific and Current Research Conferences*. 2024.
2. Abdulla, Sharafitdinov. "ADOLESCENT PSYCHOLOGY." *Next Scientists Conferences*. 2024.
3. Abdulla, Sharafitdinov, and Qurbonboyeva Ruxshonabonu Boboxonovna. "FEATURES OF MENTAL DEVELOPMENT IN ADOLESCENCE." *Next Scientists Conferences*. 2024.
4. Mullabaeva, Nozima, Shokhroza Abdunazarova, and Abdulla Sharafitdinov. "The Role Of Social Environment In The Formation Of Self Awareness Process In Preschool Children." *SPAST Reports* 1.1 (2024).
5. XXX, Sharafitdinov Abdulla, and Eshqulova Nargiza Ximmataliyevna. "SHAXS KAMOLOTIDA XULQ-ATVOR MOTIVLARI." *Conferencea* (2023): 21-25.
6. XXX, Sharafitdinov Abdulla. "TERGOV JARAYONI PSIXOLOGIYASI." *Conferencea* (2023): 1-4.
7. Abdulla, Sharafitdinov. "Characteristics of Emotional Intelligence in Managers." *International Journal of Formal Education* 1.10 (2022): 54-58.
8. Рашидова, Гульноза, and Абдулла Шарафитдинов. "Психологические проблемы у детей и их решение." *Информатика и инженерные технологии* 1.1 (2023): 338-342.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANI YETAKCHI FAOLIYAT TURNING RIVOJLANISHI

Bekchanova Kuvanch Roximovna
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlantirishda maktab ta'limiga tayyorlashda yetakchi faoliyatning ro'li va uning turlari haqida yetarlicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar, o'yin, predmetli o'yinlar, sujetli-rolli o'yinlar, qoidali o'yinlar ,maktab ta'limi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy merosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni e'tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1]. Har bir bola faqat o'ziga xos faoliyati, iroda, xarakter, xulq-atvor xususiyatlariga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati o'yindir. Bu yoshdagi bolalarning o'yinlarini uchga bo'lish mumkin:

1) predmetli o'yinlar (15—20 minut oynaladi);
2) sujetli-rolli o'yinlar (30—60 minut o_ynaladi);
3) qoidali o'yinlar (1 soatdan 2 kungacha davom etishi mumkin).

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining xaddi sig_adigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Masalan: bola avtomashinani yoki tramvayni o'zi haydagisi, haqiqiy,otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib, samolyotda uchgisi va rostakam militsioner bo'lgisi keladi..[2,3] Tabiiyki, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bu o'rinda savol tuglladi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli ehtiyojlari bilan ularning tor

imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik qanday yo‘l bilan hal qilinadi? Bu qarama-qarshilik faqatgina birgina faoliyat orqali, ya‘ni, bolaning o‘yin faoliyati orqaligina hal qilinishi mumkin. Buni quyidagicha izohlab berish mumkin: birinchidan, bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mashg‘ulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuninguchun bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o‘yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bogliqdir; ikkinchidan, bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo‘ladilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir. O‘yin bolalar hayotida shunday ko‘p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bolgan mehnat ham, turli narsalar haqida tafakkur qilish, xomxayol surish, dam olish va xushchaqchaqlik jarayonlarining barchasi o‘yin faoliyatida aniq bo‘ladi. Shuni ham ta‘kidlab olish kerakki, o‘yin faqat tashqi muhitdagi narsa hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va sujetli o‘yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularningindividual xususiyatlari ham shakllanadi. Demak, maktabgacha dagi ta‘lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bolalarning o‘yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog‘liqdir. [5]

Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o‘rni nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy xatti-harakat qoidalari o‘zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo‘nalishi tarkib topa boshlaydi. O‘qish faoliyati kichik maktab davridagi bolalar psixikasi rivojidagi o‘zgarishlarni belgilab beradi. Maktabga birinchi bor kelgan bola o‘z faoliyatining tub mohiyati va vazifasini to‘la tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak, deb biladi. Kattalarning ko‘rsatmalariga amal qilib, tirishqoqlik bilan mashg‘ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma‘lum vaqt o‘tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o‘z ahamiyatini yo‘qota boradi va bola o‘qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa, uni o‘qishdan ko‘ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi, o‘qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta‘limning o‘yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma‘lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. O‘qish faoliyati davomida tarkib topgan xususiyatlar bolaning kelgusi rivoji uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Maktabdagi o‘qish bolalarning bilish ehtiyojlarini tez rivojlanishi va sifatli tarkib atrof-hayotga faol qiziqishlarini yuzaga keltirib, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratadi. Bola asta-sekinlik bilan o‘z psixik jarayonlariga egalik qilib, idrok, diqqat va xotirasini boshqara olishga ovrgana boshlaydi.[4]

Shunday qilib, o‘yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha, bolalar xayolining o‘zi, o‘yin davomida yuzaga kelib, rivojlanadigan psixik jarayondir. Shuni ham ta‘kidlash joizki, fan-texnika mislsiz rivojlanayotgan hozirgi davrda hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo, bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib(ya‘ni, analogik tarzda), har

xil xayoliy narsalarni o‘ylab topadilar (uchar ot, odam mashina, gapiradigan daraxt kabilar). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarni o‘ylab chiqarishlari yana shuni anglatadi-ki, ular o‘zlarining har turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlarini ham aks ettiradilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlarida turli xayoliy va afsonaviy obrazlami yaratishlari odamning (shu jumladan, bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni aks ettirish passiv jarayoni emas, balki faol, ijodiy yaratuvchanlik jarayoni ekanligidan dalolat beradi. Bolalar o‘yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarining ko‘pincha umumiylik xarakteriga ega bolishidir.

Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysungan va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Katta bog‘cha yoshida sujetli-rolli o‘yinlar esa o‘z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o‘yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko‘nikma va malakalari rivojlana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shug‘ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san‘atning ham ahamiyati juda kattadir. Bolaning tasavvur etish xarakteriga ko‘ra, uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur xususiyatlariga baho berish mumkin. Maktabgacha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Bu yoshdagi bolalar rasm chizishga nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o‘yin faoliyatining o‘ziga xos bir shakli bolib hisoblanadi. Bola avvalo ko‘rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o‘zi biladigan, xotirasidagi va o‘zi o‘ylab topgan narsalarni chizadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bolib, aynan shunday qoidali o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish xususiyati shakllanadi va mustahkamlanadi. Bu yoshdagi bolalarning eng yaxshi daqiqalari musobaqa o‘yinlaridagi yutish va muvaffaqiyatlaridir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqalar juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shunday o‘yinlarda muvaffaqiyatga erishish motivlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.«O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ―O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi» Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.

2.Goziev E., Anarmetova Sh. Bolalar psixologiyasi. - T.: 1992.

3. E.Goziyev –Umumiy psixologiya. 2010 yil.

4. Gutkina n.i. "Maktabga psixologik tayyorlik. 4-chi ed., Pererab. va qo‘shimcha.- SPB .: Butrus, 2004 yil .

5.Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya: Ped. in-t. talabalari uchun o‘quvqo‘llanma/ M.G.Davletshin umumiy tahriri ostida. – T.: O‘qituvchi, 1974

INFANTIL XULQ-ATVORNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA BELGILARI

Karakulova Umida Abduvakilovna
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Esanova O‘g‘iloy Jahongir qizi,
Xojiqulova Go‘zal G‘ulomjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabalari
umida260686@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada infantilizm xaqida umumiy ma’lumot, uning kelib chiqish sabablari va infantil xulq-atvorning asosiy xususiyatlari va belgilari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: infantil shaxslar, psixik patologiya, qaror qabul qila olmaslik, ulg‘aymagan shaxs.

Psixologiyada yoshi katta kishilarning kundalik hayotda bolaga, aniqrog‘i o‘smirga xos xususiyatlarni namoyon qilishi infantilizm sifatida baholanadi. Ayni vaziyatda qarshingizda ulg‘aymagan, infantil shaxs turgani ta’kidlanadi. Shu bilan birga, buning psixik patologiyalarga umuman daxli yo‘q. Bundan kelib chiqadiki, infantil shaxs mutlaqo sog‘lom, lekin uning fikrlash tarzi va xulq-atvori voyaga yetgan shaxsga xos emas. Aynan nima nazarda tutilmoqda?

Birinchidan, bu qaror qabul qila olmaslik, qilingan tanlov, bajarilgan ish va hokazolar uchun javobgarlikdan qochish. Voyaga yetgan shaxs o‘zining har bir qarori ma’lum bir oqibatlarga olib kelishini biladi — muhim yoki ahamiyatsiz, yaxshi yoki yomon. Bolatabiat kishi esa javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni mutlaqo istamaydi.

Bu esa infantil odamning yana bir muhim xususiyati bilan bog‘liq: u muammolarni qanday hal qilishni bilmaydi. Muammo tug‘ilsa, “katta” odam (ota-ona, turmush o‘rtoq, do‘stlar) kelib, vaziyatni o‘nglashini yoki hech bo‘lmasa qanday o‘nglash kerakligini aytishini kutadi. Bu esa shaxsning o‘z xatti-harakatlari oqibatini baholay olmasligiga olib keladi, chunki bunday baholash tizimini uning uchun odatda boshqalar amalga oshiradi. Ayrimlar har qanday qilmishning bahosini “maktab darajasida” qabul qiladi: hammasidan o‘qituvchining tanbehlari va kundalik to‘ldirish bilan qutulib ketsa bo‘ladiganday. Lekin katta hayotda hammasi ancha jiddiyroq.

Jiddiy ish va o‘yin-kulgidan birini tanlashga to‘g‘ri kelsa, infantil shaxslar aksar hollarda ikkinchisini ma’qul ko‘radi (ba’zan juda muhim vazifa bo‘lsa ham). Bolatabiat kishi ko‘pincha o‘zini biror ishni bajarishga majburlay olmaydi va bu qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida o‘ylamaydi. U bir lahzalik istakni deb o‘zini o‘ta mas’uliyatsiz tutishi mumkin. U, shuningdek, o‘zining ham, boshqalarning ham kelajagi haqida deyarli bosh qotirmaydi.

Bu Maklinning “Uch miya” modelidagi limbik miya va neokorteks o‘rtasidagi qarama-qarshilikni yodga soladi. “Voyaga yetgan” kattalar limbik miyani bo‘ysundirib, neokorteksga quloq solishni biladi. Infantil esa ko‘p hollarda limbik tizimga bo‘ysunadi va uning impulslarini yengishga hatto harakat ham qilib ko‘rmaydi.

Infantilizmning kelib chiqish sabablari

Ma’lumki, shaxsiyatga xos ko‘plab xususiyatlar bolalikda shakllanadi. Ijtimoiy va psixologik infantilizm ham bundan mustasno emas. Boz ustiga, bu aksar hollarda aynan ota-onaning tarbiya jarayonida xatolarga yo‘l qo‘yishi bilan bog‘liq. Eng ko‘p uchraydigan sabab — g‘amxo‘rlikni haddan oshirib yuborish, doimo bolaning ko‘ngliga qarash istagi, uni barcha muammo va tashvishlardan himoya qilish, u hatto so‘ramasa ham, yordam berishga oshiqish.

Doimiy aybdorlik hissi — ota-onaning xatosi tufayli paydo bo‘ladigan yana bir noxush holat.

Bolaning fikr va his-tuyg‘ulariga umuman e’tibor bermaslik, u uchun barcha qarorlarni qabul qilish (qanday kiyinish, nimani o‘ynash va nima qilish kerakligi), qiz yoki o‘g‘il orqali o‘zi erisholmagan orzularni amalga oshirishga urinish bolaning kelajagiga salbiy ta’sir qiladi.

Bola shaxsiy rivojlanishda emas, balki pasportda ulg‘ayishining boshqa sabablari ham bor. Lekin tarbiya juda katta mavzu bo‘lib, uni alohida ko‘rib chiqish lozim. Eng asosiysi: ota-onalar bolaning qarorlarini, orzularini, intilishlarini, istaklarini, ambitsiyalarini, his-kechinmalarini, niyatlarini muntazam ravishda va ayovsiz “kallaklab” turishi natijasida u oxir-oqibat fikrlash va qaror qabul qilishni butunlay to‘xtatadi.

Hamma narsa onasi yoki otasi aytganiday bo‘lsa, o‘zini qiynashdan nima foyda? Shu sababli rivojlanayotgan shaxsda shakllanish va kamolga yetish jarayoni buziladi va natijada u go‘dakligicha qolib ketadi.

Voyaga yetgach, bunday odam o‘zi odatlangan qulaylikni saqlab qolish uchun qo‘lidan kelganicha harakat qiladi — ya’ni hech nimani mustaqil hal qilmaslik, qiyinchiliklardan qochish, boshqalar ko‘magiga qaramlik. Buning ham o‘ziga yarasha afzalliklari bor. Lekin salbiy tomonlari-chi? Salbiy tomonlari anchagina ko‘p bolishi mumkin.

Ba’zi bolatabiat kishilar uchun asosiy muammolardan biri shundaki, ular chinakamiga baxtli bo‘lolmaydi. Ular hayotdan aslida nimani istayotganini bilmaydi, chunki shu vaqtgacha uning uchun boshqalar qaror qabul qilgan. Agar kimningdir omadi chopib, o‘z ishini chindan ham yoqtirsa, yaxshi. Lekin ko‘pchilik bu borada omadsiz, yillar davomida o‘zi yoqtirmaydigan ishni qilishga majbur bo‘ladi, chunki ish joyini yoki kasbini o‘zgartirishga jur’ati yetmaydi.

Oilaviy hayotda ham shu holat kuzatiladi — turmush o‘rtog‘i bo‘lishiga qaramay, bolatabiat kishi o‘zini juda yolg‘iz his qilishi mumkin. Sabablari: o‘ziga turmush o‘rtoq emas, balki hamma narsani o‘zi istagancha bajaruvchi ota-onasining o‘rnini bosadigan odam bilan yashaydi. Ikkinchidan, infantil u bilan o‘z qaroriga ko‘ra yashayotgani ham dargumon: uning uchun boshqalar qaror qilgan.

Ulg‘aymagan shaxs boshqalarga, ularing fikriga va harakatlariga qaram bo‘ladi. O‘z maylini birovga topshirish orqali nochor ahvolga tushib qolish xavfi tug‘iladi. Albatta, kamol topgan kishilar ham yaqin munosabatlarga muhtoj, lekin bu qaram bo‘lish degani emas.

Infantilizmdan qutulish mumkinmi?

Infantilizmdan qutulish mumkin. Bunday dunyoqarashni yengish uchun inson o‘z hayoti faqat o‘ziga bog‘liqligini, uni faqat o‘zi o‘zgartira olishi mumkinligini, o‘z fikri, qarorlari, hissiyotlari va istaklariga ega bo‘lish, ularni hayotga tatbiq qilishga

haqli ekanini anglashi kerak. Bir qarashda osonday, chunki bu xislatlar nazariy jihatdan bizda tug‘ma hisoblanadi. Lekin amalda ongli yoshdagi odam hech qachon o‘ziga quloq tutmagan va mustaqil ravishda qarorlar qabul qilmagan bo‘lsa, uni qayta sozlash qiyin bo‘lishi mumkin. Shu bois hamma ham psixolog yordamisiz infantilizmni yenga olmaydi.

Insonning o‘zi o‘zgarishni istashi muhim. Aksar bolatabiat kishilar o‘zining fikrlash tarzi va xatti-harakatidagi xususiyatlarni payqamaydi. Yuqorida sanalganlarning barchasi ulardagi ong ostida yotadi. Onam, dadam yoki turmush o‘rtog‘im kelib, muammoni hal qilib beradi, deb o‘ylamaydi. Mustaqil qaror qabul qila olmasligini o‘zi fahmlamaydi. Ular yakuniy qarorga kelishdan avval maslahatlashib olishi kerakligi haqida o‘ylaydi (va boshqalarga shunday deydi). Bu toifadagi kishilar barcha qarorlarni o‘zi qabul qilayotganiga ishonadi va g‘ururlanadi.

Xulosa o‘rnida: kattalar bolalikning bir qismini o‘zida saqlab qolishi, albatta, kerak — mayda narsalardan mamnuniyat hissini, orzu qilish, mo‘jizaga ishonish va boshqa tuyg‘ularni beradi. Lekin zarur vaqtda voyaga yetgan shaxs sifatida tizginni qo‘lga olish juda muhim. Bolalik qanchalik go‘zal bo‘lmasin, o‘rnini katta hayotga bo‘shatib berishi kerak, u ham o‘ziga yarasha afzalliklarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduvakilovna, K. U. (2024, March). IJTIMOIY NORMALAR VA MULOQOT FAOLIYATINING O ‘ZARO ALOQADORLIGI. In E Conference Zone (pp. 5-10).
2. Abduvakilovna, K. U., & Bekmurod o‘g‘li, T. N. (2024, March). RUS PSIXOLOGLARINING MULOQOT HAQIDAGI QARASHLARI. In E Conference Zone (pp. 1-4).
3. Abduvakilovna, K. U., & Farxod o‘g‘li, P. X. (2023). SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KELTIRIB CHIQARUVCHI SABABLARI. Scientific Impulse, 2(15), 239-242.
4. Abduvakilovna, K. U., Qizi, G. U. S. M., & Qizi, A. G. A. (2023). OQUV JARAYONIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TOMONLARI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(1), 766-769.
5. Karakulova, U. A., Albekova, Y. O. Q., & Abduraxmonova, H. Z. Q. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI VA OILAVIY MUNOSABATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 801-806.
6. Abduvakilovna, K. U. (2024, March). IJTIMOIY NORMALAR VA MULOQOT FAOLIYATINING O ‘ZARO ALOQADORLIGI. In E Conference Zone (pp. 5-10).
7. Abduvakilovna, K. U. (2023). OGISHGAN XULQ-ATVOR VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR.
8. Каракулова, У., Хайдаркулов, Х., & Хайдарова, Б. (2023). Bolaning tengdoshlari bilan muloqotining o ‘ziga xosligi. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 453-457.

9. Каракулова, У., Бердиерова, С., & Реджепбаева, А. (2023). Bolalar muloqotning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 457-461.

10. Karakulova, U., & Malikova, S. (2023). STRESS UNI YENGISH USULLARI. *Молодые ученые, 1*(20), 129-131.

ФИЗИОЛОГИЯ ЭМОЦИЙ

Имомова Шамсия Абдувахобовна,
Байзакова Барно Болибековна
Джизакский филиал Национального университета Узбекистана

Аннотация: все мы имеем богатый индивидуальный эмоциональный опыт, всем нам известно, что есть страх, гнев и радость. В данной статье установим связь между физиологией и эмоциями.

Ключевые слова: эмоции, гормоны, физиология, страх, гнев и радость, человек, теория, состояние, реакция, субъект, объект, нейрофизиология.

«Истинными мотивами, двигателями человеческого поведения являются эмоции, а социально-исторические образования есть лишь их проекции».

Петражицкий, 1908

Теоретически мы все понимаем, что же такое эмоция, но если воспользуемся толковым словарем, то лексическое значение меняется в зависимости от науки, которая изучает ее. **Данный термин** имеет самые разные определения:

- чувства, переживания, душевное волнение, одно из важных сторон психики;
- процесс, характеризующийся переживанием человеком действительности, интегральное выражение тонуса нервно-психической деятельности, отражающееся на всех сторонах психики;
- субъективная реакция, которая отражает наша нервно-психическая организация, отвечая на внешние раздражители [1].

Эмоция — это психический процесс, который отражает субъективное оценочное отношение к существующим ситуациям или возможным ситуациям в объективном мире. Выделяют следующий вид эмоций, как:

- положительная
- отрицательная
- Нейтральная
- Нетрадиционная
- Статическая;
- Динамическая

Но по теории Дарвина к первичным эмоциям (связанным с выживанием), унаследованные людьми является страх, ярость, боль и тому подобные эмоции.

Но только в психологии, специалисты выявляют различие между понятием «*эмоция*» и понятиями «*чувство», «аффект»*, «настроение» и «переживание». К примеру, аффекту свойственно острое проявление эмоций, часто вызван воздействием извне. Главной отличительной чертой аффекта от эмоции – это эмоция практически может не иметь внешних проявлений, значительно продолжительнее по времени и слабее по силе. Таким образом, мы можем смело сказать, что совладение аффектом присуще только личности. Также от настроений эмоции могут меняться достаточно быстро и протекать довольно интенсивно. Под переживаниями же обычно понимают исключительно субъективно-психическую сторону эмоциональных процессов, не включая физиологические составляющие [2].

Эмоции - компенсаторный механизм, восполняющий дефицит информации, необходимой для достижения цели (удовлетворения потребности). Так, ярость компенсирует недостаток сведений, необходимых для организации борьбы, страх возникает при недостатке информации, требуемой для защиты, горе возникает в

ситуации полного отсутствия информации о какой бы то ни было возможности восполнения потери.

Однако, для деятельности необходимы не только информация о возможности ее выполнения, но еще и энергия, и время, а в теории Симонова они не учитываются [3].

Согласно Симонову, существуют только два эмоциональных состояния - отрицательное и положительное. Связь между эмоциями и физиологией двунаправлена. Хотя эмоции могут влиять на наше физическое состояние, наше физическое состояние также может влиять на наше эмоциональное благополучие. Способствие физическому здоровью, такое как физические упражнения, достаточный сон и питательная диета, может положительно повлиять на наше эмоциональное состояние, регулируя уровень гормонов и уменьшая стресс. Более того, такие практики, как осознанность и методы релаксации, могут помочь модулировать физиологическую реакцию на эмоции. Также эмоции оказывают глубокое влияние на хрупкий баланс гормонов в нашем организме. Гормоны действуют как химические мессенджеры, путешествуя по кровотоку и влияя на различные функции и системы организма. Секреция гормонов жестко регулируется и на нее могут существенно влиять эмоциональные состояния. Например, положительные эмоции, такие как счастье и любовь, вызывают выброс окситоцина, который часто называют «гормоном любви». Окситоцин способствует чувству привязанности, доверия и социальной связи. Он также играет решающую роль в родах и грудном вскармливании. И наоборот, негативные эмоции, такие как страх и печаль, могут нарушить баланс гормонов. Например, длительное чувство грусти или депрессии может привести к дисбалансу серотонина - нейротрансмиттера, связанного с регуляцией настроения.

Хирургические удаления и поражения (по этическим соображениям метод удалений применим только на животных. Иногда, впрочем, приходится проводить операции на мозге человека не ради неэтичного эксперимента, а ради

того, чтобы продлить жизнь онкобольного. В этом случае можно отслеживать побочные эффекты).

Центральный нервный аппарат эмоций. представлен совокупностью мозговых образований, которые принято называть "висцеральным мозгом". Название подчеркивает тесную связь всех образований висцерального мозга с регуляцией деятельности внутренних органов. Эта связь имеет двоякий смысл. С одной стороны, она напоминает о зависимости эмоций от внутренних потребностей, с другой - делает понятным те глубокие изменения вегетатики, которые бывают при реализации эмоций [4].

Подводя итоги, мы можем сказать, что эмоции неразрывно связаны с нашей физиологией. Ведь человеческий организм - самое сложное что есть и до сих пор до конца неизученное. Понимание физиологии эмоций дает нам бесценное понимание сложных отношений между разумом и телом. Эмоции способны формировать наши физиологические реакции, влиять на гормональный баланс и влиять на наше общее состояние здоровья и самочувствие. Развивая эмоциональный интеллект, применяя методы управления стрессом и уделяя приоритетное внимание заботе о себе, мы можем использовать силу эмоций таким образом, чтобы способствовать устойчивости, равновесию и оптимальному физиологическому функционированию. Принятие этого целостного подхода позволяет нам ориентироваться в сложном гобелене эмоций и вести более здоровую и полноценную жизнь.

Литературы:

1. *К Изард.* Эмоции человека. — М.: МГУ, 1980. — 440 с.
2. *А. С. Батуев.* Глава 6. Факторы организации поведения. #3. Роль эмоций в организации поведения // Физиология высшей нервной деятельности и сенсорных систем. — 3-е издание. — СПб.: «Питер», 2010. — С. 177. — 320 с. — (Учебник для вузов). — ISBN 978-5-91180-842-6.
3. *Александрин В. В.* Знак эмоции противоположен направлению изменения мотивационного возбуждения // Актуальные проблемы современной науки. № 6 (103) Год: 2018 Страницы: 113—117 DOI 10.25633/APSN.2018.06.09
4. *Лоуренс Хоуэллс.* Эмо ции, которые нами управляют. Как не попасть в ловушки гнева, вины, печали. Когнитивно-поведенческий подход. = Lawrence Howells.

PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI

Otamuratov Rustam Uskanovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
Muhammadiyev Abdumo‘min Abduxoliq o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi
rustamota1989@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs psixologiyasi muammolaring mohiyati, uning asosiy xususiyatlari va psixologik muammolar bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilinadi. Psixologik muammolarning turlarini aniqlashga va ularning mazmuniga ko‘ra psixologik muammolarni tasniflash tizimining modelini qurishga harakat qilinadi.

Kalit so‘zlar: psixologik muammo, shaxsning psixologik muammolari, psixologik muammolarni tahlil qilish, psixologik muammolarni hal qilish, psixologik muammolarni tasniflash.

Kirish. Psixologik muammolarni hal qilish uchun ko‘plab uslubiy tizimlar va usullar yaratilgan bo‘lsada, [1] psixologik muammolarni tashxislash uchun DSM yoki ICD kabi maxsus umumiy qabul qilingan yondashuvlar yoki diagnostika tizimlari mavjud emas. Har bir mutaxassis o‘z bilimi, tajribasi va psixoterapevtik yo‘nalishiga asoslanib, mijozning muammosini o‘zi belgilaydi. Natijada, amaliy ishda ham, mutaxassislar tayyorlashda ham psixologik muammolarga yo‘naltirish jarayoni sub'ektiv, intuitiv bo‘lib, agar mutaxassis ma'lum bir psixoterapevtik yo‘nalishga qat'iy amal qilsa, u holda bir tomonlama. Bizning fikrimizcha, psixologik muammolarning yagona nazariyasi va tasnifi tizimi hamda ularni tashxislash mezonlari mavjud emasligi nafaqat ishni, balki amaliy psixologlar tayyorlashni ham sezilarli darajada murakkablashtiradi. Bizning fikrimizcha, amaliy psixologiyaning asosiy muammosini hal qilish faqat jamoaviy asosda mumkin, ammo bu erda biz muammoning konturlarini va uni hal qilish tamoyillari haqidagi qarashlarimizni belgilashga harakat qilamiz. Avvalo, biz "psixologik muammo" tushunchasini aniqlashga harakat qilamiz. Psixologik lug‘atlarda, ilmiy va o‘quv adabiyotlarida bu tushuncha kamdan-kam ta'riflanadi va farqlanadi. Biz ikkita ta'rifni topa oldik. Shunday qilib, T. D' Zurilla va boshqalarning fikriga ko‘ra, [2] “Muammo (yoki muammoli vaziyat) bu adaptiv faoliyat uchun javob talab qiladigan hayotiy vaziyat yoki vazifa (hozirgi yoki kelajak), ammo bu javobning ijobiy natijasidir, aniq emas yoki bir yoki bir nechta to‘siqlar mavjudligi sababli mumkin emas”. “A. Blaser va hammualliflar psixologik muammoni’’ bemorning moslashish imkoniyatlariga qo‘yiladigan ortiqcha talablar" deb ta'riflaydilar [3].

Psixologik muammoning turli xil ta'riflarini mashhur psixologik adabiyotlarda ham topish mumkin. Shunday qilib, amaliy psixologiya ensiklopediyasida N.I. Kozlov psixologik muammolarni, “aniq ratsional asosga ega bo‘lmagan ichki muammolar" deb ta'riflaydi [4]. Psixologik muammolarni metodologik nuqtai nazardan tushunishimiz muammoli yondashuv deb ataladigan yondashuvga asoslanadi, unga ko‘ra har qanday jarayonni muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan harakat sifatida ko‘rish mumkin [7]. Bu pozitsiyadan kelib chiqib, psixologik, ijtimoiy-psixologik, patopsixologik

jarayonlar, xulq-atvor reaktsiyalari va shaxs faoliyati psixologik muammolarni hal qilish shakllari sifatida qaralishi mumkin[8]. Psixolog va mijozning birgalikdagi ishi esa shaxsning psixologik muammolarini tashxislash, tushunish va hal qilishga qaratilgan jarayon sifatida qaralishi mumkin [5]. Psixologik muammoni shaxs yoki guruh ichidagi, ruhiy norma doirasida namoyon bo‘ladigan, lekin noqulaylik, zo‘riqish hosil qiluvchi, shaxs yoki guruhning normal rivojlanishi, faoliyati va moslashuvini murakkablashtiradigan, aktuallashtirilgan psixologik qarama-qarshilik deb ta'riflaymiz[6]. Keling, ushbu ta'rifni ochishga harakat qilaylik. Birinchidan, biz muammoni qarama-qarshilik deb hisoblaymiz, chunki har qanday to‘siq, qiyinchilik yoki ziddiyat qarama-qarshi tendentsiyalar o‘rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi. Aytishimiz mumkinki, har qanday muammoning asosi qarama-qarshilik bo‘lib, har qanday muammoni, shu jumladan psixologik muammoni ham shuasos orqali tavsiflash mumkin. Misol uchun, qo‘rquvni yashash istagi yoki o‘z-o‘zini hurmat qilish istagi va bu istaklarga tahdid soladigan vaziyat o‘rtasidagi ziddiyat sifatida tavsiflash mumkin. Shu bilan birga, agar qarama-qarshiliklar tegishli bo‘lsa, psixologik muammoning mavjudligi haqida gapirishimiz mumkin. Ikkinchisi yashirin shaklda mavjud bo‘lishi mumkin, potentsial va mavzuni bezovta qilmaydi va muammo sifatida qabul qilinmaydi. Noqulaylik, keskinlik va umuman salbiy his-tuyg‘ular odatda dolzarb muammolar bilan birga keladi, garchi ba'zida, masalan, intellektual muammolar bilan, keskinlik ijobiy ma'noga ega bo‘lishi mumkin (masalan, ijodiy ish paytida). Bizning fikrimizcha, psixologik muammolar shaxsning moslashuvi, rivojlanishi va normal faoliyati uchun o‘ziga xos to‘siqlardir. Ushbu to‘siqlarni bartaraf etish xususiyatlari, shaxsiy rivojlanish variantlarini belgilaydi, (progressiv, regressiv, patologik rivojlanish).

Ushbu ta'rifda biz psixologik (normal) va "psixiatrik" deb ataladigan muammolarni farqlashga harakat qildik, ya'ni. ruhiy kasalliklar (ingliz tilidagi adabiyotlarda bu tushunchalar odatda sinonim sifatida qabul qilinadi). Aslida, ruhiy kasalliklar ham psixologik muammolardir, ammo normal emas, balki patologiya doirasida. Shunday qilib, psixologik muammolarning ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin ruhiy kasalliklar natijasida yuzaga keladigan patologik muammolar, (kasallik belgilari) va normal faoliyat ko‘rsatadigan psixikaning ziddiyatlarini aks ettiruvchi "normal" muammolar. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu turdagi muammolar orasidagi chiziq juda nozik, ajratish qiyin, barqaror emas va ko‘pincha muammoning o‘zi bilan emas, balki ushbu muammoga duch kelgan odamning xususiyatlari va uning ushbu muammoga munosabati bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, patologik muammolar ko‘pincha oddiy psixologik muammolarning chuqurlashishi va keskinlashishi va ularning etarli darajada hal qilinmasligi natijasida yuzaga keladi. Ma'lumki, ruhiy kasalliklar tasnifi DSM va ICD tizimlarida keltirilgan. Psixologik muammolarni tasniflash tizimida, bizning fikrimizcha, patologik muammolarni ular o‘zini namoyon qiladigan psixikaning pastki tuzilishining psixologik muammolari bo‘limida alohida kichik guruh sifatida taqdim etish mumkin (bu, albatta, juda munozarali masala). Masalan, fikrlashning psixologik muammolari bo‘limida fikrlashning buzilishi (masalan, aldashlar, assotsiativ jarayonning buzilishi va boshqalar) alohida kichik guruhda taqdim etilishi mumkin.

Amaliy psixologiya psixologik muammolarni ularning mazmuniga koʻra tasniflashni, turli xil shaxsiy tuzilmalarning muammolarini aniqlash, guruhlash va tavsiflashni talab qiladi. Aynan shu tasnif asosida psixologik muammolarning diagnostika tizimini qurish kerak. Tabiiyki, bunday tasnif tizimini yaratish faqat koʻplab mutaxassislarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan mumkin, bu erda biz bunday tizimni qurish uchun faraziy modelni taqdim etishga harakat qilamiz. Psixologik muammolarni tasniflash uchun birinchi navbatda ularning namoyon boʻlish sohalarini aniqlash kerak. Biz toʻrtta shunday yoʻnalishni aniqladik.

1. Shaxsning ruhiy sohasi.
2. Shaxsning biologik quyi tuzilishi.
3. Shaxsiy rivojlanish, uning hayot yoʻli, hozirgi va kelajagi.
4. Shaxs va atrof-muhit oʻrtasidagi munosabatlar tizimi.

Shaxsning ruhiy quyi tizimi bilan bogʻliq muammolar. Oʻz-oʻzini tizimining muammolari - bu oʻz-oʻzini anglash, oʻzini oʻzi anglash, oʻziga boʻlgan munosabat, oʻzini his qilish, oʻzini oʻzi yaxlitligi bilan bogʻliq muammolar, (adekvat oʻzini oʻzi anglash, narsisizm, pastlik kompleksi, depersonalizatsiya, dismorfofobiya, shaxsiyatning boʻlinishi, va boshqalar.). Oʻz-oʻzini pastki tuzilmalari bilan bogʻliq muammolar, (masalan, zaif ego, kuchli superego yoki id), himoya mexanizmlari (etarli boʻlmagan, etuk boʻlmagan himoya mexanizmlari va boshqalar). Shaxslararo ziddiyatlar. Introspektsiya va mulohaza yuritish, oʻz tajribalarini anglash va ogʻzaki ifodalash bilan bogʻliq muammolar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jamiyat bilan shaxsning munosabatlari, erkinligi uning xuquqi va burchlari, insoniy qadiryatlari xaqidagi muammolar barcha tarixiy davrda xam buyuk mutaffakirlarining etiborda turgan eng muhim masalalaridan boʻlib hisoblangan. Shaxsning ma'naviy, axloqiy va diniy sohalari muammolari - aybdorlik, axloqiy tanazzul, axloqiy ziddiyat, ma'naviy inqiroz, qadriyatlar toʻqnashuvi, fanatizm, sektalar bilan bogʻliq muammolar va boshqalar. Shaxslararo munosabatlar bilan bogʻliq psixologik muammolar (shaxslararo nizolar, raqobat, oʻzaro dushmanlik, sevgi muammolari, munosabatlarning sovishi, oʻziga xos, shaxslararo munosabatlarning uzilishi natijasida yuzaga keladigan muammolar, masalan, yaqinlarning oʻlimi, er-xotinlarning ajralishi, oʻzaro munosabatlar bilan bogʻliq muammolar. qarama-qarshi jinslar, doʻstlar, qarindoshlar, qoʻshnilar va boshqalar).

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Gʻoziyev E.Gʻ. Umumiy psixologiya. 1-kitob. Psixologiya bgʻlimi talabalari uchun gʻquv qgʻlanma. T. GʻzMU. 2003 y.

2. Otamuratov R., Muhammadiyev A. YATROGENIYA KELIB CHIQISH TARIXI VA ILK QARASHLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 3-9.

3. Otamuratov R., Toshbekov H. PSIXOLOGIK XIZMAT SOHASIDAGI MAUMMOLAR VA YECHIMLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 16-22.

4. Otamuratov R., Internet foydalanuvchilari hisiy intellekt xususiyatlari. PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.,

Professor Ergash G‘oziyevich G‘oziyev xotirasiga bag‘ishlanagan xalqaro Uchinchi ilmiy amaliy konfrensiyasi. – 2024. – T:. 102-106 b.
5. Vasilyuk F. YE. Psixologiya perejivaniya. M., 1984.
6. Vvedeniye v psixologiyu/ Pod obshey red. A. V. Petrovskogo. M., 1997.
7. Vilyunas V. K. Psixologicheskiye mexanizmi motivatsii cheloveka. M., 1990.
8. Vigotskiy S.L. Sobraniye sochineniy v 6-ti tomax. M. 1984.

DEMENSIYA SINDROMI KASALLIGINI KELIB CHIQISHI

Otamuratov Rustam Uskanovich
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Husanova Muhayyo Avazbek qizi
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi
apus2405@jbnuu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola demensiya kelib chiqishi, tibbiyot psixologiyasiga o‘zaro aloqadorligi, davolash muolajalari hamda demensiya borasida o‘rganilgan izlanishlar tahlili va natijalari haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Demensiya, kognitiv funksiyalar, bemor, diqqat, xotira, tafakkur, idrok, nutq, gnozis, praksis, davolash muolajalari.

Kirish. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda, turli xildagi muammolar kelib chiqmoqda. Insonlar orasida turli noma’lum kasalliklar, urushlar, ekologik muammolar oqibatida o‘lim xavfining ko‘payishi ba’zi kasalliklarning rivojlanib tezda rivojlanib ketishi. Bu esa insonlar orasida turli xildagi vahima va xavotirlarni keltirib chiqarmoqda [1]. Ushbu muammolarni barataraf etish esa klinik psixologiyaning vazifalaridan biridir. Insonlarda turli toifadagi xavotirlanish va travmalarning oqibatida demensiya kasalligi paydo bo‘lmoqda.

Demensiya – kognitiv jarayonlarning inson hayoti davomida orttirilgan buzilishi hisoblanadi. Demensiya bosh miyaning og‘ir zararlanishlari sababli rivojlanadi. Kognitiv funksiyalar deganda, diqqat, xotira, tafakkur, idrok, nutq, gnozis, praksis kabi oliy ruhiy funksiyalar tushuniladi. Demak, demensiya tafakkurning orttirilgan buzilishi, u tug‘ma bo‘lmaydi. Demensiya, odatda, 60 yoshdan so‘ng rivojlana boshlaydi va kasallanganlar soni yosh oshgan sayin ko‘payib boradi. Demensiya 60–65 yoshdagilarda 1–5 % kuzatilsa, 80 yoshga borib bu ko‘rsatkich 30 % ga yetadi [2]. Tashxis,“Demensiya” sindromini aniqlash va baholash uchun bir necha algoritmlar ishlab chiqilgan. Kognitiv funksiyalar buzilgan bemorga demensiya tashxisini qo‘yish uchun, albatta, bosh miya zararlangan va bemorning hushi saqlangan bo‘lishi kerak. Bu asosiy talablardan biridir. Demensiyada xotiraning barcha turlarini, ya’ni eshitish, ko‘rish va harakat xotiralarini buziladi. Eshituv xotirasi erta buzila boshlaydi va zo‘rayib boradi[5]. Bemor hozir va avval eshitgan gaplarni eslab qololmaydi. Bemor so‘zlayotganda uning fikri chalg‘isa (telefon jiringlab qoldi, uni eshitayotganlar luqma tashladi va h.k.), nima haqida gapirayotganini unutib qo‘yadi. Unga kimdir biror voqeani ertalab so‘zlab bersa, biroz vaqt o‘tgach, uning tafsilotlarini unutib yuboradi

yoki gap nima haqida ketganligi butunlay esidan chiqadi. Bunday bemorlar bilan xotirani kuchaytiruvchi aqliy mashqlar o‘tkazish deyarli samara bermaydi. Og‘ir holatlarda hozir eshitgan gapini tezda esidan chiqaradi, to‘g‘rirog‘i, eslab qola olmaydi[4].

Bemor avvalgi hayotida bo‘lib o‘tgan voqealarni esiga tushura olmaydi. Kasallik zo‘raygan sayin bemor o‘tmishini umuman unutadi. Obrazli qilib aytganda, ularni “o‘tmishi yo‘q odamlar” deb atash mumkin. Har doim ko‘rib yuradigan tanishlarini yuziga qarab eslay olmaslik – demensiyaning dastlabki va eng ko‘p uchraydigan belgilaridan biridir [3]. Prozopagnoziya deb atalmish bu simptom bosh miyaning ensa-tepa sohasi atrofiyasida ko‘p kuzatiladi. Ushbu sohalar atrofiyasi optik-fazoviy agnoziya belgilari bilan namoyon bo‘ladi. Oddiy qilib aytganda, bemorda geografik xotira buziladi. Bunday bemor ko‘chaga chiqsa, uyini topib kela olmaydi[7]. Boradigan joyini ham topolmaydi yoki nima uchun uydan chiqqanligini unutib qo‘yadi. Agar bemorning ro‘parasida o‘tirib: “Mening o‘ng qo‘limni ko‘rsating desangiz, u sizning chap qo‘lingizni ko‘rsatadi”. Bemor raqamsiz soatda vaqtni to‘g‘ri ko‘rsata olmaydi yoki raqamli soatni to‘g‘ri chizolmaydi. Har xil vaqtlarni ko‘rsatuvchi soat millariga qarab, soat necha bo‘lganini aytib berishda juda qiynaladi. Shu bois, demensiyani aniqlashda soat bilan bog‘liq sinamalardan ko‘p foydalaniladi. Semantik xotira ham erta buziladi. Unga: yoki “Olim Hakimdan uzunroq, kimning bo‘yi past?” deb so‘ralsa, so‘zlarning ma’nosiga uzoq vaqt tushunmay turadi. Bu gaplarni bir necha bor qaytarsa ham, bemor to‘g‘ri javob bera olmaydi. Eslatma. Demensiya tashxisini qo‘yish uchun yaqqol ifodalangan xotira va fikrlash buzilishlari kamida 6 oydan buyon kuzatilayotgan va davom etayotgan bo‘lishi kerak. Demensiyada xotira buzilishi, albatta fikrlash jarayoni buzilishi bilan kechadi[8]. Bemor fikrini bir joyga jamlab, iboralar tuza olmaydi, [5] qaysidir voqea haqida so‘zlab bermoqchi bo‘lsa, uning uddasidan chiqa olmaydi, so‘zlardan gap tuza olmaydi.

Demensiyada nutq funksiyasi uzoq vaqt saqlanib turadi. Keyinchalik nutq buzila boshlaydi va bemorda afaziyaning barcha turlarini (amnestik, sensor, motor) kuzatish mumkin. Dastlab amnestik afaziya, keyinchalik sensor va motor afaziya rivojlanadi. Albatta, nutq markazlarining o‘choqli zararlanishlari (masalan, insultdan so‘ng) sababli rivojlangan demensiya bundan istisno. Demensiyada bemorning shaxsi ham o‘zgarib boradi. Unda o‘ziga va kasallikka bo‘lgan tanqidiy munosabat buziladi. Bemor kir va iflos yuradi, tozalikka rioya qilmaydi, uyalmaydi. Demensiyaning ba’zi turlarida ruhiy faoliyatning keskin pasayishi (apatiya, depressiya, motivatsiyaning so‘nishi) kuzatilsa, boshqa holatlarda, aksincha, psixomotor qo‘zg‘alishlar (agressiya, giperdinamik holat) shakllanadi. Demensiyaning so‘nggi bosqichlarida bemor qayerda yashayotganini va o‘zini anglay olmay qoladi [6]. Bemor o‘z bolalarini ham tanimaydi: uning yoniga kirgan qizi yoki o‘g‘liga «Siz kimsiz?», deb savol beradi. Bemor ovqat yeyman deb aytmaydi, hojatga o‘zi bormaydi, siydik ushlay olmaydi. Uni qay holatda yotqizsa, shu holatda yotaveradi. Yuzdagi hissiy ifoda butunlay so‘nadi. Bunday bemor ham ruhan, ham jismonan nogiron bo‘lib qoladi. Shu yerda depressiyada uchraydigan demensiya haqida to‘xtalib o‘tsak. Depressiya bilan kasallanganlarda ham demensiyaga o‘xshash simptomlar aniqlanadi. Bu holat psevdodemensiya deb ataladi. Psevdodemensiya tashxisi qachon qo‘yiladi? Ularda kognitiv buzilishlar boshlanishidan ancha oldin depressiya belgilari kuzatiladi.

Psevdodemensiyada xotira buzilishi ustunlik qiladi. Apraksiya va afaziya esa kuzatilmaydi. Bunday bemorda neyropsixologik testlar turli xil natija beradi: ba'zida test natijalari bemorda hech qanday dementsiya alomatlarini ko'rsatmasa, ba'zida dementsiya aniqlanadi.

Xulosa: Demensiya tashxisini qo'yishdan oldin, albatta depressiya bor-yo'qligi inkor qilinadi. Buning uchun bemorning psixologik statusi suhbatlar va psixologik testlar (Gamilton shkalasi) yordamida tekshiriladi. Chunki depressiya demensiyaga qaraganda ko'p uchraydi. Demensiya nafaqat bosh miya katta yarim sharlarining po'stloq hujayralari, balki po'stlog'osti tuzilmalar zararlanganda ham rivojlanadi. Po'stloq zararlanishida kuzatiladigan demensiyaga kortikal demensiya, po'stlog'osti tuzilmalari zararlanganda kuzatiladigan demensiyaga po'stlog'osti demensiyasi deb aytiladi. Davolash muolajalari kompleks tarzda olib boriladi va ba'zida psixoterapevtik, fiioterapevtik davolash ishlari malga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vasila Karimova "Salomatlik psixologiyasi". -T .: 2005.]
2. Ibodullayev Z.R. "Tibbiyot psixologiyasi". Darslik. -T.: 2008].
3. Ibodullayev Z .R. "O'zbekistonda tibbiyot psixologiyasini o'qitish kontseptsiyasi". "Patologiya jurnali", 2009. №.1],
4. Olimov X.O., Olimov U.X. "Psixiatriya klinikasining muqaddimasi". -T.: 1997.
5. Otamuratov R., Toshbekov H. PSIXOLOGIK XIZMAT SOHASIDAGI MAUMMOLAR VA YECHIMLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 16-22].
6. Otamuratov R., Internet foydalanuvchilari hisiy intellekt xususiyatlari. PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI., Professor Ergash G'oziyevich G'oziyev xotirasiga bag'ishlanagan xalqaro Uchinchi ilmiy amaliy konfrensiyasi. – 2024. – T:. 102-106 b.
7. Отамуратов R. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях / Р. Отамуратов, С. Отамуратова, Д. Розикулова. – Информатика и инженерные технологии. – 2023. – № 1. – С. 423-8.
8. Невротические расстройства внутренних органов. Б. Д. Карвасарский], В. Ф. Простомолотов. Кишинев. "Штиинца", 1988.

MALAKATIMIZDA INKLYUZIV TA'LIM TARAQQIYOTI

Otamuratov Rustam Uskanovich,
Husenova Mohinabonu
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
apus2405@jbnuu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda mamlakatimizda ta'limga e'tibor yuzasidan qilinayotgan sa'y-harakatlar nazatijasini amaldagi isbotini ko'rsatib beradi.

Ishimizda inklyuziv ta’lim, uning foydali va ahamiyatli jihatlari, inklyuziv ta’lim bo‘yicha yaratilgan shart-sharoitlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maxsus o‘qituvchi, tyutor, maktab psixologi, masofaviy ta’lim, interaktiv xizmatlar.

Kirish. Rivojlanib kelayotgan jamiyatimiz hayotida ta’limga qaratiayotgan yoshlarimizga qaratilayotgan imkoniyatlarning soni kundan-kunga kengayib bormoqda. Mamlakatimizning har bir farzandi erkin va bepul umumiy o‘rta ta’limni olish imkoniyatiga ega bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqsadda vatanimiz hukumati va rahbari tomonidan turli xildagi qarorlar va farmoyishlar chiqarilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan 13.10.2020 yildagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-sonli qarorga muvofiq ishlab chiqilgan [1], Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 yildagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638-son qarori[2] ham ushbu imkoniyatlarning amaliy isboti sanaladi.

Tengdoshlaringiz, sinfdoshlaringiz orasida imkoniyati cheklangan (nogiron) bolalar ham bor, to‘g‘rimi? Siz ular bilan do‘stlashib, birga dars tayyorlaysizmi, birga o‘ynaysizmi? Axir ular ham siz kabi jamiyatda baxtli bo‘lishga haqli, shunday emasmi? Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi. Ya’ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi kerak. O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Xo‘sh nega inklyuziv ta’lim zarur? Ba’zan tengdoshlarimiz, maktabdoshlarimiz orasida yoki mahallada imkoniyati cheklangan bolalarni ko‘rib qolsak, tushunib-tushunmasdan uni ajratib qo‘yishga, u bilan muloqot qilmaslikka harakat qilamiz. Bu noto‘g‘ri, aslida ular bilan o‘rtoq bo‘lib, bir jamoa bo‘lib yashasak, ularning baxtli hayot kechirishlariga hissa qo‘shishimiz mumkin [3].

Jamiyatda har bir bola baxtli bo‘lishga haqli! Ma’lumot uchun: Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim oladi. Hozirda O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2025-yilgacha 40% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu moddalar inklyuziv ta’limga bag‘ishlanganligi diqqatga sazovordir. Alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limini yanada takomillashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish 20-modda. Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim

tashkil etiladi[4]. Inklyuziv ta’limning barcha subyektlari uchun psixologik-pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta’lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari amalga oshirilmoqda. 2021/2022 o‘quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta’lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta’lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflariga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash maqsadida umumta’lim maktablari uchun belgilangan yosh me’yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

Ta’lim muassasasining psixologik xizmati oldida yana bir muhim vazifa – alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan farzandi mavjud oilalar va ularga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirishga qaratilgan oddiy bolalar va umumta’lim maktab o‘quvchilarining ota-onalari bilan ishlash [5,6]. Bugungi tahsil olayotgan o‘quvchilar bir necha yildan so‘ng jamiyatimizning asosiy fuqarolarini tashkil qiladi, shuning uchun ular yoshligidan nogironligi bo‘lgan bolalarni tushunib, ular bilan birga yashashni o‘rganishlari muhim.

O‘quvchilar so‘rovi natijalariga ko‘ra:

1. Jismoniy nuqsonlari, nogironligi bor odamlarga qanday munosabatdasiz? Javob: yaxshi -85%, javob berish qiyin - 15%;

2. Sinfda alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarning borligi sizni bezovta qilmaydimi? Javob: yo‘q - 65%, ba’zan - 25%, ha - 10%);

Inklyuziv ta’lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglar maxsus o‘qituvchilar sanaladi. Ushbu o‘qituvchilar butun ta’lim jarayonida korreksion rivojlantiruvchi faoliyat olib boradi. Sinf o‘qituvchisi tomonidan o‘tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzu yuzasidan alohida ehtiyojli o‘quvchiga individual tarzda tushuntirib beradi. Ular uyidagi faoliayt bilan ham shug‘ulllanadi;

• o‘quvchilarning kuchli tomonlarini va ehtiyojli sohalarini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta’minlaydi;

• o‘qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi;

• milliy dastur asosidagi ta’limni samarali o‘zlashtirilishida muhim o‘rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi;

• o‘quvchilarning bilimini nazoratini to‘g‘ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;

• o‘quvchilar bilan individual ta’lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog‘liq bola rivojlanishining o‘ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi;

• maktabda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi;

• ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.

Maktab psixologi - maktab psixologi inklyuziv sinfdagi har bir o‘quvchining psixologik-pedagogik tavsifi bilan tanishadi; - ularning ruhiy, jismoniy holatidan kelib chiqqan holda bu bolalar bilan yakka va kichik guruhda psixologik moslashuv treninglarini olib boradi; - inklyuziv sinf o‘quvchilari bilan yalpi psixologik o‘yinlar va mashg‘ulotlar olib boradi; - sinfdagi ota-onalar bilan sinf jamoasida do‘stona

munosabat muhitini shakllantirishda ota-onaning o‘z farzandi bilan olib borilishi zarur bo‘lgan ishlar yuzasidan maslahatlar odib boradi; - o‘quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o‘rganish va ularni tarbiyalash bo‘yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

Xulosa qilib aytganda,agar alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘quvchi kichik maktab yoshida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlansa:

• maktabdan kattalar hayotiga o‘tish (ijtimoiy hayotga kirish) oson bo‘ladi;

• ishga joylashish imkoniyatlarida (nogironlik darajasiga qarab to‘g‘ri kasb-hunarga yo‘naltirishda qiyinchiliklar kuzatilmaydi;

• o‘quvching shaxsiy qiziqishlari eshitiladi va inobatga olinadi;

• maktabni tugatgandan keyingi hayotida turar joy variantlarida muammolar kuzatilmaydi;

• alohida ehtiyojli boilalarni harakatlanishidagi kunlik ehtiyojlarini qondirish uchun transport vositalarida harakatlanish tartibini shakllanadi;

• tibbiy yordamdan qanday foydalanish mumkinligi haqidagi tushunchalar hosil bo‘ladi;

• keyingi ta’lim (oliy ta’lim, kollej) haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi;

• jamoaviy dam olish va bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish imkoniyatlaridan foydalanadi;

• oilaviy va do‘stona munosabatlarni yo‘lga qo‘yishni biladi;

• mustaqil hayot uchun ko‘nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., - T:. 30.04.2023

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.

3. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638-son qaror.

4. Otamuratov R., Internet foydalanuvchilari hisiy intellekt xususiyatlari. PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI., Professor Ergash G‘oziyevich G‘oziyev xotirasiga bag‘ishlanagan xalqaro Uchinchi ilmiy amaliy konfrensiyasi. – 2024. – T:. 102-106 b.

5. Otamuratov R., Muhammadiyev A. YATROGENIYA KELIB CHIQISH TARIXI VA ILK QARASHLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 3-9.

6. Otamuratov R., Toshbekov H. PSIXOLOGIK XIZMAT SOHASIDAGI MAUMMOLAR VA YECHIMLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 16-22.

ASYMPTOTICS OF EIGENVALUES OF RANK-ONE PERTURBATIONS OPERATOR ON LATTICE

[1]F. Almuratov, [2]A. Bahriddinova, [2]M. Amrilloyeva and [2]M. Annaqulova
[1,2]Jizzakh branch of National University of Uzbekistan,
[1]Associate professor at the Department of Applied Mathematics
[2]Student at the Department of Applied Mathematics
almurotov@gmail.com

Abstract. We consider the family $H_v(\mu)$ of discrete Schrödinger-type operator in two-dimensional lattice $\mathbb{T}^2$. We establish the existence or non-existence and also the finiteness of eigenvalues of $H_v(\mu)$ lying above the essential spectrum. Moreover, we study the properties of eigenvalues as a function of μ, in particular, we find the asymptotics of eigenvalues as sufficiently small and positive μ.

Keywords: operator, spectrum, eigenvalue, eigenvalue asymptotic.

The family $H_v(\mu)$ given by below can be seen as a discrete counterpart of a continuous nonlocal Schrödinger-type operators appearing as a diffusion generator in certain stochastic models (see e.g. [2–6]). At the same time, they can also be seen as an effective one-particle discrete Schrödinger operator $H_v(\mu; K)$ parametrized by quasi-momenta $K \in T\,d$, associated to the Hamiltonian of a system of two arbitrary and/or identical particles in *d*-dimensional lattice Z^d (see e.g. [4–11]).

Such lattice models have become popular in recent years because they represent a minimal, natural Hamiltonian describing the systems of ultracold atoms in optical lattices – systems with highly controllable parameters such as lattice geometry and dimensionality, particle masses, tunneling, temperature etc. (see e.g., [7,8,9,10] and references therein).

In the momentum space representation, the operator acts in $L^2(\mathbb{T}^2)$ by

$$H_v(\mu) := H_0 + \mu V_v, \quad \mu > 0.$$

The free Hamiltonian H_0 is the multiplication operator in $L^2(\mathbb{T}^2)$ by the function

$$\varepsilon := 2\pi \mathcal{F}\hat{\varepsilon}$$

so-called the *dispersion relation* of the particle and the potential $V_{a,b}$ acts on $L^2(\mathbb{T}^2)$ as a convolution operator

$$V_v f(p) = v(p) \int_{\mathbb{T}^2} v(q) f(q) \mathrm{d}q$$

defined in $L^2(\mathbb{T}^2)$, where $v(\cdot)$ is a given nonzero real-analytic function on $\mathbb{T}^2$. By the clasic Weyl theorem we obtain

$$\sigma_{\mathrm{ess}}\big(H_v(\mu)\big) = \sigma(H_0) = [\varepsilon_{\min}, \varepsilon_{\max}], \qquad \mu > 0,$$

where

$\varepsilon_{\min} := \min \varepsilon, \quad \varepsilon_{\max} := \max \varepsilon.$

In what follows we always assume:

Hypothesis 1 *The dispersion relation ε is a real-valued even function, symmetric with respect to coordinate permutations and having a non-degenerate unique maximum at $\vec{\pi} = (\pi, \pi) \in \mathbb{T}^2$. Moreover, ε is analytic near $\vec{\pi}$.*

In this paperwe study the eigenvalues of operators by the min-max principle, $H_v(\mu)$ can have at most one eigenvalue outside the essential spectrum. Also note that $z_0 > \varepsilon_{\max}$ is eigenvalue of $H_v(\mu)$ if and only if z_0 is a zero of the corresponding Fredholm determinant

$$\Delta_v(\mu; z) := 1 - \mu \int_{\mathbb{T}^2} \frac{v(q)^2 \mathrm{d}q}{z - \varepsilon(q)}.$$

Such an equivalence will be frequently used subsequently. First we study the existence of eigenvalues of $H_v(\mu)$.

Theorem 1. *Let v be nonzero real-analytic function on $\mathbb{T}^2$ and let*

$$\mu_v^0 := \left[\int_{\mathbb{T}^2} \frac{v(q)^2 dq}{\varepsilon_{max} - \varepsilon(q)} \right]^{-1}.$$

Then $\mu_v^0 = 0$ if $v(\vec{\pi}) \neq 0$ and $\mu_v^0 \in (0, +\infty)$ if $v(\vec{\pi}) = 0$. Moreover, for any $\mu > \mu_v^0$ the operator $H_v(\mu)$ has a unique eigenvalue $z_v(\mu) > \varepsilon_{max}$ and the corresponding eigenfunction is

$$f_\mu(p) = \frac{v(p)}{z_v(\mu) - \varepsilon(p)}.$$

Moreover, the function $z_v(\cdot)$ is real-analytic, strictly increasing and strictly convex in $(\mu_v^0, +\infty)$ with the asymptotics

$$z_v(\mu) \searrow \varepsilon_{max} \quad as \quad \mu \searrow \mu_v^0, \qquad (1)$$

and

$$z_v(\mu) = \mu \int_{\mathbb{T}^2} v(q)^2 \, dq + \left[\int_{\mathbb{T}^2} v(q)^2 \, dq \right]^{-1} \int_{\mathbb{T}^2} v(q)^2 \, \varepsilon(q) dq + O\left(\frac{1}{\mu}\right)$$

as $\mu \to +\infty$. Finally, if $v \in L^{2,\omega}(\mathbb{T}^2)$ for some $\omega \in \{os, oa, ea, es\}$, then $L^{2,\omega}(\mathbb{T}^2)$ is invariant subspace of $H_v(\mu)$ and $f_\mu \in L^{2,\omega}(\mathbb{T}^2)$.

то, чтобы модернизировать и усовершенствовать методы и приемы преподавания фонетических основ в изучении английского языка.

Ключевой составляющей правильного обучения фонетическому строю языка является демонстрация правильного произношения учащемуся, а также организация грамматически и фонетически выверенного с точки зрения языка взаимодействия с носителями.

Важнейшим вопросом с точки зрения методологии обучения английскому языку является изучение его коммуникативной способности, для этой цели у ученика должно быть сформировано правильное произношение. Существует определенная методология становления и развития фонетических навыков на уроках. Мы можем выделить три уровня в подготовке и формированию умений, знаний и навыков при обучении фонетическому строю английского языка. В первую очередь, артикуляционный уровень (звукам обучают путем того, что учителем объясняются их артикуляционные особенности), акустический уровень (ученик на слух воспринимает и имитирует звуки в потоке речи), дифференцированный уровень, при котором объединяется первый и второй подходы.

На начальном этапе обучения школьнику очень важно воспринимать и имитировать произношение носителей языка, более того школьникам нужно знать, как устроен речевой аппарат, так как от этого напрямую зависит правильность постановки произношения.

Усилия необходимо направить на отработку этого навыка на основе фонетической зарядки, так как данный способ обуславливает наивысшую степень вовлеченности и мотивации школьников на уроках английского языка, а также служит базой для формирования речемыслительной активности.

Одной из основных задач по данному направлению является активизация мыслительной деятельности учащихся, а также организация четкого плана и структуры урока. Необходимо задействовать работу зрительных, моторных и слуховых анализаторов.

Ученикам младших классов крайне проблематично быть сосредоточенными в течение всего урока, и тем не менее это возможно и необходимо. Для достижения данной цели необходимо придерживаться определенной структуры урока:

1) необходимо следовать темпу урока; 2) соблюдать метод ясности изложения; в) активизировать речемыслительную деятельность; д) чередовать разнообразные виды деятельности;

Рогов С.С. утверждал, что «яркие раздражители» являются очень хорошим средством для привлечения внимания. В результате их воздействия у ученика формируется повышенный мотивационный интерес к занятиям. Изначально школьник реагирует именно на такие яркие акценты, одним из которых безусловно может являться фонетическая зарядка на уроках английского языка. Далее на основании данных ярких пятен и акцентов ученик учится самостоятельно прикладывать усилия и направлять внимание в необходимое ему русло, а также вовремя переключать деятельность с одного вида на другой.

Выполнение упражнений фонетического плана на уроках английского языка используется для поддержания и развития умственной и мотивационной активности школьника, помогает ему правильным образом организовать свою деятельность на уроках. В первую очередь, фонетическая зарядка влияет на развитие внимания и внимательности у младших школьников.

Внимательность измеряется умением усердного сосредоточения на своей умственной и производственной деятельности во время занятия, что безусловно способствует активизации мыслительной деятельности учеников.

На данном этапе мы можем наблюдать большие сдвиги в развитии этих навыков у младших школьников. На уроках в младших классах при освоении английского языка школьники преимущественно в принудительном порядке изучают тот или иной материал, однако для того, чтобы стать успешными в освоении предмета, им требуется не только механическое заучивание материала урока, основных фонетических правил, но и осмысленное понимание предлагаемых заданий, хотя большинство ученых все же склоняется к мысли, что память у младших школьников это определенного рода механический процесс. Таким образом, ученикам необходимо учиться сознательному анализу учебных материалов и на основе этого развивать логическую память, запоминать абстрактные дефиниции. В данном процессе им нужно выбрать ключевые точки для опоры и использовать их для активизации мыслительных процессов. В связи с этим мы категорически против использования методов принудительного заучивания фонетических структур на занятиях английским языком в начальной школе. Необходимо осмысленное запоминание и анализ материала для успешного процесса обучения на уроках английского языка с учетом всех психологических и физиологических особенностей учащихся.

При организации учебной деятельности учеников младшего школьного возраста нужно брать в расчет также и темперамент школьника. Общеизвестен тот факт, что учащиеся сангвинистического типа быстро реагируют на изменяющуюся ситуацию и, соответственно, могут к ней быстрее адаптироваться. Школьники-холерики напротив крайне вспыльчивы и несдержаны, соответственно при наличии большого количества «ярких пятен» могут быть дезориентированы. Флегматики отличаются терпеливым и медлительным характером, а скорость реакций на стимуляцию мыслительной деятельности может быть существенно ниже, чем у тех же холериков.

Анализ индивидуальных характеристик школьников начальных классов и их учет в образовательной деятельности позволяют предположить, в каких ситуациях, связанных с процессом обучения, они окажутся приносящими пользу, а в каких вызовут затруднение. Таким образом, основной задачей учителя является помощь школьнику в организации подходящего индивидуального типа деятельности. При формировании и развитии навыков слуха и произношения крайне важно использовать фонетические упражнения, используя методы распознавания, дифференциации и идентификации, имитации фонематического строя изучаемого языка.

Список использованной литературы:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. Изд. 5, испр. — Издательство "Лабиринт", М., 1999. – с.112

2. Гальскова Н.Д., Никитенко З.Н. Теория обучения иностранным языкам. – М.: АЙРИС ПРЕСС, 2005. – с.256

3. Корепина Л. Работа над звуковой культурой речи (развитие речи шестилеток-первоклассников). // Начальная школа. – 2013. – № 4.- С. 112

XOTIN-QIZLAR HUQUQBUZARLIGINI OLDINI OLISHDA GENDER OMILLAR

Xojaeva Adolat Abdulqayumovna
Namangan Davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ayollar huquqbuzarligining oldini olishda gender omillarining murakkab o‘zaro ta'sirini ko‘rib chiqadi. Ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlik ko‘p qirrali muammo bo‘lib, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va psixologik omillar ta’sirida namoyon bo‘ladi. Turli nazariy asoslarni va empirik dalillarni o‘rganib, ushbu maqola ayollarning huquqbuzarlik xulq-atvori asosida yotgan murakkab dinamikani yoritib berishga va jinsga xos jihatlarni hisobga olgan holda oldini olish strategiyalarini taklif qilishga qaratilgan. Feministik qarashlar va ijtimoiy nazariyalarga tayanib, biz ayollar huquqbuzarligining asosiy sabablarini tushunishda genderning ahamiyatini o‘rganamiz va ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish uchun moslashtirilgan aralashuvlar muhimligini ta'kidlaymiz.

Kalit so‘zlar: Gender, ayollar huquqbuzarligi, oldini olish, ijtimoiy-falsafiy tahlil, feministik qarashlar.

Ayollar o‘rtasidagi huquqbuzarlik butun dunyo bo‘ylab jiddiy tashvish bo‘lib qolmoqda, bu ham alohida shaxslar, ham butun jamiyat uchun ta'sir qiladi. Tarixiy jihatdan tadqiqot va aralashuvlar asosan erkaklar jinoyatiga qaratilgan bo‘lsa-da, jinoiy xatti-harakatlarga jalb qilingan ayollar duch keladigan noyob muammolarni tushunish va hal qilish zarurati tobora ortib bormoqda. Gender tajriba va huquqbuzarlik yo‘llarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ammo an'anaviy kriminologik tahlillarda uning ta'siri ko‘pincha e'tibordan chetda qoladi. Ushbu maqola ayollar huquqbuzarligining oldini olishda gender omillarining ijtimoiy-falsafiy ekspertizasini taklif qilish orqali ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qiladi.

Ijtimoiy ta'lim nazariyasi odamlar xatti-harakatlarni kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash orqali o‘rganishini ta'kidlaydi. Ayollarning huquqbuzarliklariga tatbiq etilganda, bu nazariya jinoiy xatti-harakatlarning jinsga xos shakllarini shakllantirishda sotsializatsiya jarayonlarining rolini ta'kidlaydi. Gender sotsializatsiya me'yorlari ayollarni erkaklarnikiga nisbatan turli xil xavf omillari va huquqbuzarlik imkoniyatlariga duchor qilishi mumkin. Masalan, an'anaviy gender rollari ayollarning muvaffaqiyatga erishishning qonuniy vositalaridan foydalanishini cheklab qo‘yishi

mumkin, bu esa ba'zilarni huquqbuzarlik yoki omon qolish vositasi sifatida huquqbuzarliklarga olib keladi.

Feministik kriminologiya jinoiy odil sudlov tizimlarining gender tabiatini va ayollarning huquqbuzarliklariga jamiyatning javoblarini ta'kidlab, jinoyat va huquqbuzarlik haqidagi an'anaviy tushunchalarni shubha ostiga qo‘yadi. Patriarxal tuzilmalar va madaniy me'yorlar ko‘pincha ayollarga nomutanosib ravishda ta'sir ko‘rsatadigan tengsizliklarni davom ettiradi va ularning huquqbuzarlik xatti-harakatlarida ishtirok etishiga yordam beradi. Feminist olimlar tizimli zulm, iqtisodiy marginallashuv, zo‘ravonlik va travma tajribalarini o‘z ichiga olgan ayollar huquqbuzarligining asosiy sabablarini hal qiluvchi yaxlit yondashuvni ta'kidlaydilar.

Ayollar huquqbuzarligining gender omillari.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli og‘ir bo‘lgan ayollarning huquqbuzarliklarga aralashish xavfi yuqori. Iqtisodiy tengsizlik, ta'lim olish va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarining cheklanganligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarining etishmasligi ayollarni iqtisodiy omon qolish vositasi sifatida jinoiy faoliyatga undaydigan sharoitlarni yaratishi mumkin. Bundan tashqari, irq, etnik kelib chiqish va jinsiy orientatsiya kabi kesishuvchi omillar jins bilan kesishadi va huquqbuzarlik uchun zaiflikni kuchaytiradi.

Genderga asoslangan zo‘ravonlik tajribasi, jumladan, oiladagi zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik va odam savdosi ayollarning huquqbuzarlik xatti-harakatlariga jalb etilishi uchun muhim xavf omillari hisoblanadi. Bunday tajribalar natijasida kelib chiqadigan travma o‘zini o‘zi himoya qilish yoki qasos olish vositasi sifatida noto‘g‘ri kurashish mexanizmlarida, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilishda va jinoiy harakatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, gender asosidagi zo‘ravonlikni bartaraf etishdagi tizimli muvaffaqiyatsizliklar ayollar o‘rtasida qurbonlik va huquqbuzarlik davrlarini davom ettiradi.

Ayollar huquqbuzarligining samarali oldini olish uchun ayol huquqbuzarlarning o‘ziga xos ehtiyojlari va tajribasini hisobga olgan holda genderga mos tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bunga ayollarga qashshoqlik va zo‘ravonlik davrlaridan xalos bo‘lishga imkon beruvchi travma haqida ma'lumotli yordam ko‘rsatish, ruhiy salomatlik xizmatlaridan foydalanish va kasbiy ta'lim dasturlari kiradi. Bundan tashqari, aralashuvlar an'anaviy gender rollariga qarshi turishi va ayollarning huquqbuzarliklariga hissa qo‘shadigan ijtimoiy-madaniy omillarni yumshatish uchun gender tengligini ta'minlashi kerak.

Ayollar huquqbuzarligining oldini olishda mahalliy manfaatdor tomonlar, jumladan, xotin-qizlar tashkilotlari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish idoralari va huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda jamoatchilik tashabbuslari muhim ahamiyatga ega. Qo‘llab-quvvatlovchi muhitni rag‘batlantirish va ijtimoiy inklyuziyani rag‘batlantirish orqali ushbu yondashuvlar asosiy tarkibiy tengsizliklarni bartaraf etishi va ayollar o‘rtasida huquqbuzarlik xavfini kamaytiradigan himoya omillarini kuchaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ayollar huquqbuzarligining oldini olishda gender omillari hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bu esa gender, ijtimoiy-iqtisodiy holat, zo‘ravonlik va jarohatlarning kesishgan ta'sirini hisobga olgan holda ijtimoiy-falsafiy yondashuvni talab qiladi. Feministik nuqtai nazarlarni qabul qilish va ayollarning

huquqbuzarliklarini davom ettiruvchi tizimli tengsizliklarni tan olish orqali siyosatchilar va amaliyotchilar jinoiy odil sudlov tizimiga jalb qilingan ayollar uchun gender tengligi va ijtimoiy adolatni targ‘ib qiluvchi yanada samarali oldini olish strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chesney-Lind, M. (1997). The Female Offender: Girls, Women, and Crime. Sage Publications.
2. Daly, K. (1994). Gender, Crime, and Punishment. Yale University Press.
3. Miller, J. B. (1976). Toward a New Psychology of Women. Beacon Press.
4. Richie, B. (1996). Compelled to Crime: The Gender Entrapment of Battered, Black Women. Routledge.
5. Messerschmidt, J. W. (1993). Masculinities and Crime: Critique and Reconceptualization of Theory. Rowman & Littlefield Publishers.

DASHTI-QIPCHOQDA XV – XVI ASRLARDA YUZ BERGAN ETNIK JARAYONLARNING MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI

Turdiyev Ilyos Ulug‘bek o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: XV – XVI asrlarda Markaziy Osiyoda, xususan, uning shimoli-g‘arbiy hududlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va etnik jarayonlarni o‘rganish uchun yozma manbalar yetarli. Faqat ular yetarlicha o‘rganilmagani uchun bu davr tarixini yoritishda bir qator muammolarga duch kelinadi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Chingizxon, Boburnoma, Shayboniyxon, Oltin O‘rda, Dashti Qipchoq.

Kirish. Dunyo xalqlari orasida globallashuv jarayonlari tobora kuchayib borayotgan va turli madaniyatlarning o‘zaro qorishuvi jadallashayotgan bugungi kunda milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ajdodlardan meros moddiy va ma’naviy an’analarni kelgusi yosh avlodga yetkazib berish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu masala o‘zbek xalqi uchun ham xos bo‘lib, bir tomondan dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashish, ikkinchi tomondan esa o‘z milliy madaniyatini avaylab-asrash uchun respublika hukumati va jamoatchilik tomonidan diqqatga sazovordir.

Adabiyotlar tahlili

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan bir qator izlanishlarda ham bu mavzu birmuncha o‘z ifodasini topgan bo‘lib, T.I.Sultanov, A.Ashirov, B.Axmedov, M.Pardayev, M.Abuseyitova, G‘.Boboyorov va boshqalarning ilmiy ishlari ham metodologik, ham ilmiy va amaliy jihatdan tanlab olinayotgan tadqiqot uchun qo‘llanma vazifasini bajaradi. Garchi ushbu tadqiqotlarning ko‘pchiligi o‘rganilishi ko‘zda tutilayotgan mavzuga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tegishli bo‘lmasada, regionlarni o‘zaro taqqoslashda asqotadi deb o‘ylayman.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolaga ma’lumotlar to‘plashda asosan Марказий Осиёда юз берган сиёсий ва этник жараёнларни асосан форсий ва туркий тилли (чиғатой ва усмонли тилларидаги), қисман эса рус, европа (немис, инглиз, француз ва б.), хитой, арман, грузин ва ҳоказо тиллардаги ёзма манбалар ва этнографик материалларга таяниб qiyosiy taqqoslangan.

Tahlillar va natijalar

XV – XVI asrlarda Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy va etnik jarayonlarni asosan forsiy va turkiy tilli (chig‘atoy va usmonli tillaridagi), qisman esa rus, yevropa (nemis, ingliz, fransuz va b.), xitoy, arman, gruzin va hokazo tillardagi yozma manbalar va etnografik materiallarga tayanib yoritish mumkin. Ayniqsa, bu davrda mintaqada hukm surib, ko‘pchiligi Oltin O‘rda davlatining vorislari bo‘lgan bir qator xonliklar adabiy muhitiga xos mahalliy yozma manbalar – turkiy va forsiy tilli tarixiy asarlar hamda Temuriylar muhitiga mansub asarlar o‘sha davrda kechgan tarixiy jarayonlarni kuzatish imkonini beradi.

Ular orasida fors tilida yozilgan Mas’ud ibn Usmon Kuhistoniyning “Tarixi Abulxayrxoniy” (XVI asr)[1], Sayfiddin Axsikandiyning “Majmu at-tavorix”[2], Hofiz Tanish Buxoriyoning “Sharafnomai shohiy” (XVI asr)[3], Xo‘jamqulibek Balxiyning “Tarixi Qipchoqxoniy” XVII asr), turkiy tilda bitilgan “Tavorixi guzida – Nusratnoma” (XVI asr), Abulg‘ozi Bahodurxoning “Shajarayi turk” (XVII asr)[4] asarlari alohida ajralib turadi. Shuningdek, ushbu asarlar qatoriga Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarini ham kiritish mumkin[5]. Ushbu asarlarning ko‘pchiligida o‘rta asrlarda yozilgan tarixiy asarlarda bo‘lgani kabi ko‘chmanchi o‘zbeklar davlatining tashkil topish bilan bog‘liq voqeliklar keltirilishi bilan birga odamzodning yaratilishi, turk-mo‘g‘ul xalqlarining ilk ajdodlari, qadimiy sulolalari, O‘g‘uzxon, Chingizxon va uning avlodlari boshqaruvi haqida so‘z yuritilib, keyin o‘zbek ulusiga aloqador voqeliklari, Shayboniyxon va uning avlodlarining siyosiy faoliyatiga to‘xtalib o‘tilgani ko‘zga tashlanadi.

Shuningdek, bu davrni yoritishda Temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlarga murojaat qilinadi. Ular orasida Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”[6], Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”[7], Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” (XVI asr)[8] va yana o‘nlab tarixiy asarlarni o‘rnak sifatida keltirish mumkin. Ushbu asarlarda asosiy diqqat-e’tibor Dashti Qipchoqda kechgan siyosiy jarayonlarga qaratilgan bo‘lmasa-da, ayrim o‘rinlarda Oltin O‘rda va uning vorislari boshqaruvi doirasida yuz bergan siyosiy voqeliklar haqida birlamchi ma’lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Temuriylar davri tarixiy asarlarida Dashti Qipchoqda yirik siyosiy-harbiy kuch sifatida “o‘zbek ulusi” tushunchasining shakllanishi va ularga nisbatan temuriy mualliflarning munosabati diqqatga sazovordir. Masalan, “Boburnoma”da “o‘zbek” atamasi ostida aynan qaysi aholi guruhi tushunilgani, ular tarqalgan hududlar, ko‘chmanchi o‘zbeklarning o‘ziga xos xususiyatlari, tili, urf-odatlari, jang usullari va hokazolar haqida qisqa, shu bilan birga birlamchi ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Bu davrda Markaziy Osiyoda kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar bo‘yicha tasavvurlarga ega bo‘lish uchun so‘nggi o‘rta asrlarga tegishli Usmonli – Dashti Qipchoq, xususan, Markaziy Osiyodagi xonliklar orasidagi aloqalarni o‘zida birmuncha aks ettirgan “Usmonli arxivi hujjatlari” orasida

saqlanayotgan yozishmalarga murojaat qilish mumkin[9]. Usmonli hujjatlaridagi ma’lumotlar birmuncha keyingi davrlarga tegishli bo‘lsa-da, kichik osiyolik turklar “o‘zbeklar” deganda aynan kimlarni nazarda tutgani va ularga nisbatan qanday ta’rif berilgani o‘sha davrdagi etnik vaziyat bo‘yicha tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi.

Bu davr haqida u yoki bu darajada ma’lumot beruvchi asarlar yevropalik va rus mualliflarining asarlarida o‘rin olgan. Jumladan, rossiyalik elchi

И.Д.Хохловнинг hisoboti[10], А.Женкинсоннинг qaydlari[11], А.Бекович Черкасскийнинг harbiy ekspeditsiyasi ma’lumotlari[12] Dashti Qipchoq hududidagi tarixiy voqeliklar, ayniqsa, so‘nggi o‘rta asrlarda bu hududda yuz bergan voqeliklar, turli turkiy urug‘lar, ularning etnografik xususiyatlari haqida ayrim muhim ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan asarlardagi ma’lumotlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi. Forsiy va turkiy tilli asarlar manbashunos olim B.Ahmedov va boshqalar tomonidan o‘rganilib, ilm olamiga tanitilgan. Ko‘chmanchi o‘zbeklar tarqalgan hududlar, ularning siyosiy holati va etnik shakllanish bosqichlari, urug‘-qabilaviy tuzilishi, Amudaryo – Sirdaryo oralig‘iga ko‘chgan ushbu aholining dastlab qaysi vohalarda joylashganliklari masalasini tahlil qilgan B.Ahmedov “92 o‘zbek urug‘i” tushunchasiga ham anchagina keng to‘xtalgani ko‘zga tashlanadi.

Bu davr tarixiy asarlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rgangan olimlardan yana biri T. Sultanovdir. Taqdiqotchi XVI asrdayoq “92 o‘zbek urug‘i” ro‘yxati uchrab, shu asrda yashagan farg‘onalik Sayfiddin Axsikandiyning “Majmu at-tavorix” (Tarixlar to‘plami) asaridagi ma’lumotlar buni tasdiqlashiga urg‘u beradi. Turli asarlarda keltirilgan shajaralarga tayangan T.Sultanov o‘zbeklarning 92 ta uruqqa bo‘linishi XVI asrning ilk yarmiga va hatto undan ham oldingi davrlarga borib taqalishi masalasini turli manbalar asosida ko‘rib chiqadi.

Ko‘chmanchi o‘zbeklar ilk yurti – Sirdaryo havzalaridagi faoliyati Shayboniylar davri tarixiy asarlarida ancha keng bayon qilingan. Ulardan biri “Tavarix-i guzida – Nusratnoma”dir. Chig‘atoy turkchasida yozilgan va Shayboniyxon (1451-1510) tarixiga bag‘ishlangan anonim asar bo‘lib, unda Chingizxon va uning avlodlarining Shayboniyxongacha bo‘lgan voqeliklar tarixi aks etgan. Asarning asl matni hijriy 908 (milodiy 1502-1503-yil)da yozilgan bo‘lsa-da, “Tavorix-i guzida” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan asar muallifi shu paytgacha aniqlanmagan[13].

Ushbu asarlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘rta asrlar, ayniqsa, XV – XVII asrlarda Markaziy Osiyo va unga qo‘shni hududlarda ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy vaziyat boshqa davrlarga nisbatan ancha faolligi bilan alohida ajralib turadi. Ya’ni bu davrda mintaqa va unga qo‘shni o‘lkalardan bir qator davlatlar hukm surib, ular orasida mintaqaning shimoli-g‘arbiy qismlarida Oltin O‘rda saltanatining izdoshlari bo‘lmish Qozon xonligi (1438-1552), Astraxan xonligi (1460-1556), No‘g‘oy O‘rdasi (1392-1634), Abulxayr xonligi (O‘zbek ulusi – 1428-1468), Qozoq xonliklari (1465-1857), Shayboniylar (1501-1601), Ashtarxoniylar (1601-1757) kabi turkiy sulolalar bilan bog‘liq voqeliklar yozma manbalarda o‘z aksini topgan. Aynan o‘sha kezlarda bu hududlarga tashqi ta’sirlar kuchayib, bir tomondan, g‘arbdan Moskva knyazligi hujumlari ortib, bir necha bor harbiy harakatlar uyushtirishi va 1552-yilda Qozon xonligini, 1556-yilda Astraxan xonligini egallashi yuz bergan bo‘lsa, undan birmuncha

oldin sharqdan Jung‘or (Qalmoq) xonligining dastlab Abulxayr davlatini, keyinroq esa Qozoq xonliklari ustiga tinimsiz xarbiy yurishlar uyushtira boshlagan edi.

Bungacha Oltin O‘rda hamda Temuriylar saltanati Markaziy Osiyo va unga qo‘shni hududlarda o‘z hukmini o‘tkazib, asosiy “siyosiy kuch”lar sifatida bilingan va aholi, xususan, boshqaruvchi etnik guruhlar turkiy va turklashgan mo‘g‘ul urug‘larining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni yuqori edi. Bu holat XV – XVI asrlarda ham birmuncha o‘z mavqeini saqlab qolgan bo‘lsa-da, XVI asr ikkinchi yarmiga mintaqa siyosiy hayotida katta o‘zgarishlar yuz bera boshlaydi[14]. Yevroosiyo kengliklarida, xususan, Dashti Qipchoqning g‘arbiy hududlari bo‘lmish Sharqiy Yevropa – Qora dengizning shimoli va Shimoliy Kavkazda, biroz keyinroq esa Quyi Volga – Uralbo‘yi, Emba daryosi havzasi, Orol dengizi atroflari – Sirdaryoning quyi va o‘rta havzalaridagi asosan turkiy tilli musulmon ko‘chmanchi siyosiy uyushmalariga siyosiy raqib sifatida bir tomondan – shimoli-g‘arbdan Moskva knyazligi, ikkinchi tomondan – sharqdan jung‘or (qalmoq)lar hujumi kuchayib, ular uchun har ikkala siyosiy kuch borgan sari katta xavf tug‘dira boshlagan bir palla edi. Ulardan birinchisi 1552-yilda Qozon xonligining markazi Qozon shahrini, oradan ko‘p o‘tmay 1556-yilda Astraxan shahrini, birmuncha vaqt o‘tib, 1598-yilda Sibir xonligini bosib olgach, Oltin O‘rda davlatining vorislari orasida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy rishtalar uzilib, o‘zaro qarindosh turk musulmon sulolalar orasidagi aloqalarga putur yeta boshlaydi. Shunga o‘xshash holat mintaqaning shimoli-sharqiy hududlarida – G‘arbiy Sibir va Yettisuvda Uyrot xonligi (Jung‘or – 1399-1634) tomonidan Oltin O‘rda vorislariga, ayniqsa, Abulxayr ulusi va Qozoq xonliklariga jiddiy xavf tug‘dira boshlaydi. Ham diniy e’tiqodi, ham tili va etnik xususiyati farqli bo‘lgan har ikkala yirik siyosiy kuch siquvida qolib, siyosiy ta’sir doirasi tobora kamayib borib, hududi – kunchiqarda G‘arbiy Yettisuv (Chu va Talas daryolari havzasi), kunbotarda – Volga-Uralbo‘yining sharqidagi yerlar orasi bilan cheklanib qolib, oldingi siyosiy maqeini yo‘qotadi.

Bir so‘z bilan aytganda, XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Dashti Qipchoq hududi anchagina kichrayib, hududining yarmidan ko‘prog‘i boshqa etnik guruhlar qo‘liga o‘tib ketadi. Ushbu asrlardan 1-2 asr oldin Dashti Qipchoqning siyosiy chegaralari kunchiqari Oltoy – G‘arbiy Sibirgacha, kunbotari esa Dunay, Dnestr, Dnepr daryolari, Qora dengiz havzalarigacha, shimolda Volga - Kama daryolari havzalaridan janubda Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Kaspiybo‘yi, Sirdaryoning o‘rta va quyi havzalarigacha cho‘zilgan bo‘lsa, bu davrga kelib bu hudud asosan Volga-Uralbo‘yi, Orol – Kaspiy dengizlari orasi, o‘rta va quyi Sirdaryo, Balxash ko‘li atroflari bilan cheklanib qoladi. Bir vaqtlar Yevroosiyo kengliklari – ulkan Dashti Qipchoq hududlarida bemalol ko‘chib yurgan yuzlab musulmon turkiy va turklashgan mo‘g‘ul urug‘lari endilikda Dashti Qipchoqning sharqiy qismlari yoki “kichik Dashti Qipchoq”dagi siyosiy kuchlar - Abulxayr ulusi, Sibir xonligi, No‘g‘oy O‘rda, Qozoq xonliklari doirasida yuz bergan siyosiy va etnomadaniy jarayonlarning “mahsuli” sifatida qaytadan yangi etnik shakllanish bosqichiga qadam qo‘yadilar.

Bu davrga kelib asosan rus hokimiyati ostida qolgan, biroq Qora dengizning shimolidagi hududlari Oltin O‘rdaning vorisi Qrim xonligi (1443-1783) qo‘l ostida bo‘lgan G‘arbiy Dashti Qipchoq bilan Oltin O‘rdaning boshqa vorislari - Abulxayr ulusi, Sibir xonligi, No‘g‘oy O‘rda va Qozoq xonliklari hukm surar edi. Ana shu

Sharqiy hududda yuz bergan etnosiyosiy jarayonlar natijasida XV asr boshlariga kelib, dastlab siyosiy-harbiy toifa sifatida “o‘zbeklar” (bugungi atalishi – “ko‘chmanchi o‘zbeklar”) deb nomlangan aholi guruhi o‘zining shakllanish bosqichiga kiradi[15]. Oltin O‘rdaning janubi-sharqiy qismlaridagi yuzlab turkiy va turklashgan mo‘g‘ul urug‘larini o‘z ichiga olgan ushbu aholi guruhi orasida “92 o‘zbek urug‘i” tushunchasi shakllana boshlab, dastlab o‘rta va quyi Sirdaryo havzasi – Orolbo‘yi – Volga-Uralbo‘yi hududlaridagi aholiga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, XVI asr boshlariga kelib Abulxayr xonligi (O‘zbek ulusi)ning vorisi Muhammad Shayboniyxon Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i, Afg‘oniston va Xuroson hududlaridagi Temuriylar saltanatiga barham bergach, “o‘zbek” nomli aholi ushbu hududlarning sezilarli bir qismiga ko‘chib o‘tadilar.

Xulosa qilib aytganda XV – XVI asrlarda Markaziy Osiyoda, xususan, uning shimoli-g‘arbiy hududlarida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va etnik jarayonlarni o‘rganish uchun yozma manbalar yetarli. Faqat ular yetarlicha o‘rganilmagani uchun bu davr tarixini yoritishda bir qator muammolarga duch kelinadi. Aslida mamlakatimiz hududida keyingi asrlarda bo‘lib o‘tgan siyosiy voqeliklar ayniqsa, turli o‘zbek urug‘larining u yoki bu vohada joylashuvi bilan bog‘liq masalalarni yoritish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ибрагимов С.К. Сочинения Масъуда бен Османи Кухисатни “Тарихи Абулхайр-хани” // Известия АН Казахской ССР. Серия истории, археологии и этнографии: журнал. – Алма-Ата, 1958. – № 3.
2. Султанов Т.И. Кочевый племена Приаралья в XV – XVII вв. – М.: Наука, 1982.
3. Хуршут Э.У. “Тарих-и Кипчак-хани” – важный источник по истории Средней Азии и Северного Афганистана XVI – XVII вв. – Ташкент, 1982.
4. Абулғозий. Шажарайи турк. Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б. Аҳмедов. Нашрга тайёрловчилар: Қ. Муниров, Қ. Маҳмудов. – Тошкент: Чўлпон, 1992; Абулғозий.Шажарайи Тарокима. – Тошкент: Чўлпон, 1995.
5. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи Н. Даврон. – Тошкент, 1961.
6. Шараф ад-дин Али Йезди. Зафар-наме / пер. с перс. Е.А. Поляковой // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988.
7. Мирзо Мухаммад Хайдар. Та'рихи Рашиди / пер. с перс. Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 185-214.
8. Мирзо Мухаммад Хайдар. Та'рихи Рашиди / пер. с перс. Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 185-214.
9. История Центральной Азии в османских документах. Том I. Политические и дипломатические отношения. Самарканд: МИЦАИ, 2011.
10. Статейный список посольства в Бухарию дворянина Ивана Хохлова (1620–1622 гг.) //Сборник князя Хилкова. – Санкт-Петербрг, 1879. Яна История

Узбекистана в источниках. Известия путешествивников, географов и учёных XVI– первой половины XIX в. – Ташкент: 1988. – С. 47. (Статейный список русского посола в Бухару И.Д. Хохлова (1620-1622гг.)).

11. Дженкинсон А. Путешествие в Средню Азию 1558-1560 гг. // В кн.: Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Перевод с английского Л. Готье. – Ленинград,1932. – С.167-215.

12. Голосов Д. Поход в Хиву 1717 г. отряда под начальством лейб-гвардии Преображенского полка, капитана, князя Александра Бековича Черкасского // Военный сборник, 1861. – Ташкент, XXI. – С. 303-364; Дело 1714-1718 гг. об отправлении лейб–гвардии Преображенского полка капитана–поручика, князя Александра Бековича Черкасского на Каспийское море и в Хиву. Документы и материалы Военно-ученого архива Главного штаба. – Ташкент, 1. – Санкт-Петербург: 1871. – С. 197-506.

13. Бекмуродов С.Т. “Таварих-и гузида – Нусратнома” асари Марказий Осиё тарихи ҳақида маълумот берувчи манба сифатида // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Vol. 2, Issue 8. Scientific Journal Impact Factor. – Тошкент, 2022. – Б. 136.

14. Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965; Абусеитова, М. Х. История Казахстана и Центральной Азии: учеб. пособие / М. Х. Абусеитова и др. – Алматы: Дайк-Пресс, 2001.

15. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатийа» // Средняя Азия в древности и средневековье. – М.: Наука, 1977. – С. 165-176; Трепавлов, В. В. История Ногайской Орды. – М.: Изд. фирма «Восточная литература» РАН, 2002.

MUNDARIJA

Kirish……. 3

1-sho‘ba. Ta’lim tizimini takomillashtirish: dolzarb tendensiyalar va strategik yo‘nalishlar

1. *O.X.Turakulov*. Oliy ta’limda yuqori sifatni ta’minlash xalqaro nufuzga erishishning yagona yechimi…… 5
2. *M.Q.Raxmanova*. Talabalarning ijodkorligini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari……. 7
3. *D.A. Alibekov*. Ta’limni rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalarining o‘ziga xosligi…..……. 12
4. *O.X.Turakulov, D.R.Najmiddinov*. Iqtisodchi kadrlarning kompetentligini oshirishning usullarini takomillashtirish ……. 15
5. *N.N.Alimov, R.A.Boqiyev*. Professional ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini innovatsion metodlar asosida takomillashtirishning dolzarbligi ……. 18
6. *A.A.Karshiyev, M.A.Qurbonov*. Ta’lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanishning metodikasi..... 20
7. *A.A.Karshiyev, D.Y.Ahmedova.* O‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi..... 24
8. *S.K. Mamanov.* Bo‘lajak muhandislar fazoviy tasavvurlarini rivojlanishining asosiy ko‘rsatgichlari ……..... 29
9. *A.I. Mustafoyev*. Bo‘lajak pedagoglarda mediasavodxonlikni shakllantirishning nazariy asoslari……..... 33
10. *M.O.Mustafoyeva*. Induvidual ta’lim trayektoriyasini ahamiyati…….. 36
11. *N.K.Normatov, X.A.Abdug‘offorov.* Dasturlash texnologiyalari asosida web ilovalar yaratish va talabalarni kasbiy faolyatga tayyorlash…….. 38
12. *O.S.Abdullayeva, D.U.Soliyeva*. Ta’lim tizimida intellektual tizimlardan foydalanish istiqbollari…… 42
13. *Sh.M.Pardayev*. Maktablarda o‘quvchilarning individual o‘quv natijalarini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari…… 45
14. *Z.B.Abduraxmanov*. Virtual laboratoriya komplekslari va fizik laboratoriya qurilmalari metodik ta’minotining qiyosiy tahlili…….. 49

2-sho‘ba. Biomuhandislik va biotexnologiyalar sohasida innovatsiyalar

15. *М.А.Акбаралиев, У.К.Иногамов, К.Т.Нормуродова*. Идентификация иммунотропных соединений природного происхождения очищенного субстанци эриксина …….. 52
16. *Q.T.Normurodova, M.O.Axmedova.* Orol bo‘yi hududlarida sho‘rga chidamli o‘simliklarni adaptatsiyalanishini ta’minlashda mikrobiologik o‘g‘itlarning ro‘li…… 54
17. *S.A.Begimqulova, Y.Sh.Norqulova*. Vitaminlarni xususiyati va insonga ta’siri ……..... 57

18. *Sh.X.Xasanov, O.Sh.G‘offorov*. Biologik namunalarni tezlashtirilgan elektronlar bilan nurlantirish uchun mo‘ljallangan qurilma…….. 60
19. *O.Sh.G‘offorov.* Ionlashtiruvchi nurlanish texnologiyalar vaktsinani ishlab chiqish uchun qisqacha sharh……..... 64
20. *A.I.O‘rolov, R.Sh.Gapparova, D.O‘.Ilhomova*. Gen injeneriyasining muvaffaqiyatlari va yutuqlari..……..... 67
21. *Sh.A.Imomova, D.H.Ahmedov, S.M.Tursunboyev*. Kartoshka o‘simligida uchraydigan kasallik turlari..... 71
22. *M.M.Mallayeva, M.A.Mustafakulov*. Toksik gepatitda lipidlarning peroksidalnish mahsulotlariga polifenollarning ta`siri……..... 75
23. *M.A.Mustafakulov, Z.U.Mamadaliyeva, M.A.Fayzullayeva* Transgen hayvon olish usullari……..... 78
24. *S.S.Murodova*. Biotexnologiyani o‘qitishdagi dolzarb muammolar..... 82
25. *Т.Н.Холмурадова, А.И.Ўралов, Ю.Ш.Ғаффоров, Ш.А.Тешабоева, И.Ю.Ўринбоев.* Доривор Наъматак (Rosa Canina L.) нинг халқ табобатида қўлланиши ва унинг занг замбуруғлари……. 84
26. *F.B.Salimova, I.E.Mamatkulova*. Olachipor barg karrak (silybum marianum L) o‘simligining ontogenez bosqichlari…….…….. 87

3-sho‘ba. Raqamli iqtisod va innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning dolzarb masalalari

27. *И.Х.Норматов, Р.Каримов, Э.Мирзахмедова.* Разработка алгоритм обнаружения и обезвреживания угроз на основе таблиц функционирования…….. 90
28. *U.X.Mingboev, A.A.Abdurasulov.* Infokommunikatsiya obyektlarining energiya tarmog‘ini kriptografik xavfsizligini ta’minlash..... 97
29. *A.M.Turgunov, Y.X.Xolmuminov, H.Q.Abdullaev, J.Yo.Rahmatullaev, A.I.Abdulxamidov, A.A.Berdiqulov*. Revolutionizing X-Ray analysis: the role of computer vision in detecting fractures, Tumors and Abnormalities..... 100
30. *A.M.Turgunov, Y.X.Xolmuminov, A.I.Abdulxamidov, A.A.Berdiqulov, H.Q.Abdullaev, J.Yo.Rahmatullaev.* Effective models for detection of Viral Hepatitis B by computer vision…… 105
31. *S.X.Aliboyev, A.S.Mardiyev.* Videokuzatuv maydonini avtomatik tahlil qilish..... 109
32. *O.A.Kayumov, N.R.Kayumova, D.F.Xodjabekova*. O‘zbek imo-ishora tilini (UZSL) tanib olishdagi metod va algoritmlar..... 111
33. *M.Q.Allayarova, L.I.Irmatova.* O‘zbekistonda axborot infratuzilmasi va uning kiberxavfsizligi …….. 116
34. *T.T.Aynakulov, Q.K.Norqo‘ziyev, L.U.Abdurashidova.* Mobil hisoblash platformasiga asoslangan aqlli binaural eshitish apparati arxitekturasi..... 119

35. *T.T.Aynakulov, L.U.Abdurashidova, J.U.Abdurashidov.* Tasvirlarni tanib olishning dolzarbligi hamda tasvirlarga raqamli ishlov berish…. 123
36. *J.R.Baratov, D.Sh.Xudoyqulov, A.E.Avazov.* DSA algoritmidan foydalanib xavfsiz bo‘lmagan tarmoq orqali ma’lumotlar uzatishning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish ……... 126
37. *S.O.Bo‘ltakov, Sh.B.Asrayev.* O‘zbekistonning eksport faoliyatini rivojlantirishda eksportni rag‘batlantirish agentligining o‘rni……... 132
38. *A.A.Abdumalikov, A.H.Tojiyev, M.Sh.Xayrullayeva.* Telekommunikatsiya obektlarining energiya samaradorligini amalga oshirishning model va algoritmlari…….…….... 136
39. *Sh.M.Matchonov, T.N.Asatov, A.Sh.Burhonov.* BI tizimlarining afzalliklarini baholash uchun mashinali o‘qitish modellari ……..... 142
40. *G‘.H.Choryorqulov, Sh.N.Qobilova.* Kompyuter tarmoq texnologiyasida sun’iy intellektni qo‘llash……... 145
41. *A.H.Ko‘chimov, M.S.Ermatov.* Kompaniyalarni boshqarishning innovatsion usullari…… 151
42. *S.Gaybullayev.* Factors affecting the participation of countries in the international division of labor and development indicators..... 154
43. *S.X.Aliboyev, D.A.Gulmurodova, Sh.A.Gulmurodova.* Zamonaviy web ilovalarda autentifikatsiya dasturiy vositalarini qo‘llash……... 158
44. *U.X.Mingboyev, D.A.Gulmurodova, Sh.A.Gulmurodova.* Boshlang‘ich maktabda mobil ta’limdan foydalanish: bu muhimmi?.... 160
45. *U.F.Hakimov.* Soliq qarzdorligini undirishda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish……..... 163
46. *U.F.Hakimov.* Mamlakatda soliq qarzdorligini qisqartirish amaliyotini raqamlashtirish yo‘llari ……... 166
47. *O‘.H.Halimov, M.Y.Raxmonova,* Matlab amaliy dasturida limitlarni hisoblash…… 169
48. *F.R.Hamdamov, S.Sa’dullayeva.* Grafikli matematik masalalarni yechishda Maple dasturidan foydalanish……... 171
49. *U.A.Irgasheva, Z.A.Iskandarova, R.Sh.Xudoyshukurova.* Zamonaviy algoritmlarda Turing mashinasi algoritmidan foydalanish…… 174
50. *D.B.Matkarimova, Z.Sh.Islamova, I.A.Nabiyeva, F.Sh.Abdugapporova.* Belgilangan raqamli ranglarni xosil qilishning innovatsion texnologiyasi…….. 177
51. *N.A.Jabbarov.* Android ilovalarini xavfsizlik xususiyatlari tahlili: SSO protokoli misolida……..... 180
52. *О.Х.Туракулов, Д.М.Жомуродов.* Использование электронных ресурсов в обучении программированию на платформе Arduino: методика и эффективность……..…….....…… 185
53. *M.T.Jo‘rayev.*Tarmoq trafigini monitoring qilish va tarmoq paketlari tahlili…….. 190
54. *A.A.Karshiyev, M.A.Abduhakimov.* Avtomobillarning ro‘yxatga olish raqamlarini aniqlash uchun o‘zgartirilgan algoritm……..... 193

55. *A.Kurbanov*. Unlocking emotional Cues: methods for analyzing human body movements in emotion recognition…….. 196
56. *Sh.S.Mahkamov, T.T.Aynakulov, J.R.Baratov.* Androidda model view presenter (MVP) arxitekturasi……..... 199
57. *Sh.A.Mansurov.* Kriptovalyutalar-raqamli pul: afzalliklari va kamchiliklari…….. 202
58. *I.M.Meliboyev, M.M.Xusenov.* Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat mulkni xususiylashtirishni rivojlantirish va uning iqtisodiy samarasi……. 207
59. *D.R.Najmiddinov.* Revolutionizing economics education: empowering future economists through modern technologies ……. 209

4-sho‘ba. Psixologiya, tabiiy va aniq fanlar sohasida dolzarb tadqiqotlar

60. *U.X.To‘raqulov, X.Sh.Erkinboyeva.* Nikoh va oilaviy munosabatlarning rivojlanish tarixi……..... 215
61. *N.I.Qobilova.* Psixologik travma va ularning sabablari……..…… 218
62. *Х.Шарипов, Д.Пайзикулова.* Методические рекомендации по обучению геометрических построений…….. 220
63. *Ш.Хуршид, М.Асадова*. Поверхности каталана…….. 223
64. *Х.Шарипов, Н.Эргашев*. Задачи построения на оскости циркулем с ограничением……. 227
65. *Х.Шарипов, Д.Ортикбоева.* Методические рекомендации по решению задач на построение в плоскости…… 229
66. *Z.Murtazaeva, A.Buronov, K.Bozorov.* Synthesis of Tricyclic Pyrazolo [4,5-D] Pyrimidinones by reaction of Pyrrolidone-2 and Ethyl esters of 5-Amino-1-N-Aryl-1H-1,2,3-Triazoles……. 233
67. *M.Sh.Adilova, H.F.Pardayev, X.X.Mamarasulova.* O‘smirlik davrining psixik holatlari (irodaviy holatlari)……..... 238
68. *M. Sh.Adilova, F.D.Qo‘chqarova, Y.O.Muhiddinova.* Inklyuziv ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining vazifalari va ularni psixologik,pedagogik qo‘llab quvvatlash..... 243
69. *M. Sh.Adilova, D.A.Boymatova*. Talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda kreativ fikirlarni ahamiyati……... 249
70. *A.Sharafitdinov*. O‘smirlik davridagi emotsional intellekt xususiyatlari..... 253
71. *K.R. Bekchanova*. Maktabgacha yoshdagi bolani yetakchi faoliyat turning rivojlanishi……..... 257
72. *U.A. Karakulova, O‘.J.Esanova, G.G‘.Xojiqulova.* Infantil xulq-atvorning asosiy xususiyatlari va belgilari……..... 260
73. *Ш.А.Имомова, Б.Б.Байзакова*. Физиология эмоций……. 263
74. *R.U.Otamuratov, A.A.Muhammadiyev*. Psixologiyada shaxs muammosi…….. 266
75. *R.U.Otamurodov, M.A.Husanova.* Demensiya sindromi kasalligini kelib chiqishi…….. 269

76. *R.U.Otamurodov, M.Husenova.* Malakatimizda inklyuziv ta'lim taraqqiyoti…….. 271
77. *F. Almuratov, A. Bahriddinova, M. Amrilloyeva, M. Annaqulova* Asymptotics of eigenvalues of rank-one perturbations operator on lattice…….. 275
78. *F. Almuratov, E. Nurmanova, R. Erkinova,S. Matkarimov* Expansion of eigenvalues of schrödinger-type operators on lattices…….. 278
79. *D.X.Xoljigitov, K.Y.Xolmanova, L.Omonova, G'.K.Tog'ayev.* Diofont tenglamalarini yechishda zanjirli kasrlar xossalaridan foydalanib yechish usullari..... 282
80. *Sh.E.Yuldashev, G.M.Cho'tboyeva.* Ekologik muammolarning shaxs psixologiyasiga ta'siri…….. 288
81. *G.G'.Rashidova, Sh.T.Choriyorova.* Iroda nazariyalari l.S. Vigotskiyning Iroda rivojlanishiga qo'shgan hissasi ……. 291
82. *N.D.Samatova, S.Q.Sufxiddinov.* Tafakkurning bilish jarayonlari tizimidagi o'rni …… 296
83. *N.D.Samatova, S.O.Abdurasulova.* Agrissiv hatti – harakatlar va maktablardagi zo'ravonlik ……..... 300
84. *С.З.Юлдашева, С.А.Абдужалилова, А.Х.Мирзаахматов.* Психология родительских отношений …….. 304
85. *L.B.Shovxiyev.* A.V.Uxtomiskiyning "Dominanta konsepsiyasi"…….. 307
86. *T.A.Nuraliyev, S.H.Alimov, M.X.Turg'unboyeva, F.B.Qarshiyeva.* Oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechishning taqribiy-analitik usuli: Galyorkin usuli ……..... 312
87. *D.I.G'ulimitdinov, M.Abdullayeva.* Yoshlarda intelektual bilimlar, yangi g'oyalarni rivojlantirishda psixologik xususiyatlarni o'rganish… 315

5-sho'ba. Zamonaviy jamiyatda filologiya, tilshunoslik va didaktika

88. *G'.Q.Mirsanov*. Kognitiv lingvistika va matematika munosabatlari….. 322
89. *M.A.Turayeva.* Speaking is an essential skill in foreign language teaching..... 324
90. *Sh.G.Absalamova*. Literary analysis of french terms..... 327
91. *Sh.I.Mamayusupova*. Flesch Rudolf's contribution to education for the development of modern science..... 330
92. *N.M.Niyatova*. Literary norm and speech culture..... 334
93. *N.M.Niyatova*. The main qualities of the speech..... 337
94. *X.I.Tugalov, J.B.Hotamova*. Badiiy ijodda ziddiyatning (ko'nflikt) o'rni..... 340
95. *Р.И.Авясова, А.И.Шакирджанов.* Развитие науки переводоведения (на примере передачи английских военных аббревиатур на русский и узбекский языки)..... 345
96. *A.N.Parmonova*. The symbolic dimensions of treasure in english proverbs: a cultural and linguistic analysis..... 349
97. *S.G.Azamatova*. Grammatical category of number in german language..... 351

98. *X.T.Bo‘ronova*. O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi tibbiy terminlarining genetik tahlili..... 355
99. *M.E.Kenjaev*. Ilovali konstruksiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari..... 358
100. *S.R.Axmedova*. Chet tilini o‘rganishda kommunikativ kompetentsiya turlarining ahamiyati..... 360
101. *М.Н.Эрназарова*. Концепция родины в поэзии сергея есенина и эркина вахидова межкультурный анализ стихотворного цикла "персидские мотивы"..... 365
102. *М.Н.Эрназарова, M.Sarvarova*. Взаимосвязь между математикой и русским языком: интердисциплинарные подходы в образовании 367
103. *Л.Ф.Халилова*. Онтогенез диалогической речи при обучении иностранного языка..... 370
104. *N.Z.Teshaboyeva, F.G.Eshkobilova*. Different types of dictionaries and their characteristic features..... 372

6-sho‘ba. Zamonaviy gumanitar ta’limning dolzarb muammolari

105. *I.X.Tugalov, S.X.Usmonova.* Bag‘rikenglik-millatlararo va dinlararo munosabatlarda inson huquqlariga rioya etishning huquqiy tamoyili.... 379
106. *B.G‘.Rasulov.* Turkiston hududiga F.K.Girs reveziyasining amalga oshirilish masalalari……. 389
107. *E.A.Vishnyakova*. Modern interactive means of teaching russian as a foreign language……. 392
108. *Е.В.Волкова*. Методология становления фонетических навыков на уроках английского языка в школе……..... 394
109. *A.A.Xojaeva*. Xotin-qizlar huquqbuzarligini oldini olishda gender omillar…… 397
110. *I.U.Turdiyev*. Dashti-qipchoqda XV – XVI asrlarda yuz bergan etnik jarayonlarning manbashunosligi va tarixshunosligi……..... 399
Mundarija……... 405